

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**Rahima Mavlonova
Nargiz Rahmonqulova**

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA
PEDAGOGIKA, INNOVATSIYA,
INTEGRATSIYA**

O‘QUV QO‘LLANMA

Boshlang‘ich ta‘lim mutaxassisligi:

Magistratura yo‘nalishi: 5A111701

Bakalavriyat yo‘nalishi: 5111700

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2013

Taqrizchilar:

E.Turdiqulov – p.f.d., professor.

M.B.O‘razova – p.f.n., dotsent.

Mazkur o‘quv qo‘llanma «Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi, innovatsiyasi va integratsiyasi» fanining «Pedagogika», «Innovatsiya», «Integratsiya» bo‘limlarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, unda «Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi, innovatsiyasi va integratsiyasi» fanining mazmuni, maqsad va vazifalari yoritilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma mustaqillik mafkurasi g‘oyalari asosida bayon etilgan.

O‘quv qo‘llanma pedagogika universitetining «Boshlang‘ich ta‘lim» mutaxassisligi o‘qituvchilariga, magistrantlariga va bakalavriyat yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan.

KIRISH

O'zbekiston mustaqillik yillarida iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy rivojlanishning o'ziga xos yo'liga ega bo'ldi. Bu yo'ldagi chuqur o'zgarishlar barcha jabhalarga shiddat bilan kirib bormoqda.

Prezident I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek: «Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma'naviyat olami yangi ma'no-mazmun bilan boyib boradi. Boshqacha aytganda, har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot – bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi, ma'naviyatning shakllanishida o'ziga xos ta'sir o'tkazadi»¹.

Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni shakllantirish ertangi taqdirimizni belgilab beruvchi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov Oliy Majlisning XIV sessiyasida «yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni nazorat ostiga olish zarur»-ligini alohida ta'kidladilar.

Shu o'rinda bizga milliy pedagogikamizning jadal sur'atlarda taraqqiy etishi, ta'lim-tarbiya jarayonining rivojlanishida o'zining boy meroslarini qoldirgan qomusiy olimlardan al-Buxoriy, at-Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, az-Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ogahiy, Abdulla Avloniy singari ulug' olim-u adiblarning betakror asarlaridan foydalanish imkoniyati yaratildi. Ular ta'limdagi milliy xususiyatlarga alohida e'tibor berishgan.

Mustaqillik yillariga qadar ularning pand-o'gitlari yetarli darajada o'rganilmadi. Tarixdan ma'lumki, bir vaqtlar Sharq pedagogikasi nihoyatda gullab-yashnagan. Olmon olimi Xerler «Sharq Yevropaning muallimidir» deganida ana shu rivojlanish davrlarini ko'zda tutgandir, ehtimol.

Bobokalonlarimiz yosh avlod tarbiyasi borasida dorilfunun yaratib qoldirganlar. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi sanalmish «Avesto»dan tortib to hozirgi kunda yashab ijod etayotgan pedagog-olimlar asarlarida nekin pedagogik mafkura o'z aksini topgani bejiz emas.

¹ I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008, 40, 41-b.

Bugungi kun o'zbek pedagogikasi millat ruhiyatidagi nozik jihatlarni hisobga olgan va dunyo tarbiyashunosligidagi eng so'nggi yutuqlarga tayangan holda taraqqiy etmoqda. Zamonaviy o'zbek pedagogikasida barkamol insonni shakllantirish rasmiy ravishda bosh maqsad qilib belgilangan.

Prezidentimiz I.A.Karimovning «Barkamol avlod orzusi» va «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» nomli asarlarida «Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e'tibor qilinmasa, kelajak boy beriladi. Tarbiyadan hech narsani ayamaymiz. Ma'naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi, hammasining zaminida tarbiya yotadi»¹, degan fikrlarni ta'kidlaydi.

Ma'lumki, pedagogika jamiyatning rivojlanish qonun-qoidalariga tayangan holda taraqqiy etadi. Bugungi kunda esa ana shu jarayon avj pallasiga kirdi. Inson ongi taraqqiy etmas ekan, ijtimoiy hayot jabhalarida hech bir o'zgarish sezilmaydi. Modomiki, zamon jadal sur'atlarda o'zgarayotibdimi, demak, pedagogika ham shu o'zgarishlarga hamohang bo'lmog'i darkor. Shularni nazarda tutgan holda biz ushbu darslikni Sharq mutafakkirlari asarlaridan unumli foydalangan holda yaratdik.

¹ I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000. – 83-b.

I QISM

I BOB. UMUMIY PEDAGOGIKA

PEDAGOGIKA FANINING PREDMETI VA BAHSI

Pedagogika nima? U nima bilan shug'ullanadi? Nimalarni tadqiq qiladi, degan savollar pedagogika fanini o'rganishga kirishgan odamning aqlini band etadi. Pedagogikaga oid darsliklarda, qomuslarda pedagogikaning bahs tushunchasi turlicha, ayrim hollarda bir-biridan farqlanadigan darajada talqin qilinadi. Masalan, pedagogika – tarbiya haqidagi fan; pedagogika – o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash haqidagi fan; pedagogika – umuman insonni tarbiyalash haqidagi fan va hokazo.

Bu ta'riflardan voz kechmagan holda ta'lim-tarbiya muassasalarida shunga mutasaddi shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tarbiyaviy faoliyatni pedagogikaning bahsi deb qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogika tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaning mohiyatini tushunishni, uning qonuniyatlarini ochib berishni va shu orqali inson manfaatlarini uchun tarbiya jarayoniga ta'sir etishni nazarda tutadi.

TARBIYANING IJTIMOIIY HODISA EKANLIGI

Tarbiya kishilik jamiyati ibtidosida paydo bo'lgan va bashariyat manfaatlarini uchun xizmat qilib kelgan. Tarbiya avlodlar o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi. Kattalar turmush jarayonida orttirgan tajribalarini o'zidan keyingi avlodga o'rgatib borganlar. Kichik avlod esa o'z faoliyati davomida duch kelgan yangi-yangi muammolarning yechimini topish barobarida bilim va ko'nikmalarni egallab, oldingi avloddan meros qolgan bilimlarni yanada boyitib, o'zidan keyingi avlodga qoldiradi. Insoniyat tarixiy taraqqiyot mobaynida turli ijtimoiy bosqichlarni bosib o'tdi. Formatsiyalarning o'zgarishi natijasida ish va ishlab chiqarish munosabatlari taraqqiy etdi. Bu hol tarbiya jarayonining takomillashib borishiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Jamiyat taraqqiyoti, mehnat qurollarining takomillashishi natijasida keyingi avlodga meros qoldiriladigan tajribalar hajmi ham o'sib boraveradi. Agar ibtidoiy jamoa tuzumi boshlarida bolalar kattalarning mehnati jarayonida bevosita ishtirok etish bilan malaka, ko'nikma va bilimlarni egallab borgan bo'lsalar, keyinchalik ibtidoiy formatsiyalarning tabaqalanishi natijasida mehnat turlari ham o'zgarib bordi. Ayrim bolalarni (qabila boshliqlarining, diniy marosimlarni boshqaradigan shaxslarning

bolalarini) diniy marosimlarni ado etishga o'rgatish zaruriyati tug'ildi. Shunday qilib, ibtidoiy jamoa tuzumidayoq bolalarni tabaqalashtirish an'anasi paydo bo'ldi. Quldorlik davriga kelib, bu an'ana ko'zga yaqqol tashlandi. Masalan, qullarning bolalari og'ir ishlarni bajarishga o'rgatildi. Quldorlarning bolalari esa qullar ustidan hukmronlik qilishga tayyorlandi. Shu bois ularga saboq berish zaruriyati tug'ildi. Bu esa o'qitishga maxsus, shu sohani biladigan odamlarni jalb etishni taqozo qiladi. Bu hol maktab va o'qituvchilarga bo'lgan zaruratni keltirib chiqardi. Ijtimoiy formatsiyalarning keyingi ravnaqi maktablarni rivojlantirishga, jamiyat taraqqiyoti talabiga javob beradigan yangi-yangi o'quv yurtlarining barpo etilishiga olib keldi.

PEDAGOGIKA – TARBIYA HAQIDAGI FAN

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi yosh avlodni hayotga tayyorlash, ular tarbiyasini samarali amalga oshirish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu ehtiyoj borasida orttirilgan tajribalar to'plangandan keyin o'sha tajribalarni umumlashtirish, yoshlar tarbiyasi haqida qonun-qoidalarni ishlab chiqish zaruratini taqozo etadi.

Avvalo pedagogikaning nazariy kurtaklari falsafa negizida paydo bo'ladi. Ba'zi falsafiy fikrlar quldorlik jamiyatidayoq rivojlana boshlagan edi.

Qadimdan inson tarbiyasiga oid fikrlar xalq maqollarida, afsonalarda, dostonlarda o'z ifodasini topgan. Ularda rostgo'ylik, ota-onaga hurmat-ehtiroim kabi fazilatlar tarannum etilgan. «Alpomish», «To'maris» kabi doston va ertaklarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari ulug'lanadi. Ta'lim va tarbiya masalalari hamisha mutafakkir, yozuvchi, olimlar xayolini band qilib kelgan. Ular o'zlarining bola tabiati, ularni barkamol inson qilib tarbiyalash haqidagi yorqin mulohazalari bilan pedagogika fani ravnaqiga ulush qo'shganlar. Mashhur hind masali «Kalila va Dimna», Nizomulmulkning «Siyosatnoma», Nosir Xisravning «Saodatnoma», «Ro'shnoinoma», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilik», Mahmud Koshg'ariyning «Devon-u lug'atit turk», Ahmad Yugnakiy, Kaykovus, Alisher Navoiyning ko'pgina asarlari odob-axloqqa bevosita daxldordir. Bu allomalarning asarlari pedagogik fikrlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu asarlarda insonparvarlik, halol mehnat, do'stlik, chin muhabbat, sadoqat kabi yuksak axloqiy fazilatlar o'z aksini topgan. Suqrot, Aflotun, Demokrit kabi buyuk faylasuflar tomonidan murakkab falsafa tizimi yaratilgan.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishida chex pedagog olimi Yan Amos Komenskiyning hissasi katta bo'ldi. Uning «Buyuk didaktika» asari haqli ravishda pedagogika sohasida yaratilgan birinchi ilmiy asar

hisoblanadi. XVIII asrga kelib O'rtta Osiyoda ham pedagogik fikrlar taraqqiy eta boshladi. XIX asr boshlarida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Saidrasul Aziziy, Saidahmad Siddiqiy kabi ma'rifat jonkuyarlari yetishib chiqdi. Bu olimlar yangi usuldagi maktablar tuzish, darsliklar yaratish, xalq o'rtasida ma'rifatni targ'ib etishda jonkuyarlik qildilar.

Pedagogika fanining mazmunini boyitib va rivojlantirib boradigan qator manbalar mavjud. Ayniqsa, maqollar, ertaklar, dostonlar, ashulalar, udumlar va topishmoqlarda tarbiya haqidagi xalq donishmandligi qamrab olingan.

Allomalarning pedagogika nazariyasiga oid fikrlaridan fanda unumli foydalanilmoqda. Shu bilan birga, pedagogika fani yangi g'oyalar evaziga boyimoqda.

ASOSIY PEDAGOGIK TUSHUNCHALAR

Pedagogikada «tarbiya» so'zi turli ma'noda ishlatiladi. Chunonchi, tarbiya keng sotsial ma'noda, ijtimoiy hodisa sifatida qo'llanilganda jamiyatning barcha tarbiyaviy vositalarini: oilani, maktabgacha tarbiya muassasalarini, o'quv-tarbiya muassasalarini, mehnat jamoalari, axborot manbalarining tarbiya yo'nalishida olib boradigan harakatlarini o'z ichiga oladi. Bu tarbiya vositalari o'sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi.

Pedagogik adabiyotlarda va amaliyotda «tarbiya» so'zi aniq, tor yo'nalishni belgilash uchun ham ishlatiladi. Xuddi shu ma'noda tarbiyachi rahbarligida aniq maqsadga qaratilgan jarayon tushuniladi.

O'qitish – o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati va bu jarayonda bolalarning ma'lumot olishi, o'quv ko'nikma va malakasini egallashi, tarbiyalanib, rivojlanib borishi nazarda tutiladi.

Ma'lumot – bunda nafaqat o'qitish, balki mustaqil bilim olish, ommaviy axborotlar ta'sirida bo'lish bilan birga, insonning ilmiy tizimni egallashi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirishi ko'zda tutiladi.

Inson kamoloti – bu insonning keng ma'noda ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanish jarayonidir. Bu jarayonda tarbiyaning muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.

Insonning shakllanishi – bu insonning hayot yo'li davomida rivojlanishining o'ziga xos shakli bo'lib, maxsus olib boriladigan tarbiyaviy ta'sir natijasi hisoblanadi.

Pedagogikada yana bir qancha tushunchalar mavjudki, ular haqida keyingi sahifalarda fikr yuritiladi.

PEDAGOGIKA FANINING TUZILISHI VA UNING BOSHQA FANLAR BILAN BOG'LIQLIGI

Fan va texnikaning tez sur'atlar bilan rivojlanishi, turli yo'nalishlarda bilim hajmining o'sib borishi fanning tabaqalanib, turli tarmoqlarga bo'linishiga sabab bo'lmoqda.

Yaqin o'tmishda falsafadan ajralib chiqqan pedagogika fanida ham ko'pgina tarmoqlarga bo'linish jarayoni ko'zga yaqqol tashlanadi. Ayrim tarmoqlar esa mustaqil fan sifatida shakllanadi. Masalan, maktab pedagogikasi, maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Ayrimlari esa fan sifatida endi shakllanib kelmoqda. Kattalar pedagogikasi, oliy maktab pedagogikasi shular jumlasidandir. Hozirgi zamon pedagogikasi ko'p tarmoqli fan bo'lib, avvalo tarbiya ijtimoiy hodisa ekanligi jihatidan pedagogika tarixi bilan bog'lanadi. Pedagogikaning ko'zi ojiz, aqli zaif, qulog'i kar – jismoniy kamchiliklarga ega bo'lgan bolalarni tarbiyalash va ularni hayotga tayyorlash bilan shug'ullanadigan yana bir tarmog'i – maxsus pedagogika (surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofreno-pedagogika) defektologiya bilan chambarchas bog'liqdir.

Pedagogika fani tarmoqlariga predmetlarni o'qitishning qonuniyatlarini o'rganuvchi fan – metodika ham kiradi. Shu bilan birga, pedagogika fani boshqa fanlardan ajralgan holda rivojlana olmaydi. Pedagogikaning tarbiya sohasidagi obyekti o'sib kelayotgan yosh avlod bo'lganligi uchun pedagogika insonni o'rganuvchi fanlar bilan bog'liqdir.

Inson biologik evolutsiyaning mahsuli sifatida biologiya fanlarining o'rganadigan obyekti hisoblanadi. Shuning uchun bu fanlar pedagoglar o'rganishi lozim bo'lgan fanlar qatorida o'quv rejalariga kiritilgan.

Pedagogika fanining metodologik asosini falsafa tashkil etadi. Chunki tarbiyaning maqsadi ilmiy dunyoqarashni shakllantirish; jamoa va shaxs muammolari va shu kabilar ikki fanni birlashtiradi. Iqtisodiy va, xususan, uning bir bo'lagi bo'lgan xalq ta'limi iqtisodi pedagogika bilan bog'lanib ketadi. Chunki iqtisodchilarning olib borgan tadqiqotlari natijasiga ko'ra, ishlab chiqarishning yuksak samaradorligi umumiy ta'limning yuqori darajada rivojlanganligiga bog'liq ekan.

Pedagogika bola tarbiyasida uning yosh va individual (psixologik) xususiyatlarini hisobga olib boradi. Shu bois pedagogika uchun pedagogik psixologiyaning bola xususiyatlari, ularda o'tadigan psixik jarayonlarning qonuniyatlari haqidagi ma'lumotlar muhimdir. Shunga ko'ra, pedagogikaning psixologiya fani bilan bog'liqligi an'anaviy tus olgan. Keyingi vaqtlarda pedagogikaning kibernetika (muhim dinamik tizimlarni boshqarishni o'rganadigan fan) bilan bog'lanishi ko'zga tashlanmoqda. Bu holni

kibernetikaning umumiy g'oyalaridan ta'limda foydalanish tajribalarini dasturlashtirilgan ta'lim misolida ko'rish mumkin. Pedagogika fani taraqqiyoti pedagogika fanlari tizimini vujudga keltirdi. Bular:

Umumiy pedagogika, Maxsus pedagogika, Metodika, Pedagogika tarixi, Oliy ta'lim pedagogikasi, Qiyosiy pedagogika, Ijtimoiy pedagogika, Harbiy pedagogika.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan bog'lanish tizimida etnografiya, xalq pedagogikasi kabilar alohida o'rin tutadi. Pedagogika boshqa oraliq fanlar ma'lumotlaridan tayyor holda foydalanmaydi. Bu ma'lumotlar pedagogik nuqtayi nazardan tanlovdan o'tgandan keyin maqsadga muvofiq lashtirilgan holda amalda joriy etiladi.

PEDAGOGIKANING ILMYIY TADQIQOT METODI

Pedagogika o'z tadqiqot obyektiga va tadqiqot metodlariga ega. Ilmiy tadqiqot barcha fanlar kabi pedagogika fanini ham takomillashib borishiga, ayrim pedagogik hodisalarni tekshirishga, ularni to'g'ri hal etish yo'llarini aniqlashga yordam beradi. Hodisa uning taraqqiyoti davomida boshqa hodisalar bilan bog'liq holda o'rganiladi. Miqdor o'zgarishi sifat o'zgarishiga o'tish daqiqalarida kuzatiladi.

ADABIYOTLAR BILAN ISHLASH METODI

Pedagogik muammolarni tadqiq etish adabiyotlarni o'rganishdan boshlanadi. O'rganiladigan hujjatlar va manbalarga xalq maorifiga aloqador hujjatlar kiradi. Shu bilan birga, pedagogika faniga oid bo'lgan tarixiy-pedagogik adabiyotlar, arxiv hujjatlari, pedagogik matbuot materiallari, darsliklar, o'quv-metodik ishlanmalar ham kiradi. Adabiyotlarni o'rganish metodi muammolarning qay tomonlari yaxshi ochilganligini, qaysi masalalar hal etilmagani kabilarni bilish imkoniyatini beradi. Adabiy manbalar bilan ishlash quyidagi metodlardan foydalanishni nazarda tutadi: bibliografiya tuzish, annotatsiya, konspektlashtirish. Ishning maqsadidan kelib chiqqan holda yuqoridagi usullardan biri tanlab olinadi.

Bibliografiya – bu hal etilishi lozim bo'lgan muammoni tadqiq etish jarayonida zarur bo'lgan adabiyotlar ro'yxati. Adabiy manbalar bilan ishlash aniq ma'lumotlarni bibliografiya tuzish yo'li bilan rasmiylashtirishni talab etadi. Bunda ma'lumotlar muallifning ism-sharifi, asarning nomi, nashriyot nomi (maqolalar uchun jurnal va gazetalarning nomi), manzili va nashr etilgan yili ko'rsatiladi.

ILG'OR TAJRIBALARNI O'RGANISH METODI

Pedagogikaning ko'pgina muammolarini hal etishda ta'lim-tarbiya sohasida o'rnatilgan tajribalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg'or o'qituvchilar tajribasi bilan bir qatorda, oddiy o'qituvchilarning faoliyatlari ham o'rganib boriladi. Chunki tajribalarni o'rganish jarayonida muammo, yutuq va kamchiliklar aniqlanadi.

Pedagogik tajribalarni o'rganishda kuzatish, intervyu olish, anketalar tarqatish, o'quvchilarning yozma va ijodiy ishlari, pedagogik hujjatiarni o'rganish metodlaridan foydalaniladi.

Kuzatish – o'rganish lozim bo'lgan pedagogik hodisani ma'lum maqsad nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda kuzatuvchi kuzatish bayonnomasini olib boradi. Kuzatish obyektiga oid bo'lgan aniq faktik material tayyorlanadi. Kuzatish belgilangan aniq reja asosida olib boriladi.

Suhbat (fakt) dalillar to'plash yoki kuzatish davomida to'plangan materiallarga aniqlik kiritish maqsadida olib boriladi. Suhbat tadqiqotning mustaqil yoki yordamchi metodi sifatida qo'llaniladi.

Anketalar tarqatish. Bu ommaviy ravishda material to'plash maqsadida anketalar tarqatish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tadqiqot uchun muhim bo'lmagan materiallar o'quvchilarning yozma va bir qancha fanlar bo'yicha mustaqil ishlarni bajargan daftarlarini tekshirish, o'rganib chiqish yo'li bilan turlarga ajratilishi mumkin.

Maktab hujjatlarini o'rganish – o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, metodistning to'plagan ma'lumotlari, sinf jurnallari, kundaliklar, yig'ilish va majlislar bayonnomalari tadqiqoti uchun olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaning ahvoli, darajasi haqida obyektiv axborot manbai hisoblanadi.

Pedagogik hodisalarni tadqiq qilish jarayonida eksperiment (sinov) muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus tashkil etilgan eksperiment qo'llanilayotgan yoki qo'llanishi mumkin bo'lgan u yoki bu metod va usullar samaradorligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Matematik metod. Bu metod ommaviy materiallarni tahlil qilishda (masalan, anketalar tarqatish yo'li bilan to'plangan materiallarni yoki ma'lumotlarni umumlashtirish uchun) qo'llaniladi. U eksperiment natijalarining aniq baholanishini, xulosalarning ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari va ularni amalda tatbiq etish. Pedagogikada bu jarayon turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Chunonchi, tadqiqotchilarning seminarlarda, ilmiy konferensiyalarda tadqiqot natijalari bo'yicha ma'ruzalar bilan chiqishi, ilmiy maqolalar, kitoblar nashr etilishi, o'qituvchiga mo'ljallangan metodik tavsiyalar bo'lishi mumkin. Pedagogikada hali hal etilmagan muammolar juda ko'p. Bular ilmiy tadqiqot olib borish yo'li bilan hal etiladi.

PEDAGOGIK KATEGORIYALAR

Pedagogika – insonning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini shakllantirish bo'yicha professor-pedagogik tarkib tomonidan didaktik texnologiyalar va muntazam olib borilayotgan faoliyat asosida inson tajribasining maxsus tashkillashtirilgan va maqsadga yo'naltirilgan jarayoni haqidagi fandır.

Pedagogika fanining obyekti – borliqdagi muayyan soha va real hodisa va jarayonlar bo'lib, ularning o'rganilishi va asoslanishiga ilmiy fanlarning muayyan sohasi yo'naltirilgan bo'ladi. Pedagogika obyekti odatda faoliyatning ancha keng sohasi sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogikaning predmeti – pedagogik jarayon, ya'ni pedagoglar va o'quvchilarning bilimlarni ongli va mustahkam tarzda o'zlashtirishga yo'naltirilgan, maqsadga yo'naltirilgan, mazmunan boy va tashkiliy jihatdan nihoyasiga yetkazilgan o'zaro aloqalaridir.


Pedagogika fan sifatida uchta asosiy masalani, ya'ni ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, ta'lim va tarbiya shakl va metodlarini o'rganadi.

Pedagogik faoliyat vazifalari – pedagogik tizimni loyihalashtirish va qurish, ta'lim maqsadi va mazmunini asoslab, ularning metod, vosita va shakllarini asosli tarzda tanlashning dastlabki kurtaklarini – texnologiyasini yaratadi.

«Ta'lim texnologiyasi» o'z ichiga bilimlarni o'zlashtirishni, pedagogik maqsadni, mazmunli axboriy-predmet sathlarini tartibga solingan ko'pgina amallarni va harakatlarni o'z ichiga qamrab oluvchi integrativ tizim sifatida ta'riflanadi va tarbiya, o'qish, ta'lim kabi fundamental kategoriyani o'z ichiga qamrab oladi.

Pedagogik kategoriyalarni quyidagi shaklda tasvirlash mumkin:

Pedagogik kategoriyalar



Savol va topshiriqlar

1. Pedagogika nima bilan shug'ullanadi, nimalarni tadqiq qiladi?
2. Qaysi ulug' adiblar ta'lim-tarbiyaviy xarakterdagi asarlarni yaratganlar?
3. XX asrda O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotiga hissa qo'shgan olimlar kimlar edi?
4. Asosiy pedagogik tushunchalarni sanang va izohlang.
5. Pedagogika fanining qanday ilmiy tadqiqot metodlarini bilasiz?
6. Pedagogika fani nimani o'rganadi?
7. Pedagogikaning maqsad va vazifalari.
8. Pedagogikaning asosiy tushunchalari va o'zaro munosabatlari.

II BOB. O'QITUVCHI VA UNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI.

ZAMONAVIY MAKTAB O'QITUVCHISINING VAZIFALARI

Hozirgi zamon pedagogika fani oldida turgan muhim muammolardan biri – o'qituvchi va pedagogik mehnat sharoiti muammosi hisoblanadi. Chunki o'qituvchida barcha pedagogik g'oyalar mujassamlangan bo'lib, uning faoliyati orqali bu g'oyalar amalga oshiriladi va hayotga tatbiq etiladi.

O'qituvchining ko'p qirrali va murakkab faoliyati zahirida yosh avlodni odobli, axloqli qilib tarbiyalash, ularni bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa o'qituvchining xilma-xil faoliyatiga bog'liq: bolalarni o'qitish, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bilish va o'tkazish, ota-onalar o'rtasida pedagogik targ'ibot ishlarini olib borish va hokazo. Bularning hammasi o'qituvchidan chuqur bilimga ega bo'lishni, o'z sohasini, bolalarni sevishtirishni talab etadi.

Respublikamiz mustaqilligi e'lon qilingan sana – 1991-yil 31-avgust xalqimiz hayotidagi ulug'vor voqealardan hisoblanadi. Endi xalqimiz o'zining boy tarixi, madaniyati, urf-odatlarini o'rganish, targ'ib qilish, o'zligini anglash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu voqeadan so'ng ko'p sonli o'qituvchilar jamoalari oldiga Vatan ravnaqi uchun hormay-tolmay xizmat qila oladigan, Vatan yo'lida o'z jonini ham ayamaydigan yoshlarni tarbiyalash vazifasi ko'ndalang qo'yiladi.

Bu vazifa O'zbekiston Respublikasining: «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda Oliy ta'lim konsepsiyasida aniq belgilab berilgan. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan bo'lib, u 5 bo'lim va 34 moddadan iborat. Qonunning 5-moddasida pedagoglik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi aniq ifodalangan:

«Tegishli kasb-kor malakasiga ega bo'lgan, o'zida yuksak axloqiy sifatlarni mujassamlashtirgan kishilar pedagoglik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga egadirlar».

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim konsepsiyasida o‘qituvchi – mutaxassisning vazifalari quyidagicha belgilanadi: «Mutaxassis malakasi – chuqur umumiy bilim, keng dunyoqarash va kasb tayyorgarligi, kompyuter savodxonligi, o‘z bilimini tezlik bilan yangilash va to‘ldira olish qobiliyati singari omillardan tashkil topadi... Shular qatorida uning intizomi, mas’uliyat, ziyolilik, o‘z ishiga, mamlakati mustaqilligiga, Vatan va jahon taraqqiyoti yo‘lida ezgulik va adolatga sadoqat tuyg‘ularini ham tarbiyalash zarur». Bu vazifa va talablar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida, ayniqsa, to‘la mujassamlashgan bo‘lishi lozim. Zero, maktabga ilk bor qadam qo‘ygan bola dunyoning, hayotning qonun va qoidalarini, sir-asrorlarini o‘qituvchidan o‘rganadi. O‘qituvchi esa bolaga o‘z bilganini o‘rgatadi. Agar bolani chuqur bilimli, e‘tiqodli, madaniyatli qilib tarbiyalamoqchi bo‘lsak, shu fazilatlar o‘qituvchida mujassamlangan bo‘lmog‘i zarur. Shunday ekan, o‘qituvchi, umuman, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi qanday fazilatlariga ega bo‘lishi kerak, degan savol tug‘iladi. Bu savolga javob berishdan oldin o‘qituvchining hozirgi kunda jamiyatimizda tutgan o‘rni haqida fikr yuritsak.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan, 1-oktabr o‘qituvchilar va murabbiylar kuni deb e’lon qilindi. Bu voqea davlatimizda o‘qituvchilarning jamiyatda tutgan o‘rni naqadar yuksak ekanligidan dalolat beradi. Ilg‘or o‘qituvchilarimizga yuksak unvonlar, davlat mukofotlari berilmoqda, ularga mas’ul vazifalar ham yuklatilmoqda. Ayniqsa, respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin o‘qituvchining jamiyatdagi roli va mas’uliyati ortib bormoqda.

Keyingi yillarda pedagog xodimlarning maishiy sharoitini yaxshilash borasida qator hujjatlar qabul qilindi: imtiyozlar berildi, ularning ish haqi oshirildi, barcha turdagi maktab, hunar-texnika bilim yurtlari, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari pedagog xodimlari bilan mehnat shartnomasi tuzish tizimiga o‘tildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim konsepsiyasida mutaxassis vazifalari quyidagicha belgilangan: «...mutaxassis o‘z faoliyati, sohasidan qat’i nazar, ijodiy jamoalarda ishlay olish qobiliyatiga, menejment va marketing sohalarida tayyorgarlikka ega bo‘lishi, yangi texnologiyalarni joriy etishning xo‘jalik, ijtimoiy va madaniy jihatlarini aniq tasavvur qila olishi kerak». Ushbu fikrlar o‘qituvchilarga ham bevosita taalluqli. Chunki jamiyatimizda sodir bo‘layotgan tub o‘zgarishlar, bozor munosabatlariga kirib borishimiz o‘qituvchidan nafaqat kasbiy bilimlarni, balki iqtisodiy, yuridik, texnikaviy bilimlardan ham xabardor bo‘lishni taqozo qilmoqda. Bu o‘rinda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi xususida alohida to‘xtalmoq zarur.

O'QITUVCHI SHAXSIGA QO'YILADIGAN KASBIY TALABLAR

Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri – o'z kasbiga sadoqatligi, g'oyaviy e'tiqodligi, o'z kasbini sevishi uni boshqa kasb egalariidan ajratib turadi. Chunki maktabda ta'lim-tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi faqat o'qituvchiga, uning kasbiy tayyorgarligiga bog'liq.

O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o'zi o'qitayotgan predmetlarni chuqur bilishi, uning metodikasini o'zlashtirib olgan bo'lishi zarur. Predmetni va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi bolalarning shu predmetga bo'lgan qiziqishini oshiradi, o'qituvchining obro'yini oshiradi. O'quvchilar o'qituvchining o'z bilimlarini bolalarga yetkaza olish imkoniyatlarini qadrlabgina qolmay, balki uning fidoyiligini ham taqdirlashadi.

O'qituvchining yuksak madaniyati, uning teran bilim doirasi (ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xalqimizning o'z tarixi, madaniyati, urf-odatini o'rganishga, bilishga bo'lgan qiziqishi ortib borayotgan davrda) ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi. Hozirgi zamon o'qituvchisi va ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi milliy qadriyatlarimizni bilibgina qolmay, keng ota-onalar jamoatchiligi ichida, sinfda uning otashin targ'ibotchisi ham bo'lishi kerak.

O'qituvchi kasbiga xos bo'lgan muhim talablardan biri – bolalarni sevish, ularning hayoti bilan qiziqish, har bir shaxsni hurmat qilishdan iboratdir. Bolani sevgan, butun kuch va bilimni bolalarning kelajagi, ularni Vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan insongina haqiqiy o'qituvchi bo'la oladi. Bolaga befarq, uning kelajagi bilan qiziqmaydigan, o'qituvchilik kasbiga loqayd inson haqiqiy o'qituvchi bo'la olmaydi. «Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi»da boshlang'ich sinf o'qituvchisining qiyofasi quyidagicha ta'riflanadi: «...eng muhimi, bolalarda o'qish, o'rganishga chinakam havas. ishtiyoq uyg'otuvchi, e'tiqod hosil qiluvchi ustoz sifatida alohida o'rin tutadi». Bu konsepsiyada boshlang'ich sinf o'qituvchisiga qo'yiladigan quyidagi talablar ham keltiriladi:

– O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat ekaniga ishonadigan milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lishi;

– bolalarni xalq pedagogikasi dardonlari hamda milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiya qila olishi;

– nutqi ravon, xalq tili boyligi, ifoda usuli va tasvir vositalarini, adabiy til uslub va me'yorini to'la egallagan bo'lishi zarur.

O'qituvchilik kasbiga xos bo'lgan bunday fazilatlarini undagi pedagogik odob shakllantiradi. Pedagogik odob o'qituvchining yuksak kasbiy


fazilatidir. U o'qituvchining sabotli bo'lish, o'z hissiyotini idora qila olishi, bolalarga pedagogik ta'sir o'tkazish vosita va me'yorlarini belgilashi va aniqlashiga yordam beradigan fazilat hisoblanadi. Yuksak pedagogik odobga ega bo'lgan o'qituvchigina sinfda mo'tadil psixologik iqlim o'rnatiladi, bolalar qalbiga tez yo'l topa oladi. Pedagogik taraqqiyotning samarali bo'lishi o'qituvchidan quyidagi qobiliyat turlarini talab qiladi:

1. Bilish qobiliyati.
2. Tushuntira olish qobiliyati.
3. Kuzatuvchanlik qobiliyati.
4. Nutq qobiliyati.
5. Tashkilotchilik qobiliyati.
6. Obro' orttira bilish qobiliyati.
7. To'g'ri muomala qila olish qobiliyati.
8. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati.
9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati.


O'qituvchi tashkilotchilik fazilatiga ham ega bo'lmog'i lozim. Buning uchun o'qituvchi tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lib, har doim tetik, g'ayratli, o'z kuchi va imkoniyatiga ishongan bo'lmog'i zarur. Tashabbuskor va g'ayratli o'qituvchi bolalarni o'z orqasidan ergashtira oladi, o'quvchilar unga ergashadi. O'qituvchilik kasbi juda katta ruhiy va jismoniy kuch talab etadi, shuning uchun o'qituvchining salomatligiga ham ma'lum talablar qo'yiladi. O'qituvchining ovoz paychalari rivojlangan, ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lishi, uzoq vaqt tikka tura olishi, ko'p yurishi, epchil harakat qila olishi (ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilari) kerak. Chunki kichik maktab o'quvchilari tinib-tinchimaydigan, o'ta qiziquvchan, serharakat bo'ladilar. Bu sharoitda o'qituvchi ham shu xususiyatlarga ega bo'lmog'i lozim. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan umumiy talablar bilan bir qatorda, boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbining o'ziga xosligi ham ayrim muayyan talablarni keltirib chiqaradi. Chunonchi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi anatomiya, fiziologiya, maktab gigiyenasi fanlaridan xabardor bo'lmog'i, o'quvchilar faoliyatini shu fanlar tavsiyasi asosida tashkil etishi lozim (sinflari gigiyenik talabga javob berishi, o'quvchilar kun tartibi, ularning aqliy, jismoniy rivojlanishini kuzatish va to'g'ri yo'naltirish); o'qituvchi o'z nutqini idora qilishi; adabiy nutq me'yorlariga rioya qilishi, ovozining baland-pastligiga ahamiyat berishi (ortiqcha baland ovoz bilan gapirish ham, sekin gapirish ham bolalarni charchatib qo'yadi); nutqning jonli, ifodali bo'lishiga e'tibor berishi; bolalarni charchatib qo'ymaslik maqsadida darada ish turlarini tez-tez o'zgartira olishi, ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ib qilishi, ular bilan yaqindan aloqa o'rnatilishi (bu faoliyat turi boshlang'ich sinf o'quvchilarining xulq-atvorini, mayllarini, jismoniy holatini o'rganishga yordam beradi) va ularga ta'biy aviy

ta'sir o'tkazishga yordamlashishi kerak. Nihoyat, u o'z ustida tinmay ishlamo'g'i lozim. Ayniqsa, qadriyatlarimizni o'rganishga, o'zligimizni tanishimizga, qadimiy madaniyatimizni bilishga ehtiyoj katta bo'lmoqda, zero, bu narsalarni bilmay turib mustaqilligimizni mustahkamlab, buyuk davlat qurib bo'lmaydi. Shunday ekan, boshlang'ich sinfdan boshlab bolalar sharqona tarbiya ta'siriga olinmog'i, milliy qadriyatni bilmog'i lozim. Bu o'qituvchidan shu sohada chuqur bilimga ega bo'lishni talab etadi.

O'qituvchining shaxsiy ma'naviy-axloqiy sifatlari bilan o'qituvchining kasbiy-ma'naviy-axloqiy sifatlari yaqqolroq tasavvur qilish uchun quyidagi jadvallarga e'tibor qaratamiz:



O'qituvchining kasbiy shakllanishi kolleжда ta'lim olish jarayonidan boshlanadi. Kollejning o'quv reja va fanlar bo'yicha dasturlarida bo'lajak o'qituvchilarga shu kasbning sir-u asrorlarini o'rgatish, nazariy bilimlar berish va ko'nikmalar hosil qilish nazarda tutiladi. Ta'lim jarayonida fanlar bo'yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashgagina emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo'llashga ham imkon beradi. Bunday mashg'ulotlar tanlangan kasb to'g'ri ekaniga ishonch hissini uyg'otadi. Ko'pgina talabalar I kursdan boshlab pedagogika va psixologiya fani bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etiladi. Ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etilgan tadqiqotchilar o'tkaziladigan seminar va konferensiyalarda ma'ruzalar bilan qatnashadilar, shuningdek, kasbiy yo'nalishga ega bo'lgan jamoa ishlarida ishtirok etadilar.



Ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etilgan tadqiqotchilar o'tkaziladigan seminar va konferensiyalarda ma'ruzalar bilan qatnashadilar, shuningdek, kasbiy yo'nalishga ega bo'lgan jamoa ishlarida ishtirok etadilar. Talabalar bilan olib boriladigan bunday tadbirlarning muhim ahamiyati shundan iboratki, bu tadbirlar topshirilgan ishga jiddiy yondashish hissini tarbiyalaydi.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy shakllanib borishida 1-kursdan boshlab o'tkaziladigan uzluksiz pedagogik amaliyot alohida ahamiyatga ega. Bu amaliyot 1, 2- kurslarda amalga oshiriladi. Uning asosiy maqsadi o'qishning birinchi yilidan boshlab talabalarni maktabga o'rgatish, o'qituvchilik kasbidan xabardor qilib borishdir, qolaversa, uzluksiz amaliyot kasb tanlashga yo'llash vazifasini ham o'taydi. Bunday amaliyotlar birinchi kursning o'zidayoq: tanlagan kasbim to'g'rimi? Shu kasbni egallashga menda imkoniyat va xohish bor edimi, degan savollarga javob qaytarish imkoniyatini beradi. Bunday amaliyot davomida talabalar maktab va sinf jihozi, sinf o'qituvchisining ish tartibi, plan-konspekti, o'quvchilar tarkibi, ularning uy sharoitlari, darslik va o'quv qurollari bilan ta'minlanganligi kabilar bilan tanishadilar. O'qituvchining darslarini kuzatadilar, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda o'qituvchiga yordam beradilar, maktabda kuni uzaytirilgan guruhlar bo'lsa, shu guruh tarbiyachilari ishi bilan tanishib boradilar. Ota-onalar majlislarini tayyorlashda va o'tkazishda o'qituvchiga yordam berishadi. Xulosa qilib aytganda, uzluksiz pedagogik amaliyot talabalarni o'quv-pedagogik amaliyotga tayyorlab beradi.

O'qituvchining kasbiy shakllanish jarayonida maktab rahbariyati va jamoatchiligi katta rol o'ynaydi. Yosh o'qituvchilarga tajribali o'qituvchilarni biriktirib qo'yish, ularning darslarini kuzatish, metod-birlashma ishlariga jalb etish maktab rahbariyatining vazifasidir. Maktabda o'qituvchining o'z ustida ishlashiga, ilmiy-nazariy va metodik bilimlarini tinmay oshirib borishiga katta ahamiyat beriladi. O'qituvchi asta-sekin o'z kasbini o'zlashtirib borish bilan birga, ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ib etadi.

O'qituvchilik kasbga kirish va pedagogik mahoratni egallash jarayoni uni maktab o'qituvchilari jamoasiga kiritib, unda o'z o'rnini topib keta olishiga bog'liq. Jamoaning yordamidan yuz o'g'irmaslik, qiyinchiliklarga duch kelganda ruhan tushmay, o'z xatolarini ko'ra bilish va uni yo'qotish uchun harakat qilish uning o'qituvchi bo'lib shakllanishidan darak beradi.

Shu bilan birga, o'z-o'zini tarbiyalab borishga, o'z ustida tinmay ishlashga harakat qilish kasbiy fazilatlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

«O'zbekiston Respublikasi davlat ta'limi muassasalari pedagog kadrlarning attestatsiyasi to'g'risida» nizom ishlab chiqildi va bu nizom 1993-yil 12-avgustda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlandi. Attestatsiya o'qituvchilar va boshqa pedagog xodimlarga mehnatlarining pirovard natijasiga ko'ra ish haqi olish imkonini, agar pedagog ta'lim va tarbiya jarayonida yaxshi ishlasa, uning mehnati e'tibordan chetda qolmasligiga kafolat beradi.

Savol va topshiriqlar

1. O'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablarning ortib borishi nima bilan bog'liq?
2. Kasbiy layoqatlilik deganda Siz nimani tushunasiz?
3. O'qituvchining asosiy sifatlarini sanab bering.
4. O'qituvchining jamiyatda tutgan o'rni haqida gapiring.
5. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan asosiy talablar nimalardan iborat?
6. Zamonaviy maktab o'qituvchisining vazifalari nimalardan iborat?
7. O'qituvchining ma'naviy qiyofasi deganda nimani tushunasiz?
8. Ma'naviyat deganda nimani tushunasiz?

III BOB. DIDAKTIKA

DIDAKTIKANING PREDMETI VA UNING VAZIFALARI

Didaktikaning predmeti ta'lim-tarbiya muassasasi sharoitida muallimning rahbarligi ostida amalga oshadigan o'quv jarayonidir. Didaktikada ana shu jarayonning qonuniyatlari tadqiq qilinadi, har xil tipdagi ta'lim-tarbiya muassasalarida u yoki bu darajada beriladigan ta'lim mazmunini belgilashning ilmiy asoslari, o'qitish vositalari va metodlarining samaradorligini oshirish yo'llari hamda ta'limning tashkiliy shakllari ishlab chiqiladi.

Didaktika pedagogikaning ta'lim va o'qitish nazariyasini ishlab chiqadigan tarmog'idir.

Didaktika yunoncha «didaktikos» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'qitish, o'rganish ma'nosini bildiradi. Yaqin va O'rta Sharqda Xorazmiy, Kindiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom kabi mutafakkirlar ilmiy didaktikaga asos solgan bo'lsalar, Amos Komenskiy, shveysariyalik pedagog I. G. Pestalossi, nemis pedagogi A. Disterveglar Yevropada didaktikaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar.

Xorazmiy, Kindiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Tusiy va ularning izdoshlari qarashlarining muhim xususiyati shundan iborat ediki, mazkur olimlar doimo predmetning qiyofasi inson ongida mavhumlashuvi jarayoniga mana shu predmetning mohiyati va o'ziga xosligini tushunish sodir bo'lishi hamda shakllanishiga e'tibor berganlar. Ular bilishning predmeti va manbalariga, bilish jarayoni qanday bosqichlardan tarkib topishiga, bilish faoliyati bilan amaliy faoliyat o'rtasidagi munosabatlarga qiziqqanlar.

Xorazmiy shaxsning uzluksiz kamol topishi nazariyasini rivojlantirish borasida muhim xizmat qildi, induktiv va deduktiv tafakkurdagi alohidalik hamda umumiylikning birligi prinsipini muayyanlashtirdi.

Kindiy substansiyani barcha ilmiy bilimlarning bosh predmeti sifatida ko'rib chiqishda, eng avvalo, miqdor va sifatni hissiy idrok etish zarurligini tasdiqladi. Kimki miqdor va sifatni bilmasa, u substansiyani bilishdan ham mahrumligini uqtirdi. Olim o'zining didaktik g'oyalariida hissiy va ratsional bilishni ifodaladi. Hissiy bilish – yakka narsalarni bilishdan iborat bo'lsa, oqilona bilish – umumiy narsalarni bilish ekanini ta'kidladi. Uning fikricha, hissiy bilish faqat aql uchun material beradi.

Sabablar haqiqatni bilishda va o'zining ana shu haqiqatga muvofiq xatti-harakatlarini anglashda insonning aqliga ko'maklashadi. «Haqiqat, – deb yozgan edi Kindiy, – har qanday narsani va uning barqarorligini bilishning sababidir, binobarin, hayotdagi mavjud hamma narsa haqiqiyiligi bilan mavjuddir. Haqiqatni bilish zarur va shunga ko'ra mavjud narsalarni bilish mumkin»¹.

Forobiy o'qitish metodlarining tasnifini ishlab chiqqan. Ularni amaliy va nazariy metodlarga ajratgan, shu tariqa o'qitishning amaliy yo'nalishi va kishilarning hayoti hamda kundalik faoliyati bilan bog'liqligi g'oyalarni olg'a surgan. Olim o'qitishning tajriba ko'rsatmali, induktiv va deduktiv, amaliy metodlariga alohida e'tibor bergan. Barcha metodlarni o'quvchining hayotiy tajribasiga, mantiqiy tafakkuriga tayangan holda birlashtirgan. O'quv jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqishda deduktiv metodni ustun qo'yib, o'quvchilarga materialni tushuntirishda nimalarga alohida e'tibor berish haqida, eng muhim narsalarni fanga ishonchli bilimlar beradigan va shubhalantirmaydigan dalillar bilan yoritish va hokazolar bo'yicha o'qituvchilar uchun qimmatli tavsiyalarini bayon qilgan².

Forobiy matematika fani misollari asosida o'qitishning ilmiylik, ko'rsatmalilik, tushunarlilik va izchillik prinsiplarini ishlab chiqqan. Bilish jarayoni va fandagi bilim shakllarining mohiyatini yoritgan. Uning fikricha, ana shu jarayonlar qonunlar sifatida shakllanadi va ularga rioya qilish fikrlashni takomillashtiradi hamda murakkab bilish jarayonida qo'pol xatolarning oldini oladi. Bilish jarayoni fikrlash mantiqi orqali amalga oshadi. Mantiq obyektini anglashga qaratilgan va aql yetadigan mohiyatlar tahlil etiladigan fikrlash jarayonining to'g'riligini belgilashga xizmat qiladi. Mantiq quroldir va u narsalarni aniq bilishga yordam beradi.

Forobiy bilish faoliyatini tashkil etish masalalari bo'yicha ham anchagina mufassal tavsiyalarni ishlab chiqqan. Uning yozishicha, yaxshi nazariyotchi bo'lish uchun nazariya qaysi fanga taalluqli bo'lsa-da, quyidagi uchta shartga rioya qilishi shart:

¹ Избранные произведения мыслителя Ближнего и Среднего Востока IX-IV веков. – М., 1961 г.

² *Al-Farabiy. Математические трактаты.* – Алматы: «Наука», 1972, стр.327.

1. Mazkur fan asosidagi hamma prinsiplarni to'liq bilish.

2. Mana shu prinsiplardan va mazkur fanga doir ma'lumotlardan tegishli xulosalar chiqara bilish.

3. Noto'g'ri nazariyani rad eta bilish va haqiqatni yolg'ondan farqlash, xatolarni to'g'rilash uchun boshqa mualliflarning fikrlarini tahlil qila bilish.

Borliqning aks etishi sifatidagi hissiy bilish muammosi va eng asosiy masala – bilishning manbalari masalasi doimo Beruniy nazariy bilish faoliyatining diqqat markazida turdi. Olim bilishning nazariy asosini cheksiz va uzluksiz jarayon sifatida tahlil va talqin qildi. U o'zidan oldingi olimlar ishlab chiqqan bilishning ilmiy metodlarini rivojlantirib, didaktik yo'sinda muhim xulosalar chiqardi: «O'qish va takrorlash orqali, – deb yozgan edi Beruniy, – dunyoning tuzilishini, osmonning va Yerning shakllarini bilish astronomiya fani uchun g'oyatda foydalidir. Binobarin, ana shu tariqa ta'lim oluvchi malaka hosil qiladi va mazkur san'at ahli ishlatadigan so'zlarni o'rganadi, bu so'zlarning ma'nosini anglaydi.

Keyinchalik astronomiya fanidagi turli sabablar va isbotlarni o'rganishda ana shunday so'zlar uchrasa, ularni bema'lol tushunib boraveradi va u yoki bu narsalarni o'zlashtirishda charchamaydi»¹.

Beruniy ta'kidlaganidek, o'qitish izchil, ko'rsatmali, maqsadga muvofiq bo'lishi va ma'lum tizimda olib borilishi lozim. Binobarin, ko'rsatmalilik ta'limning tushunarliroq, muayyanroq va qiziqarliroq bo'lishini ta'minlaydi, tafakkurni rivojlantiradi.

Ibn Sinoning bilim orqali erishiladigan natijalari haqidagi ta'limoti o'qitish nazariyasida alohida o'rin egalladi. Uning fikricha, buyumlarni chinakam bilishga tashqi ko'rinishini tahlil qilish, sabablarini aniqlash asosida aql bilan erishiladi. Ibn Sino aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan. Mushohada bilan idrok qilishning birinchi bosqichi aqliy kategoriyalarni tushuntirishdir. Ikkinchi bosqich ikki xil fikrni idrok etishdir. Aqliy rivojlanishning uchinchi bosqichiga o'zlashtirilgan fikrlarni idrok etish bilan erishiladi. Shunda uni haqiqiy aql deyiladi.

Olim aqliy faoliyatni bosqichlarga bo'lar ekan, birinchi bosqichda yodlay oladigan, lekin hali harflarni ham, siyoh va qalamni ham bilmaydigan bolaning aqlini nazarda tutgan; ikkinchi bosqichda tayoqchalarni chiza boshlagan, qalamdan foydalanishni o'rganayotgan bolaning aqli tasavvur qilinadi; uchinchi bosqichda inson aqliy shakllarni va ularga muvofiq hissiy obrazlarni egallagan bo'ladi. Ibn Sino aql deganda insonning tug'ma iste'dodini, shuningdek, tajriba asosida va bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi. Aqlni insonning birlamchi tug'ma sog'lom fikrlashi, yaxshi va yomon ishlarni vujudga keltiradigan, ularni farq-lantiradigan kuch, deb ta'riflaydi. Aql

¹ *Абу Райхон Беруний. Избранные произведения. Т. Часть III. – Ташкент: «Фан», 1973-1976 гг.*

insonning xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Inson aql yordamida narsalar va hodisalarni tahlil qiladi, umumlashtiradi hamda ularning eng yaxshilarini tanlaydi, deb uqtiradi. Shuningdek, aqlni ikki kategoriyaga ajratadi. Ularning biri – nazariy aql bo'lib, borliqdagi umumiy narsalarning mohiyatini idrok etishdir, ikkinchisi esa amaliy aql bo'lib, buyumlarni tanlashda turtki sifatida ko'rinadigan qobiliyatdir.

Abdulla Avloniy o'zining barcha tadqiqotlarida ilm muammosini birinchi o'ringa qo'ygan. «Alhosil, – deb yozgan edi u, – butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilm bilan bog'liqdur... Shuning uchun o'qimak, bilmak zamonlarini qo'ldan bermay, vujudimizning dushmani bo'lgan jaholatdan qutulmakka jonimiz boricha sa'y qilmagimiz lozimdur»¹.

A.Avloniy, ilm tarbiya jarayonida o'zlashtiriladi va u yaxshini yomondan, ezgulikni yovuzlikdan, joizni nojoizdan farqlash imkonini beradi, deb hisoblaydi. U tarbiya bilan ta'limning birligi muammosini ishlab chiqdi. Garchi Avloniy ta'lim bilan tarbiya o'rtasida ozgina farq borligini aytgan bo'lsa ham, ular tana va jon singari bir-biriga chambarchas bog'liqdir, deydi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy I sinf uchun «Yengil adabiyot», II sinf uchun «O'qish kitobi» va «Qiroat kitobi» kabi darsliklar yozgan. Ammo mazkur darsliklar qo'lyozmaligicha qolib ketdi. O'sha paytlarda nashr etish imkoni bo'lmagan.

Hamza Hakimzoda o'z tadqiqotlarida tovushli savod o'rgatish metodini ishlab chiqqan. Uning tadqiqotidagi asosiy g'oya o'qitish va tarbiyalashga kompleks yondashish, yoshlarning aqliy, axloqiy va estetik tarbiyasini o'zaro bog'liq holda amalga oshirishdan iborat edi.

Yuqoridagi asarlarning nomlaridan va pedagogik fikrlardan ayon bo'ladiki, mazkur mualliflar didaktikaga o'qitish san'ati sifatida, shuningdek, o'ziga xos amaliy ko'nikma sifatida qaraganlar. Didaktika tushunchasini Yan Amos Komenskiy ham ana shu yo'sinda sharhlagan. Uning bu boradagi fikr-mulohazalari 1657-yilda nashr etilgan «Hammaga hamma narsani o'qitishning universal san'ati ifodalangan buyuk didaktika» nomli asarida bayon qilingan. Yan Amos Komenskiy didaktika faqat o'qitish san'atidagina emas, balki tarbiyalash san'atidan ham iboratligini qayd qilgan va tarbiya har tomonlama axloqiylik yo'nalishidagi fe'l-atvorni shakllantirishning zarur sharti ekanini ham uqtirgan.

Didaktikani yuqoridagicha tushunish XIX asr boshigacha, ya'ni taniqli nemis pedagogi va faylasufi Iogan Genrix Gerbart didaktikaning asosiy nazariyasini ishlab chiqqunicha davom etgan. Binobarin, u didaktikani pedagogikaga bo'ysunadigan tarbiyalovchi ta'limning yaxlit va ziddiyatsiz nazariyasi sifatida talqin qiladi.

¹ Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T., «O'qituvchi», 1992- y. 23- bet.

Gerbart va xususan, uning izdoshlari ana shu nazariyaning rolini hisobga olib, didaktikaning asosiy vazifasini – darsda bayon qilinadigan material ekanini rad etdilar. Gerbart konsepsiyasiga muvofiq, o'qituvchi, asosan, o'quvchilarni yangi o'quv materiali bilan tanishtirishga doir harakatlarini tahlil qilishi lozim edi.

XVIII asrda shveysariyalik pedagog I.G.Pestalossi kamol toptiruvchi ta'limning prinsiplari tizimini asosladi. XIX asrda esa nemis pedagogi A.Disterveg o'zining «Nemis o'qituvchilari uchun» qo'llanmasida o'quv jarayonini faollashtiradigan talablarning butun bir kompleksini taklif qildi. Fan va texnika shunday tezlikda taraqqiy topmoqdaki, maktab ta'limi bilan ularning ketidan quvib yetish mumkin emas. Lekin maktabni bitirgan yoshlar, albatta, o'zlari bilmaydigan ilmiy kashfiyotlarga, jamiyatni rivojlantirishning bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi tizimiga duch keladilar. Lozim darajadagi aqlga, irodaga va hissiyotga ega bo'lgan kishilargina notanish ma'lumotlarni tezroq o'zlashtirib olishi mumkin.

Bilim va malakalarni tarkib toptirish naqadar zarur bo'lsa-da, hozirgi didaktika ana shu soha bilangina chegaralanib qola olmaydi.

Endilikda o'quvchilarni kamol toptirishda optimal natijalar beradigan o'qitish jarayonining ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish zarurati tug'ildi. O'quvchilarning kamol topishi ta'lim jarayonida amalga oshishi sababli bilim va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan didaktik prinsiplar ma'lum natijalarni beradi. Lekin vazifa qandaydir natijalarga erishishdan emas, balki o'quvchilarni kamol toptirish uchun o'qitishning eng yuqori samaradorligini ta'minlashdan iboratdir. Buning uchun esa o'quv jarayonining qurilishini ishlab chiqish kerak. Didaktikada tarbiyalovchi dunyoqarashni shakllantirish masalalari ko'riladi, ta'lim jarayonida o'quvchilarda mustaqillikni, tashabbuskorlikni va shaxsning boshqa ayrim sifatlarini tarbiyalash vazifalari tahlil qilinadi. Mana shunday muhim masalalarning ko'rib chiqilishi maktabdagi ta'lim-tarbiyaning birligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'z-o'zidan ayonki, mazkur vazifani amalga oshirish uchun zarur ilmiy-pedagogik asoslarni yaratish didaktika sohasidan ko'ra ko'proq tarbiya nazariyasiga taalluqlidir. O'qitish negizi yuksak axloqli qilib kamol toptirishdan iborat. Ana shunday harakatlarda o'qishga da'vat qilish, o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro munosabatlari va ta'limning metodlari masalalari boshqacha tus oladi.

DIDAKTIKANING ASOSIY KATEGORIYALARI

O'qitish nazariyasi bilimlar, ma'lumotlar va dalillarning katta zaxirasiga ega, ularning bir qismi tizimlashtirilgan, tartibga solingan. O'qitish jarayonining strukturaviy *komponentlari* – maqsadli rag'batlantirish –

motivlashtirish mazmuni, harakati, o'qitishning shakl va metodlarining ajratilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Mana shu komponentlarning ajratilgani o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati qonuniyatlarining tabiatini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Pedagogik yechimlarni tanlash nazariyasini ishlab chiqishning metodologik asosi o'qitish jarayonining mavjud barcha qonuniyatlarini hisobga olish fikri bilan muntazam aloqada bo'ladi. Boshqacha aytganda, o'qitish jarayonining mavjud hamma qonuniyatlarini, albatta, kompleks holda hisobga olish bilangina ta'lim masalalarini to'g'ri hal qilish mumkin.

Pedagogik va psixologik shart-sharoitlarni aniqlash asosida o'qitishning optimalligi mezonlarining asoslari tarkib toptirilgan va ularning eng ahamiyatlilari quyidagilardan iboratdir:

- o'qitish optimal bo'lishi uchun har bir o'quvchi o'zining haqiqiy o'qish imkoniyatlariga muvofiq darajada o'zlashtirishi, tarbiyalanishi va kamol topishi shart;

- o'qitish optimal bo'lishi uchun o'quvchilar va o'qituvchilar darsdagi va uydagi ishlar vaqtining o'zlari uchun gigiyenik jihatdan belgilangan normasiga ega bo'lishi kerak.

Rejalashtirishni optimallashtirishning asosiy yo'llari o'qitishning vazifalarini ta'lim berish, tarbiyalash va kamol toptirish bilan birgalikda loyihalashga kompleks yondashish hamda o'qitish vazifalarini u amalga oshadigan tizimning xususiyatlarini hisobga olgan holda muayyanlash-tirishdir.

Ishni rejalashtirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

- o'qitish mazmunining qo'yilgan vazifalarini eng muvaffaqiyatli hal qilishni ta'minlaydigan optimal variantini tanlash;

- o'qitish jarayonida qo'yilgan vazifalarni belgilangan vaqt ichida muvaffaqiyatli hal qilishni ta'minlaydigan metod va vositalarni tanlash;

- masalalarni muvaffaqiyatli hal qilishni, shu jumladan, o'quvchilarga tabaqali yondashishni ta'minlaydigan tashkiliy shakllarini tanlash.

Hozirgi paytda ta'limning muhim jihatlari, masalan, ta'limning mazmunini ishlab chiqish va tanlash, muammoli – kamol toptiruvchi o'qitish, o'quvchilarning o'qishini faollashtirish, o'qitish metodlari va ularning tarkibiy qismlari; o'quvchilar o'quv-bilim faoliyatining metodlari; o'quv materialini tashkil qilish, strukturalashtirish va hokazolar jadal o'rganilmoqda.

Ta'lim mazmunining ishlab chiqilgan nazariyasida quyidagi muhim qoidalar talqin qilingan:

- ta'lim mazmunida jamiyatning ma'naviy va moddiy elementlari, shu jumladan, tabiat, jamiyat va inson haqidagi bilimlar, ijodiy faoliyat tajribasi, insonning munosabatlari, boshqarish faoliyati, xulqi va hayoti ifodalanishi lozim;

– ta’limning mazmuni umumiy, politexnik va kasb-korlik komponentlarining birligini aks ettirishi kerak;

– ta’limning mazmuni o’quvchilarning yoshidan va jamiyatning rivojlanish darajasidan kelib chiqadi;

– ta’limning mazmunidagi ajratilgan to’rt komponent hajmi va mazmuni bo’yicha o’zaro aynan muvofiq bo’lishi kerak.

Maktab rivojlanishining hozirgi bosqichida ta’limni kompyuterlashtirish masalasi g’oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. O’quvchilarni zamonaviy hisoblash texnikasidan foydalanishga doir bilim va malakalar bilan qurollantirish, o’quv jarayonida kompyuterlarning keng qo’llanishini ta’minlash jamiyatda bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim vazifalaridan biridir. Mana shu vazifani amalga oshirish yuzasidan pedagogika fanida o’rta maktabga elektron hisoblash mikroprotsessor texnikasini tatbiq etishning ikkita asosiy yo’nalishi ishlab chiqilmoqda. Bularning birinchisi – maktabdagi ta’limning mazmuniga o’quvchilar umumta’lim tayyorgarligining komponenti sifatida dasturlashtirish asoslarini va hisoblash texnikasini joriy etish; ikkinchisi – maktabda elektron hisoblash mashinalaridan ta’minlash ta’limining vositasi sifatida foydalanishdir.

Pedagogika fani maktablarning EHM lardan foydalanishdagi tajribalarini o’rganishi va umumlashtirishi: yalpi kompyuter savodxonligiga javob beradigan yagona dasturlashtirish umumta’limiy kursini yaratish; dasturlashni o’rgatish boshlanadigan muddatni va kursning hajmini belgilashi, maktabda o’rganiladigan algoritmlarni tanlash, ta’limning mashina bazasidan foydalanish asoslarini ishlab chiqishi va boshqa vazifalarni ado etishi kerak.

Ta’lim nazariyasiga muammoli – kamol toptiruvchi o’qitishni joriy etish, shuningdek, o’quv jarayonini tabaqalashtirish va individuallashtirish yo’llarini izlash bo’yicha faol ishlar olib borilmoqda.

Muammoli – kamol toptiruvchi o’qitishning nazariyada ishlab chiqilgan asosiy g’oyalarni quyidagicha ta’riflash mumkin:

– ta’limiy bilishni ilmiy bilishga muvofiq modellashtirish g’oyasi, ya’ni muammoli vaziyatni vujudga keltirish – farazni olg’a surish – farazni asoslash – farazni hal qilish – uni tasdiqlash yoki rad etishdek zarur bo’g’inlarni o’z ichiga olgan muammoli o’qitish;

– o’quvchilarning ijodiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda tadqiqotchilik yo’sinidagi ko’nikma va malakalarni o’stirish g’oyasi.

Muammoli o’qitish nazariyasida qator qonuniyatlar ifodalandi va eksperiment yo’li bilan asoslandiki, ulardan muammoli dars o’tish bilan muammoli o’rgatishning birligi va bir-birini taqozo etishi, o’quvchilarning tayyorligi darajasi bilan muammoli o’rgatish darajasining muvofiqligi kabi qonuniyatlarni ajratish mumkin.

Didaktikada ishlab chiqilgan o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish nazariyasi muammoli – kamol toptiruvchi o'qitish nazariyasiga juda yaqindir.

Faollik nazariyasining asosiy g'oyasi ham maxsus tashkil etilgan ta'lim muhitida (o'qitishning mazmuni, shakllari va metodlari bilan) o'quvchilarning faolligini tobora oshirib borishdan iboratdir.

Ishlab chiqilgan faollik nazariyasi o'quv jarayonida bilimlarni o'zlashtirish, ularni qayta ishlash va qo'llashning (muammoli va reproduktiv) usullarini o'rganish bo'yicha tashkil etiladigan o'zini o'zi boshqaradigan faollikdan iboratdir.

Mazkur qonuniyatlar asosida amaliy jihatdan muhim ahamiyatga molik nazariy qoidalarni ifodalash mumkin.

Faollashtirish vositalari tizimi, ta'limning mazmuni, o'qitishning shakl va metodlari o'qitishning asoslangan, maqsadga muvofiq o'z-o'zini boshqaradigan jarayon sifatida tashkil qilishni ta'minlashi uchun ular quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- ta'limning hamma bosqichlarida o'quvchilarda o'qitishning ichki motivlarini qo'zg'atish va rivojlantirish;

- o'quvchilarda o'z oldilariga muayyan maqsadlarni qo'yish va kelgusidagi faoliyatlarini rejalashtirishga rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish;

- o'quvchilarda axborotlarni qayta ishlashga doir ta'limiy va aqliy ko'nikmalarning shakllanishini ta'minlash;

- o'quvchilarning o'quv-bilish maqsadlariga erishish uchun jismoniy va axloqiy, irodaviy kuchlarini oshirish;

- ta'lim jarayonida nazorat va o'z-o'zini boshqarish orqali o'quvchilarning o'z o'quv-bilish faoliyatini baholashini ta'minlash. Shu qoidalarga rioya qilinsa, ta'lim samaradorligi yana-da ortadi.

Ta'lim jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy darajasi va madaniyati, uning siyosiy va mafkuraviy strukturasi mazmunini belgilaydigan masalalarni hal qiladi. Shuning uchun oiladagi yoki jamoadagi, maktabdagi, ishlab chiqarishdagi maqsadga muvofiq yoki tasodifiy tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy bo'ladi, chunki har qanday tarbiya ijtimoiy munosabatlarning subyekti hisoblanadi.

Inson tug'ilgan paytidan boshlab u yoki bu ijtimoiy guruhga mansub bo'lib, mehnat aloqalarining ma'lum tizimida tegishli yuridik huquqlardan foydalanadi. Jamiyatdagi o'zaro munosabatlar majmuyining mazmuni va xarakteri shaxs kamol topishining umumiy yo'nalishini hal qiluvchi yo'sinda belgilaydi. Ota-onalar va pedagoglar tarbiya metodlarida o'ziga xos o'rin tutsalar ham, ularning maqsadlarini, istaklarini va intilishlarini

pirovard natijada jamiyat belgilaydi, uning u yoki bu ijtimoiy guruhlari, hayotning umumiy sharoitlari, uning manfaatlari va ideallari belgilaydi.

«Ijtimoiy tarbiya» iborasidan ancha tor ma'noda shaxsga ta'sir ko'rsatishning maxsus tuzilgan ijtimoiy institutlarda amalga oshiriladigan, oiladagi va yaqin atrof-muhitdagi tarbiyadan farqli jarayonni ifodalash uchun foydalaniladi.

Ta'lim va tarbiya tushunchasining qaysi biri kengroq ma'noga ega ekanligi xususidagi bahs samarasizdir, chunki hamma gap ularning qaysi maqsadda qo'llanishidadir. Adabiyotlarda ko'p uchraydigan «ta'lim» va «tarbiya» so'zlarini pedagogik jarayonning qarama-qarshi tomonlarini ifodalash uchun qo'llanishi unchalik to'g'ri emas. Binobarin, ta'lim bilim berishning maqsadga muvofiq jarayoni sifatida doimo muayyan shaxslarni tarbiyalashni o'z ichiga oladi. Tarbiyaning yo'nalishi esa, hatto, ta'limning mazmuni va saviyasi bilan rasman bir xil bo'lsa ham prinsip jihatdan turlicha: – insonparvar, demokratik yoki totalitar bo'lishi mumkin. Ta'lim-tarbiya muassasalarida amalga oshiriladigan chuqur pedagogik jarayon sifatidagi tarbiya haqida gapirish uning faqat bir tomonini – kasbiy jihatini ko'rsatishni bildiradi.

Tarbiya hammavaqt xalq orasidagi hodisa, ijtimoiy hayotning doimiy kategoriyasi hisoblangan. Tarbiyaning ijtimoiy tabiatini anglash davlat va xalq tarbiyasi, jamiyat va shaxs tarbiyasi o'rtasidagi maqsadga muvofiq va tasodifiy tarbiya o'rtasidagi tafovutni, tarbiyaviy ta'sir obyektining g'oyat murakkab tugunini bilish imkonini beradi.

Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq yo'sinda shakllantirish, unda fazilatlarni tarkib toptirish jarayonidir. Tarbiya tarbiyani amalga oshiruvchilar kutadigan natija mavjudligini talab qiladi. U ikki turdagi faoliyatni, ya'ni shakllanuvchi va shakllantiruvchi faoliyatni bajaruvchilar tarbiyaning tashkilotchilari, shakllanuvchi faoliyatni bajaruvchilar esa tarbiyaning yolg'iz yoki jamoaviy obyektlari hisoblanadi.

Tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari uning ikki tomoni – obyektiv va subyektiv jihatlari mavjudligidir. Uning shakllantiruvchi faoliyatlarini bajaruvchilar o'zlari xohlasa-xohlamasa tarbiyaning obyektivi ekanligida ko'rinadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, obyektiv shakllanuvchi va shakllantiruvchi faoliyatlar hamda ularning elementlari o'rtasida, shuningdek, har bir faoliyatning elementlari o'rtasida ichki obyektiv bog'lanish va munosabatlar mavjudligida namoyon bo'ladi.

Shakllantiruvchi va shakllanuvchi faoliyatning subyektiv tomoni u yoki bu faoliyatni bajaruvchilar – subyektlar hisoblanadi va tarbiyaning natijalari ularning ichki holatiga, egallagan shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari hamda qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi. Tarbiya ba'zan to'plangan

bilimlarni, faoliyat tajribalarini yosh avlodga berishning yo‘li sifatida, ba‘zan erishilgan ma‘naviy madaniyatni qayta tiklash va rivojlantirishning omili sifatida va ba‘zan ijtimoiy munosabatlarning alohida shakli sifatida ta‘riflanadi. Tarbiyaning maqsadi uning ko‘zlangan natijasidir. U jamiyat rivojlanishining ehtiyojlarini o‘zida aks ettiradi va jamoatchilik hamda davlat hujjatlarida ifodalanadi, pedagogik ta‘limotlar va nazariyalarda muayyanlashtiriladi hamda batafsil yoritiladi. Sinfiy jamiyatda tarbiyaning maqsadi hukmron sinflar tomonidan belgilanadi va bayon qilinadi. Masalan, quldorlik davrida tarbiyaning maqsadi qullarni bo‘ysundirish va bostirib turishga layoqatli jangchilar hamda lashkarboshilarni; feodalizm davrida feodal ritsarlar; burjuaziya davrida ishbilarmonlar va biznesmenlarni tayyorlashdan iborat bo‘lgan.

Tarbiyaning maqsadi – shaxsni har tomonlama va uyg‘un kamol toptirish, uning ma‘naviy, axloqiy-estetik qadriyatlarini shakllantirish, yuksak darajada uyushgan va shakllangan jamoalarni vujudga keltirishdir. Tarbiyaning maqsadlarini oxirgi va oraliq, umumiy va muayyan, asosiy va yo‘l-yo‘lakay maqsadlarga tasniflash mumkin. Maqsad bilan bir qatorda, hal qilinishi maqsadga erishishni ta‘minlaydigan vazifalar ham turadi. Masalan, tarbiyaning umumiy maqsadini ro‘yobga chiqarish, ya‘ni shaxsni har tomonlama kamol toptirish uchun aqliy, axloqiy, g‘oyaviy-siyosiy, estetik, mehnat va jismoniy tarbiya vazifalarini amalga oshirish zarur.

O‘QITISH JARAYONI. O‘QITISH JARAYONINING MOHIYATI

Har qanday jarayon harakatdir, moddiy dunyodagi narsalar yoki hodisalarning asta-sekin o‘zgarishidir. O‘qitish jarayoni ham yosh avlodga aqliy kuchlarni rivojlantirishga va axloqiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan harakatdir. Biz o‘qitish jarayonini qanday tushunamiz? O‘qitish jarayoni – o‘qituvchining va u rahbarlik qiladigan o‘quvchilarning – ularda aqliy qobiliyatlarni o‘stirish, dialektik dunyoqarash asoslarini tarkib toptirish va hayotga tayyorgarlikni amalga oshirish maqsadida bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini ongli hamda puxta o‘zlashtirishga qaratilgan ilmiy asosdagi ishlarning majmuyidir.

Maktabdagi o‘qitish jarayoni qandaydir tasodifiy va, ayniqsa, pedagogning xususiy fikridan kelib chiqadigan narsa emas. O‘qitish jarayoni bilish nazariyasi asosida tarkib topadi va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlaridan kelib chiqadigan talablarni aks ettiradi. Hozirgi ilg‘or pedagogika inson shaxsini maqsadga muvofiq shakllantirishga tarbiya, o‘zini o‘zi tarbiyalash va ijtimoiy tajribadan iborat tizim sifatida qaraydi. Tarbiya va o‘zini o‘zi tarbiyalash kichik tizimlar o‘rtasidagi bog‘lanish

asosida tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi tashkil topadi va shu bilan insonning shaxsi shakllanadi.

O'quv jarayoni pedagogik jarayonning mag'zi sifatida tarbiya, o'zini o'zi tarbiyalash va ijtimoiy tajribaning birligini o'zida mujassamlashtiradi.

O'quv jarayonidagi tarbiya, asosan, o'qitish shaklida, o'zini o'zi tarbiyalash va ijtimoiy tajribaning birligi shaklida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra o'quv jarayoniga ta'lim (pedagogning faoliyati), o'qish (o'quvchining mustaqil o'rganish ishi) va ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida qaraladi. O'qitish o'quv jarayonining professional tomonini tashkil qiladi. Inson shaxs sifatida shakllanishining ikki tomonlama tabiati (tarbiya va o'zini o'zi tarbiyalash), shuningdek, o'quv jarayonining ichki strukturasi yo'l-yo'riq ko'rsatish va o'quvchilar o'quv-bilish topshiriqlarini mustaqil holda bajarishidan iborat harakatdir. Buning yo'l-yo'riq ko'rsatish jihati muallim o'quvchiga o'quv materiali bo'yicha o'rgatadigan narsalar va ular ustida ishlash metodlari bilan izohlanadi. O'quvchilar ana shu asosda o'zlarining ma'lumot mazmunini o'zlashtirishga doir faoliyatlarini tashkil qiladilar. Shunday qilib, o'quv jarayonining mohiyati o'quvchi bilish faoliyatining mantiqi bo'lib, u birinchidan, bilish bizdagi bilimlarning yagona manbayi bo'lmish amaliyotni o'rganishdan boshlanishi va mavhum fikrlar asosida nazariy umumlashtirish kerakligidan; ikkinchidan, bilish olingan bilimlarni, nazariy umumlashtirishlarni, insondagi bilimlar haqiqiylikini yagona obyektiv mezonlari sifatida ham xizmat qiladigan amaliyotga taqqoslash zarurligidan kelib chiqadi.

Bilish murakkab dialektik jarayon bo'lib, jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga o'tish yo'lidir. Dunyoni bilishning, haqiqatni bilishning, obyektiv reallikni bilishning dialektik yo'li shu. Bilish nazariyasi in'ikos nazariyasi ham deyiladi.

O'qituvchi maktab o'quvchilarini yangi bilimlarni faol idrok qilishga, uni hayotda qo'llay olishga tayyorlaydi. Bu tasodifiy hodisa bo'lmay, o'quv jarayonining mantiqi shuni taqozo etadi. O'quvchilarning o'qituvchi sabog'ini o'zlashtirish jarayoni bilimlarni idrok qilish, tushunish, mustahkamlash hamda ularni amalda qo'llash bosqichlaridan iborat bo'ladi.

Bilimlarni o'zlashtirish voqeikdagi narsa va hodisalarni sezish va idrok qilishdan boshlanadi. Bilish faoliyatidagi ikkinchi bosqich – bilimlarni tushunish va umumlashtirish. Uchinchi bosqich – bilimlarni mustahkamlash va qo'llashdir.

O'qituvchi faoliyatining muvaffaqiyati, avvalo, u ta'limning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllaridan iborat umumiy didaktik prinsiplarni qanchalik to'g'ri amalga oshirishiga bog'liq. Didaktik prinsiplar ta'limning bevosita bilish nazariyasidan, shuningdek, maktabdagi ta'limning maqsad-

lari va ilmiy mazmunidan, o'quvchilar jamoasining yoshi va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqadigan qonuniyatlarni aks ettiradi.

O'qitish prinsiplari qandaydir doimiy va o'zgarmaydigan narsa emas. Ularning ayrimlari boshqacha sharoitga bog'liq holda o'zining nomini saqlab, yangi mazmun kasb etadi va ba'zilar, masalan, A.Y.Komenskiy o'lg'a surgan «tabiatga muvofiqlik prinsipi» singari o'zining ahamiyatini yo'qotadi; yana boshqalari esa yangi sharoitda jamiyatning o'qitish jarayoniga qo'yadigan ma'lum talablarini to'laroq aks ettirishi sababli yetakchi prinsipga aylanadi. Chunonchi, hozirgi paytda o'qitishning tarbiyalovchi va kamol toptiruvchi prinsiplari alohida ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, mana shu prinsiplar o'qitish jarayoniga o'zining qandaydir yangiligini qo'shadi, uni nimalar bilandir to'ldiradi. Lekin tarbiyalovchi va kamol toptiruvchi ta'limga intilish yangilik emas. Uni mamlakatimiz pedagogikasi tarixida ilk bor Forobiy, Beruniylar asoslab berishgandi. Masalan, Beruniyning fikricha, tarbiyalovchi ta'lim ayni paytda kamol toptiruvchi ta'lim ham hisoblanadi: u kuzatuvchanlik, fikrlash, nutq, xotira va xayolning rivojlanishini ta'minlaydi, shu tariqa insonni hayotdagi mehnatga tayyorlaydi.

Mazkur prinsiplar yangi bo'lmasa ham, maktab rivojining turli bosqichlarida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda har xil yo'sinda va to'liq bo'lmagan hajmda amalga oshgan. Buning hammasi jamiyat tomonidan maktab oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarga bog'liq bo'lgan.

Hozirgi dasturlar ma'lumotning nazariy saviyasiga talablarni oshirishga, maktabda o'qishning dastlabki kunlaridan boshlab bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga, ularga fanlarning nazariy asoslariga doir tushunchalarni hosil qilishga, umumlashtirish va mantiqiy mulohaza yuritish malakalarini shakllantirishga qaratilgan. Ularda ham ilgarigi dasturlardagi kabi nazariy bilimlarni o'quvchilarda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish bilan bog'lashga jiddiy e'tibor berilgan. Shuningdek, ta'limning tarbiyalovchilik rolini yana-da kuchaytirish nazarda tutilgan. Bu esa ongli ravishda o'zlashtirilgan qoidalar, dalillar va nazariyalar o'quvchilarning e'tiqodiga hamda dunyoqarashiga aylanishi kerakligini bildiradi. O'quvchilarga faol va muntazam mehnat qilish odatini yana-da ko'proq singdirish, ularda bilimlarga ishtiyiq uyg'otish va bu bilimlarni umumiy foyda uchun qo'llashga intilishni tarbiyalash zarur. Tarbiyalovchi ta'lim o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy me'yorlarni egallashlarini ham ta'minlashi kerak.

Bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning aqliy kamol topishi va to'g'ri tarbiyalanishi o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Buning uchun pedagoglarning ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi ham nihoyatda zarur. Ma'lumki, o'qitish jarayoni o'qituvchining va u rahbarlik qiladigan o'quvchilarning izchil faoliyati majmuyidan tashkil topadi. Bunda

o'quvchilar faoliyatining muvaffaqiyati o'qituvchining oqilona rahbarligiga va yo'naltiruvchi ishlarga bevosita bog'liq bo'ladi. Ana shu ishlar, xalq ta'limi to'g'risidagi qonunda maktab oldiga qo'yilgan vazifalar mohiyati nimalardan iborat bo'lishi kerak? Aslida, hozirgi paytda yetakchilik qilayotgan tarbiyalovchi va kamol toptiruvchi ta'lim prinsiplari o'quv jarayoniga, shu jumladan, ta'limning asosiy shakli bo'lmish darsga o'z ta'sirini ko'rsatishi lozim. O'qitish jarayoniga qo'yiladigan talablar jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida ham doim bir xil bo'lmagan.

Bu hol jamiyat rivojlanishining qonuniyatlaridan va uning eng muhim vazifasi – yosh avlodni tarbiyalash va o'qitishdan kelib chiqqan. Hozirgi kunning talabi o'quv jarayonini o'quvchilarda faqat takrorlashga doir fikrlashni emas, balki ijodiy tafakkurni ham shakllantiradigan yo'sinda tashkil qilishdir. Psixologlarning ta'kidlashicha, tafakkur doimo muammo yoki masaladan, ajablanish yoki tushuna olmaslikdan, ziddiyatdan boshlanadi.

Ana shular tufayli ta'limiy muammolar asosida o'qitishda muammoli yondashish tushunchasi pedagogika nazariyasi va amaliyotiga faol kirib keladi. Bu muammoning mohiyati o'quvchilarga ma'lum bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan tushunish hamda tushuntirish uchun ilgarigi bilimlar kifoya qilmaydigan yangi dalillar, hodisalar o'rtasida didaktik ziddiyatdir. Bu ziddiyat ijodiy o'zlashtirishga turtki va shu bilan birga, harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi.

Biz o'qitishdagi muammolilikni o'quvchilarning o'quv muammosini anglashi va hal qilishiga qaratilgan bilish faoliyatini tashkil etish, deb tushunamiz. O'qitishdagi muammolilikning muhim belgisi masalani qo'yishdan ko'ra muammoli vaziyatni yaratish ko'proq zarurligidir. Bunda mazkur vaziyatni hayotiy dalillar va hodisalar asosida yaratishni nazarda tutish muhimdir. Chunki, muammoli vaziyat qancha tabiiy shaklga ega bo'lsa, o'quvchilarni faollashtirish va muammoni hal qilishda qatnashishga jalb etish imkoniyati shuncha keng bo'ladi. O'qitishdagi muammolilik an'anaviy didaktikaning asosiy prinsiplari va qoidalarini inkor qilmaydi, balki ularga tayanadi. O'qitishga muammoli yondashishni qo'llashdan maqsad hozirgi o'qitish jarayonini o'quvchilarda ijodiy fikrlashni faol rivojlantirishga yordam beradigan metodlar va usullar bilan to'ldirishdir.

Umuman aytganda, o'quv jarayonini takomillashtirishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad uning sifatini yangi pog'onaga ko'tarishdir. Shunga ko'ra o'qituvchining faoliyatida qanday yangilik vujudga kelishi kerak? Avvalo, u materialni shunchaki bayon etmasligi va o'quvchilarga tayyor xulosalar hamda umumlashmalarni aytib bermasligi, balki ularning fikrini o'rganiladigan obyektga jalb qilishi, undan muammo topishi yoki imkoni

bo'lsa, o'quvchilarning o'zlarini mazkur obyektidagi muammoni mustaqil holda o'ylashga rag'batlantirishi, muammoli vaziyatni yaratib, ularning diqqatini safarbar qilishi, tafakkurni faollashtirishi, ta'limdagi loqaydlikni bartaraf etishi, o'quvchilarga o'zlaricha mulohaza yuritib, zarur xulosalar va umumlashmalar chiqarishda yordam berishi, ularni kuzatishga, tasavvur qilishga, eslab qolishga, ijodkorlikka o'rgatishi, ya'ni u o'z tarbiyalanuvchilarini olgan bilimlari bilan kuzatilgan hayotiy dalillar va hodisalarga taqqoslash, shu asosda to'g'ri xulosalar va umumlashmalar chiqarishga odatlantirishi kerak. Mana shularning hammasi ta'lim jarayoniga zamonaviy mazmun baxsh etadi.

HOZIRGI O'QITISH JARAYONIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Hozirgi kunning vazifalarini amalga oshirishda o'qitishning chuqur ijtimoiy e'tiqodlilik bilan uyg'un ilmiyligiga qo'yilayotgan talablar g'oyatda muhimdir.

Didaktikada o'qitishning ilmiyligi nima ekani asosli ravishda bayon qilinadi. Ma'lumki, maktab ta'limi mazmuniga kirgan barcha bilimlar voqelik qanday bo'lsa, uni shundayligicha, hech bir qo'shimchalarsiz aks ettiradi. Pedagogning vazifasi o'quvchilarga ilmiy, haqqoniy bilimlarni asli holicha tushuntirishdan, ularni bilimlarni mustaqil o'rganishlarida o'zlashtirilgan haqiqatlar borliqidagi – inson ongidan tashqari obyektiv mavjud narsalarga muvofiqligini kafolatlaydigan yo'lga solishdan iboratdir. Hatto bolalar ta'limning birinchi pog'onasida olgan juz'iy bilimlar ham haqiqatni buzmasligi kerak.

Ilmiy asosdagi to'g'ri o'qitish natijasida o'quvchilar ongida obyektiv olamning haqqoniy manzarasi hosil bo'ladi.

Pedagogika amaliyotida ba'zan g'alati voqealar ham uchraydi. O'quvchilar qiziquvchanligi sababli o'qituvchiga savol beradilar va xuddi ana shu paytda o'qituvchi asosli javob bera olmaydi, xijolat chekadi. Noto'g'ri javob bersam, keyinchalik obro'yim ketadi, deb o'ylaydi. Masalan, birinchi sinf o'quvchilari o'qituvchidan «Kosmos nima?» – deb so'raydilar va u sarosimaga tushib qoladi. Darhaqiqat, buni birinchi sinf o'quvchilariga qanday tushuntirish kerak? O'qituvchi puxta o'ylab olib, keyin, chunonchi, ertasiga javob berish o'rniga, shu zahoti «Kosmos bizdan juda uzoq narsa», – deb javob qildi. Shunday javobdan keyin o'quvchilarda kosmos haqida qandaydir tasavvur hosil bo'ladimi?

Chinakam ilmiylik doimo ijtimoiy rivojlanish va moddiy olam qonuniyatlarining obyektivligini o'z ichiga oladi. Bizning fan dialektik falsafa poydevoriga quriladi. U voqelikning sovuqqonlik, loqaydlik

bilan yozilgan tavsifi emas, balki moddiy olam haqidagi qarama-qarshi tushunchalarning o'zaro kurashish maydoni va qurolidir. Fanlar – e'tiqodlarni shakllantirishning kuchli omili. Shuning uchun yoshlarimiz olgan bilimlar ularning e'tiqodiga aylanishi juda muhimdir.

Mana shu vazifalarni amalga oshirishda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muhim talabdir. Biz faqat ana shunga asoslanib bolalarni mustaqil o'ylashga o'rgatishimiz, ularda o'zlarining qarashlari va nuqtayi nazarini tizimini tarkib toptirishimiz mumkin.

Agar bilimlarni bayon etish, ishning usullarini ko'rsatish mumkin bo'lsa, ijodiy faoliyatni o'rgatish uchun o'quvchilarni xuddi ana shu faoliyat jarayoniga bevosita jalb etish shart. Mana shu muammo bo'yicha ayrim mulohazalarni ifodalashga harakat qilamiz.

Avvalo, har qanday ijodkorlik, xususan, o'quvchilarning ijodkorligi maxsus tayyorlangan sharoitlarda amalga oshishi mumkin. Bunda bilimlar, ko'nikmalar va malakalar tizimi hal qiluvchi omil bo'ladi. Ijodni, ijodkorlikni qanday tushunish kerak? Odatdagi tushunchaga ko'ra, ijod ozchilik kishilarning, buyuk san'at asarlarini, yangi mashinalar, dastgohlar va hokazolarni yaratadigan iste'dodli odamlarning qismatidir. Lekin ijod buyuk asarlar yaratishdangina iborat emas, balki kishining fikr yuritishi, biror tadbirni o'ylab topishi, ozgina bo'lsa-da, qandaydir yangilik yaratishi ham ijoddir. Ijod jarayoniga tasodif sifatida emas, balki qoida sifatida qarash lozim.

O'quvchining ijodini qanday tushunish kerak? Bolalar hech qanday yangilik yaratmaydi-ku? O'quvchining ijodkorligi, eng avval, uning har qanday faoliyat jarayonidagi: o'ziga xos usul bilan masala yechishi, insho yozishi, tajriba ishlari, mehnat darslari va hokazolardagi mustaqil fikrlashida namoyon bo'lishi lozim.

O'quvchining ijodi – uning olgan bilimlarini hayotda ko'rgan faktlar va hodisalarga bog'lay olishi, ularni to'g'ri baholab, dastlabki ma'lumotlarni tahlil va sintez qila bilishidir.

Har qanday ijod borliqini rad etish emas, balki borliqqa to'laroq kirib borishdir.

O'qitishdagi individual yondashish ham ta'lim jarayonining muhim talabidir. Biz ana shu talabni qanday tushunamiz? O'qitishdagi individual yondashish faqat mashq ishlarida emas, balki o'quv jarayonining hamma bosqichlarida: yangi materialni o'tishda, mustahkamlashda va takrorlashlarda ham, uy vazifasini tuzishda va darsdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlarda ham amalga oshirilishi zarur. Uni, masalan, yangi material o'rganilayotganda qanday amalga oshiriladi? O'qituvchi materialni tushuntirar ekan, darslikning paragrafi bilan cheklanishi mumkin emas. U

ayrim ma'lumotlarni ancha kuchli o'quvchilarni nazarda tutib bayon qilishi lozim. Bunda bo'sh o'quvchilar nima qilishi kerak? O'qituvchi ularni hisobga olmagan-ku? Ko'pchilik tajribali o'qituvchilar qiyin mavzularni o'tishdan oldin ana shunday o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulot uyushtirib, yangi materialni idrok etish uchun ilgari o'rganilgan bilimlarni takrorlaydi va yangi materialning qiyin joylarini tushuntiradi. Ana shunday qo'shimcha ish doimiy ravishda bo'lmasa-da, o'qituvchining faoliyatida zarurdir. Chunki o'qituvchining kasbiy burchi, eng avvalo, ehtiyojmandlarga yordam berishdir. Darsda buning uchun har doim imkoniyat bo'lavermaydi. Mashqlar vaqtida dastlab butun sinfga qiyinligi bir xil materiallarni berish, keyingi bosqichlardagina tayyorgarlik mashqlarini tabaqalashtirish tavsiya etiladi. Bo'sh o'quvchilar bilan ishlash darslarda ham, qo'shimcha mashg'ulotlarda ham amalga oshirilishi kerak. Bu ishlarda faqat o'qituvchilar emas, balki mazkur sinfdagi kuchli o'quvchilar yoki bo'sh o'quvchilarga birlashtirilgan yuqori sinf o'quvchilari ham qatnashishi lozim.

Ta'limning demokratik va insonparvarlik tizimiga o'tish davrida o'qitishdagi individual yondashish alohida ahamiyat kasb etadi, binobarin, hozirgi kunning talabi o'quvchi o'rta maktab dasturini o'zlashtirishi uchun ta'limning har bir bosqichida tegishli bilimlar olishiga erishishdan iboratdir. Shaxs doimo shakllanishda bo'ladi. Shaxsning shakllanishi sust kechishi ham mumkin.

Shaxsni har tomonlama kamol toptirish muammosini faqat maktab emas, balki jamiyatning rivojlanishi ham hal qiladi, albatta. Jamiyat tobora rivojlanishi bilan shaxs har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar vujudga keladi.

O'qitishni tabaqalashtirish va individuallashtirish muammosi ta'lim nazariyasi va amaliyotida yangi muammo emas. Ammo u hozirgi paytda ta'lim-tarbiya nazariyasida alohida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning chet el pedagogikasi uchun mohiyati, bir tomondan, fan-texnika inqilobi sharoitida malakali kadrlar tayyorlashdan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan, fan, ishlab chiqarishni boshqarish, mafkura, adabiyot va san'at muammolarining yaratilishidan iboratdir.

Ta'limni tabaqalashtirish muammosi ilmiy-pedagogik asosda hal qilin-sa, o'qitishni ma'lum darajada individuallashtirishga imkoniyat paydo bo'ladi. O'qitishni individuallashtirish juda murakkab muammo bo'lib, ma'lum metodologik va pedagogik yondashishga bog'liq holda bevosita hal qilinadi.

Pedagoglar va psixologlar o'qitishni individuallashtirish muammosiga shaxsni har tomonlama kamol toptirish, shaxs bilan muayyan (o'quvchilar yoki ishlab chiqaruvchilardan iborat) jamoa o'rtasidagi munosabatlarni,

maktabning insonni tarbiyalashdagi rolini muayyan tushunish nuqtayi nazaridan yondashadilar. Bunda iste'dod va qobiliyatlarning baravar emasligi, ularning xilma-xilligi va individualligi haqidagi ta'limotga tayanadilar.

O'qitishning individuallasuvi tarbiyaning ham individuallasganini bildiradi. O'qitish va tarbiyalash jarayonida shaxsning qobiliyatlarigina rivojlanib qolmaydi, balki uning fazilatlarini ham shakllanadi. Inson esa faqat o'zining atrofidagi olamga munosabati orqali shaxsga aylanadi. Jamiyatdan va ijtimoiy munosabatlardan tashqari individuallik bo'lmaydi, sinfiy ekspluatatorlik jamiyatida bunday munosabat sinfiyligi sababli o'qitish va tarbiyalashning har qanday individuallasuvi hukmron mafkuraning tarbiyalanuvchilarga ta'sirini kuchaytiradi va bu ta'sir yana-da noziklashadi, o'zgaruvchan va maqsadga muvofiqroq bo'ladi.

O'qitishning individuallasuvi ta'limning tashkiliy shakllari va metodlari, sinflarning to'laligi, maktab binolarining rejalashtirilishi, guruhlarning nisbati va har bir o'quvchi bilan olib boriladigan ayrim ishlar ham jiddiy o'zgarishga sabab bo'ladi.

O'quvchilar o'zicha hayot kechiradi, ularning tashqi olamga munosabatini ifodalovchi ma'naviy dunyosi boy va takrorlanmas bo'ladi. Ana shu dunyoni, ichki hayotni individual yondashish bilangina tushunish mumkin. Individual xususiyatlar, qiziqish va iste'dodlar hisobga olinmasa, sinf-dars tizimi orqali muntazam o'rganiladigan kurslar quruq yodlashga aylanib qolishi ehtimoldan xoli emas. Har bir kishining iste'dodi ko'p qirrali bo'lib, faqat tashqi sabablar bilan emas, balki uning o'z tabiatiga bog'liq holda ham tarkib topadi. Inson tashqi ta'sirni o'z-o'zidan qabul qilmaydi, balki unda bolaga ta'lim orqali beriladigan ijtimoiy tajribani o'zlashtirish imkonini yaratadigan biologik qobiliyat mavjuddir. Masalan, musiqachilarga xos nozik eshitish analizatori zarur. Shunday analizatorga ega bo'lgan holda musiqachi bo'lmaslik mumkin, ammo mazkur analizatorsiz musiqachilikni o'rganishning iloji yo'q.

O'qitishni individuallashtirish «biologik» va «ijtimoiy» xususiyatlarni, ya'ni insonda iste'dod bo'lishi mumkinligini, lekin u faol ishlar bilan shug'ullanmasa, iste'dod tashqi ta'sirlar, tashqi sharoitlar natijasida o'z-o'zidan qobiliyatga aylanmasligini yaqqol tushunishni talab qiladi. Ta'lim o'zining mazmuni va metodikasiga ko'ra tashqi ta'sirdir. Lekin u o'quvchi iste'dodi hisobga olinsagina kutilgan natijani berishi mumkin.

O'qitishning individuallasuvi jamoa bilan yana-da chuqur bog'lanishiga olib boradi, jamoadagi o'zining «men»ini namoyish qilishning, shaxsga aylanishning yorqin istiqbollari vujudga keltiradi. Shaxsni ta'sir ko'rsatishning jamoaviy vositasida tarbiyalash – unda jamiyatga to'g'ri

munosabatni tegishli faoliyat bilan qo‘shilishning axloqiy-estetik normalar haqidagi, ularga ongli yondashish to‘g‘risidagi tushunchalarni tarkib toptirishini bildiradi: mustaqillik va faollikni, o‘ziga xoslikni rivojlantirish esa ijtimoiy-konstruktiv – ijodiy ishlarda o‘zini yaqqol namoyon etishdir.

«Individuallik» tushunchasi insonning ijtimoiy mohiyatini ifodalovchi shaxs, avvalo, ijtimoiy mavjudot sifatidagi insonni tavsiflaydigan umumiy xususiyatlarni o‘z ichiga olishini ko‘rsatadi.

Umumiy ijobiy xususiyatlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, shaxs shunchalik ahamiyatli bo‘ladi, chunki u ijtimoiy munosabatlarni eng chuqur aks ettiradi.

«Individuallik» tushunchasi shaxsning boshqa kishilardan farqlanadigan alohida va yagona xususiyatini o‘z ichiga oladiki, bu xususiyat shaxsga jamiyatda o‘ziga xoslik va takrorlanmaslik baxsh etadi, unda ijtimoiy munosabatlar sharoitida, ya‘ni kishi kishini ekspluatatsiya qilmaydigan tuzumda jamiyat va shaxs o‘zaro qarama-qarshi bo‘lmaydi. Har qanday individuallikning betakrorligi jamiyatdan ajralib qolmaydi, balki jamiyatning uzviy bog‘liqligi uning manfaatlarini va harakat qonuniyatlarini tushunishdadir. Jamiyatsiz shaxs bo‘lmaydi, individuallik bo‘lmaydi, chunki kamolotning manbai jamiyatdadir.

Shaxsning kamol topishida o‘zining kuch-g‘ayrati, bevosita faoliyati juda katta rol o‘ynaydi. Bizning tarbiya va ta‘lim tizimimiz har bir bolada iste‘dod, faollik, ongillik va ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Avval xususiyatlarni hisobga olib, umumiylikni, keyin umumiyini hisobga olib, alohidalikni rivojlantirish kerak.

O‘QITISH JARAYONIGA NOAN‘ANAVIY YONDASHISH

Respublikamizda ta‘lim jarayonini takomillashtirish bo‘yicha izlanishda o‘qitishning yangi shakllari asta-sekin mustahkam o‘rin olmoqda. Bular gimnaziya, ixtisoslashtirilgan sinflardir. Lekin ta‘limning yangi shakllari, asosan, maktabning o‘rta va yuqori bo‘g‘inlariga daxldordir. Xo‘sh, boshlang‘ich maktabda nimalar bo‘layotir? Boshlang‘ich maktab har qanday holda ham o‘quvchilardagi bilimlarni shakllantirishda va ularning qobiliyatlarini aniqlashda asosiy rol o‘ynaydi, keyin ham shunday bo‘lib qoladi. Ammo boshlang‘ich maktabdagi barcha o‘quvchilar, bolalarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun tegishli ishlarni amalga oshirayotirmi? Masalan, nima uchun yuqori sinflarda a‘lo bahoga o‘zlashtiradigan bolalar soni kamayib bormoqda? Maktabni bitta yoki ikkita o‘quvchi oltin medal bilan bitirishini qanday tushunish kerak? Iste‘dodli, qobiliyatli bolalar yo‘qmi yoki o‘qitish jarayoni shunchalik samarasiz bo‘lib qolganmi? Bularning sababi nima? Sababi ko‘p. Birinchidan, boshlang‘ich sinflar o‘qituvchisining bolalar bilan individual

ish olib borish imkoniyati cheklangan. Sinflarda bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarga e'tibor berish zarur. Ikkinchidan, mazkur o'qituvchilarning metodik saviyasi yetarli emas. Sinfdagi umumiy ishlar jarayonida qobiliyatli bolalarning ijodiy imkoniyatlari cheklanib qolmoqda. Ular o'z qobiliyatlarini ko'rsata olmayotir. O'quvchining butun kuchi va e'tibori sinfga qaratilib, qobiliyatli bolalar ko'zga tashlanmayotir. Umuman aytganda, xususan, bolalarni saralash va o'qitishga boshqacha yondashishi bilan ularning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish kerak.

Boshlang'ich maktab (I bosqich maktab) bola shaxsining ilk shakllanishini ta'minlashi, uning qobiliyatlarini aniqlash, o'quvchilarda bilim olish ko'nikmasi va istagini tarkib toptirishi kerak. Bunday maktabda o'quv faoliyatining zarur ko'nikma va malakalarini egallaydilar, o'qish, yozish, hisoblashni o'rganadilar, ijodiy fikrlash elementlarini, madaniy nutq va xulqni, shaxsiy gigiyena hamda sog'lom turmush asoslarini o'rganadilar.

Mana shu umumiy vazifalarni amalga oshirish uchun maqsadlarning ustunligini jiddiy, tubdan o'zgartirish, avvalo, predmetlarga doir bilimlar, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning an'anaviy maqsadi o'rniga bola shaxsini, o'quv faoliyatini shakllantirish asosida tarbiyalash maqsadi egallaydi, lekin bunda an'anaviy predmetlarga doir ko'nikma va malakalarning shakllanish darajasiga e'tibor sustlashmasligi lozim.

Boshlang'ich ta'limning muayyan maqsadlarini ishlab chiqishning haqiqiy ahvoli shundaki, yangi ustunliklar nazariy va amaliy ustunliklar jihatidan eng kam ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda predmet ta'limining o'quv dasturlarida belgilangan muayyan maqsadlari hozircha kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining yosh xususiyatlari va imkoniyatlaridan ajralib qolgan, ta'limning rejalashtirilgan natijalari va ularni baholash mexanizmlari nuqtayi nazaridan ifodalanmagan. Bu hol o'quv faoliyatini shakllantirishga doir ishlar bilan predmetlar bo'yicha ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish o'rtasida uzilish mavjudligidan dalolat beradi.

Boshlang'ich ta'limdagi maqsadlar ustunligining almashinuvi faqat predmetlar o'rtasidagi nisbat (asosiy va ikkinchi darajalilik)ning o'zgarishiga olib bormaydi, balki shaxsni kamol toptirish vazifalarini kengroq va to'laroq amalga oshiradigan yangi, uyg'unlashgan kurslarni ishlab chiqishning asosini ham vujudga keltiradi. Bunday kurslarni va ularning dasturlarini ishlab chiqish nihoyatda zarurdir.

Shu bilan birga, kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining yosh imkoniyatlarini hisobga oladigan va ularda o'quv faoliyatini shakllantirishga qaratilgan yangi tipdagi ta'lim vositalariga o'tish juda muhimdir.

Muayyan yo'nalishdagi (matematika, til, estetik va jismoniy tarbiya hamda boshqalarga doir) maktablarga bolalarni yoshidan qat'i nazar qabul

qilinadi, ya'ni olti va yetti yoshli bolalar farqlanmaydi. Bunda asosiy mezon ko'rish va eshitish xotiralari, mantiqiy fikrlash hamda nutqdan iborat bo'ladi. Mana shu mezonlarga ko'ra boshlang'ich maktabning asosiy vazifasi: bolalarga kuzatish, o'ylash, o'qish va yozishni, o'qilgan yoki aytilgan materialning asosiy ma'nosini ajratish va tahlil qilishni, muammoli vaziyatlarni turli variantlarda hal etishni o'rgatishdir. Sinfning ahvoriga muvofiq o'qituvchining eng muhim vazifalari: o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishga tayyorligini aniqlash va rivojlantirish; keyin o'qitishning individual shakli metodikasini ishlab chiqish, bolalarning qobiliyatlari va ijodiy qiziqishlarini takomillashtirish; ularning tafakkuri hamda o'qitish dasturini maksimal darajada o'zlashtirish iqtidorini o'stirish; bolalarning o'ziga xos va shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish; ularni chuqurlashtirish; bilimlar asosida maktabning o'rta zvenosidagi o'qishga tayyorlashdir.

O'zbekistondagi maktablarning tajribali o'qituvchilari bolalarni neyropsixologlarning ekspress-diaagnostik tekshirish asosida tanlash metodidan foydalanadilar. Bu metod psixologiya fanlari doktorlari, professorlar B. Qodirov va G. Simernitskaya, dotsent S. Oxunjonovlar tomonidan ishlab chiqildi.

O'quvchilar I–IV sinflarda EHM bilan shug'ullanib, mashqlarni mashinada ishlash malakalarini hosil qiladilar, matematika, tabiatshunoslik, mehnat darslari bo'yicha o'yin dasturlarini o'zlashtiradilar, shuningdek, test asosida psixologik yo'nalishdagi har xil mashqlarni bajaradilar.

O'yin shaklida olib borilgan til bilan bog'liq darslarda ta'limning ikkinchi tilini o'rganishda, asosan so'zlarni, iboralarni eslab qolishga, o'qish va yozish malakalarini shakllantirishga ahamiyat berildi.

O'qitishning gumanitar yo'nalishlarini «Atrofimizdagi olam», «Tasviriy san'at», «Musiqqa va raqs» darslari tashkil etdi. Bunday darslarning vazifasi axloqiy va estetik tarbiyaning asosi bo'lib, chinakam insoniylik sifatlarini va rahmdillikni, inson va tabiatning go'zalligini ko'ra olishni rivojlantirishdan iborat edi.

Ta'limdagi noan'anaviy o'quv jarayonining ana shu xildagi boyligi tibbiyotchilar va psixologlar tomonidan doimiy ravishda nazorat olib borilishini talab qiladi.

Sinf psixologlarining asosiy vazifasi bolalarning o'quv jarayoniga, psixologik barqarorlikka ko'nikishini aniqlashdan iborat edi. Psixologlar darslarga kirishi, o'quvchilar va ota-onalar bilan suhbatlar o'tkazishlari lozim. Ular to'plagan ma'lumotlar o'quv jarayonini oldindan belgilash imkonini beradigan maxsus daftarlarga muntazam ravishda yozib borilishi shart. Sinf psixologining yana bir vazifasi xotirani rivojlantirishga doir mashg'ulotlarni o'tkazishdan iborat bo'lib, bu ish ta'limning boshlang'ich zvenosida juda zarurdir.

O'QUVCHI BILIMINI TEKSHIRISH VA BAHOLASH

Baholash o'qituvchi uchun o'quvchilar nimani bilishini va nimani bila olishini aniqlashga, ularning kamchilik va nuqsonlarini ochishga, yutuq tomonlariga suyanib zaif tomonlarini kuchaytirishga xizmat qiladi. O'quvchilar bilimini tekshirish va baholashdan maqsad o'quvchilar bilimining sifatini, rivojlantirish darajasini ta'minlash va ularni rag'batlantirishdan iborat bo'lib, bilim olishga qiziqishini takomillashtirishdir.

Bilimlarni tekshirish va baholashdagi asosiy kamchiliklar:

- uning vazifalarini (funktsiyalarini) noto'g'ri tushunish;
- ta'lim jarayonida uning rolini asossiz ko'tarib yuborish;
- tekshirish va baholashning darsda asosiy maqsadga aylanib qolishi;
- bilimlarni tekshirish va baholashda bir xil texnologiyadan foydalanish;
- baholarni qo'yishda subyektivizmga yo'l qo'yish va aniq, asoslangan mezonlarning yo'qligi;
- o'quvchilar bilimini tekshirish va baholashda bu jarayonni nazorat qiluvchi, ta'lim-tarbiya beruvchi muhim funksiyani bajarishni unutmastlik kerak.

Bu nazorat qiluvchi uchun asosiy funksiya bo'lib, ta'lim beruvchi va tarbiyachi yordamchi funksiyadir. Biroq tekshirish maqsadi va ko'rinishi turlicha bo'lganda, bu uch funksiya turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, tekshirishning yakuniy imtihon shaklini oladigan bo'lsak (uni o'tkazish usullari turlicha bo'lishi mumkin), bunda nazorat qilish funksiyasi ustunlik qiladi (ta'limga vaqt qolmaydi).

O'rganilayotgan materialni o'zlashtirish bo'yicha joriy tekshirish olib borilsa, bu holatda ta'lim beruvchi funksiyasi ustun bo'lishi kerak. Tarbiya berish funksiyasi ham ustun bo'lishi mumkin, masalan, o'qituvchi ba'zi o'quvchilarni sistemali ishlashga o'rgatishga intiladi, baho bilan rag'batlantirib, ularning ruhiy xususiyatlariga (irodasini rivojlantirish, xotirani mustahkamlash va h.k.) ta'sir etishga harakat qiladi, me'yoridan ortiqcha o'ziga bino qo'yish holatlarida bahoga qat'iy yondashib ish ko'riladi.

Umuman olganda, baho xolis (obyektiv) bo'lishi zarur esa-da, biroq o'z tabiatiga ko'ra hamisha noxolis (subyektiv)dir.

Ushbu funksiyalarga muvofiq o'quvchilar bilimini tekshirish va baholashning aniq usullari tanlanadi.

Tekshirishning ko'p qo'llaniladigan ikki xili mavjud: ular joriy va yakuniydir. Joriy tekshirishning hammaga ma'lum turlari quyidagilar: og'zaki so'rashning har xil shakllari, yozma uy vazifalarini tekshirish, yozma nazorat (mustaqil) topshiriqlari. Biroq, bunday an'anaviy shakllar

bilan bir qatorda, turli perfokartalar yordamida tekshirish, kompyuter yordamida topshiriq bajarilishini tekshirish ham qo'llanilyapti.

Tekshirishning o'ziga xos shakli o'quvchilarni o'qituvchi tomonidan kundalik, muntazam kuzatib turishdir. Tekshirishning turli-tuman shakllari o'ziga xos dars bosqichi kabi faqat an'anaviy «so'rash» jarayonidagina emas, balki butun dars mobaynida qo'llaniladi.

O'qituvchi darsga tayyorlanishda tekshirishning zarur shakllarini izlash va uni qo'llash eng muhim vazifa ekanligini unutmash kerak. Kimdan, qachon, qancha o'quvchini tekshirish, qanday savollar bilan, qanday vositalar orqali so'rash va baholash – bularning barchasiga o'qituvchi darsga tayyorlanishda alohida e'tibor bermog'i lozim.

Shu bilan bir qatorda, o'quvchilar o'z o'rtog'ining bilimi so'ralayotganda ular nima bilan shug'ullanishi zarurligi haqida ham o'ylashi kerak bo'ladi. Har bir o'qituvchining o'z nazorat tizimi bo'lishi lozim. Bu tizim ishning turli-tuman vositalari va usullarini qamrab olishi, o'quvchilar o'qituvchining o'z muvaffaqiyatlari, bilimlarni o'zlashtirish darajasi va sifatini hamisha tekshirib turishini tushunsinlar.

Tekshirish shakllari maktablarimiz ta'lim jarayoniga xos bo'lgan, o'quvchilarning bilimlarini faqat o'zidan qabul qilishi, reproduktiv faoliyatini tashkil etish bilangina tugamasligi lozim. Nazorat (tekshirish) shakllarini tanlashda o'quvchilarning individual xususiyatlarini e'tiborga olish muhimdir.

Yakuniy yozma ishlarga alohida talab bilan qarash zarurdir. Ularni o'qituvchi o'quv materialini ko'pchilik o'quvchilar o'zlashtirib olganiga ishonch hosil qilgandan so'ng o'tkazish mumkin. Bunday ishlar o'quvchilar uchun asosli bo'lib, ularda o'z kuchlariga ishonch xususiyatini shakllantirishga yordam beradi, aks holda esa o'qitish jarayoniga qiziqishi pasayadi.

Bilimlarni tekshirishning yozma va og'zaki shakllari to'g'risida gapirilganda, ularning har biri o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini va o'z vazifasi borligini aytib o'tish darkor. Og'zaki shakli – savolni tez idrok etish (reaksiya) ko'nikmasini hosil qilish o'quvchilar xotirasini rivojlantirishga yordam beradi. Yozma tekshirish esa mantiqiy mushohada (fikrlash)ni samarali kengaytiradi, javoblarda aniqlik ko'proq bo'lishiga o'rgatadi. So'nggi yillarda o'quvchilar bilimini va rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida turli test shakllaridan keng foydalanilmoqda.

Bilimlarni baholashga qo'yiladigan talablar. O'quvchilar bilimini baholashga qancha xolis munosabatda bo'linsa, u o'quvchilarni shuncha rag'batlantiradi. Qoidaga ko'ra baho o'quvchining darsdagi xulq-atvoriga mukofot yoki jazo sifatida emas, balki bilimi darajasi va xususiyatiga qo'yilishi kerak. Bahoga qo'yilgan talablar optimal (oshirib yuborilmagan ham, pasaytirib yuborilmagan ham) bo'lishi lozim. Baholarni «oshirish»

o'quvchilar rivojlanish darajasini, bilimini pasaytiradi. Shu bilan birga, juda katta talab qo'yish ham zararli bo'lib, o'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishini so'ndiradi. O'qituvchining o'quvchilarga baho qo'yishda salbiy munosabatiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Zero, o'quv predmetiga muvofiq keladigan dastur baholashning eng xolis mezonini bo'lishi zarur.

Maktablarimizda bilimlarni baholash o'zgarishsiz qolmadi. 1935-yilgacha uch ballik baho qo'yilgan bo'lib, u «juda qoniqarli», «qoniqarli» va «qoniqarsiz» baholar edi.

O'sha paytdan bugungi kungacha mavjud bo'lgan besh ballik tizim joriy etildi. Bu tizimga ko'ra:

«a'lo» (besh) – dastur talablariga to'liq hajmdagi bilimlarni egallagan o'quvchiga qo'yiladi;

«yaxshi» (to'rt) – dastur talablarini to'la hajmda arzimlas kamchiliklar bilan (masalan, materialni bayon etish mantiqi buzilgan va boshqalar) o'zlashtirgan o'quvchiga qo'yiladi.

«qoniqarli» (uch) – o'quvchining bilim darajasi juda past bo'lib, unga keyingi materialni o'rganishida ilgariylashiga yordam beradigan bilim hajmiga qo'yiladi;

«qoniqarsiz» (ikki) – o'quvchi o'zidagi juda past bilimi bilan ilgariylashiga qodir bo'lmasa qo'yiladi;

«yomon» (bir) baho o'quvchi hech narsani bilmaganda qo'yiladi. Bu so'nggi baho juda kam qo'llanib, uning mazmuni deyarli «ikki» bahoga tengdir.

Bilimlarni baholashda xolislikni (obyektivlikni) saqlagan holda, ba'zi holatlarni ham nazarda tutish lozim: masalan, joriy yoki yakuniy bilimlar baholanadi (yozma ish, chorak bahosi va b.);

– o'quvchining intilishi, uning o'quv ishlaridagi barqarorligi va h.k. O'quv fanining xususiyatlarini, ba'zi bo'limlar, ularning aloqadorligini o'zlashtirish holatini nazardan qochirmaslik zarur.

O'quvchilar bilimini tekshirish va baholashning an'anaviy tizimi jiddiy nuqsonlarga ega, negaki u ta'limiy, tarbiyaviy, diagnostik va rag'batlantirish funksiyalarini zarur darajada amalga oshirmaydi. Modomiki, shunday ekan, undan voz kechish yoki uni yana-da takomillashgan shakliga almashtirish maqsadga muvofiq emasmi?

Ehtimol, bahoning jazolash vazifasidan xalos bo'lgan o'quvchilar yaxshiroq o'qish va ta'limiy burchlariga ancha vijdonan munosabatda bo'lar edilar. Bugungi kunda o'quvchilarning o'zlari bahoga qanday munosabatda bo'lyaptilar? Boshlang'ich sinflardagi o'quvchilarning 98 foizi baho saqlanishi zarurligini aytadi. Bahoni bekor qilish o'qitishga bo'lgan qiziqishni oshirishga, o'qitishni ichki shakllantirishga yordam beradi, degan fikr ham o'zini oqlamadi.

O'rta va yuqori sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini baholash zarurligini qayd etganlar soni boshlang'ich maktabdagidek bo'lishiga ishonamiz, albatta.

Baholarni bekor qilish maqsadga muvofiq emasligi bir qiziq psixologik tadqiqotdan ham ma'lum. Amerikalik psixologlar o'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga baho ta'sirini aniqlashga qaror qildilar. Eksperiment maqsadiga ko'ra, bir sinfdan o'quvchilar muayyan vaqt davomida javoblarining aniqligi va to'liqligiga e'tibor qilmay, faqat maqtaldi. Boshqa sinfdan faqat tanqid qilindi, uchinchisida esa biror bir baho berilmadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bilish faoliyati maqtalgan sinflarda eng yuqori yutuqlarga erishilgan, eng yomon natija o'quv faoliyati tanqid qilingan sinfdan emas, balki bilish faoliyati sira baholanmagan sinfdan vujudga keldi. O'qituvchining o'qitishga bo'lgan havasi qanchalik ko'p bo'lmasin, bilish faoliyatining ichki motivlari qay darajada shakllangan bo'lmasin, u hamisha tashqi motivlashtirishga, tashqaridan maqtash va qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'ladi. Bola ko'z o'ngida o'qituvchi qanchalik ahamiyatli, obro'li bo'lsa, uning maktabda, asosan, baholash va baholarda aks etuvchi maqtovlari shunchalik qadrlil va ahamiyatli bo'ladi.

Pedagogik baholash bilimni dastur talablari va ta'lim andazalariga qiyoslab aniqlabgina qolmay, balki o'quvchilar bilim faoliyatini motivlashtiradi va rag'batlantiradi.

Yuqoridagilardan xulosa shuki, bahoni bekor qilish pedagogik jihatdan ham, psixologik jihatdan ham o'zini oqlamaydi. Bunday qator kamchiliklari bo'lsa-da, besh ballik baho tizimiga muqobil xili topilganicha yo'q. Shuning uchun gap uni takomillashtirish, o'quvchilar bilimni baholashda xatoga yo'l qo'ymaslik haqida borishi kerak.

Savol va topshiriqlar

1. Didaktika haqida qanday tushunchaga egasiz?
2. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy kabi mutafakkirlar didaktika haqida qanday fikrlar bildirganlar?
3. Didaktika kategoriyalari to'g'risida o'z fikringizni bildiring.
4. Didaktikaning obyekti va predmetini misollar bilan izohlang.
5. Didaktikaning vazifalari, uning tushunchasi va tarkibiy qismlari.
6. O'qitish jarayoniga noan'anaviy yondashish deganda nimani tushunasiz?
7. O'quvchilarning bilimni baholash texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?
8. O'z-o'zini baholash haqida ma'lumot bering.

IV BOB. TA'LIM PRINSIPLARI

«Prinsip» soʻzining maʼnosi xulqning, xatti-harakatning asosiy qoidasi, yetakchi gʻoya demakdir. Taʼlim qonuniyatlari (prinsiplari) bu – oʻqitish jarayoniga qoʻyiladigan talablar yigʻindisidir.

Biz, hatto, turmushda ham «bu odam prinsipli» deymiz va bunda oʻsha odamning oʻziga xos qoidalariga, oʻzining prinsiplariga muvofiq ish koʻrishini nazarda tutamiz. Agar kishining xatti-harakatlarida qatʼiy qoidalar boʻlmasa, uni «prinsipi yoʻq» deb hisoblaymiz.

XV – XVI asrlardagi mashhur olimlar bilishning asosiy qonuniyatlariga faqat oʻqitishning emas, balki axloqiy tarbiyalashning ham yetakchi asosi sifatida qaraganlar.

Forobiy «Namunali taʼlim» haqidagi risolasida oʻquvchilar oʻzlashtirishi lozim boʻlgan materialni eng yaxshi yoʻsinda bayon qilish masalasiga alohida toʻxtalib, bu ishning ikkita turini tavsiya etgan: ularning biri bevosita sezishga yaqin narsalarni oldingi oʻringa qoʻyishdan va ikkinchisi aqlga yaqin narsalarni olgʻa surishdan iboratdir. U oʻzining fikrini tushuntirib shunday yozgan: «Aql oʻz harakatini avval seziladigan narsalarga, keyin esa aqlga muvofiq yoʻsinda, yaʼni xossalarni sintez qilishga yoʻnaltirishi maʼqul».

Ibn Sino asarlarida ham didaktikaning prinsiplariga, xususan, koʻrsatmali oʻqitishga qiziqish bilan qaralgan. Ibn Sino inson dastlabki oʻquv mashgʻulotlarida buyumning tashqi xossasini oʻrgansa, oʻsha buyumni va uning tasvirini koʻrib chiqsa, oʻzi mustaqil holda bilimlarni oʻzlashtira oladi, deb hisoblagan. Olim inson haqiqatan mavjud narsalarni yoki ularning tasvirini idrok etishi tufayli unda obyektiv voqelikni toʻgʻri aks ettiradigan tasavvur shakllanishini uqtirgan.

Sharqshunos olim Kindiyning fikricha, insonda ijobiy sifatlarni tarkib toptirishning eng zarur omili uning aql kuchini rivojlantirishdir. Aql kuchi rivojlanmasa, inson umr boʻyi Arastuning kitoblarini oʻqisa ham ularda ifodalangan fanlarning biron-tasini oʻzlashtira olmaydi. Bunday odam har qancha urinsa-da, faqat boshqalarning gaplarini takrorlab bera oladigan boʻladi. U hech narsaning mohiyatini tushunmaydi va oʻzlashtira olmaydi. Kindiy ana shu fikrlarini bayon qilar ekan, oʻqitishning ilmiyligi va ongliligi qoidasini nazarda tutgan.

Pedagog olimlarning yuqoridagi fikr-mulohazalarini umumlashtirib, xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, oʻqitish prinsiplari yosh avlodga taʼlim va tarbiya berish maqsadlariga muvofiq oʻqitishning xarakterini belgilaydigan asosiy yetakchi qoidalardir.

Mana shu prinsiplar qayerdan kelib chiqqan? Ularni kim, qachon va qanday vaziyatlarda ifodalagan?

Prinsiplarni ifodalashga olib kelgan asosiy manba, o'qitish amaliyoti, o'qituvchilarning keyinchalik anglangan, umumlashtirilgan va tarqalgan tajribasi hamda topilmalaridir.

Biz ijtimoiy rivojlanishga ko'ra o'qitish prinsiplarining o'zgarishini e'tirof etgan holda an'anaviy ta'riflarni saqlash, ularga faqat zamonaviy maktabning ahvolini aks ettirish zarurligi uchun boshqacha mazmun baxsh etish, xususan, yangi maktabga xos ayrim qoidalarni kiritish tarafdorimiz. Masalan, «Umumiy ta'lim maktabi konsepsiyasi» hamda «Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi»ga muvofiq, butun o'qitish va tarbiyalash tadbirlari ta'limni insonparvarlashtirish hamda demokratlashtirish talablariga bo'ysunishi sababli demokratik qonunlarga, shaxsga, insoniy munosabatlarga asoslangan tarbiyalovchi va kamol toptiruvchi ta'limning birligi yetakchi qoida bo'lib qoldi.

O'qitishning prinsiplaridan uning qoidalari kelib chiqadi va ular u yoki bu prinsiplarning xususiy qoidalarini aks ettiradi. Masalan, o'qitishning ko'rsatmalilik prinsipi ta'limning ko'rsatmali qo'llanmani hozirlash, o'quvchilarni uni idrok etishga tayyorlash, qo'llanmani ko'rsatish va tahlil qilish kabi qoidalarini taqozo etadi.

O'qitishning tizimlilik prinsipi quyidagi qoidalardan iborat: yangi o'zlashtirilgan bilimlarni ilgari olingan bilimlarga bog'lash, materialni qismlari bo'yicha bayon qilish, o'rganilgan bilimlarni mustahkamlash va hokazo. O'qitish prinsipi butun ta'lim jarayoniga tarqaldi, ta'limning qoidasi faqat ana shu jarayonning ayrim tomonlari va zvenolaridir.

Y.A.Komenskiy o'zining «Buyuk didaktika» asarida didaktikaning prinsiplarini ishlab chiqqanidan boshlab, ularni deyarli barcha pedagog olimlar ko'rib chiqdilar, lekin o'qitish prinsiplarining soni va mazmunini belgilash xususida hozirgi kungacha bir fikrga kelingani yo'q.

PRINSIPLARNI TANLASHGA UMUMIY YONDASHISH

Prinsiplarning soni 6 tadan 11 tagachadir. Didaktika tadqiqotchilaridan ayrimlarining asarlarida turli prinsiplar tavsiya etilgan. Masalan, M.I.Skatkin uzluksiz ta'lim tamoyilini hisobga olib, o'qitishning mustaqil bilim olishga o'tish prinsipi joriy etilishini taklif qiladi, shuningdek, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga katta e'tibor berib, ta'lim ijobiy asosda olib borilishi prinsipni maqsadga muvofiq deb biladi. Y.K.Babanskiy didaktikaning yangi yo'nalishlaridan biri – optimallashtirish nazariyasini ishlab chiqib, mana shu nazariyaning amaliy yo'nalishini aks ettiradigan uchta yangi prinsipini tavsiya qiladi. Bular:

1) ta'limning og'zaki, ko'rsatmali va amaliy, reproduktiv va izlanishli, shuningdek, boshqa metodlar hamda usullarini to'g'ri birlashtirish;

2) ta'limning dars, darsdan tashqari, shuningdek, umumsinf, guruhiy va yakka tartibdagi shakllarini to'g'ri birlashtirish;

3) o'quvchilarning o'qishga ijobiy munosabatini kuchaytirish, ularda bilishga qiziqishni, bilimlarga ehtiyojni tarkib toptirishdan iboratdir¹.

Bu prinsiplar hali barqaror prinsiplar tizimiga kirgani yo'q, lekin tajribali pedagoglar pedagogikaning tegishli mavzulari va bo'limlarini o'tishda ulardan foydalanmoqdalar.

O'QITISHNING YETAKCHI PRINSIPLARI

O'qitishning har xil prinsiplari tavsiya etilgan va etilayotgan bo'lsa ham, lekin barcha tadqiqotchi-didaktlar uchun bir qator umumiy prinsiplar mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1. O'qitishning tarbiyalovchi va kamol toptiruvchi prinsipi.
2. Ilmiylik, tizimlilik va izchillik.
3. Ta'limning amaliy hayot bilan bog'lanishi.
4. Onglilik va faollik.
5. Ko'rsatmalilik.
6. Tushunarlilik.
7. Puxtalik.

Barcha predmet o'qituvchilari hamma sinflarda ana shu prinsiplarga rioya qilishlari kerak. Ammo predmetlarning mazmuniga, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga, ko'rsatmali qo'llanmalar mavjudligiga bog'liq holda prinsiplarning nisbati hamda mazmuni o'zgaradi. Masalan, ko'rsatmalilik prinsipi tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida tajribalarni namoyish etish bo'lsa, tilni o'qitishda grammatika jadvallarini ko'rsatish, doskaga yozish, sxemalarni chizish va hokazolardan iborat bo'ladi.

Lekin har qanday predmetni o'qitishda jonli mushohada, ya'ni narsa va hodisalarni muayyan idrok etish, fikrlash prinsiplariga amal qilish, boshqacha aytganda, nazariy xulosalarni tushunish va bilish, ularni hayotda qo'llay olish zarur.

ILMIYLIK, TIZIMLILIK VA IZCHILLIK PRINSIPI

Maktab ta'limiga qo'yiladigan ilmiylik talabi xalq ta'limi to'g'risidagi barcha qonunlar, «Umumiy ta'lim maktabi konsepsiyasi» hamda «Sinfdan va

¹ Ю.К.Бабанский. Принцип обучения в современной образовательной школе. – Народное образование. 1979. №2.

maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi»da ifodalangan yetakchi talabdir. Hozirgi kunda, ya'ni fan va texnika rivojlangan, ilmiy bilimlar, mustaqil davlatni qurish va uni rivojlantirishning har xil amaliy masalalarini hal qilishning zarur shartiga aylanayotgan davrda mazkur prinsiplarni amalga oshirish nihoyatda muhimdir.

Ilmiylik prinsipi maktab ta'limi mazmuniga fanda aniq rasmiylashgan o'quv materiallarini kiritishni (bu talab maktab dasturlari va darsliklarini taqqoslashda, o'qituvchi har bir dars uchun material tanlashda hisobga olinadi), o'quvchilarni o'z yoshlariga mos ilmiy tushunchalar bilan qurollantirishni talab qiladi. Dastur va darsliklarda esa ana shunday tushunchalarni o'zlashtirishning tartibi ifodalanadi. Bu tartibga jiddiy rioya etish hamda o'quv jarayoniga faqat fanlarda qabul qilingan ta'riflarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Ilmiylik prinsipi o'qituvchidan o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqiga alohida e'tibor berishni, u yoki bu masalalarni ilmiy asosda tushunishdan hech qanday chekinishga yo'l qo'ymaslikni, ilmiy tushunchalarni va so'zlarni to'g'ri qo'llashni talab qiladi.

Tabiat hodisalarini (momaqaldiroq, chaqmoq, shamol, qor, yomg'ir va hokazolarni), shuningdek, jamiyat hayotida eng muhim o'zgarishlarni ilmiy jihatdan aniq bayon qilish katta ahamiyatga molikdir.

Bolalar ta'limning dastlabki yillaridanoq ishning ratsional usullarni: reja bo'yicha hikoya qilishni, o'qilgan narsalardagi asosiy fikrni topa olishni, isbotlay bilishni, o'quv materialini anglagan holda yodlashni o'zlashtirishlari kerak.

Mazkur prinsip fanning tarmoqlari barq urib rivojlanayotgan hozirgi kunda alohida ahamiyatga molikdir. Shuning uchun o'qituvchi har bir darsga tayyorlanishda darslik va o'quv qo'llanmalaridan tashqari, fanlarning so'nggi yutuqlari yoritilgan vaqtli matbuot vositalaridan ham foydalanishi lozim. Bunda boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni zamonaviy fanlarning yutuqlari bilan tanishtirish kerakmas, degan fikrni ma'qul deb bo'lmaydi. Binobarin, bolalarga berilgan barcha nazariy ma'lumotlar va ular o'rgangan qoidalar ilmiy bilishning hozirgi rivojlanish darajasiga zid kelmasligi lozim. Ta'limning ana shunday yo'lga qo'yilishi o'quvchilar maktabning yuqori sinflariga o'tish bilan ularni qayta yo'naltirish va qayta o'qitish zaruriyatini bartaraf etadi.

O'qituvchi bolalarga fanning so'nggi yutuqlari haqida so'zlab berishi, bilimlar tizimi asosidagina fanni o'rganish mumkinligini tushuntirishi lozim. Y.A.Komenskiy va I.G.Pestalossi o'z davrlaridayoq bilimlarni o'rganish uchun ularning navbatdagi har bir zvenosi o'zidan oldingi zvenolarga asoslanishi, yangi bilim ilgari o'zlashtirilgan bilimlarga jiddiy mantiqiy tartibda bog'lanishi zarurligini ishonarli tarzda isbotlaganlar.

Bilimlarni tizimli bayon qilish nimani anglatadi? Bilimlarni tizimli bayon qilish – ularning yangisini ilgari o‘tilgani bilan bog‘lash, shu orqali o‘quvchilarning tushuncha va tasavvurlari doirasini kengaytirish hamda chuqurlashtirish, materialni qismlari bo‘yicha o‘rganish, ularning asosiy jihatlari, umumiy g‘oyasini alohida ifodalash bilan o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini yo‘nalishga solish va rivojlantirish, ularga mustaqil holda tahlil qilishni, o‘zlashtirilgan ma‘lumotlarni tizimga solish va umumlashtirishni o‘rgatishdir.

O‘qituvchining bilimlarni tizimli bayon qilishi o‘quvchilarga o‘quv predmetining tuzilishi va mantiqini chuqurroq tushunish, fanning bosh g‘oyasi va asosiy qoidalarini ajratish, tabiat va jamiyat hodisalari o‘rtasidagi ichki bog‘lanishni aniqlash imkonini beradi.

O‘qitishning jiddiy tizimlilik muvaffaqiyatli olg‘a borishning garovi bo‘lib, fikrlarni tartibga soladi, bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishni osonlashtiradi hamda yaxshilaydi, voqelikni to‘g‘ri bilishni ta‘minlaydi, aql, iroda va xarakterni rivojlantiradi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga talablar qo‘yishda ham, ularning bilimlari, ko‘nikmalari, malakalari va xatti-harakatlarini baholashda ham, fikr-mulohaza yuritishda ham izchillik ko‘rsatishi kerak.

O‘qitishning izchilligi faqat o‘quv materiallarini joylashtirishda qat‘iy tizimni emas, faqat yangi bilimlar berishda, o‘tilgan materiallarni mustahkamlash va tekshirishda tafakkurni jiddiy va batartib rivojlantirishning emas, balki ilgari o‘rganilgan bilimlarni doimiy ravishda takrorlashni, ulardan keyingi mashg‘ulotlarda yangi ma‘lumotlar va hodisalarni tushuntirish, ularni taqqoslash uchun, turli masalalarni hal qilish uchun foydalanishni ham talab qiladi.

Yuz yil muqaddam ta‘limda yaqindan uzoqqa, oddiydan murakkabga, osondan qiyinga, ma‘lumdan noma‘lumga qoidasi vujudga kelgan. Bu qoida ham tizimlilik prinsipining mohiyatidan iboratdir.

TA‘LIMNING AMALIY HAYOT BILAN BOG‘LANISH PRINSIPI

Biz o‘quvchilarimizni hayotga, jamiyat qurilishida qatnashishga tayyorlaymiz. Shuning uchun ta‘lim amaliy hayot bilan bog‘lanishi kerak. Hozirgi paytda nazariyani amaliy hayot bilan bog‘lash prinsipi alohida ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra, uni ta‘lim-tarbiya ishining hamma yo‘nalishlarida amalga oshirish zarur.

Forobiy har qanday fanni ikki qismga, amaliy va nazariy qismlarga ajratgan. Mana shu qismlarni qisqacha sharhlashda ulardan hayotda foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan. Uning amaliy va nazariy

qismlarga bergan ta'riflaridan ta'limni amaliy yo'nalishda olib borish va hayotga, kishilarning kundalik faoliyatiga bog'lash fikri tug'iladi.

Nazariyani amaliy hayot bilan bog'lash prinsipini ro'yobga chiqarish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi kerak:

a) o'rganiladigan materialni o'quvchilarning shaxsiy tajribasi va kuzatishlari bilan, quyi sinflarda esa ularning o'yinlari bilan bog'lash darkor, chunki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qitish albatta o'yin faoliyatini talab qiladi;

b) ta'limni atrofdagi hayot bilan, yangi jamiyatni qurish amaliyoti bilan bog'lash;

d) nazariyani amaliyot bilan fanning rivojlanishi, jamiyatning ehtiyojlariga bog'liqligini yoritadigan qadamjolarga sayohatlar shaklida bog'lash;

e) nazariy va amaliy yo'sindagi turli masalalarni hal qilish va topshiriqlarni bajarish, laboratoriya ishlari bilan shug'ullanish va ishlab chiqarishga doir mavjud bilimlar asosida amaliyotlar o'tkazish hamda ularning natijalarini albatta tekshirish;

f) o'quvchilarning unumli mehnati, ya'ni ijtimoiy-foydali ishlarni o'zlariga mos shakllarda yo'lga qo'yish.

Mazkur prinsip, xususan, mehnat tarbiyasi va ta'limi jarayonida yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Ta'limda o'quvchilarning ongliligi va faolligi prinsipi talabiga ko'ra o'qitish o'quvchilar ilmiy bilimlarini va ularni amalda qo'llash usullarini ongli hamda faol o'zlashtiradigan, o'quv faoliyati ularning ijodiy tashabbuskorligi va mustaqilligini, tafakkuri, nutqi hamda dunyoqarashini shakllantiradigan yo'sinda tashkil etilishi kerak.

Ta'limdagi onglilik o'quvchilar o'z faoliyatlarining aniq maqsadlarini tushunishini, dalillar, hodisalar, jarayonlar va ularning o'zaro bog'liqligini anglashni va o'zlashtirgan bilimlaridan amalda foydalana olishini bildiradi. Shuningdek, ta'limning ongliligi o'quvchilarning o'qishga mas'uliyatli munosabatda bo'lishini, o'qituvchi bergan topshiriqni o'z vaqtida va aniq bajarishga intilishini ham anglatadi.

O'quvchilarning faolligi ular sinfda, laboratoriyada ijodiy materiallarni o'rganayotganlarida, topshiriqlarni, ijodiy ishlarni bajarayotganlarida namoyon bo'ladi. Mana shu xildagi ishlar va har xil topshiriqlar o'quv faoliyatida o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda o'quvchilarning faqat adabiyotlar bilan ishlashi yoki turli ta'limiy topshiriqlarni bajarish emas, balki ularning mustaqil fikrlashni o'rganishi, doimiy ijodiy izlanishga intilishi, o'zini uzluksiz nazorat qilishi, bitirgan ishlarning natijalarini mustaqil holda to'g'ri baholashi ham nazarda tutiladi.

Onglilik va faollik prinsipini amalga oshirish o'quvchilarga o'rganiladigan predmet yoki bo'limning maqsadi va vazifalarini tushuntirishdan hamda amaliy ahamiyatini yoritib berishdan boshlanadi.

O'quvchilarning bilish faoliyati, ularning darsdagi hissiy idroki va amaliy ishlari o'qituvchining gaplari orqali amalga oshadi. O'quvchilarning bilish faoliyatida o'qituvchining og'zaki axboroti va o'quv adabiyotlarini mustaqil o'qishi juda muhim rol o'ynaydi. Ta'limning onglilik prinsipi o'quvchilar yangi materialni idrok etishda faqat ta'riflarni aytib berishni emas, balki ularning muayyan hodisalarga, jarayonlarga bog'liq mazmunini tushunishni ham o'rganishlarini talab qiladi. Aks holda bilimlarda rasmiyatchilik vujudga keladi va o'quvchilar materialni quruq yodlaydigan va qayta so'zlab beradigan bo'ladilar, lekin uning mohiyatini tushunmaydilar va o'zlashtirgan ozmi-ko'pmi bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llay olmaydilar. Rasmiyatchilikning sabablaridan biri, o'qituvchining materialni bir qolipda bayon qilishidir. Bunday holda o'quvchilar uning gaplarini ishonch bilan tinglaydilar va eslab qoladilar, lekin uni fikran tahlil qilmaydilar. Turli masalalarni qo'yish, ko'rsatmali qurollardan keng foydalanish va o'quvchilarni amaliy ishlarga jalb etish orqali ularni bilish faoliyatini kuchaytirish bilimlaridagi rasmiyatchilikning oldini olishning muhim vositasidir. O'quvchilarning yangi material bo'yicha bilimlarini tekshirib, uni qanchalik anglaganini va ilgari o'tilgan materialga qanday bog'laganini, uni amalda (har xil masalalarni hal qilishda, turli mashqlarni, mehnat topshiriqlarini bajarishda) qo'llay olishini aniqlash katta rol o'ynaydi. Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish o'quvchilarda ana shu bilimlarga ma'lum munosabatni, hissiy kechinmalarni tarkib toptirishni ham o'z ichiga oladi. O'quvchilarning bilimlarni egallashga faol munosabati ularning bilish faoliyatini yana-da kuchaytiradi.

TA'LIMDA ONGLILIK VA FAOLLIK PRINSIPI

Onglilik va faollik prinsipi quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarning o'quv faoliyatida o'z oldilaridagi maqsad va vazifalarning mohiyati hamda ahamiyatini, ya'ni o'zlari nima uchun o'qishlari kerakligini tushunishlari.
2. Bilimlarni o'zlashtirishga qat'iy intilish, ya'ni o'qishga ishtiyoq.
3. Fanni egallashga olib boradigan yo'llarni, ya'ni hozirgi zamon kishisi uchun zarur bilimlarni qaysi usullar bilan o'zlashtirish mumkinligini bilish.
4. Fanning faktlari hamda qonuniyatlarini ravshan va chuqur tushunish, o'quv materiallarining bola ongida qayta ishlanishi va uning o'z boyligiga aylanishi, olingan bilimlarni hayotda qo'llay bilish.

Onglilik prinsipining amalga oshishi avvalo fan materialining ongda qayta ishlanishidan iborat bo'lib, bu jarayon shaxsda o'z nuqtayi nazarini va ishonchi shakllanishining, ya'ni dunyoqarash va onglilik tarkib topishining zarur shartidir.

«Bilim» va «ishonch» har xil tushunchalardir. Biz, masalan, bir kishi haqida «e'tiqodli, o'zining nuqtayi nazariga ega, mustaqil fikrlaydi», desak, boshqa kishi to'g'risida «nimani eshita, nimani o'qisa, ishonaveradi, o'zicha fikr yuritmaydi», deymiz. Demak, ular bir xil kishilar emas.

Donolardan biri ta'kidlaganidek, ishonchni saxiy odamlardan olib yoki kitob do'konidan xarid qilib bo'lmaydi, uni xuddi ovqat oshqozonda hazm bo'lganidek, har kim o'zining kallasida mustaqil holda vujudga keltirishi kerak.

Bilimlar ishonchga aylanishining yagona yo'li o'quv materialining o'quvchilar ongida qayta ishlanishidir.

O'qituvchining vazifasi o'zlashtirilgan bilimlar ishonchga aylanishini ta'minlashdir va bunda o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligi juda muhimdir. Shunga ko'ra pedagogikaning zarur muammolaridan biri darsda o'quvchilarning bilishga doir ishlarini faollashtirishdir.

Dars jarayonida mazkur prinsip qanday qilib amalga oshirilishini ifodalash uchun ikkinchi sinf ona tili darsi misolida «predmetning belgisi» mavzusini o'rganish bo'yicha ikkita misol keltiramiz.

1. O'qituvchi ana shu mavzuni o'tishda doskaga bir necha gapni ketma-ket yozadi, o'quvchilar bilan ularga ma'lum gapning bosh bo'laklarini – ega va kesimini tahlil qiladi, so'ngra o'quvchilarning e'tiborini gapning ikkinchi darajali bo'laklariga – aniqlovchiga qaratadi. Ko'rib chiqilgan misollar asosida xulosa chiqarib: «Gapning shunday ikkinchi darajali bo'laklari borki, ular predmetning belgisini bildiradi va qanday? qanaqa? qaysi? so'roqlariga javob bo'ladi», – deydi.

2. O'qituvchi xuddi shularni boshqacha bayon qiladi.

Dars kirishdan boshlanadi: «Biz bugun grammatika bo'yicha yangi mavzuni o'rganamiz. Men mavzuni aytmayman, uni keyinroq o'zlaringiz aytasizlar. Hozir men sizlarga bir matn beraman, uni o'qing va o'ylab ko'ring. Matnda aytilgan odam to'g'risida yaqqol tasavvur hosil qiling». O'qituvchi ana shu so'zlarni aytib, doskaga bolalar biladigan qahramonning obrazi yozilgan plakatni osib qo'ydi. Matnda ham aniqlovchilar tushirib qoldirilgandi. Mana o'sha matn: «Men uning... chehrasiga qaradim va u haqiqatan ham hech narsadan qo'rqmaydi, deb o'yladim. Shunday... irodali va shunday... so'zlaydigan bola qorong'ulikdan ham, bezorilardan va ... narsalardan ham qo'rqmasligiga ishonch hosil qildim».

O'qituvchi o'quvchilarga o'ylab olish uchun biroz vaqt berdi va ulardan shu matnni o'qib, o'sha bola to'g'risida qanday tasavvur hosil qilishganini aytib berishlarini so'radi.

O'quvchilar qiynaldilar, ular juda qisqa yozilgan matndagi odamning qiyofasini tasvirlab bera olmadilar.

Shunda o'qituvchi o'quvchilarning diqqatini hikoyaning to'liq matni yozilgan plakatga jalb qildi. O'quvchilar ana shu ta'rifdan qahramonning qiyofasini yaqqol ko'z oldilariga keltirdilar. Shundan so'ng o'qituvchi ikkala matnni taqqoslashni va ularning farqini aytishni taklif qildi. O'quvchilar birinchi plakatda predmetning belgisini bildiradigan so'zlar yo'qligini aniqladilar.

Shunday qilib, o'quvchilarning o'zlari aniqlovchi nima ekanligi haqida xulosa chiqardilar. Bu esa ularni fikrlashga, faollik ko'rsatishga majbur qildi, bilimlarni ongli o'zlashtirishlarini ta'minladi.

KO'RSATMALILIK PRINSIPI

Bilishning birinchi pog'onasi – jonli mushohada, ya'ni tevarakatrofdagi narsalar va hodisalarni idrok etishdir. Ko'rsatmalilik prinsipi idrok etishni osonlashtirishi va nazariy bilimlarni hayot, amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi. Bu prinsip o'rganilayotgan hodisalarga qiziqishni oshiradi, bilimlarni puxtaroq egallashga yordam beradi.

Ibn Sinoning qayd qilishicha, inson o'zining o'quv mashg'ulotlari boshlanishida, narsaning tashqi xossalarini o'rganishda, uning aslini va tasvirini ko'rib, o'zicha bevosita bilimlarni hosil qilishi mumkin. Har qanday fanda avvalo, narsalarning ta'rifi zarur. Ularning mavjudligi esa pirovard-natijada isbotlash vositasida bilinadi, chunki ular mazkur fan aniqlaydigan hodisalardan iborat bo'ladi¹. Ibn Sinoning ana shu xulosasi o'qitishdagi ko'rsatmalilikning faqat bir jihatini yoritadi, xolos. Xulosada avvalo inson mavjud narsalarni yoki ularning tasvirlarini idrok etishi tufayli unda obyektiv voqelik to'g'risida tasavvur hosil bo'lishi va inson ularni to'g'ri aks ettirishi ta'kidlanadi¹.

Olimning ta'limotida ko'rsatmalilik tushunchasi idrok etishning har xil turlari – ko'rish, eshitish, sezish va hokazolar bilan bog'langan. Idrok etish tashqi sezgi orqali amalga oshadi va ushlab ko'rish bilan ham ro'y beradi. Ushlab ko'rish sezilgan narsaning issiqligi, sovuqligi, namligi, quruqligi, qattiqligi, yumshoqligi, og'irligi, yengilligi, shakli va hokazolarini bilish imkonini beradi. Teri va mushaklar sezgining qurolidir. Nervlar ana shu kuchni mushaklar va teriga yetkazadi.

Yan Amos Komenskiy «Buyuk didaktika» nomli asarida «oltin qoida»ni ifodalagan. «O'quvchilar, – deb yozadi u, – sezib idrok etishi mumkin

¹ *Абу Али ибн Сино. Избранные произведения.* –Т., И. Душанбе, Ирфон. 1980, Стр. 97-98.

boʻlgan narsalarni, albatta, sezgilar vositasi bilan, xususan: koʻrish mumkin boʻlgan narsalarni koʻz bilan koʻrib, hidi bor narsalarni hidlab koʻrib, taʼmini sezish mumkin boʻlgan narsalarni tatib koʻrib, ushlab sezish mumkin boʻlgan narsalarni ushlab bilib olishlari kerak... Birdaniga koʻp sezgilar yordamida idrok etish mumkin boʻlgan narsalarni, iloji boricha, bir necha sezgilar yordamida idrok etish lozim».

Y.A.Komenskiy bu qoidaning uchta asosini ifodalagan:

Birinchidan, avval sezmagani narsasi haqida kishida bilim ham boʻlmaydi. Shuning uchun ham oʻqitish narsalar haqida quruq mulohaza yuritishdan emas, balki narsalarni bevosita kuzatishdan boshlanishi kerak.

Ikkinchidan, bilimning toʻgʻri va aniqligi ham faqat sezgilarning guvohligiga bogʻliq. Demak, bilim sezgilarga qanchalik koʻproq tayansa, u shunchalik ishonchliroq boʻladi. Bolalarga haqiqiy va mustahkam ilm berish uchun, umuman, hamma narsani bevosita kuzatish va sezgilar asosida oʻqitilishi kerak.

Uchinchidan, sezgilar – xotiraning eng ishonchli vositasi. Agar kishi tuyani bir koʻrgan boʻlsa, bir marta qand yegan boʻlsa, Rimga bir marta borib, uni diqqat bilan tomosha qilgan boʻlsa, bulbul xonishini bir marta eshitgan boʻlsa, bularning hammasi xotirada mustahkam qoladi va esdan chiqib ketmaydi.

Komenskiy oʻz mulohazasini mustahkamlash uchun Plavtning quyidagi fikrini keltiradi: «Eshitganini aytib beradigan oʻnta kishidan oʻz koʻzi bilan koʻrgan bitta guvoh afzal»¹.

Y.A.Komenskiy xulosasi – oʻquvchini boshqalarning narsalar haqidagi kuzatishlari va guvohliklarini emas, balki oʻsha narsalarning oʻzini bilishga va tadqiq etishga oʻrgatish zarur.

Maktab amaliyotida ham tasdiqlanganidek, darsda oʻrganiladigan hodisaning eng muhim tomonlarini aniq ifodalaydigan, ana shu belgilarni avval ajratishda, keyin guruhlashda, umumlashtirishda oʻquvchilarga xalaqit beradigan ortiqcha elementlardan xoli koʻrsatmali qoʻllanmalardan, shuningdek, obrazli tasvirlar sxematik tasvirlarga uygʻunlashgan holda, yaʼni oʻquvchilarning fikrlashini muayyandan mavhuma oson yoʻnaltiradigan qilib ishlangan koʻrsatmali qoʻllanmalardan foydalanish gʻoyat samarali tadbirdir. Boshlangʻich sinflarda obyektning oʻzini namoyish etish yoki ular bilan bevosita tabiatda tanishish, darslarda narsalarning oʻzidan iborat tarqatma materiallarni qoʻllash maqsadga muvofiqdir. Rasmi koʻrsatmali qoʻllanmalar: manzara tasvirlari, diapozitiv va diafilmlarning samarasi kamroq boʻlsa-da, lekin ular orqali ham u yoki bu narsalar toʻgʻrisida yaxlit tasavvurlar hosil qilish mumkin.

¹ Y. A. Komenskiy. «Buyuk didaktika». «Oʻqituvchi» nashriyoti. T., 1975, 174–175-betlar.

Aralash ko'rsatmali vositalar to'plami o'quv jihozlarining muhim elementi bo'lishi kerak. Ular dars vaqtlarida turli ko'rsatmali vaziyatlarni yaratish, tez o'zgartirish va birlashtirishda yordam beradi. Buning uchun rasmi materiallardan foydalaniladi yoki doskaga bo'r bilan rasmlar, chizmalar chiziladi va har xil yozuvlar bajariladi. Mazkur vositalar jumlasiga magnitlik taxta va flanelegraflar ham kiradi. Ularning didaktik imkoniyatlari bir xildir.

Shuni ta'kidlash lozimki, ko'rsatmali qurollarni, shu jumladan, ta'limning texnik vositalarini universallashtirish yaramaydi. Ular boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda beqiyos katta ahamiyatga molikdir, ammo o'quv jarayonida audiovizual qo'llanmalar, ahyon-ahyonda boshqa ko'rsatmali vositalardan foydalaniladi. Buning esa quyidagilardan iborat turli variantlari bor:

1. Dasturdagi ashyolarni qayta ishlash mavzusi bo'yicha kirish darsida o'quv filmi namoyish etish va keyingi darslarda kinofragmentlar, diapozitivlar, diafilmlar va jadvallarni qo'llash.

2. Mavzuning xususiy masalalarini diapozitivlar, diafilmlar, jadvallar, namoyish qilinadigan tajribalar, kinofragmentlar va kinokolsovkalardan foydalanib ishlab chiqish.

Mazkur mavzu bo'yicha umumlashtirish darsida o'quv filmi ko'rsatish.

3. Darsda o'qituvchining tushuntirishi bilan birgalikda diafilmlar, diapozitivlar, kinofragmentlarni va darsning oxirida o'quv filmi namoyish etish.

4. O'quvchilarning tasavvurini kengaytirish, shakllanadigan tushunchalar mazmuni to'liqligini ta'minlash uchun ekran qo'llanmalarining bitta seriyasidan foydalanib o'quv materialini ishlab chiqish va ularning boshqa to'plamini qo'llab, bilimlarni mustahkamlash.

Ko'rsatmali vositalarning turli didaktik vazifalari va imkoniyatlarini nazarda tutib, darsda ularni kompleks holda qo'llash talab qilinadi. Ana shu taqdirdagina darsning har bir bilish vazifasini hal qilishda eng yuqori samaraga erishish mumkin. Shular bilan birga, o'rganilayotgan hodisaning turli jihatlarini yoritish lozim bo'lgandagina har xil ko'rsatmalardan foydalanish o'zini oqlaydi.

Chunki mazkur jihatlarining har birini ko'rsatmalilikning ma'lum turi yordamida ishonarli tarzda va to'la yoritilishi mumkin. Ko'rsatmali vositalarni tanlashda ularning imkoniyatlarini har bir o'quvchi predmetining o'ziga xos xususiyati va har qaysi darsning mazmuni bilan taqqoslash zarur.

Ko'rsatmali qo'llanmalarda ko'rsatmalilikning quyidagi har xil turlaridan foydalaniladi:

1. Tabiiy ko'rsatmalilik o'quvchilarni mavjud obyektlar: o'simliklar, hayvonlar, minerallar va hokazolar bilan tanishtirishni taqozo etadi. Tabiiy ko'rsatmalilikni sinfda ham, ekskursiyalar paytida ham namoyish etish mumkin.

2. Hajmli ko'rsatmalilik – mavjud olamning hajmli aks etishidir. Bu esa fotosurat, rasm, diafilm va diapozitivlardan iboratdir.

3. Ovozli ko'rsatmalilik – tovush obrazlarini ifodalash uchun ovozli vositalardan foydalanish. Gramplastinkalar va magnitofon yozuvlarini eshitish, ovozli kino.

4. Ramziy va grafik ko'rsatmalilik – xaritalar, rejalar, sxemalar, chizma va diagrammalar. Ular mavjud voqelikni shartli umumlashgan ramziy ko'rinishda aks ettirish sababli fikrlashni rivojlantiradi.

Maktabda birinchi sinfdan o'ninchi sinfgacha ko'rsatmalilikning ana shu barcha turlaridan foydalaniladi, lekin, tabiiyki, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning yoshini hisobga olib, ularga bevosita kuzatishlarni topshirish, yuqori sinf o'quvchilari fikrlashining rivojlanishida ramziy va grafik kuzatishlarni ko'proq qo'llash kerak.

Ko'rsatmalilik, ayniqsa, o'quvchilar o'rganiladigan u yoki bu narsalar to'g'risida muayyan tasavvurga ega bo'lmagan paytda juda zarurdir. Ammo shuni ham unutmaslik lozimki, ko'rsatmali qo'llanmalarni namoyish etishga tayyorlanmaslik yoki ularni noto'g'ri tanlash faqat zarar keltiradi.

TUSHUNARLILIK PRINSIPI

O'quvchilar materialni ongli ravishda o'zlashtirishi uchun doimo ularning bilimlari va aqliy qobiliyatlarini hisobga olib ish tutish, ya'ni ularga mos materiallarni berish kerak. O'quvchilarning har xil sinflarda aqliy qobiliyatlari ham turlicha bo'ladi. O'z-o'zidan ayonki, o'qituvchi birinchi sinfga kirsay, biror asarning badiiy xususiyatlari to'g'risida gapira boshlasa, bolalar hech narsani tushunmaydi, albatta.

«Ta'lim tushunarli bo'lishi uchun, – deb uqtirgan edi Abu Rayhon Beruniy, – o'qituvchi, albatta, yaqindan uzoqroqqa, ma'lumdan noma'lumga qarab borishi lozim: ta'lim doimiy ravishda bilimlarning to'planishiga, aniqlashuviga va iloji boricha takomillashuviga yetaklashi, shu orqali haqiqatni izlovchilar va bilimlarni sevadiganlarning hammasiga yordam berishi kerak».

Tushunarlilik prinsipi – o'quv materialini bolalarning yosh xususiyatlariga, muayyan bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlariga muvofiq yo'sinda bayon qilishdir.

Maktabda ko'pincha duch kelinadigan ikki xil noto'g'ri tushuncha bor. Ularning birinchisi shuki, ayrim o'qituvchilar o'quvchilarni mutlaqo qiynamaslik uchun ularga juda oddiy, tushunarli, o'zlariga aynan mos materiallarni berish kerak, deb biladilar. Obrazli qilib aytganda, materiallarni maniy bo'tqasidek, hatto chaynamasdan yutadigan qilib, bir

qultum suv bilan berish lozim, deb hisoblaydilar. Bunday o'qituvchilardan ta'lim oladigan o'quvchilar o'qishga oddiy va oson, hech qanday kuch talab qilmaydigan ish deb qaray boshlaydilar, hamma narsani o'qituvchi tushuntirishiga, bir necha marta tushuntirishiga odatlanadilar. Natijada fikr yuritishni, o'ylab ko'rishni o'rganmaydilar, qiyinchilikka duch kelsalar, uni bartaraf qilishga urinmaydilar.

Mazkur noto'g'ri fikrlarning ikkinchisi, o'qituvchi o'quv predmetini yuksak saviyada, hatto, Fanlar akademiyasi darajasida o'qitish kerak, deb hisoblaydi va bolalarga dabdabali, jimjimador ifodalarni aytadi, bolalar esa ularning ma'nosini anglamagan holda yodlayveradilar.

Mana shu noto'g'ri fikrlarning ikkalasi ham zararlidir.

Xo'sh, tushunarlilik prinsipining o'zi nima?

Bu prinsipga muvofiq, o'quv materialini bolalarga shunday qiyinlik darajasida berish kerakki, ular ana shu materialni o'zlashtirish uchun faol fikrlashlari, o'zlarining barcha aqliy va jismoniy qobiliyatlarini ishga solishlari lozim.

Boshlang'ich ta'limning nazariy saviyasini oshirish, boshlang'ich sinflardagi o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan axborotlar hajmini oshirish maktab yoshidagi bolalarga beriladigan ta'limning tushunarlilik muammosini keskinlashtirdi. Mana shu muammoni bir xil yo'sinda hal qilish bolalarning bilish imkoniyatlarini ortiqcha yoki yetarlicha baholamaslik kabi xavflidir.

Bolalar psixologiyasi va yosh psixologiyasi sohalaridagi so'nggi tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, ta'limning mazmuni va metodlarini o'zlashtirish bilan bolalardagi ayrim psixik jarayonlar va funksiyalarni rivojlantirishda ajoyib siljishlarga erishish mumkin; buning natijasida psixik jarayonlarning doimo kattaroq yoshli bolalarga xos deb hisoblangan xususiyatlari kichik bolalarda ham tarkib topishi (masalan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda fikrlashning nazariy shakllari vujudga kelishi) mumkin. Lekin bunda har qalay bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Yuqorida ko'rsatilgan dalillar go'yoki yosh kamolotida umuman qandaydir chegaralar borligiga va unda qandaydir bosqichlar mavjudligiga shubha tug'diradi. Lekin bu dalil bizga yosh tushunchasini yana-da kamroq o'zgartiradigandek tuyuladi, chunki ayrim xususiyatlarning shunchaki yig'indisi ekanligi bilan emas, balki bola shaxsining yaxlit tuzilishidagi o'ziga xoslik bilan xarakterlanadi. Boshqacha aytganda, bola yoshining psixik tavsifi uning o'ziga xos ayrim psixologik xususiyatlari bilan emas, balki har bir yosh bosqichida uning shaxsi har xil tuzilishi – ehtiyojlari sohasi, ongining tuzilishi va voqelikka munosabatining o'zgarishi bilan belgilanadi.

Boshlang'ich ta'limning tushunariligi muammosi faqat tegishli saviyadagi dastur va darsliklar yaratish bilan hal qilinmaydi, uning hal qilinishi butun o'quv jarayonining qo'yilishini takomillashtirish va o'quv materiallarini tanlash ishlari bilan bog'liqdir.

O'quv materialining tushunariligi belgilari sifatida quyidagilarni tavsiya qilish mumkin:

– material tanlashning yo'nalishi, avvalo tarbiyalovchi ta'lim vazifalaridan kelib chiqadi: fanning asosiy mazmunidan tabiat va jamiyatning eng umumiy qonunlari haqidagi ta'limotning to'g'riligini ko'rsatadigan qoida va dalillar tanlanadi, tafakkur, vatanparvarlik hissi, fuqarolik burchi va g'oyaviy e'tiqodlilikni tarbiyalashda yordam beradi;

– o'quv materialining ko'rimgiligi, uning miqdori o'qitish uchun tanlangan ilmiy bilimlar majmuasini tizimlashtirishga va yaxlit qamrashga to'sqinlik qilmaydigan bo'lishi bilan xarakterlanadi;

– o'quv materialining soddaligi ilmiy nazariyaning eng ahamiyatligi, muhim komponentlarni va ilmiy bilimlarni ifodalashning psixologik jihatdan asoslangan shakllarini ajratish (ta'riflarning soddalashtirilishi, tushunchalarning tasavvurlar bilan almashtirilishi, murakkab asoslashlarning tushirib qoldirilishi va hokazolar) bilan xarakterlanadi;

– o'quv materialining normalashtirilishi unda umumiy majburiy normalarni hamda yaqqol ifodalangan, eslab qolish va qo'llash uchun qulay qoidalarni ajratish bilan xarakterlanadi;

o'quv materialining taqsimlanganligi aslida uni o'quv jarayonining vazifalariga va o'quvchilarning yosh imkoniyatlariga muvofiq yo'sinda ta'lim yo'llari bo'yicha joylashtirishdir.

Ta'limning tushunariligi belgilarining mana shu tizimini yagona va qat'iy deb hisoblab bo'lmaydi. Lekin bu belgilarning ko'pi maktab amaliyotida tarkib topgan ishlarning haqiqiy ahvolini aniq va ishonarli aks ettiradi.

Boshlang'ich ta'limning nazariy saviyasini yuksaltirish munosabati bilan olimlar, metodistlar va o'qituvchilarning kamol toptiruvchi ta'lim prinsipini amalga oshirish masalalariga diqqat-e'tibori kuchaydi.

Keyingi paytda o'rganiladigan materialning mazmuni, hajmi, murakkabligi bilan o'quvchilarning aqliy kamol topishi sur'atining o'zaro bog'liqligi yoritilgan maxsus psixologik-pedagogik tadqiqotlarning (L.V.Zankov, D.B.Elkonin, V.V.Davidov) ma'lumotlari ta'sirida ta'limni o'quvchilardagi aqliy qobiliyat va bilish imkoniyatlarining rivojlanishida erishgan darajaga aynan muvofiq holda emas, balki shu darajadan oldinroq yo'sinda, ya'ni ularning kelgusidagi rivojlanishini mo'ljallab yo'lga qo'yish tavsiya etildi. Ta'lim kamol toptiradigan bo'lishi uchun «eng yaqin kamolot

zonasidagi» bilish imkoniyatlariga mo'ljallanishi kerak. Kamol toptiruvchi ta'lim masalasini amaliy hal qilishdagi ko'p xatolar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning mavhum fikrlash qobiliyatlarini yetarli darajada baholamaslikdan kelib chiqadi. Shuning natijasida ayrim maktablarda malakalarni shakllantirish hozirga qadar «mana bunday qil» degan prinsipda, ya'ni o'zlashtirgan umumiy qonuniyatlarni va umumlashmalarni ongli ravishda qo'llash asosida emas, o'qituvchi bergan namunalarga bevosita ergashish asosida amalga oshirilmoqda.

Shu sababli ba'zi o'quvchilar yangi materialni o'rganishda, ta'limiy va amaliy topshiriqlarni bajarishda ilgari o'zlashtirgan bilim va malakalardan foydalana olmaydilar.

Umar Xayyom ta'lim olishda o'quvchilarning mustaqil faoliyat ko'rsatishini yuqori baholagan va ularning har xil mushohada yuritishlari, turli narsalarni isbotlashlari zarurligini ta'kidlagan edi. Shuningdek, u o'quvchilarning fikrlash faoliyatlarini ularga «o'ylab ko'r», «ozgina o'ylasang, tushunasan» va hokazolar deya murojaat qilish orqali quvvatlab va yo'naltirib borish maqsadga muvofiqligini uqtirgan¹.

Ko'pincha o'quvchilarning kamol topishi haqida ularning turli narsalardan xabardorligiga qarab, har xil manbalardan olib, asosan filmlar va televideniye dasturlarini ko'rib, radioni va kattalarning hikoyalarini eshitib to'plagan qisqa ma'lumotlari va faktlarning ko'pligiga qarab xulosa chiqariladi. Ba'zan kichik maktab yoshidagi o'quvchilar nutqida ilmiy iboralar ko'p uchrashiga qarab, ularni yuqori darajada kamol topgan deb hisoblanadi. Lekin aslida murakkab ilmiy iboralarni ustalik bilan ishlatadigan o'quvchilar ma'lum sabablarga ko'ra ularning ma'nosini tushunmaydilar va grammatik tahlilda, yozishda xatolarga yo'l qo'yadilar.

Kamol topishni yuqoridagicha noto'g'ri tushunish amalda o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishga yuzaki qarashlarini vujudga keltiradi.

Aqliy kamolot o'zaro bog'liq hamda bir-birini taqozo etadigan bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimini o'zlashtirishni talab qiladi. Bunda esa, o'z navbatida faktlarni bilish, ularning ma'nosi va ahamiyatini tushunish, ilgaridan tanish bilimlarga tayanib tushuntira olish zarurati tug'iladi.

O'quvchilar yaxshi kamol topganligining muhim ko'rsatkichi ularning o'quv ishlaridagi faolligi va mustaqilligidir. Mutlaqo ayonki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar eng muhim mantiqiy operatsiyalarni o'zlashtirmay turib mazkur o'quv ishlarini bajara olmaydilar.

Shu tariqa kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy kamol topishini o'quv jarayonining tegishli mazmuni va to'g'ri yo'lga qo'yilishi ta'minlaydi.

¹ *Омар Хайём. Трактаты. М., В. Л. 1961. Стр. 116.*

MUSTAHKAMLIK PRINSIPI

Odam har daqiqada qayta tiklay oladigan va amalda qo‘llay biladigan bilimlar mustahkam bilimlar deyiladi.

Ta‘limning mustahkamligi o‘rganilgan bilimlarning, shakllangan ko‘nikma va malakalarning xotirada uzoq vaqt saqlanishini bildiradi.

Umumiy ta‘lim maktabining eng muhim maqsadi o‘quvchilarga ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanadigan bilimlar berishdir.

O‘quvchi vaqt o‘tishi bilan maktabda olgan bilimlarining bir qismini unutadi. Lekin ular izsiz yo‘qolmaydi. Olingan bilimlar, garchi o‘quvchilar unutmagan ham, aqliy kamolotda ma‘lum darajada iz qoldiradi.

Ko‘pincha bolalar o‘zlarining amaliy faoliyatlariga bog‘lanmagan maktab materialini eslaridan chiqaradilar.

Ba‘zan o‘rganish jarayonida mashq va mustaqil ishlar kam bajarilishi sababli materiallar xotirada mustahkam saqlanmaydi.

Bulardan tashqari, oldingi mashg‘ulotlarda o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar yana-da murakkabroq materialni o‘rganish uchun bir pog‘ona, tayanch bo‘ladi. Ana shu tayanchsiz o‘quvchilarning o‘sishi va olg‘a siljishi mumkin emas. Ilmiy bilimlarni egallash o‘quvchilarning xotirasini, mantiqiy tafakkurini, ijodiy faolligi va turli ishlarni bajarishdagi mustaqilligini rivojlantiradi. Lekin olingan bilimlar, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar keyinchalik, ilmiy bilimlar tizimini o‘rganishda tayanch sifatida xizmat qilishi uchun ular puxta o‘zlashtirilishi, asosli mustahkamlanishi va o‘quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanishi kerak. Bu mustahkamlik prinsipining talabiga rioya qilinmasa, o‘quvchilarning o‘zlashtira olmasligi va o‘qishdagi qoloqligi kelib chiqadi.

Bilimlar, ko‘nikma va malakalarning mustahkamligiga butun o‘quv jarayoni mobaynida erishiladi. Mustahkamlik prinsipining amalga oshishi, eng avvalo, o‘quvchilarning o‘quv materialini idrok etishiga bog‘liqdir.

O‘quvchilarga ko‘rsatmali, yaqqol, jiddiy mantiqiy izchillikda berilgan bilimlar ularning xotirasida yaxshiroq mustahkamlanadi. Shu tariqa o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta o‘zlashtirishi, birinchi galda, ta‘limning boshqa hamma prinsiplarini – tushunarlilik, izchillik va tizimlilik, nazariyani amaliyot bilan bog‘lash, ko‘rsatmalilik, o‘quvchilarning ongliligini amalga oshirish orqali ta‘minlanadi.

Shular bilan birga, o‘qitish jarayonida mustahkamlik prinsipining amalga oshishini ta‘minlaydigan maxsus didaktik vositalar ham qo‘llanadi. Ularga mazkur darsda bayon qilinganlarni mustahkamlash kiradi. Bu ish o‘quvchilar bilan suhbatlar, mashqlarni tashkil etish, ta‘limiy masalalarni hal qilish va har xil amaliy topshiriqlarni bajarish orqali o‘tkaziladi.

O'quvchilar materialni esdan chiqarishining oldini olish, ular unutgan bilimlarni qayta tiklash, o'zlashtirgan bilimlarini tizimlashtirish va chuqurlashtirish uchun takrorlashning har xil turlari amalga oshiriladi. Har bir mashg'ulotda oldingi dars materialini joriy takrorlash o'tkazilib, u yangi material bilan bog'lanadi. O'quv yili mobaynida mavzu yoki bo'lim bo'yicha o'rganilgan materialni takrorlash uchun maxsus darslar ajratiladi va uni tizimlashtirib, chuqurlashtirib hamda mustahkamlab boriladi. Ana shu maqsadda o'quv yili oxirida eng muhim masalalarga doir materiallar umumiy yo'sinda takrorlanadi. Agar mazkur predmetni o'rganish keyingi sinfda ham davom etsa, yangi o'quv yilida unga doir mashg'ulotlar oldingi materiallarni takrorlashdan boshlanadi.

Takrorlash passiv amalga oshirilmaligi kerak. Takrorlashda qo'shimcha fakt va misollarni keltirish, o'rganilgan narsa va hodisalarning yangi tomonlarini ko'rib chiqish, ularni chuqurroq tahlil qilish, bilimlarni murakkab ta'limiy va amaliy masalalarni hal qilishda qo'llash kerak. Mana shularning hammasi o'quvchilarning materialga qiziqishini oshiradi, mantiqiy tafakkurini, ishdagi faolligi va mustaqilligini rivojlantiradi.

O'quvchilarning bilimlarini puxta o'zlashtirishiga ko'nikma va malakalarni mustahkamlash hamda chuqurlashtirishda yordam beradigan mashqlarni bajarish orqali erishiladi. Shu bilan birga, ularning fikri takomillashadi, bilimlari kengayadi va chuqurlashadi.

O'quv mashg'ulotlari davomida o'qituvchi bolalarning xotirasini rivojlantirish ishlarini ham amalga oshirishi kerak. Ana shu maqsadda ularga so'zlarni, ta'riflarni, har xil qoidalarni yodlash topshiriqlarini berishi lozim. Yodlash quruq va ma'nosini anglab yodlashdan iborat bo'ladi. Ma'nosini anglab yodlash yangi materialni ilgaridan ma'lum materialga, nomlarga mantiqiy bog'lash asosida amalga oshadi. U quruq yodlashga nisbatan o'quvchilar xotirasida materialni kamroq vaqt sarflagan holda ko'proq mustahkamlashni ta'minlaydi.

Shuning uchun o'quvchilarda, avvalo, mantiqiy ma'nosini anglab xotirlashni rivojlantirish zarur.

Birinchi sinf o'quvchisi ta'limning dastlabki oylaridagi o'qish darslarida o'qilgan hamma narsani to'la yodlashga, matnlarni yoddan gapirib berishga harakat qiladi. Chunki u asosiy fikrni ajrata olmaydi.

O'qituvchining vazifasi o'quvchilar o'zlashtiradigan materialning mustahkamligini ta'minlashdan, darsni tushuntirish tizimidagi asosiy fikr ajraladigan yo'sinda tashkil qilishdan iboratdir.

Yuqoridagilardan xulosa sifatida aytish mumkinki, o'quvchilar o'zlashtiradigan bilimlar mustahkam bo'lishi uchun:

1. O'qituvchi o'quv materialidagi asosiy fikrni ajratishi shart.

2. O'quv materialidagi asosiy fikr o'quvchi o'rganilgan masala bo'yicha biladigan g'oyaga bog'langan bo'lishi kerak.

3. Bilimlar o'quvchilarning qarashlari va e'tiqodlari tizimini o'z ichiga olishi lozim, shundagina ular bolaning boyligiga, yutug'iga aylanadi va u bilimlarni esidan chiqarmaydi.

4. O'quv materialini o'quvchining amaliy ishlari va mashqlariga bog'lab, undagi bilimlarning mustahkamligini ancha oshirish zarur.

Ta'limning hozirgi sharoitida bolalarning individual xususiyatlarini o'rganish va ularga yakka tartibda yondashishni amalga oshirish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish vazifalarini bajarish uchun ota-onalar va bolalarga maktabdan tashqari qo'shimcha vositalarni tanlash bo'yicha keng imkoniyatlar tug'ilmoqda. Har bir bola to'garaklarda va seksiyalarda shug'ullanishi mumkin. Bolalarni kamol toptirish imkoniyati hamma bolalar uchun bir xilda ro'yobga chiqmaydi. Bir bola aviamodel to'garagida, ikkinchi bola yosh tabiatshunoslar seksiyasida va uchinchi bola musiqa bilan shug'ullanadi. Tabiiyki, ana shunday mashg'ulotlar bolalarning individual xususiyatlari va mayllariga har xil ta'sir ko'rsatadi.

Bir ciladagi bola kichikligidan mustaqillikka, intizomlilikka, mehnat qilishga odatlanadi. Boshqa oiladagi bola erkato'y bo'lib, kattalarning maslahati, buyrug'i yoki yordamisiz o'zicha biror ish qilishni xohlamaydi. Uchinchi oiladagi bola esa o'z holiga tashlab qo'yilib, uning tarbiyalanishida ko'p narsa o'zi do'stlashgan bolalar guruhiga bog'liq bo'ladi.

Oila tarbiyasining turli sharoiti, albatta, juda katta individual tafovutlarga olib boradi.

Bilimlarning puxtaligiga quyidagi yo'llar bilan erishish mumkin:

1. Eslab qolishga o'rgatish bilan. O'quvchilar ko'p narsalarni eslab qolishni o'rganishlari kerak. Buning uchun o'qituvchi ularni doimo eslab qolishga yo'naltirishi, maktabda, ko'chada, uylarida kuzatishga va eslab qolganlarini gapirib berishga majbur etishi lozim. Bunda o'qituvchining nazorati juda muhimdir. Agar u materialni chorshanba kunigacha yodlashni aytsa-yu, uni juma kuni so'rasa, materialning yarmidan ko'pi unutilgan bo'lishi mumkin. O'qituvchining tushunarli shakl va metodlari uzoq vaqtgacha, hatto umr bo'yi eslab qolishga ham o'rgatishi zarur.

2. Kuchli taassurot qoldirgan narsalar xotirada saqlanadi. Yaxshi yoki yomon ta'sir ko'rsatmaydigan, saviyasiz, bir yo'sindagi materiallar esda qolmaydi.

3. Badiiy abadiyotning yaxshi namunalaridan keltirilgan parchalar, maqollar, topishmoqlar, hikmatli so'zlar xotirada mustahkam saqlanadi.

Ta'limning muvaffaqiyatliligi o'qitish jarayonida didaktik prinsiplar qanchalik amalga oshirilishiga, ularning o'zaro ta'siri, ulardan qanday

foydalanishiga bog‘liqdir. Binobarin, o‘z-o‘zidan ayonki, ilmiylik, tizimlilik, ko‘rsatmalilik prinsiplariga, umuman, pedagogika tavsiya etgan prinsiplar majmuyiga rioya qilmay bilimlarning puxtaligiga erishish mumkin emas.

TA'LIMNI TURMUSH BILAN BOG'LASH PRINSIPI

Ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyatiga bo‘lgan ehtiyojlari asosida vujudga kelishi, ana shu faoliyatga xizmat qilishi va turmush bilan bog‘liqligi sababli bunday bilimlarni o‘zlashtirish uchun faqat ularning mazmunini emas, balki amalda qo‘llanishini ham o‘rganish kerak. Ana shu prinsipni (ta‘lim nazariyasi va amaliyotini o‘zaro bog‘lashni) amalga oshirishning muhim vositasi o‘qitishni o‘quvchilarning amaliy faoliyati va mehnati bilan qo‘shib olib borishdir. Respublikamizning xalq ta‘limi to‘g‘risidagi Qonunida o‘qitishni hayot bilan chambarchas bog‘lash talabi qo‘yilgani bejiz emas.

Ta‘limda o‘qitishni amaliyotga bog‘lash prinsipini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi ikkita pedagogik talabga rioya qilish zarur:

1. Nazariy materiallarni o‘rganishda ularning tizimi va mantiqini saqlash kerak.
2. Amaliy ko‘nikma va malakalarni bilimlarga tayanmay o‘zlashtirish o‘qituvchining ishidagi kamchilikdir. Puxta egallangan va anglangan bilimlarga o‘quvchilarga amaliy ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish imkonini beradi.

O‘QITISHGA INDIVIDUAL YONDASHISH PRINSIPI

Individuallik nima? Pedagogikada individuallik hozirgi paytgacha sof tashqi xarakterga ega bo‘lib, u (o‘quvchilarning butun jamoasi bilan o‘tkaziladigan dars, leksiya kabi umumiy mashg‘ulotlar, o‘quvchilarning jamoasi emas, ularning ayrimlari bilan o‘tkaziladigan, masalan, seminar singari guruh mashg‘ulotlar qatorida) har bir o‘quvchi bilan alohida shug‘ullanishni bildirib keldi. Pedagogika uning mohiyatiga chuqur kirib bormadi. Individuallikning shakllanishi esa, avvalo, uning mohiyatini va qanday komponentlardan tarkib topishini bilishni taqozo etadi. Har bir o‘quvchi bilan alohida ishlab, uning individual sifatlarini rivojlantira olmaslik ham mumkin, lekin o‘quvchilarning butun jamoasi bilan ishlab, ularning har birida individuallik shakllanishi uchun sharoit yaratish ham mumkin. Bunga qanday qilib erishilishini bilish uchun «individuallik» tushunchasiga kiradigan strukturaviy elementlarni, individuallikni rivojlantirish va shakllantirish ishida qaysi prinsiplar hamda metodlardan foydalanish kerakligini aniqlash zarur.

Individuallikning mohiyatini individ sifatidagi, shaxs sifatidagi, subyekt sifatidagi, insonning o‘zaro ichki bog‘lanishdagi va bir butun xossalari tashkil qiladi. «Individ», «shaxs», «subyekt» umuman insonni emas, balki uning bir jihatinigina ifodalaydi. Shuning uchun ham bizning ko‘z oldimizda inson o‘zining faqat u yoki bu jihati bilan namoyon bo‘lmaydi, u bir paytda butun mavjudot bo‘lib, maxsus tushuncha bilan qayd etilishi lozim. Individ, shaxs va subyektning xususiyatlari o‘zaro ta’sirlashuvi asosida vujudga keladigan individuallik tushunchasi ana shundan iboratdir.

«Individ» tushunchasi insonni tabiiy mavjudot sifatida aks ettiradi va individuallikning tabiiy asosini ifodalaydi; u inson individualligining asosiy jihati bo‘lib, insonning organik, yosh, jinsiy, konstitutsion, neyrodinamik xususiyatlariga kompleks holda qaraydi va bular o‘zaro ta’sirlanib insonda turli individual xususiyatlarning – temperament, iste’dod, organik ehtiyojlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi va bu xususiyatlar ham individuallikning tabiiy asosini tashkil qiladi.

Insonning ijtimoiy sifatini «shaxs» tushunchasi ifodalaydi. Ijtimoiy tajribaga ega bo‘lmagan inson individ shaxsga aylanmasligi ham mumkin. Inson shaxsining xususiyatlari individuallik strukturasi ajralmas qismi bo‘lib, individuallikning o‘zi inson shaxs sifatida kamol topishining ijtimoiy sohasidagina namoyon bo‘ladi. «Shaxs» tushunchasi alohida insonda ijtimoiy munosabatlarning ko‘rinishini, undagi ijtimoiy xususiyatlarning birligini mujassamlashtiradi. Shaxsning individualligi uning ijtimoiy muhitdan nisbiy erkinligidir, u ichki alohidaligida ko‘rinadi.

Individuallik – insonning individi va shaxsiga xos xususiyatlar bilan birga subyekt xususiyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Inson subyekt sifatida tushuniladi. Subyekt amaliy faoliyat va ong sohibidir. Insonning har qanday faoliyati individuallikning ko‘rinishi bo‘lavermaydi. Alohida, ichki vositali faoliyatning mustaqil harakat qiladigan va bir qarorga keladigan subyektigina individuallik hisoblanadi.

Individuallikka strukturali – tizimli yondashish uning yaxlit voqea sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishi bilan juda muhim ahamiyatga molikdir. Lekin uning umumiy mexanizmlarini aniqlash uchun organizm faoliyatining ichki qonunlari va shakllariga, uning individual hayot tajribasi shakllanishining qonuniyatlariga murojaat qilish kerak.

Savol va topshiriqlar

1. Prinsip deganda nimani tushunasiz? Sizda o‘z xatti-harakatingizning, kishilarga munosabatingizning ma’lum prinsiplari bormi? Muayyan vaziyatda ko‘rsatgan prinsipiallingizga misollar keltiring.

2. Ta'limning ilmiylik, izchillik, muntazamlilik, onglilik va faollik, ta'lim-tarbiyaning birligi hamda nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi prinsiplarini tushuntirib bering.

3. Ayrim prinsiplar (tanlab) tadqiq qilingan ishlar bilan tanishib va ularni qisqa bayon eting.

4. «Boshlang'ich ta'lim» jurnalida tavsiya etilgan ayrim darslarni o'rganing, ulardagi o'qituvchi foydalangan ta'limning prinsiplarini ajrating.

5. IX–XII asr olimlarining didaktik tamoyillar haqida bildirgan fikrlarini tahlil qilib, asosiy tamoyillarni belgilang.

6. Individuallik nima? Bu haqda fikringiz?

V BOB. O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHNING SHAKLLARI

Ta'lim ijtimoiy hodisa bo'lib, uning tarixi juda uzoqdir. Ta'lim kishilik jamiyati rivojining dastlabki davrlaridayoq katta rol o'ynagan. U to'plangan tajribalarni, dunyo haqidagi axborotlarni berish jarayonini ta'minlagan, insoniyatning faqat ijtimoiy rivojlanishiga emas, balki qiyin sharoitlarda yashay olishiga ham yordam bergan. Al-Forobiyning «Fan va aql-zakovat» asarida ta'limning tashkiliy masalalari o'quv fanlarini guruhlariga bo'lib o'qitish, ularning tarbiyaviy mohiyatini ochib berish masalalari yoritilgan. Uzlüksiz rivojlangan jamiyatda ta'limning mukammal jamoa shakli, ya'ni dars ming yillar mobaynida vujudga kelgan. Y. A. Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida tarbiyaning oldingi barcha tajribalarini umumlashtirdi, sinfning dars tizimida ta'limning asosiy didaktik prinsiplarini izchil ifodaladi. O'sha zamondan buyon 350 yil o'tdi. Shuncha vaqt mobaynida darsning tashkiliy shakllari ham, ta'limning metodlari ham uzluksiz takomillashib bordi.

Xalq maktablari tashkil topganidan boshlab o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi hamda o'zaro munosabati muammolari ham vujudga kelgan. Ma'lumki, o'qituvchining bilimi uning darsdagi va uydagi faoliyatining xarakteriga bevosita bog'liqdir, faoliyatsiz bilimlar ham bo'lmaydi. O'qituvchi ajoyib yo'sinda dars o'tishi, lekin bu darsning natijasi muayyan o'quvchi uchun hech narsaga arzimastligi mumkin.

Shularga ko'ra, o'qituvchi o'zini ana shunday o'quvchining o'rniga qo'ya bilishi, uning darsdagi faoliyatini va unga maktabda butun o'qish davridagi munosabatini tasavvur qilishi g'oyat muhimdir. Zotan tarbiya va ta'lim asta-sekin amalga oshadi hamda o'quvchiga barcha darslar majmuyi qanday ta'sir etishiga, o'quvchi o'qituvchi rahbarligida ongli va faol bajaradigan ishlarning hajmi hamda muntazamliligiga bog'liqdir.

O'qituvchining vazifasi – darsda tafakkur va faoliyatning ana shu turlarini eng to'g'ri uyg'unlashtirishdir. Binobarin, bunday uyg'unlik dars samaradorligini oshirishning muhim omilidir.

O'qituvchi dars muammolariga to'g'ri yondashishi uchun ta'lim jarayonining asosiy komponentlarini bilishi, ularning o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'sirini tushunishi lozim. Obyektiv mavjudlikning mohiyatini bilishi ta'limning maqsadlaridan biridir.

Ta'limda bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga quyidagi komponentlar kiradi:

1. Hodisalarni, narsalarni kuzatish, axborotlarni idrok etish.

2. Olingan axborotlarni tahlil qilish (bilimlarning xarakterli belgilarini aniqlash, taqqoslash, ko'chirish, birinchi jarayonda olingan axborotlarni o'zgartirish va unda olingan axborotlar doirasidan chiqish).

3. Eslab qolish.

4. Ishlar, umumlashtirishlarning to'g'riligini tekshirish hamda baholash.

Umuman aytganda, ta'limni boshqarish o'qituvchi o'qish jarayonining asosiy strukturasi, elementlari, xususan, o'quv materialining mazmuni, ta'lim metodlari, faoliyat usullari, shakllari va vositalari to'g'ri amalga oshuvini hamda o'zaro ta'sirini ta'minlashdan iboratdir.

TA'LIMDA SINIF-DARS TIZIMINING VUJUDGA KELISHI

Ta'limni boshqarishning asosiy tashkiliy shakli quyidagi ma'lum belgilarga ega bo'lgan mashg'ulotlar asosida o'tkaziladi:

– mashg'ulotlarning har yili va har bir o'qish kuni bir paytda boshlanishi;
– mashg'ulotlar va ular orasidagi tanaffuslarning ma'lum vaqt davom etishi;

– guruhlardagi bolalarning yoshi va soni jihatdan baravarligi;

– material o'rganish sur'atining bir xilligi;

– o'quv mashg'ulotlarining ma'lum tashkiliy shaklda o'tkazilishi.

Guruhli mashg'ulotlarning sinf-dars tizimi deb atalgan bunday shakli keng tarqaldi, mustahkamlandi va hozir ham ancha takomillashgan holda mavjuddir.

Maktab rivojlanishi tarixida 20-yillarda ta'limning yakka tartibdagi shakli notanqidiy yo'sinda qabul qilindi va amaliyotga ta'limning brigada – laboratoriya metodi bilan kiritildi. Unda bir guruh (5-6 nafar) o'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan materialni mustaqil holda o'rganganlar. O'qituvchi maxsus tushuntirishlar bermay, faqat yo'l-yo'riqlar ko'rsatgan. Hamma narsa uchun brigadir javob bergan. Bunday ta'lim bolalarning o'quv faoliyatdagi mas'uliyatini pasaytirgan.

Maktab barham topishining noto'g'ri pedagogik konsepsiyalari davrida ta'limning «loyihalar metodi» deb atalgan shakli vujudga kelgan. Unda o'quvchilar o'qituvchining topshirig'i bo'yicha qandaydir obyektning

loyihasini tayyorlaganlar. Mazkur g'oyalar mualliflarining aytishicha, o'quvchilar loyihami tuzishda o'quv rejasini bo'yicha o'tiladigan predmetlarga doir kompleks bilimlarni o'zlashtirgan.

So'nggi 20 yil mobaynida pedagogika nazariyasi kombinatsiyalashgan darsni o'rganishdan, bosqichma-bosqich darsni elementlarini o'zlashtirishga, undan esa muammoli tomonlarini o'rganishga o'tdi. Tadqiqotlarning uzviyligi va uzviy yondashishi to'g'risida juda ko'p ilmiy adabiyotlar mavjud. Masalan, M.I.Maxmutov, T.D.Kirilova, F.F.Korolyov va E.G.Yudinlarning hozirgi zamon darsi, uni tashkil etish, kamol toptiruvchi ta'lim sharoitidagi dars nazariyasi va amaliyoti, muammoli dars va hokazolarga doir kitoblarida darsga sistema sifatida qaralsagina uni chuqur tushunish mumkinligi qayd qilingan. Lekin pedagoglar 70-yillardagina darsni o'rganish va tushuntirishga sistemali yondashish zarurligini to'la angladilar. Fanlar rivojlanishining hozirgi bosqichida darsni qanday tushunish kerak?

Dars nazariyasida hozirgacha bu tushunchaning yangi ta'riflari yo'q. Ko'p ta'riflarda xuddi ilgari gidek, dars ma'lum vaqt mobaynida tarkibi o'zgaraydigan o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini tashkil etishning shakli bo'lib, u bolalarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish uchun muntazam qo'llanishi ifodalangan. Darsda o'quv-tarbiya ishlarining barcha komponentlari: maqsad, mazmun, vositalar, metodlar, tashkil etish va boshqarish faoliyati hamda uning hamma didaktik elementlari mujassamlangan, deb hisoblash qabul qilingan.

Tabiiyki, dars yaxlit ta'lim jarayonini o'quv-tarbiya ishining boshqa tashkiliy shakllari – uy vazifalarini bajarish, predmet to'garaklarining mashg'ulotlari, sayrlar va hokozolar bilan uzviy birlikda aks ettiradi. «Darsni ikki jihatdan: umuman, ta'lim jarayoni va talimni tashkil etish shakli sifatida ta'riflab, uni foydali deb hisoblash taklifi bor» (M.I.Maxmutov). Ta'limga umumiy jarayoni dars o'qitish harakatining ta'lim mazmuni, prinsiplari va metodlari bilan belgilanadigan, ma'lum makon-zamon chegaralarida o'qituvchi rejalashtiradigan hamda boshqaradigan birgalikdagi obyekt o'qituvchi va o'quvchilar amalga oshiradigan asosiy shaklidir.

Mazkur tushuncha ikkinchi nuqtayi nazardan quyidagicha ta'riflanadi: «Dars ma'lum tarkibdagi o'qituvchilar (muallimlar) bilan o'quvchilarning maqsadga muvofiq o'zaro ta'siri (faoliyatlari va aloqalari) jarayonini tashkil etishning, ta'lim mazmuni, shakllari, metodlari, vositalarini o'z ichiga oladi, ta'lim jarayonida o'qitish, kamol toptirish va tarbiyalash vazifalarini amalga oshirish uchun (bir xil vaqt ichida) muntazam qo'llanadigan boy va o'zgaruvchan shaklidir». (Qarang: M.I.Maxmutov. «Современный урок».)

MAKTABDA O'QUV ISHLARINI TASHKIL QILISHNING ASOSIY SHAKLI

Hozirgi paytda o'quv ishlarini tashkil etishning quyidagi shakllari qo'llanadi: dars, ekskursiya, o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlar, mehnat va ishlab chiqarish ta'limi shakllari, uy ishlari, sinfdan tashqari o'quv ishlarining shakllari (predmet to'garaklari, studiyalar, olimpiadalar, tanlovlar).

Pedagogik adabiyotlarda va maktab amaliyotida darsdagi ishlarni tashkil etishning asosan uchta: yakka tartibdagi, umumiy va guruhiy shakllari qabul qilingan. Biz darslardagi va uydagi yakka tartibdagi ishlar deganda o'quvchilarning o'zlari uchun maxsus tanlangan va har birining imkoniyatlariga mos topshiriqni bajarishlarini tushunamiz. Shunga ko'ra o'qituvchi o'quvchining o'ziga xos imkoniyatlarini aniqlab, unga faqat tayyor namuna bo'yicha emas, balki mustaqil holda ishlashni ham talab qiladigan topshiriqlar sistemasini tanlaydi. Bunday ish tasodifiy emas, balki muntazam, puxta o'ylangan bo'lishi va bunda o'quvchining xususiyatlari hamda imkoniyatlari hisobga olinishi lozim. O'quvchi imkoniyatlarining ikki tomoni nazarda tutilishi zarur.

O'quv imkoniyatlarining ichki tomoniga fikrlash va eslab qolishdan iborat o'qish qobiliyati: o'quvchi ilgari ta'limda olgan maxsus bilimlar, shuningdek, o'quv mehnatiga doir ko'nikma va malakalarning, ma'lum darajada ish qobiliyati va mas'uliyatning, o'qish sabablari majmuyining mavjudligi kiradi.

O'quvchi imkoniyatlarining tashqi tomoni unga maktabda xilma-xil ta'sir ko'rsatishdan va uning oila muhitida oladigan taassurotlaridan iboratdir.

Yakka tartibdagi ta'lim har bir o'quvchiga yetarli darajada chuqur va puxta bilimlar berish uchun, har bir o'quvchi maqsadga muvofiq kamol topishini va zaruratga qarab o'zining bilimlarini mustaqil holda to'ldirib borish ko'nikmalariga ega bo'lishini ta'minlash uchun kerak.

Yakka tartibdagi ishlarni darsning hamma bosqichlarida tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Bunday ishlardan bilimlarni mustahkamlash, takrorlash va turli mashqlarni uyushtirishda foydalanish juda osondir. Ular yangi materialni o'rganishda ham g'oyat samaralidir.

O'quvchilar bilan olib boriladigan yakka tartibdagi ishlar rejasini quyidagi yo'sinda tuzish mumkin:

– dastlab mustaqil ishlarni o'tkazish hamda o'quvchi yashaydigan va o'qiydigan sharoitlarni tahlil qilish orqali uning imkoniyatlarini o'rganish;

– o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlashning didaktik vositalarini yaratish;

– har bir o‘quvchi uchun eng maqbul topshiriqlarni hamda bilim olishi va kamol topishini nazorat qilish sistemasini belgilash, o‘quvchini o‘z vaqtida murakkabroq masalalarni hal qilishga o‘rgatish, amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish va umumlashtirish, tuzatish va xulosalar chiqarish.

DARSGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

1. Har bir dars ma’lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo‘lmog‘i lozim. Buning uchun:

a) dars yoshlarni barkamol shaxs ruhida tarbiyalashning umumiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqadigan konkret bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lishi;

b) darsning maqsadi, albatta, o‘quvchilarga tugallangan bilim berishni nazarda tutgan bo‘lishi;

d) bir soatlik darsda o‘tishga mo‘ljallangan mavzu dastur materialining bir qismi sifatida ifodalanishi va bu materiallar o‘zaro ichki mantiqiy bog‘lanishga ega bo‘lishi;

e) o‘tilishi kerak bo‘lgan materialning xarakteriga ko‘ra qanday dars tipi, o‘qitish metodidan foydalanish nazarda tutilishi;

f) sinf o‘quvchilarining faolligini oshirish maqsadida umumsinf va ayrim o‘quvchilar bilan qanday ish olib borish kerakligi belgilangan bo‘lishi kerak.

2. Har bir dars mustahkam g‘oyaviy-siyosiy jihatdan tarbiyaviy yo‘nalishga ega bo‘lmog‘i lozim:

a) darsning mazmuni o‘tilayotgan mavzuning mohiyatiga bog‘liq holda o‘quvchilarni g‘oyaviy-siyosiy jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladigan materiallar bilan boyitilishi;

b) dars o‘tilayotgan mavzuning mazmunidan kelib chiqadigan tabiat, jamiyat va kishi tafakkuri taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlar o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi va e‘tiqodlarining shakllanishiga qaratilgan bo‘lishi;

d) dars o‘tilayotgan mavzuning mazmunidan kelib chiqadigan ilmiy nazariyalar orqali o‘quvchilarning dialektik, materialistik dunyoqarashlarini shakllantirish va o‘quvchilarni barkamol shaxs ruhida tarbiyalashi lozim.

3. Har bir dars, albatta, turmush bilan, amaliyot bilan bog‘langan bo‘lmog‘i lozim. Bunda ayniqsa:

a) matematika, fizika, kimyo, biologiya, geometriya va boshqa fanlarning ilmiy asoslari, uni turmushda, ishlab chiqarish amaliyotida qo‘llashi;

b) sanoat va qishloq xo'jaligining rivojlanishida fanning tutgan o'rni kabilar nazarda tutilishi lozim.

4. Har bir dars xilma-xil metod, metodik usul va vositalardan keng va unumli foydalangan holda olib borilishi lozim.

5. Darsga ajratilgan har bir soatni tejab, undan samarali foydalanish lozim.

6. Har bir dars o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyati birlashgandagina qo'yilgan maqsadga erishish mumkin. Buning uchun:

a) o'qituvchi darsga puxta tayyorlanishi;

b) shu dars davomida ishlatiladigan ko'rgazmali o'quv materiallarini to'g'ri tanlashi va ishlatishi;

d) sinf jamoasi va har qaysi o'quvchi bilan munosib muomalada bo'lishi;

e) sinf faolligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni to'g'ri belgilashi, ayniqsa, o'quvchilarning mustaqil fikr yuritishlarini, ularning diqqatini jalb qilish va ma'lum topshiriqlarni kitob bilan ishlash, tajriba o'tkazish va yozma grafik ishlarni bajarish.

O'QUV ISHLARINI TASHKIL ETISHNING UMUMIY SHAKLI

Darsning umumiy shakli o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining shunday turidirki, unda o'quvchilar hamma uchun umumiy bitta ishni baravar bajaradilar. Olingan natijalar sinf bo'yicha muhokama qilinadi, taqqoslanadi va umumlashtiriladi. Ommaviy ta'lim sharoitida o'quv ishlarini tashkil etishning umumiy shakli g'oyat muhimdir. U bolalarda jamoatchilik hissini tarbiyalash, ularni mulohaza yuritishga, o'quvchilarning mulohazalaridagi xatolarni topishga o'rgatish imkonini beradi. To'g'ri rahbarlik qilinsa, bolalarning o'quv imkoniyatlari aniqlansa, sinfda turli muammolarni muhokama etish juda samarali tadbir hisoblanadi. Bu tadbir o'qituvchidan hamma o'quvchilarning fikrlashiga mos ishni topish mahoratini, ularning istaklarini tinglay olishni talab qiladi. Darsning umumiy shaklida ko'zlangan maqsadlar bo'yicha va, ayniqsa, o'quvchilarda dalillar bilan muhokama yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishda ajoyib natijalarga erishish mumkin. Agar bolaning o'quv imkoniyatlari to'g'ri baholansa, darsni tashkil qilishning umumiy shakli o'quvchilarga yakka tartibda yondashishdan keng foydalanish imkonini ham beradi. O'qituvchi ulardan o'z imkoniyatlariga bog'liq holda turli darajadagi umumlashmalarni so'raydi. Shu tariqa o'quvchilarning tinglashlari ham, o'z bilimlari va fikrlarini o'rtoqlari bilan taqqoslashi, tezda to'ldirishi, undagi xatolarni topish ko'nikmalarini shakllantirishi juda muhimdir.

Umuman olganda, sinfga ham reproduktiv, ham ijodiy topshiriqlar berish mumkin. Darsda ishning yakka tartibdagi va umumiy shakllari birlashtirilsa, har ikkalasining afzalliklaridan kengroq foydalanish imkoniyati tug'iladi.

Yangi materialni o'rganish va uni mustahkamlashda darsni tashkil qilishning umumiy shakli eng samaralidir, olingan bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llashni esa yakka tartibdagi ishlardan kengroq foydalanib tashkil etish yaxshidir. Laboratoriya ishlari umumiy yo'sinda tashkil qilinadi. Lekin bunda ham har bir o'quvchini maqsadga muvofiq kamol toptirish imkoniyatlarini izlash kerak.

TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING GURUHIY SHAKLI

So'nggi yillarda darsni tashkil etishning umumiy va yakka tartibdagi shakllari bilan bir qatorda, ta'limni tashkil etishning guruhiiy shakli ham keng tarqalmoqda.

Guruhiiy shaklning asosiy belgilari:

– mazkur darsda muayyan o'quv vazifalarini hal qilish uchun sinf bir necha guruhlariga bo'linadi;

– har bir guruh muayyan topshiriq oladi va uni birgalashib, o'z boshlig'i yoki o'qituvchining bevosita rahbarligida bajaradi;

– topshiriq guruhning har bir a'zosi qo'shgan hissani hisobga olish va baholash imkonini beradigan yo'sinda bajariladi;

– guruhning tarkibi doimiy bo'lmaydi, uni tanlashda guruhdagi har bir a'zoning o'quv imkoniyatlari jamoa uchun naqadar foydali amalga oshadigan bo'lishi nazarda tutiladi.

Maxsus tanlangan guruhlarda o'quv va ishlab chiqarish topshiriqlari ma'lum yo'riqnoma – reja bo'yicha bajariladi. Turli predmetlarda va hatto, bitta predmet bo'yicha darslarda guruhlarning rahbarlari va tarkibi har xil bo'lishi mumkin. Darsning guruhiiy shakli guruhdagi ishning tashkil etilishiga bog'liq.

Birinchii galda, guruhning tarkibini to'g'ri tanlash zarur. U, albatta, kichik jamoa bo'lishi lozim, shundagina barcha a'zolar bir-birlarining yutuqlarini boyitadilar va kamchiliklarini to'ldiradilar. Guruhda o'zaro salbiy munosabatdagi bolalar bo'lmasligi kerak.

Ba'zan ma'lum topshiriq guruhning moyilligi va qobiliyatlariga qarab qismlarga ajratiladi. A'zolarning har biri ishning o'ziga tekkan qismini yakka tartibda bajaradi. Keyin har bir o'quvchi bajargan ishning natijalari muhokama qilinadi va jamlanadi.

Darsning guruhiiy shakli, ayniqsa, qandaydir amaliy masalalarni hal qilishda yoki kursning qandaydir xususiiy masalasini chuqur o'rganishda samarali bo'ladi.

Darsning umumiiy yoki yakka tartibdagi shaklida o'qituvchi bitta darsda hamma o'quvchilarga yordam berishga qiynaladi. U bir-ikki o'quvchi

bilan ishlayotganida o'zlarida savollar tug'ilgan o'quvchilar navbat kutib turadilar. Guruhda esa o'quvchilarga juda tez yordam berish mumkin. Tajribadan ko'rinadiki, bunda guruhdagi kuchli va bo'sh o'quvchiga yordam beradigan o'quvchi bo'sh o'quvchiga nisbatan kam manfaatdor bo'lmaydi, binobarin, u o'z o'rtog'iga tushuntirishda uning bilimlari yuksak darajada faollashadi va mustahkamlanadi. Guruhlar har qanday muammolarni hal qilishda ham g'oyat samaralidir. Bir tomondan, ijodiy ish haqiqatni izlash jarayonini individuallashtiradi, chunki har bir o'quvchi yechimni mustaqil holda topishga intiladi. Ikkinchi tomondan, fikr almashish, taxminlarni birgalikda tekshirish tabiiy, jamoaviy xususiyat kasb etadi.

Sinfni guruhlarga bo'lishda qiyinchiliklar tug'ilishi tabiiy. Ayrimlar sinfni o'quvchilarning qobiliyatlariga hamda aqliy kamolot darajasiga qarab guruhlarga ajratishni tavsiya etadilar. Bunday qilish xatodir, binobarin, qobiliyatli va qobiliyatsiz o'quvchilarni bir-biridan uzoqlashtirish mumkin emas, aksincha, guruhlarda kuchsiz o'quvchilarga kuchli o'quvchilarning tashkiliy ravishda yordam berishini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

O'quv dasturida ko'zda tutilgan ekskursiyalarni o'tkazish majburiy bo'lib, bu ish u yoki bu predmetni o'rganishga ajratilgan vaqt hisobiga amalga oshiriladi. Ta'limning boshqa tashkiliy shakllari kabi o'quv ekskursiyalari ham didaktik prinsiplarni (ilmiylik, o'qishni hayot bilan bog'lanishini, ko'rsatmalilik va hokazolarni) amalga oshiradi, borliqni, hodisalarni va jarayonlarni, o'zaro bog'liqlik hamda o'zaro aloqalarni o'rganishda, ilmiy dunyoqarashni, bilish va jamoatchilik qiziqishlarini, shaxsning sifatlarini shakllantirishda, o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash va kasblarga yo'naltirishda yordam beradi.

DARS TIZIMI STRUKTURASI ELEMENTLARI VA TIPLARI

Ta'limning strukturasi va tizimi haqida tushuncha. Har bir fandagi «struktura» tushunchasi o'ziga xos mazmunga ega. Chunki har qanday obyekt, jarayon, hodisaning ichki tuzilishi bo'lib, unda turli aloqa va munosabatlar mavjud. O'quv jarayoni ham o'zining ma'lum tuzilishiga ega. Butun ichidagi ana shu zvenolarning o'zaro bog'lanishi mazkur jarayonning strukturasi vujudga keltiradi. Lekin, ma'lumki, strukturasi tizim bo'lmaganidek, tizimsiz struktura ham bo'lmaydi. Shunga ko'ra, strukturani tizimdagi o'zaro bog'liq elementlarning tartiblari, deb ta'riflash mumkin. Biz tizim tushunchasiga nimalarni kiritamiz?

Tizim – o'zining xossalari va bog'lanishlari bo'yicha u yoki bu tartibdagi o'zaro bog'liq ko'p elementlardir.

O'quv jarayonining strukturasi va tizimini yaqqol tasavvur etish uchun bu jarayon qanday zvenolardan tashkil topganini, ular orasidagi o'zaro

bog'lanish qandayligini va har bir zveno qanday elementlardan iboratligini aniq bilish zarur. Avval o'quv jarayoni qanday zvenolardan tashkil topishini va ular orasidagi bog'lanishlarni ko'rib chiqamiz.

O'quv jarayoni quyidagi zvenolarga ega bo'ladi:

1. O'qituvchining o'quvchilar diqqati va tafakkurini jalb qilishi, shu orqali ularni o'quv materialini faol idrok etishga olib borish maqsadida bilish vazifasini o'rtaga qo'yishi.

2. O'qituvchi tomonidan bilimlarning berilish jarayoni va o'quvchilarning yangi materialni o'zlashtirishi.

3. Ilmiy tushunchalarning shakllantirilishi va umumlashtirilish jarayoni, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va takomillashtirish.

4. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tegishli vaziyatlarda qo'llash.

5. O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirayotganini tekshirish.

Har kuni o'quv jarayonining tarkibiy qismi umumiy vazifalarni ham, o'ziga xos funksiyalarni ham bajaradi. O'quvchilar ularning birida bilish vazifasini anglaydilar, ikkinchisida o'rganilayotgan materialni idrok etadilar va tushunadilar, uchinchisida ko'nikma va malakalarini takomillashtiradilar. Har bir zvenoda yangilikning qandaydir qismi idrok etiladi, mehnat madaniyatining qandaydir elementlari o'zlashtiriladi. Ularning har birida ta'limning umumiy va o'ziga xos funksiyalari ma'lum yo'sinda birlashadi. O'quv jarayonining mazkur barcha zvenolari o'zaro chambarchas bog'langan. Masalan, o'quvchilar bilish jarayoniga loqayd munosabatda bo'lsa, o'quv materialini chuqur va ongli o'zlashtirishi mumkin emas. Bunday holda zveno ikkinchi vazifaga faol tayyorgarlik rolini bajaradi. Agar o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida o'z mushohadalari kuchi bilan ilmiy tushunchalarni, qonunlarni umumlashtirmasa, yangi materialni idrok etish jarayoni yuzaki bo'lib qoladi. Shu maqsadda o'qituvchi yangi materialni o'tishda: a) induktiv; b) analitik-sintetik, ya'ni tushunchalarni, muayyan hodisalarni analiz va sintez qilish asosida asta-sekin shakllantirish; d) deduktiv yo'llardan foydalanadi.

Yangi materialni o'zlashtirishning har bir yo'lida muayyan va mavhumlikning, tasavvur va tushunchalarning o'zaro bog'lanishi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tasavvur predmetning, asosan, tashqi ko'rinishini, ya'ni insonning sezgi organlari bevosita idrok etishi uchun qulay belgilarini aks ettiradi.

Tushuncha esa narsalarning mohiyatini anglash imkonini beradi va mazkur sinfga mansub barcha predmetlar uchun umumiy muhim xususiyatlar, belgilar va bog'lanishlarni aks ettiradi. Har bir fan o'zaro

bog'liq tushunchalar tizimini tashkil qiladi. Demak, qandaydir fanning asoslarini o'zlashtirish, avvalo, mana shu fandagi tushunchalar tizimini o'rganishga chambarchas bog'liqdir.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini dastlabki vaziyatlarda, ya'ni namuna bo'yicha, shuningdek, hayotiy sharoitlarga yaqin yangi vaziyatlarda qo'llash ta'lim jarayonining muhim zvenosi hisoblanadi. Chunki insonning amaliy faoliyati bilimlar haqiqatligining mezonini sifatida xizmat qiladi.

Shu tariqa barcha zvenolar o'zaro chambarchas bog'lanishda o'quv jarayonini tashkil etadi. O'z-o'zidan ayonki, ta'lim jarayonida mana shu hamma zvenolar belgilangan tartibda yoki to'laligicha amalga oshuvining ahamiyati yo'q. Bunda o'quv jarayonining ma'lum qismida bir zvenoning ikkinchi zvenoga qo'shilishi, o'zaro singishi qandaydir zvenoning yetakchilik rolini bajarishi kuzatiladi. O'quv jarayoni amalda ancha o'zgaruvchandir. Aytaylik, o'quv jarayonining ma'lum bir qismida o'quvchilar bilimini tekshirish va baholash asosiy vazifa hisoblanadi. Lekin bundan boshqa zvenolar jarayonida daxlsiz bo'ladi, degan ma'no kelib chiqmaydi. Bunda barcha zvenolarning umumiy vazifalari namoyon bo'laveradi. Negaki, bilimlarni tekshirish va baholash to'g'ri yo'lga qo'yilsa, hamma o'quvchilar faollashadi, ularning har biri tegishli bilimlarni ongli ravishda eslaydi, o'rtog'larining javoblarini tanqidiy eshitadi, masalalarning yechilishini diqqat-e'tibor bilan kuzatadi, tajribalarning bajarilishiga qiziqadi va o'zi ham har onda ishga qo'shilish uchun tayyor bo'ladi.

Ammo, har bir zveno ta'limning umumiy vazifasi bilan bir qatorda, o'ziga xos masalalar doirasini ham qamraydiki, ular birgalikda zvenolardan har birining mazmunini tashkil etadi. Bu masalalar strukturadagi har qaysi zvenoning tarkibiy qismi sanaladi. Shuning uchun o'quv jarayonini biz faqat strukturaviy zvenolarini emas, balki shu zvenolardan har birining tarkibiy qismlarini ham bilishimiz zarur jarayon, deb tushunish kerak. Misol uchun, o'quvchilar oldiga bilish vazifasi qo'yiladigan birinchi strukturaviy zvenoni ko'rib chiqamiz.

Bilish vazifasini qo'yish bir necha yo'llar bilan amalga oshiriladi:

1. Muammoli vaziyatni yaratish yoki muammoli savollar berish orqali.
2. O'rganilayotgan mavzuning amaliy ahamiyatini yoritish va ko'rsatish orqali.
3. Hayajonli muhitni vujudga keltirish orqali.
4. Mavzuni e'lon qilish va undagi asosiy ilmiy g'oyalarni ifodalash orqali.

Ana shu yo'llarning har biri ayni paytda mazkur strukturaviy zvenolarning tarkibiy qismi ham hisoblanadi va o'zining muayyan mazmuniga ega bo'ladi. Buning dalillarini keltiramiz. Yangi materialni bayon etishning safarbarlik bilan boshlanishi qanday bo'lishi mumkin? Mana shulardan

biri. O'qituvchi sinfga kiradi, dars mavzusini e'lon qiladi va uni doskaga yozib qo'yadi. Shundan keyin materialning o'zini bayon qiladi. Darsning bu xilda boshlanishini pedagogika amaliyotida, xususan, yuqori sinflarda ko'p uchratish mumkin. U keng tarqalgan va ma'qul topilgan, lekin uni samarali boshlanish, deb bo'lmaydi. Bu misolda o'quvchilarning diqqat-e'tibori muammoning o'ziga yo'naltirish uchun muammoli vaziyat o'qituvchi tomonidan atayin vujudga keltiriladi. Bunday hollarda, ko'pincha, muammoni o'qituvchining o'zi shakllantiradi va ko'rib chiqadi. O'quvchilar uning mulohaza yuritishiga ergashib, muammoli fikrlash mantiqini o'rganadilar. Bu esa muammoli bayon etishning dastlabki bosqichi uchun xosdir. Lekin darsning turli bosqichlarida muammolilikning darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Yangi materialni bayon etishda o'qituvchi muammoli vaziyatni vujudga keltirishi va o'quvchilarni mustaqil holda yoki birgalikda muammoni hal qilish yo'llarini topishga jalb etishi mumkin.

Masalan, tabiatshunoslik darslarini olaylik. O'qituvchi qor yog'ayotgan paytda o'quvchilar bilan birgalikda maktab hovlisiga chiqadi va bolalarga qor uchqunlarini kaftlari bilan tutishni aytadi. Keyin ulardan kaftlariga nima ilinganini so'raydi. Har bir o'quvchining kaftida suv tomchisi ko'ringan va bir lahzadan keyin yo'qolgan – bug'langan edi. Suv tomchisi o'rni muzdek bo'lib qoldi. Bolalar bu g'ayrioddiy hodisaga qiziqdilar, albatta.

O'qituvchi o'quvchilardan: «Nima uchun kaftning qor uchquni tushgan joyi muzdek bo'lib qoldi?» – deb so'ramoqchi edi. Bu esa «suvning aylanishi» mavzusining nazorat savollaridan biridir. Yangi materialni o'rganishning odatdagidan boshqacha boshlanishi darsda muammoli vaziyatni yaratishda va o'quvchilarni muammoning yechimini birgalashib izlashga jalb etishda yordam beradi.

Darsning strukturasi qo'yilgan maqsadlarga, o'rganilayotgan materialning mazmuniga, ta'limning darsda qo'llanadigan metodlari va usullariga, o'quvchilarning tayyorgarlik va kamolot darajasiga, darsning o'quv jarayonidagi o'rniga bog'liqdir.

DARSLARNING TIPLARI

Dars strukturasi o'quvchilar bilish faoliyatining xarakteri bo'yicha tasniflanadigan darslarning tipiga bog'liq bo'ladi. Ularni o'tkazish usullari, ta'lim metodlari esa o'quvchilar mustaqil ishining darajasi bo'yicha tasniflanadi.

Darsning quyidagi tiplari mavjud: o'quvchilar yangi bilimlarni o'zlashtiradigan, faktli materiallar to'planadigan, kuzatishlar o'tkaziladigan, jarayon va hodisalar o'rganiladigan, ularni anglanadigan, tushunchalari shakllantiriladigan, ko'nikma va malakalar tarkib toptiriladigan darslar,

bilimlar umumlashtiriladigan va tizimlashtiriladigan darslar, bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni takrorlash, mustahkamlash, boshqacha aytganda, kompleks qo'llash darslari, bilim, ko'nikma va malakalar og'zaki hamda yozma ravishda sinladigan nazorat-tekshirish darslari, bir necha didaktik masalalar baravar hal qilinadigan kombinatsiyalashgan darslar. Darsning muayyan miqdordagi tiplarini belgilashning turlari, yo'llari bilan uning ancha jiddiy strukturasi ishlab chiqilgan. Masalan, kombinatsiyalashgan darslar quyidagi sxema bo'yicha tashkil qilingan: tashkiliy jihat, o'quvchilar uy vazifasini qanday bajarganini tekshirish, o'quvchilardan o'tilgan mavzu bo'yicha so'rash, o'qituvchining yangi materialni bayon etishi, o'rganilayotgan materialni mustahkamlash, uyga vazifa berish.

O'qituvchilarning ilg'or tajribasini tahlil qilish, didaktlar (I.T.Ogorodnikov, M.I.Maxmutov, V.A.Onishchuk, R.A.Mavlonova va boshqalar)ning tanqidi, darsning strukturasi tushuntirish ta'limning hozirgi talablariga javob bermaydi, degan xulosaga olib keladi.

Darsning strukturasi faqat o'qituvchi va o'quvchilarning darsdagi hamkorlik faoliyati tashkil topishining tashqi ko'rinishini aks ettirib qolmasligi, balki o'quvchilar bilish faoliyati bilan bog'liq ichki jarayonning mohiyatini ham ifodalashi lozim.

Kamol toptiruvchi ta'lim sharoitida «darsning strukturasi» tushunchasini aniqlashda uni uchta: didaktik, mantiqiy-psixologik va metodik shartlar asosida ko'rib chiqish tavsiya etiladi.

Bunda doimiy komponentlar: oldin o'zlashtirilgan bilim va harakatlar usullarini faollashtirish hamda qo'llashdan, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat didaktik struktura asos bo'ladi (M. I. Maxmutov).

Hozirgi zamon darsining eng muhim xususiyatlari yangi o'quv materialini va uni amalda qo'llashni o'zlashtirish bilan birga, ilgari o'rganilgan narsalarni o'zlashtirish, sintez qilish, takrorlash va mustahkamlash, nazorat qilish kabi elementlarining o'zaro bog'lanishidir.

T.A.Ilina darsning o'z strukturasi barcha asosiy elementlarini olgan tipini, ya'ni umumiy yoki aralash darsni tavsiya etadi.

Darsning birinchi bosqichi – tashkiliy qism. Odatda, bu qismga salomlashish, o'quvchilarning, sinf xonasidagi jihozlarning darsga tayyorligini tekshirish, darsda yo'q o'quvchilarni aniqlash, ishning rejasini e'lon qilish kiradi. Tashkiliy qismning maqsadi – darsda ish vaziyatini vujudga keltirishdir.

Darsning ikkinchi bosqichi – yozma uy vazifasini qo'yilgan maqsaddan qat'i nazar, turli metodlar bilan tekshirish.

Darsning uchinchi bosqichi – o'quvchilarning bilimlarini og'zaki tekshirish (yoki ulardan so'rash).

Darsning to‘rtinchi bosqichi – o‘qituvchining bayon etishi asosida yoki o‘quvchilarning mustaqil tahlil qilishi orqali yangi materialni tushuntirish.

Darsning beshinchi bosqichi – uyga topshiriq berish. Darsning bu qismiga mazkur topshiriqning mohiyatini, lozim bo‘lsa, uni bajarish metodikasini ham tushuntirish, uni o‘qituvchining o‘zi doskaga yozishi, o‘quvchilarning daftarga yoki kundalikka ko‘chirishi kiradi.

Darsning oltinchi bosqichi – yangi materialni mustahkamlash, ya’ni dastlabki yoki yo‘lakay – mazkur material bayon qilinayotganda amalga oshiriladigan mustahkamlashdir.

Darsning yettinchi bosqichi – uni tugallashdan iborat bo‘lib, bu ish tashkiliy ravishda amalga oshirilishi kerak. Chunki dars faqat o‘qituvchining ko‘rsatmasi bo‘yicha mustahkamlanadi. Muallif darsning ana shu yettita elementini nazarda tutib, uning strukturasi quyidagicha ifodalaydi:

I. Bilimlarni mustahkamlash darsi.

1. Tashkiliy qism.
2. Yozma topshiriqni (bor bo‘lsa) tekshirish.
3. So‘rash – mustahkamlash.
4. Uyga vazifa berish.
5. Darsni tugallash.

II. Yangi murakkab materialni tahlil qilishda uy vazifasi tekshirilmaydi.

1. Tashkiliy qism.
2. Yangi materialni tushuntirish.
3. Yo‘l-yo‘lakay mustahkamlash.
4. Uyga vazifa berish: darsni tugallash.

III. Muammoli darslar.

1. O‘quvchilarni uyushtirish.
2. Muammoni ifodalash, taxminiy bayon qilish (natija qanday bo‘lishi mumkinligini aytish) va yechimning variantlarini bildirish: muammoni amaliy hal qilishni izlash.
3. Natijalarni muhokama qilish.
4. O‘qituvchining sharhi va umumlashtirishi.
5. Uyga vazifa berish.
6. Darsni tugallash.

Umuman aytganda, hozirgi zamon darsi o‘zining an’anaviy maqsadlari, mazmuni, tashkiliy-metodik jihatlari, o‘quvchilar ishlarini faollashtirish darajasi, strukturasi, sur’ati, ta’limning texnik vositalariga boyligi bilan farqlanadi. O‘tgan davr tajribalariga tayanib va o‘quvchilarning mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirish g‘oyalari nazarda tutib, hozirgi zamon darslarini muammolik prinsipi asosida: a) muammoli va b) muammosiz

darslarga bo'lish mumkin. Bunday darslar bir-biridan nimalari bilan farqlanadi? Ulardagi ta'limning metodlari va vositalaridagi tafovutlarni ko'rish mumkinmi? Lekin asosiy farq ularning strukturasiadir. Bunda muammoli darsning mantiqiy-psixologik (ichki) va didaktik (tashqi) strukturasi haqida gapirish mumkin.

Ichki struktura nuqtayi nazaridan o'qituvchi atayin muammoli vaziyatlarni vujudga keltiradigan va o'qituvchilarning o'quv muammolarini mustaqil holda qo'yish hamda ularni hal qilishga doir faoliyatini tashkil etadigan yoki muammoni o'zi qo'yib, ularni o'zi hal qiladigan, o'quvchilarga izlanish vaziyatidagi fikrlash mantiqini ko'rsatadigan darslar muammoli darslar deyiladi.

Muammosiz dars o'qituvchi o'quvchilarga o'quv materialini bayon qilish va tushuntirishda muammoli vaziyatlarni (garchi ular tasodifan paydo bo'lsa ham) vujudga keltirilmaligi bilan muammoli darsdan farq qiladi.

Muammosiz dars didaktik jihatdan muammoli darsdan shu bilan farqlanadiki, unda o'quv jarayoni bosqichlarga aniq bo'linadi, darsning asosiy elementlari bo'lmaydi, o'qituvchi o'quv materialini bayon qilishi, bilimlarni mustahkamlashga, takrorlashga doir mashqlarni bajarishi darsning mustaqil bosqichlarini tashkil qiladi. Xususan, o'qituvchining axborot tarzidagi bayoni yoki o'quvchilarning mustaqil ishlari reproduktiv xarakter kasb etmaydi.

Muammoli darslar o'rganiladigan mavzuning va boshqa omillarning mazmuniga bog'liq holda muammosiz darslar bilan almashinishi mumkin. Ularning birlashuvi ta'limning faollashuvi darajasini belgilaydi. Agar darslar tizimida muammoli darslar ko'p o'rin olsa, bunday ta'lim muammoli, kamol toptiruvchi ta'lim, deb hisoblanadi. U o'quvchilarning aqli va hissiyoti yuqori darajada rivojlanishini ta'minlaydi. Lekin, hozir maktablarda o'tilayotgan muammoli darslar o'tilish amaliyotiga xos bo'lgan va oltmishinchi yillar didaktikada ifodalangan mazkur darslardan boshqachadir.

Darslarning muammoli va muammosiz darslarga bo'linishi, M.I.Maxmutov o'z asarlarida ta'kidlaganidek, ta'lim jarayonini faollashtirish nuqtayi nazaridan katta amaliy ahamiyatga ega. Biroq, muammoli va muammosiz darslarning o'xshashligi hamda farqi ma'lum jihatdan nazorat darslariga ham daxldor bo'lib, ularda ham muammolilik darajasi o'quvchilar mustaqil ishining xarakteriga bog'liq.

Tushuntirish darsi. Ma'lumki, maktabdagi ta'limning asoslaridan biri onglilik prinsipidir. Shunga ko'ra, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning dastlabki bosqichi nazariy masalalarni o'rganishdan iborat bo'lishi kerak. Bunda o'qituvchining materialni tushuntirishi eng muhim zveno hisoblanadi.

Tushuntirish darsining strukturasi, ya'ni undagi qismlarning o'zaro joylashuvi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Ilgari o'rganilgan materiallarga doir bilimlarni eslash (o'quvchilardan so'rash).

2. Materialni tushuntirish.

3. Materialning o'zlashtirilganini tekshirish.

4. Nazariyani qo'llash namunasini ko'rsatish.

5. Uyg'a vazifa berish.

6. Darsni yakunlash.

Ana shu tipdagi darsning strukturasi elementlariga dars mavzusini e'lon qilish, uning maqsadini ifodalash va vazifalarning qo'yilishini ham kiritish mumkin.

Bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash darslari.

Bu tipdagi darsning strukturasi quyidagi darsning asosiy elementlarini o'z ichiga oladi:

1. Nazariya bo'yicha bilimlarni eslash.

2. Mavzu bo'yicha ko'nikma va malakalarni rivojlantirish (mashqlar).

3. Darsni yakunlash.

4. Uyg'a vazifa berish.

Bu struktura, bir qarashda, juda oddiy tuyuladi. Lekin aslida shunday emas. Darsdagi mustahkamlash ishi samarali bo'lishi uchun unga o'quvchilarni tayyorlash kerak. Birinchidan, ularni navbatdagi mustahkamlash darsi haqida o'z vaqtida xabardor qilish lozim. Shuningdek, o'qituvchi yana darsda nimalar bilan shug'ullanishlarini aytib berishi darkor. Ikkinchidan, mustahkamlash darsi arafasida o'qituvchilarga navbatdagi dars mavzusi bo'yicha muayyan topshiriqni tavsiya etish zarur. Qoida bo'yicha bu topshiriqqa quyidagilar kirishi lozim: dars mavzusi bo'yicha nazariy bayon qilingan paragraflar, o'zini o'zi tekshirish uchun paragraflarga savollar, mavzu bo'yicha kichikroq mashqlar.

O'quvchilarni o'tilganlarni mustahkamlash darsiga yaxshi tayyorlash uchun mazkur darsdan oldinroq ularga darslikdagi misollarni o'zlarining misollari bilan almashtirish, kichik-kichik mashqlarni bajarish, masalalar yechish kabi topshiriqlar berish foydalidir.

Takrorlash darsi. Mustahkamlash va takrorlash darslari o'rtasida anchagina umumiylik mavjud. Bu umumiylik, eng avvalo, mazkur darslarning vazifalari va strukturalariga taalluqlidir. Shu bilan birga, mustahkamlash va takrorlash darslari orasida tafovut ham bor. Shuningdek, takrorlash darsida material to'liq emas, balki tanlab ko'rib chiqilgan, oldingi darslarda yetarlicha o'zlashtirilmagan masalalar takrorlanadi.

Takrorlash darsi ish metodlari bilan ham mustahkamlash darsidan farqlanadi. Bu metodlar dars mazmunining o'zidan kelib chiqadi. Takrorlash darsi uchun yuqorida aytilganidek, mustahkamlash darsiga nisbatan ancha keng material tanlanadi. Lekin bu material qismlari bir-biriga bog'lanmaydi, balki o'quvchilar ularni taqqoslay oladigan yo'sinda jamlanadi.

O'QITUVCHINING O'Z DARSINI TAHLIL QILISHI

O'qituvchi o'z faoliyatini o'z hamkasblari tahlil qila olganidek, tahlil qila olishi zarur. Busiz kasbda rivojlanishga erishib bo'lmaydi. Xo'sh, tahlil qilishning o'zi nimalardan iborat? U qanday prinsiplarga asoslanadi?

Bizningcha, pedagogik faoliyatni tahlil qilganda uning barcha tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish, ularning uzviy bog'liqligini chuqur tushunish, o'qituvchi qo'ygan masalalar, uni yechish yo'llari va ko'zlangan maqsadlar qanchalik uyg'unlashib ketishini his etish lozim. Bunda:

birinchidan, biz hamkasbimiz darsini tashqaridan kuzatishimiz va faoliyatini tahlil qilishimiz;

ikkinchidan, o'zimiz uchun alohida aqamiyatga molik bo'lgan o'z harakatlarimizni tahlil qilishimiz kerak.

Bunday tahlil (analiz) yo'llarini egallash uchun muayyan bosqichdagi ishlarni bajarimoq zarur.

Birinchi bosqich – psixologik-pedagogik fanning yangi g'oyalari, pedagogik faoliyatning tuzilishi, uning asosiy tarkibi, uning boshqa predmetlar bilan o'zaro ta'siri va o'zaro aloqasi bilan tanishish.

Ikkinchi bosqich – tahlil, qayd etish, ro'yxatga olish, xronometrlash yo'llarini o'rganish.

Biz ishlab chiqqan Tahlil sxemasi (Analiz sxemasi)da faoliyatni qanday qilib va qanday izchillikda tahlil qilish lozimligi va ular o'rtasida qanday tarkibiy qismlar va o'zaro aloqa borligini ko'rish mumkinligi bayon qilinadi.

O'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini ketma-ketlik asosida tahlil (analiz) qilish.

Pedagogik topshiriqlar:

– Dars (mavzu)ga qanday aniq vazifalar qo'yilgan: a) rivojlantiruvchi; b) tarbiyalovchi; d) ta'lim beruvchi.

– Ular qaysi umumiy vazifaning bir qismi bo'lib hisoblanadi?

– Darsda barcha topshiriqlar bajariladimi?

– Dars davomida vazifalar o'zgaradimi? O'zgargan bo'lsa, nima uchun?

Pedagogik vosita va usullar:

– Mazkur sinf va alohida o'quvchilarning xususiyatlari e'tiborga olindimi:

- a) ularning aqliy va psixik o'sishi darajasi;
- b) potensial imkoniyatlari;
- d) fanni bilish darajasi;
- e) hissiy holatlar va darsga tayyorgarligi;
- f) qanday hisobga olindi? Agar hisobga olinmagan bo'lsa, nima uchun?

– Mazkur sinf bilan ishlashga o'qituvchining xohishi qanday edi? Darsga tayyorgarlik darajasi-chi?

– Darsga tayyorgarlikda qanday usul va yo'llardan foydalanildi? Darsda vaqt taqsimoti qanday bo'ldi? U maqsadga muvofiqmi? Pedagogik masalalarni hal qilish uchun qo'shimcha materialdan foydalanildimi? Qanday maqsadda?

– Mavzuga oid majburiy material qayta qurildimi? Bu ijobiy natijaga olib keldimi? Agar olib kelmagan bo'lsa, nima uchun? Darsda kutilmagan vaziyatlar yuz berdimi? Qanday? U qanday hal etildi?

DARSNING UMUMIY BAHOSI (BAHOLASH)

– O'qituvchi bolalar bilan ishlashdan qoniqish hosil qildimi?

– O'quvchilar qanday ishlashdi? Ijodiy muhit vujudga keltirildimi?

– Ayrim o'quvchilarda va butun sinfda qanday qiyinchilik va muammolar paydo bo'ldi? Rejalashtirilgan masalalardan nima amalga oshirildi? Nima amalga oshirilmadi? Nima uchun?

– Pedagogik topshiriqlarni bajarish vositalarini to'g'ri (noto'g'ri) tanlashda muvaffaqiyatsiz (omadsiz)lik sabab bo'ldimi? Ular qanday vositalar edi? Yoki boshqa sabablar bormi?

Kelgusida ushbu dars tajribasini hisobga olsa bo'ladimi?

Oddiy o'qituvchi va ustoz o'qituvchining biror masalaga yondashuvlaridagi farqqa e'tibor qiling-a! Masalan, qarshimizda ikki parallel sinf turibdi, ularning nazariy tayyorgarligi ham, emotsional yetukligi ham deyarli bir xil o'quvchilardir. Albatta, ikkala sinfda ham ayni bir vazifani bir xil vositalar yordamida bajarish mumkin. Afsuski, ko'p o'qituvchilar xuddi shunday qiladi. Biroq ustoz-o'qituvchi boshqacha yo'l tutadi. Bir sinfda u voqealarning tashqi ta'siriga urg'u beradi, boshqa sinfda jarayonlar kechishi mantiqiga e'tibor qiladi.

Birida dars vaqtini shunday taqsimlaydiki, yangi materialni tushuntirish davomida mavzuning asosiy o'rinlariga diqqatni alohida qaratib, uni bir necha marta takrorlaydi, ikkinchisida esa dars oxirida qisqacha bayon etadi, xolos. Shu tarzda bir masalani ikki xil ko'rishda hal qiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Ta'lim olish jarayonida qanday komponentlardan foydalaniladi?
2. Darsning tashkiliy shakllarini ochib bering.
3. Dars tizimi, strukturasi, elementlari va tiplarini so'zlab bering.
4. Laboratoriya mashg'ulotlarida dars tizimi, uning tiplari va turlariga oid munozara uyushtiring.
5. Maktab o'qituvchisining darsga tayyorlanishini o'rganib, u haqda konspekt yozib keling.
6. Ta'limni tashkil etish shakllari nimalardan iborat?
7. Ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan dars turlarini ayting?
8. Darsning turlari va tiplari haqida ma'lumot bering?

VI BOB. O'QITISH METODLARI

Maktabdagi o'quv jarayonining sifati ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur o'zlashtirilishiga, o'quvchilarda mustaqillik va ijodiy faollikning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Usul va metod tushunchalari o'zaro bog'liqdir, chunki ularning har biri metod sifatida ham, usul sifatida ham namoyon bo'ladi.

Pedagogika amaliyotida o'qitish usullari va metodlarining juda katta boyligi to'plangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, o'qitilayotgan fanning xarakteri, bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokazolar hisobga olinadi.

Forobiyning fan va san'atning afzalligi haqidagi risolasida o'quv jarayonini tashkil etishga va o'qitish metodlariga qo'yiladigan talablar ifodalangan. Olim o'zining o'qitish metodlari haqidagi tushuntirishlarida o'quvchilarga turli bilimlar berish bilan birga, mustaqil holda bilim olish yo'llarini ham ko'rsatish, ularni bilimlarning zarurligiga shak-shubhasiz ishontirish kerakligini uqtirgan.¹

Sharq qomusiy olimlarining asarlarini tahlil qilish, hozirgi terminologiyadan foydalanib mazkur asarlar mualliflarining prinsiplari va o'qitish metodlari bilishning umumiy qonunlariga muvofiqligini aniqlash imkonini beradi. Barcha qomusiy olimlar foydalangan o'qitish metodlarini bir necha guruhga ajratish mumkin. Bular: ko'rsatmali tajriba metodlari (Ibn Sino), bilimlarni bayon qilishning savol-javobli yo'llari (Abu Rayhon Beruniy, al-Xorazmiy), ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni tekshirish metodlari (Forobiy, al-Xorazmiy) va hokazolardan iboratdir. Shunisi diqqatga sazovorki, mazkur olimlarning

¹ *Ал-Фараби. Математические трактаты. Алма-Ата. Илм, 1972. Стр. 327-328.*

barchasi o'quvchilar faoliyatini kuchaytirish va ularda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish maqsadini ko'zlaganlar. Burhoniddin Zarnudjiyning fikricha, insonning bilish faoliyati bilmaslikdan bilishga qarab boradi. Aql faol, ijodiy kuchdir, koinotni bilish qurolidir. Ammo dastlabki tajribasiz bilishning bo'lishi mumkin emas. Chunki umuminsoniy aql tushunchasi taqqoslash, kuzatish va tajriba yo'li bilan tarkib topadi. Bundan shunday pedagogik xulosa chiqarish mumkinki, inson hissiy idrokni boyitish bilangina o'zining bilimlarini oshira oladi. Shuning uchun ta'limda o'quvchilarning o'zidagi tajribaga tayangan metodlardan iloji boricha keng foydalanish kerak.

Metodlar va usullarni tanlash o'qituvchi darsda hal qilishi mo'ljallangan masalaga bog'liq bo'ladi. Chunonchi, yangi materialni bayon etishda bir xil metodlar qo'llansa, uni mustahkamlashda ikkinchi va mavzuni umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo'llanadi. Darsning turli bosqichlarida puxta o'ylash va samarali usullar hamda metodlarni tanlash juda muhimdir. O'qituvchi darsning eng boshida 4-5 daqiqa umumiy so'rashni amalga oshiradi va o'quvchilarning qaysi guruhi o'tgan dars bo'yicha yetarli darajada o'zlashtirmaganini aniqlaydi va keyingi so'rashda sinfning diqqat-e'tiborini eng avval ana shu masalaga qaratadi. Dastlab savollarga batafsil javob bera oladigan o'quvchilardan so'raydi. Natijada sinfning bir qismi uchun murakkablik qilgan material tushunarli bo'ladi. Bu usul o'quvchilarning mashg'ulotlardagi nuqsonlarini payqash va shu zahoti bartaraf etishda yordam beradi. Mazkur usulning samaradorligi ham xuddi ana shundadir.

Garchi har bir o'qituvchining ishida anchagina usul va metodlar mavjud bo'lsa-da, ularni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining ta'limiy ishlarini faollashtirishdir. Bu tadbir juda muhim bo'lib, birinchidan, o'quvchilarni ularning e'tiqodiga, e'tiqodni esa amaliy faoliyatga, xatti-harakatga aylantiradi, ikkinchidan, o'qitish jarayonining ishini osonlashtiradi. Zotan, o'qish-o'rganish diqqat-e'tiborni talab qiladigan murakkab faoliyatdir va unda o'tkir aql, mustahkam iroda, tiniq tasavvur, kuchli xotira zarur. O'qituvchining vazifasi samarali usul va metodlardan foydalanib o'quvchilarda ana shu sifatlarni tarkib toptirish va ularga qiyinchiliklarni yengishni o'rgatishdir.

Hozirgi o'qitish jarayonida qo'yiladigan talablar nima va o'quvchilarda darsga qiziquvchanlikni oshirish, uni yangilik elementlari bilan boyitish uchun nima qilish kerak? Hozirgi zamon ta'limi faqat insoniyat erishgan bilimlarni o'zlashtirishni emas, balki jamiyat endi hal qilishi va bunda bugungi o'quvchilar qatnashishi lozim bo'lgan masalalar bilan tanishishni ham talab qiladi. Bunday masalalar kosmosni o'zlashtirish, atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish, cho'llarni hosildor

yerlarga va bog‘-rog‘larga aylantirish, qishloq xo‘jaligini intensivlashtirish va hokazolardan iborat bo‘lishi mumkin. Xalq xo‘jaligi va fanning hamma sohalarida juda katta burilishlar ro‘y bermoqda va har bir o‘qituvchi o‘zining tarbiyalanuvchilarini o‘zi o‘qitadigan fan sohasi bo‘yicha navbatdagi qayta qurilishlar va erishilgan yutuqlar bilan keng tanishtirishi kerak. Bu ishni o‘quvchilarga mos shaklda va o‘quv dasturiga muvofiq amalga oshirish lozim.

Mazkur talabning ikkinchi xususiyati o‘qituvchining o‘quvchilar fikr doirasini kengaytirish to‘g‘risida doimo g‘amxo‘rlik qilishidir. Ta‘limning mana shu bosqichida o‘qituvchi oldida o‘quvchilarga oddiygina bilimlar berish emas, balki ularning fikr doirasini kengaytirish, qiziquvchanligini oshirish va ularda o‘zi o‘qitadigan fanga muhabbat uyg‘otish vazifasi turibdi.

Shunday qilib, o‘qitish metodi o‘qituvchi va o‘quvchilar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta‘limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo‘ldir. Unga quyidagi muayyan talablar qo‘yiladi:

1. O‘quv materialini o‘rganishning o‘qituvchi tavsiya etgan yo‘li fikrlashning dialektik-materialistik usuli, mustaqil qarashlar, irodaviy xususiyatlari va xulqning shakllanishiga olib borishi kerak. Ana shu talab nuqtayi nazaridan metod tarbiyaviy tusda bo‘lishi lozim.

2. O‘qitish metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo‘lishi zarur. Shundagina o‘qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo‘yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal qilib bo‘lmasligini ko‘ra oladi.

3. O‘qitishning tizimliliigi uning samaradorligini belgilaydi.

4. O‘qitish metodining tushunarliliigi: o‘qitishning yo‘li o‘quvchi uchun qabul qilinishi va qo‘llanishi, o‘quv materialini o‘rganishning usuli esa bilimlarni o‘zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo‘lishi lozim.

5. O‘qitishning onglilik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.

6. Bilimlarning puxtaligi va asosliligi.

7. O‘qitish metodikasi, nazariy va amaliy hodisalarning muvofiqliigi.

Har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko‘zda tutiladi va shuning uchun u qandaydir maqsad qo‘yishni, unga erishish bo‘yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirishga yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi. Har qanday faoliyat uning obyektini talab qiladi. Nihoyat, metod maqsadga olib borishi kerak, aks holda, u qo‘yilgan maqsad uchun yaroqsizligini yoki bu holatda uning umuman noto‘g‘ri qo‘llanganini e‘tirof etish lozim. Shunday qilib, har qanday metod uni qo‘llashdan ko‘zlanadigan maqsadni, shu maqsadni amalga oshirish faoliyatini va faoliyatni bajarish vositalarini talab qiladi. Bu vositalar faoliyat obyekti to‘g‘risidagi predmetli

yoki aqliy bilimlar, qo'yilgan maqsadga albatta erishishdan iborat bo'lishi mumkin. Bularning hammasi har qanday metodga nisbatan maqsadga muvofiqdir, lekin o'qitish metodi uchun yetarli emas.

Metod strukturasi o'qitish usullari kiradi. Lekin metod mazkur usullar majmuyidan iborat emas. Usul o'qituvchi yoki o'quvchilar aqliy yoki amaliy ishining alohida operatsiyalari bo'lib, ular mazkur metodda tavsiya etilgan materialni o'zlashtirish shaklini to'ldiradi. Masalan, o'qituvchi eslab qolish usulini beradi. Usul metoddan ajraladi, o'zining bilimlarini o'zlashtirishdagi va ko'nikmalar hamda malakalarni shakllantirishdagi ahamiyatini yo'qotadi.

O'qitish usullarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

– tafakkur, xotira, diqqat va xayolning alohida operatsiyalarini tarkib toptiradigan va faollashtiradigan usullar;

– fikrlash faoliyatida muammoli va izlanishli vaziyatlarni vujudga keltiradigan usullar;

– o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish bilan bog'liq kechinmalari va hissiyotlarini faollashtiradigan usullar;

– nazorat va o'quvchilarning o'zini o'zi nazorat qilish usullari;

– o'qitish jarayonida o'quvchilarning jamoaviy va shaxsiy o'zaro munosabatlarini boshqarish usullari.

O'qitishning turli metodlariga bir xil usullarni kiritish mumkin. So'nggi yillarda pedagogika fani va maktab amaliyotida o'qitish metodlari muammosiga alohida e'tibor berilmoqda. Shu muammo bo'yicha anchagina tadqiqotlar bajarilmoqda, ilg'or pedagogik amaliyotda o'qitishning samarador metodlarining va ularning tizimlarini qo'llashning talaygina yo'llari topildi. Ammo umumiy ta'lim maktabiga qo'yilayotgan yangi talablar o'qitishning metodlari va usullarini yana-da takomillashtirishni talab qilmoqda.

Yuqorida qayd etilganidek, ta'limning mazmuniga qo'yilayotgan yangi talablar – yosh avlodga, xususan, fanlarning asoslari bo'yicha yuksak ilmiy-nazariy bilimlar berishdan iborat bo'lib, bu ish nazariy bilish metodlarini, shu jumladan, o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, mantiqiy operatsiyalarni bajarish usullari bilan qurollantirishni tobora kuchaytirishni taqozo etadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'qitish metodlarining yagona ta'rifi yo'q. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarini hal qilishga qaratilgan o'zaro hamkorlikdagi faoliyat usullarining tartibga solinishidir.

Umuman, o'qitish metodlarining majmuyi – atrof dagi voqelikni bilishning yo'li, deya xulosa chiqarish mumkin. O'quvchilar aqliy kamol topishining xarakterini belgilaydigan yo'l bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi, shaxsning xususiyatlarini shakllantiradi. O'qitishning maqsadi insoniyatning tajribasini o'zgartirishning o'zidir. O'qitish nazariyasi metodlarini insoniyat

tajribasidan oladi va ularni o'quv mashg'ulotlariga moslashtiradi. Shuning uchun o'qitish metodlari doimiy ravishda yangilanadi, takomillashadi, fan-texnikaning rivojlanishi va ijtimoiy rivojlanish asosida yangi metodlar vujudga keladi.

O'qitish metodlarining juda ko'p turlari mavjud va ularning sonini aniq belgilab bo'lmaydi. Metodlar o'qitishning mantiqiy tomonlariga, komponentlari va vazifalariga asoslanib tasniflanadi.

Maktabdagi o'qitish metodlarining yagona tasnifi yo'q. Nazariya va amaliyotda bir qancha tasniflar mavjud bo'lib, ular o'zaro zid kelmaydi, biri ikkinchisini inkor etmaydi, balki bir-birini to'ldiradi, o'qitish jarayonini ko'rish imkoniyatini yaratadi.

Tasnif tartib va tizimni vujudga keltiradi, umumiy va muayyan nazariy va amaliy, muhim va tasodifiy o'qitish metodlarini aniqlashga yordam beradi, shu orqali ulardan amaliyotda samaraliroq foydalanishga xizmat qiladi.

O'qitish metodlarini tasniflashda o'quvchiga dastur materialini o'rganishning maqsadga muvofiqroq yo'llarini tanlash imkonini yaratadi, o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarni tushunishga yordam beradi, o'qituvchilarning faoliyatini takomillashtirish uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi.

O'QITISH METODLARINING TASNIFI

Pedagogikada o'qitish metodlarini tasniflashga yagona yondashuv mavjud emas. Hozirgi didaktikada o'qitish metodlarini bilimlar manbayi bo'yicha (S.O.Lordkipanidze, Y.Y.Golant), didaktik maqsadlar bo'yicha (B.P.Yesip), bilish faoliyatining saviyasi bo'yicha (I.Y.Lerner, M.N.Skatkin, M. I. Maxmutov) farqlash eng ko'p tarqalgan.

Metodlarning binar sxemalari, ularni uch o'lchovli va hatto, keng qamrovli farqlash ham uchraydi. Ana shu tasniflarning har birida afzalliklar va kamchiliklar mavjud bo'lib, ular adabiyotlarda yetarlicha tahlil qilingan.

O'qitish metodlarini bilish manbalari bo'yicha tasniflash ancha oddiy bo'lib, ular maktab amaliyotida keng tarqalgan. Bu belgi bo'yicha metodlar quyidagi uch guruhga bo'linadi:

1. Og'zaki metodlar (bilimlarni so'z bilan bayon qilish, suhbat, darslik, ma'lumotnoma va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash).

2. Ko'rsatmali metodlar (rasmlar, namoyishlar, kuzatishlar).

3. Amaliy metodlar (mashqlar, laboratoriyadagi amaliy ishlar). Bular ma'lum darajada shartlidir, chunki mazkur metodlarning hammasi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularni doim ham aniq chegaralab bo'lmaydi.

Har bir o'qitish metodining o'z vazifasi bor. Adabiyotlarda o'qitish metodlarining rag'batlantiruvchi (motivlashgan), ta'limiy, tarbiyaviy va kamol toptiruvchi umumpedagogik vazifalari ifodalangan.

O'qituvchi darsga tayyorlanishda va uning uchun eng muvofiq metodlarini tanlashda ana shu metodlarning bajarilishi mumkinligini va ularning strukturasi hisobga olib, shu asosda rag'batlantirish, tarbiyaviy va kamol toptirish vazifalarini kuchaytiruvchi murabbiydir.

Tasniqlash ta'limning nazariy asoslarini ko'rishga yordam beradi, pedagogik fikrni chuqurlashtiradi va shunga ko'ra ijod uchun asos bo'ladi. O'qitish metodlarini tasniqlash o'qituvchilar faoliyati o'rtasida taqsimlanadi. Birinchi guruhga o'qitish usullari va ikkinchi guruhga esa o'qish usullari kiradi. Quyida o'qitish metodlarining taniqli olimlar tavsiya etgan tasniqlarini ko'rib chiqamiz.

Xorazmiy, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino, Burhoniddin Zarnudjiylarning metodlari tasniqlarida asosan mantiqiy bilish faoliyatini kuchaytirish nazarda tutilgan bo'lib, ular ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash, ko'rsatmalilik nazariya bilan amaliyotni o'zaro bog'lash, izlanish metodlaridan iboratdir.

I.Y.Lerner va M.N.Skatkin o'qitish metodlarini quyidagilarga ajratadilar:

- tushuntirish – rasmlar metodi;
- reproduktiv metod;
- muammoli bayon qilish metodi;
- qisman izlanish metodi;
- tadqiqot metodi.

M.A.Danilov va B.P.Yesipning tasnifi ma'lum turdagi darslarda qo'yiladigan quyidagi vazifalarga bog'liqdir:

1. Bilimlarni bayon qilishda: hikoya – tushuntirish, ma'ruza, suhbatlar, ko'rsatmali qo'llanmalarni namoyish etish.

2. O'quvchilarda ko'nikma va malakalarni shakllantirish: mashqlarni shakllantirish va amaliy ishlar.

3. Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish – joriy kuzatishlar, og'zaki so'rash, yozma va amaliy nazorat ishlari.

S.I.Perovskiy va Y. Y. Golant tasnifi: faol va passiv metodlarga bo'lish:

- agar o'quvchilar mustaqil ishlasa, faol metodlar (laboratoriya metodi, kitob bilan ishlash);
- agar o'quvchilar faqat tinglasa va eshitsa, passiv metodlar (hikoya, ma'ruza, tushuntirish, namoyish qilish metodi, ekskursiya).

Bunday tasniqlash ma'qul emas, chunki u o'quvchilarning ongliligi va faolligi prinsipini buzadi.

Y.K.Babanskiyning tasnifi bo'yicha metodlar uchta katta guruhga bo'linadi:

– o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;
– nazorat va o‘zini o‘zi nazorat qilish metodlari. (Ikkinchi guruhda ishning qator yangi metodlari va usullari mavjud.) Muallif quyidagilarni tavsiya etadi:

– bilishga doir o‘yinlar, o‘quv munozaralari, qiziq vaziyatlarni vujudga keltirish, rag‘batlantirish, tanbeh berish va nazorat metodlari.

T.A.Ilina olimlarning tasniflarini umumlashtirib, Y.K.Babanskiyning tasnifini ma’qullagan va tasniflashning quyidagi tartibini tavsiya etgan:

– yangi bilimlarni (o‘qituvchining so‘zlariga tayangan holda berish uchun foydalanilgan tushuntirish, hikoya, maktab ma’ruza metodlari);

– yangi bilimlar o‘zlashtirilishi, mustahkam malakalar shakllanishi uchun foydalaniladigan metodlar: suhbat, ekskursiya, eksperiment va laboratoriya ishi, darslik va kitob bilan ishlash o‘yinlari, mashqlar;

– darsning har bir bosqichida foydalansa bo‘ladigan texnik vositalar bilan ishlash metodlari;

– mustaqil ish.

S.P.Baranov o‘z tasnifini guruhlar bo‘yicha taqsimlaydi. Birinchi guruhga o‘qitishning o‘qituvchi eng asosiy rol o‘ynaydigan hikoya, suhbat, tasniflash, tushuntirish va hokazolarni kiritadi. Bunda o‘quvchining asosiy vazifasi – o‘qituvchi mulohazalarining mantiqiga ergashish, bayon qilinayotgan mazmuni tushunish, eslab qolish va keyinchalik o‘rganilgan materialni qayta gapirib bera olishdan iborat bo‘ladi. Uning fikri o‘qituvchi mulohazalarining tizimiga qanchalik yaqin bo‘lsa, o‘quv materialini o‘rganishning tavsiya etilgan yo‘li shunchalik ishonchli bo‘ladi. O‘quvchining asosiy vazifasi – o‘qituvchining gaplarini tinglash va ularni tushunib olishdir.

Ikkinchi guruhga o‘qishning yo‘llari: mashqlar, mustaqil, laboratoriya, amaliy va kontrol ishlar kiradi. O‘quvchi faoliyatining xarakteri tavsiya etilgan metodning samaradorligini belgilaydi. O‘qituvchining roli bolalarning o‘qishiga mohirona rahbarlik qilishdan iborat bo‘ladi.

Tasniflashning shunday turlari ham mavjudki, ularda o‘qitish metodlari o‘qishning tegishli metodlariga: axborot-umumlashtirish, ijrochilik-tushuntirish, reproduktiv, instruktiv-amaliy va mahsullil-amaliy, tushuntirish-da’vat va qisman izlanishli, undovchi va izlanish tarziga mos keladi (M.I.Maxmutov).

Amalda o‘qitish metodlarini tasniflashga bilimlar manbasi mantiqan asoslar bo‘yicha (N.M.Verzilin), bilimlar manbasi va o‘quvchilarning o‘quv faoliyatidagi mustaqillik darajasi bo‘yicha (A.N.Aleksyuk, I.D.Zverov va boshqalar) baravar yondashish eng ko‘p uchraydi.

S.G.Shapovalenko metodlarning to‘rt jihatini: mantiqiy-mazmuniy, protsessual va tashkiliy boshqarilish jihatlarini ko‘rib chiqadi.

Metodlarni tasniflash muammosiga turlicha qarashlar ular haqidagi bilimlar tabaqalanishi va birlashishining tabiiy jarayonini aks ettiradi.

O'QITISHNING OG'ZAKI METODLARI

Yangi bilimlarni berish metodlari. Biz o'qitish metodlarini tasniflashda yetakchi metodlardan birini ajratdik. U bilimlar manbayi, ya'ni yangi bilimlar hamda ta'riflarni berish; tushuntirish, hikoya, maktab ma'ruzasini metodlari majmuyidir. Quyida ana shu metodlarning har birini alohida ko'rib chiqamiz.

Tushuntirishni ayrim tushunchalar, voqealar, harakat prinsiplarini og'zaki talqin etish deb anglash lozim. O'qitishning bu metodida eng asosiy narsa mushohadalarni ilmiy isbotlash mantiqidir. Ilmiy fikrlash mantiqi tushuntirishga qo'yiladigan asosiy talabni belgilaydi. Bu nimani bildiradi, avvalo, o'qituvchi yangi materialni o'tishda foydalaniladigan o'quv predmetining ilmiy mazmunini chuqur bilishi, dars uchun zarur materialni tanlay olishi va tushuntirishning samaradorligini belgilashi kerak. Bundan tashqari, bolalar mazkur materialni o'rganishning maqsadini aniq belgilashi, ularga qiziqarli bo'ladigan faktli materialni tanlashi lozim. Buning uchun esa o'qituvchi o'quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlarini yaxshi bilishi, tushuntirishda ularning diqqatini tez jalb etishi va bilishga doir ishlarni faollashtirishi zarur. O'qituvchining nutqi yorqin, aytgan so'zlari bolalarga tushunarli bo'lishi kerak. Ana shu fikrlarimizning dalili sifatida matematika darsini olaylik.

Darsning maqsadi:

1. O'quvchilarni 6 va 7 sonlarini hosil qilish bilan tanishtirish, sonlarni taqqoslashni, 1–7 sonlari ichida miqdoriy va tartib sonlardan foydalanishni mashq qilish, 6 va 7 raqamlari bilan tanishtirish, 6 raqamining yozilishini mashq qilish.

2. O'n ichida sonlar tarkibiga doir bilimlarni mustahkamlash.

YANGI MATERIAL USTIDA ISHLASH

1. O'qituvchi yangi material ustida ishlashni quyidagi savollar bilan boshlashi mumkin: «Biz sizlar bilan qanday sonlarni o'rgangan edik? (1-2-3-4-5) Shu sonlarning qaysinisi eng katta son? (5) Hisoblashda 5 dan keyin qanday son keladi? (6) 6 soni qanday hosil bo'ladi? 5 ta doiracha bor bo'lsa (polotnoga qo'yilgan), ular oltita bo'lishi uchun nima qilish kerakligini ko'rsat». Chaqirilgan o'quvchi buning uchun 5 ta doirachaga yana 1 ta

doiracha qo'shish kerakligini ko'rsatadi. O'qituvchi yana bolalardan so'raydi: «Bola sanoq bo'yicha nechanchi doirachani qo'shdi? (Oltinchi.) Doirachalarning hammasi nechta bo'ldi? (6 ta.) Olti soni qanday yozilishini biladiganlar bormi?» Chaqirilgan o'quvchi yoki (xohlovchilar topilmasa) o'qituvchining o'zi 6 raqamini ko'rsatadi va polotnoga qo'yadi. Shundan keyin o'qituvchi bolalarga 6 sonini hosil qilish (5 ta bir xil doirachaga yana 1 ta boshqacha rangli doirachani qo'shish) amalini narsalar bilan bajarishni, so'ngra 6 soni qanday hosil qilinganini kesma raqamlar bilan yozishni buyuradi. 7 sonini hosil qilish ham xuddi shu yo'sinda bajariladi: 6 ta bir xil rangli uchburchakka yana 1 ta boshqacha rangli uchburchak qo'shiladi va kesma raqamlar bilan ($6+1=7$) yoziladi.

2. Shundan so'ng 5 va 6 (6 va 7) sonlarini taqqoslash ishlari bajariladi. Buning uchun to'plam polotnosida 5, 6 va 7 ta narsadan iborat sonlar pog'onachasi namoyish etiladi. Bunda 6 ning 5 dan 1 ta ko'pligi aniqlanadi. Bolalar tegishli yozuvlarni kesma raqamlar bilan bajaradilar. Keyin darslikdagi rasmlar bo'yicha ishlashga o'tish mumkin.

Parashutchilar tasvirlangan rasmga savollar: «Oldin nechta parashutchi sakradi? (5) Yana nechta parashutchi sakradi? (1) Oltinchi parashutchi sakraganidan keyin hamma parashutchilar nechta bo'ladi? (6) 6 qanday hosil qilindi? (5 ga 1 qo'shildi.) Oltinchi parashutchi sakraganidan keyin parashutchilar ko'paydimi yoki kamaydimi? (Ko'paydi: $6>5$ bo'ldi)». Keyingi rasmga savollar: «Avval nechta samolyot ko'tarildi? (6) Keyin nechtasi ko'tarildi? (1) Hamma samolyotlar nechta bo'ldi? (7) 7 qanday hosil qilindi? (6 ga 1 qo'shildi.) 6 ta ko'pmi yoki 7 ta ko'pmi? ($7>6$).» Uchburchakli yoki to'rtburchakli rasmlar bilan ham ana shu yo'sinda ishlanadi (birliklarni ayirish bilan 5 va 6 sonlari hosil qilinadi).

Sahifaning yuqorisiga yozilgan qator sonlardan tartib munosabatlarini aniqlashda foydalanish mumkin. O'qituvchi: «Sizlar, masalan, kinoteatr zalining bir qatoridagi o'rindiqlarni ko'z oldingizga keltiring», – deydi va bir o'quvchidan: «Sening o'rnig oltinchi, ikki yoningdagi qo'shnilaring nechanchi o'rinlarda o'tirgan bo'ladi?» – deb so'raydi. Boshqa o'quvchiga murojaat qilib: «Sening o'rnig yettinchi va sen unga 1 nomerli kreslo tomondan borasan, bunda nechanchi nomerli kreslolar oldidan o'tishing kerak?» – deydi. Keyin o'quvchilarga shunday savol tashlaydi: «Bola qatorning qoq o'rtasida (to'rtinchi o'rinda) o'tiribdi, uning chap tomonidagi (5, 6, 7) kreslolar va o'ng tomonidagi (3, 2, 1) kreslolarining nomerlarini ayting». O'qituvchi namunani ko'rsatgach, bolalar 6 raqamini yozadilar, 6 soni hosil bo'lishini ko'rsatadigan nuqtalarni qo'yadilar (bu ishni darslikda berilgan namunaga qarab bajaradilar). 2-3 ta tengsizlikni yozadilar.

O‘TILGAN MATERIAL USTIDA ISHLASH VA YANGI MATERIALNI O‘RGANISHGA TAYYORLANISH

Navbatdagi darsga tayyorgarlik sifatida bolalarga $4+1=5$, $5-1=4$, $2-1=1$, $4-1=3$ kabi misollarni berish foydalidir. Bolalar tanlash metodidan foydalanib yoki 2, 3, 4, 5 sonlarining tarkibini bilish asosida tushirib qoldirilgan sonlarni qo‘yadilar. Shunday savollar o‘rtaga tashlanadi: «5 hosil bo‘lishi uchun 4 ga qancha qo‘shish kerak? 5 dan nechta olib tashlasa, 4 qoladi?»

1 dan 10 gacha bo‘lgan sonlarning 2-qismiga doir dars. Darsning maqsadi. O‘tilganlarni mustahkamlash. O‘qituvchi darsni ishning muayyan sharoitlarini hisobga olib tashkil etishi mumkin. Namoyish qilinadigan va individual material bilan o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotda qatordagi sonlarning qanday hosil bo‘lishini, ularning o‘shish va kamayishdagi tartibini takrorlash foydalidir. Ana shu maqsadda bolalar sonlar qatoridagi bo‘sh o‘rinlarni to‘ldiradilar, o‘shish va kamayish tartibida berilgan sonlardan foydalanadilar, sonlarni berilgan har qanday sondan boshlab, tartibi bo‘yicha, masalan, 2 dan 7 gacha, 8 dan 3 gacha aytadilar. (Sanashni davom ettirish o‘yini.)

Mustaqil yechish uchun ham misollar berilishi (ularni yechishda ko‘rsatmali qurol sifatida «Sonlar pog‘onasi»dan foydalanilishi) mumkin. Misollarning bir qismini mustahkamlash darsida tuzsa ham bo‘ladi. Misollar qanday yechilganini tekshirish uchun har bir ustundagi misollarni taqqoslash va bolalarni: agar 1 ni ayirsak, 1 ta kamayadi yoki 1 ni qo‘shsak, 1 ta ko‘payadi, degan xulosaga olib borish g‘oyat foydalidir.

Hikoya – xabar shaklidagi yangi materialni yoritish metodidir. Undan hamma sinflarda foydalaniladi. O‘quvchilar aytiladigan ma‘lumotlarni bilmaydigan yoki kam biladigan quyi sinflarda bu metodni qo‘llash juda qulaydir. Lekin yangi materialni hikoya metodidan foydalanib tushuntirish uchun o‘qituvchi puxta tayyorgarlik ko‘rishi va:

- hikoyaning g‘oyaviy yo‘nalishini ta‘minlashi;
- unda yetarli miqdordagi yorqin va ishonarli misollar hamda dalillar, to‘g‘ri tekshirilgan ma‘lumotlar bo‘lishi;
- asosiy fikr va muhim jihatlar bayon qilinishi;
- hikoya tushunarli, sodda tilda aytilishi;
- material jo‘shqin ifodalanishi kerak.

Maktab ma‘ruzalaridan, asosan, yuqori sinflarda foydalaniladi. Chunki ular hikoyaga nisbatan uzoqroq davom etadi. Mazkur ma‘ruzalar faqat o‘quv dasturining yirik va muhim masalalari bo‘yicha o‘qiladi.

Yangi bilimlarni o‘zlashtirish va mustahkamlash, ko‘nikma va malakalar hosil qilish uchun foydalaniladigan metodlar. O‘qitish metodlarining birinchi

guruhidan farqli o'laroq, ularning ikkinchi guruhida o'quvchilar yangi materialni bilishda faolroq qatnashadilar. Ular o'qituvchining savollariga javob qaytaradilar (suhbat); kuzatishlar o'tkazadilar (ekskursiya); ta'lim vositalari orqali mustaqil bilim oladilar (kitob, darslik bilan ishlash); olgan bilimlarini turli vositalar bilan mustahkamlaydilar (o'yinlar, mashqlar).

Suhbat ta'limning keng tarqalgan usuli bo'lib, darsning istalgan bosqichida qo'llanishi mumkin. Suhbatning to'rt xil turi mavjud bo'lib, ular: yangi bilimlar berishda, bilimlarni mustahkamlashda, olingan bilimlarni tekshirishda, o'tilgan materialni takrorlashda qo'llaniladigan suhbatlardir. Yangi materialni tushuntirishdagi suhbat, asosan, o'quvchining shaxsiy tajribasiga tayanadi. Uning manbayi ko'rsatmali qo'llanmalar, darslik materiallari, jadval va hokozalar bo'lishi mumkin.

Yangi bilimlar berishga doir suhbatni induktiv yo'l bilan (ya'ni xususiy ma'lum yoki zarur voqealardan umumiy voqealarga qarab borish tarzida) yoki deduktiv yo'l bilan (ya'ni umumiy hodisadan xususiy hollarga qarab borish tarzida) o'tkazish mumkin. Bilim berishning induktiv va deduktiv yo'llari o'zaro bog'liqdir. Masalan, o'qituvchi qator misollarni aytishi va keyin xulosa chiqarishi yoki umumlashtirishi mumkin (induksiya).

Yangi bilimlar berishda evristik suhbatdan foydalaniladi. Bu metod o'qituvchi o'quvchilar oldiga ma'lum bir vazifa qo'yib, ularni og'zaki savollar orqali ana shu vazifani hal qilishga olib borishda qo'llanadi. Suhbatning muvaffaqiyatli o'tishi savollarning mohirlik bilan qo'yilishiga bog'liqdir. O'qituvchining savollari, avvalo, qisqa va aniq bo'lishi, mantiqiy izchillikda berilishi, o'quvchining fikrini uyg'otishi: uni o'ylashga, tahlil qilishga, taqqoslashga majbur etishi, yangi hodisalarni tushunishga undashi kerak. O'qituvchilar savollarga to'la, ongli ravishda va asosli javob berishlari, mustaqil fikrlarini aks ettirishlari lozim. Suhbatni bilimlarni mustahkamlash uchun ham o'tkazish mumkin. U o'qituvchining axborotidan keyin yoki darslikdagi materialni mustaqil ishlab chiqilgandan keyin o'tkaziladi. Suhbat mustahkamlovchi metod sifatida bilimlarni tekshirish va baholash jarayonida ham o'tkazilishi mumkin. Bu usul munozara va mubohasa metodlariga kiradi. Quyida ushbu metod asosida bitta darsni misol keltiramiz.

Ta'limiy suhbat. Ekskursiya, amaliy ish va yangi materialni tushuntirgandan keyin ularni mustahkamlashda, takrorlashda, shuningdek, ekskursiya va yangi materialni tushuntirish davomida o'qituvchi o'quvchilar bilan suhbatlashadi. Suhbatni o'quvchilar shaxsiy tajribalari va kuzatishlari, mavjud bilimlari asosida o'qituvchining savolini tushunadigan va unga javob qaytara oladigan bo'lganlaridan keyin o'tkazish mumkin. Agar ana shunday sharoit (bilimlar, tajriba va kuzatishlar) bo'lmasa, o'quvchilar hech

qanday tasavvurga ega bo'lmagan narsalar, hodisalar to'g'risida suhbat o'tkazishning mutlaqo foydasi yo'q.

Har qanday suhbatning asosini didaktik masala tashkil etadi. Ana shu masala suhbatning vazifasini va xarakterini, hatto uning turini ham belgilaydi. Shunga ko'ra, ta'limiy va evristik-ta'limiy suhbatlar bo'ladi.

Ta'limiy suhbat o'rganiladigan materialni yana-da mustahkamlash, chuqurlashtirish va takrorlash maqsadlariga xizmat qiladi. Yangi mavzu tushuntirilgach, garchi har bir bola faol qatnashmasa ham ularning xotirasi va tafakkurini rivojlantirish uchun suhbat o'tkazish zarur. Unda to'g'ri fikr yuritish uchun misollarning namunalari bo'ladi. Bundan tashqari, adabiyot, jamiyatshunoslik va boshqa fanlarga doir darsliklardagi suhbatlarda o'quvchilarning o'qituvchi aytgan g'oyalariga to'g'ri kelmaydigan xususiy fikrlari yoki tushunchalari ham ma'qullanadi, o'qituvchi o'quvchilarning javoblarini e'tirof etishga yoki rad qilishga shoshilmaydi. Aksincha, sinfda ular o'z fikrlarini yoki mustaqil mulohazalarini erkin aytishlari uchun sharoit yaratishga harakat qiladi.

Javoblarni baholashda esa ularning shunchaki to'g'ri yoki noto'g'riligini qayd qilish bilan cheklanmay, balki o'quvchilarning javoblaridan ozgina bo'lsa-da, to'g'ri fikrlarini izlaydi. Ulardan zarracha haqiqatni topsa, uni o'zi qisqa va yaqqol qilib takrorlaydi, o'quvchining mustaqil fikr yuritganini ta'kidlaydi va uni shunday qilishga da'vat etadi. Muvaffaqiyatli fikrlar, hatto ayrim ifodalar mazkur mavzuda nima haqida gap borayotganini tushunishga yo'l ochsa, ta'limiy suhbatning evristik-ta'limiy suhbatga aylanishi uchun xizmat qiladi. Noto'g'ri javoblar, agar jiddiy bo'lmasa, o'qituvchi tomonidan qayd qilinmaydi yoki yo'l-yo'lakay tuzatib ketiladi va o'quvchilar tomonidan oydinlik kiritilguniga qadar muhokama qilinadi. To'liq qaytarilmagan javoblarni o'quvchilarning o'zlari to'ldiradilar.

Hozircha maktablarimizda o'quvchilarning bilish ehtiyojlariga taalluqli dolzarb masalalar bo'yicha suhbatlardan ko'p foydalanilmayotir. Fan, texnika, san'at va ishlab chiqarishning dolzarb masalalari yoki ayrim muammolari o'quvchilarni hayajonlantirishi mumkin. Ixtisoslikka doir o'quv predmeti bo'yicha darslarda, xususan hozirgi paytda, o'quvchilarni qiziqtiradigan masalalar muhokama qilinadi. Ba'zan esa bunday masalalar o'quv dasturining chegarasidan ancha chiqib ketadi. Shunday suhbatda o'qituvchi o'quvchilar muhokama qilinayotgan masala bo'yicha uning fikriga ehtiyojmand bo'lishlariga ko'ra qatnashadi. Mazkur suhbat o'quvchilarning shaxsiy ehtiyoji va qiziqishlarini, shuningdek, ularni qiziqtiradigan muammoni aniqlash imkonini beradi. Unda o'quvchilar o'zaro erkin fikr almashadilar.

Munozara. Ta'limiy suhbat bilimlarni o'zlashtirishga zamin tayyorlaydi, evristik-ta'limiy suhbat ana shu bilimlarni har tomonlama

qo'llashga yordam bersa, erkin suhbat bilishdagi mustaqillikni oshiradi. Shu bilan birga, bilishdagi mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim o'quv mashg'ulotlarining har qanday turlari, shakllari va usullari o'rtasidagi bevosita izchillikni vujudga keltiradi.

Munozara suhbatning yana-da rivojlanishidir. U ikkita qarama-qarshi nuqtayi nazarning to'g'riligini isbotlash zarurati tug'ilganida vujudga keladi.

Munozara davomida o'quvchilarning fikrlashidagi xususiy cheklanish barham topadi, bilishga qiziqish ortadi va mustaqil mulohaza yuritish rivojlanadi.

O'QITISHNING INDUKTIV VA DEDUKTIV METODLARI

O'qitishning induktiv va deduktiv metodlari – o'quv materialini mazmunining xarakteri va mantiqini yoritish usulidir.

O'qitishning induktiv metodi – o'qituvchi va o'quvchining turli variantlardagi faoliyatidir. Bunda o'qituvchi avval dalillarni tushuntiradi, tajribalarni, ko'rsatmali qo'llanmalarni namoyish qiladi, umumlashtirish va tushunchalarni ta'riflash bo'yicha mashqlar bajarishni tashkil etadi. O'quvchilar oldin xususiy faktlarni o'zlashtiradilar, keyin xulosalar chiqaradilar va o'quv materialini umumlashtiradilar. Yoki o'quvchilar oldiga xususiy qoidalardan umumiy xulosalargacha mustaqil mushohada yuritishni talab qiladigan muammoli topshiriqlar qo'yiladi. O'quvchilar esa dalillar ustida mustaqil holda fikrlaydilar va tegishlicha xulosalar chiqaradilar hamda umumlashtirish qiladilar.

Deduktiv metod – o'qituvchining avval umumiy qoidalarni, ta'riflarni aytishi, keyin asta-sekin xususiy hollarni, muayyan vazifalarni keltirib chiqarish usulidir. Bunda o'quvchilar umumiy qoidalarni idrok etadilar, formulalarni o'zlashtiradilar, keyin esa ulardan kelib chiqadigan natijalarni egallaydilar.

Agar mana shu metodlar taqqoslansa, o'quvchilar ma'lum mushohadalarni keltirib chiqaradigan faktlar va materialni o'zlashtirishlariga ko'ra induktiv metod foydaliroqdir. Masalan, o'qituvchi matematik masalaning yechimini yoritadi, keyin o'quvchilarga ana shu xildagi masalani mustaqil holda yechishni tavsiya qiladi, lekin bunda fikrlash tez rivojlanmaydi va materialni o'rganishga ko'p vaqt ketadi. Deduktiv metod materialni tezroq o'tishga yordam beradi va bunda mavhum fikrlash faolroq rivojlanadi. O'qitishning induktiv va deduktiv metodlarida uning og'zaki, ko'rsatmali va amaliy metodlari, shuningdek, reproduktiv yoki muammoli izlanish metodi ham qo'llaniladi.

Ta'limning reproduktiv xarakteri, asosan, o'quvchilarning ijodiy faoliyatidir. Fikrlashning xarakteri – o'qituvchi bergan o'quv axborotini

faolroq idrok etish va eslab qolish, o'qitishning og'zaki, ko'rsatmali va amaliy metodlaridan hamda usullaridan foydalanmay, mazkur metodlarni qo'llab bo'lmaydi. Reproduktiv metodda o'qituvchi faktlarni, isbotlarni, tushunchalar ta'rifini to'la bayon qiladi, asosiy masalaga alohida e'tibor beradi.

O'qitishning reproduktiv metodida ko'rsatmalilik ham qo'llaniladi. Reproduktiv yo'sindagi amaliy ishlar o'quvchilarning namuna bo'yicha ilgari yoki endigina o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llashi bilan farqlanadi. Ammo bunday ishlarda bilimlarni mustaqil holda boyitish amalga oshmaydi. O'qitishning muammoli-izlanish metodi muammoli ta'limda qo'llaniladi.

REPRODUKTIV TA'LIMDAN AMALIY TA'LIMGA O'TISH

Biz maktabda insonga hayotiy masalalarni mustaqil holda hal qilishni o'rgatamiz. Buning uchun faqat bilimlar emas, balki ularni ishlatish va turli sharoitlarda qo'llash ko'nikmasi ham kerak. Ana shu nuqtayi nazardan hozirgi maktabda ustunlik qiladigan o'qitishning reproduktiv usuli maqsadga muvofiq emas.

Masalan, hozir teatrlashtirish keng tarqalgan. Bunda jiddiy spektakllarni qo'yish haqida gap borayotgani yo'q. Darsda kichik sahnani o'ynash: bolalarga tasodifan qadimgi odam uchrab qolsa, u bilan nimalarni gaplashishlarini o'ylab ko'rishni taklif qilish mumkin. Shu payt birdan shkafning eshigi ochilib, undan «ibtidoiy odam» chiqadi. U teriga o'ralgan va qo'lga so'yil ushlab olgan. Teri bo'lmasa, ag'darma nimpo'stin kiyadi. So'yilning og'irligini chamalab va terini siypalab ko'rib, «ibtidoiy odam»dan uning qabiladoshlari va yuz ming yil avval qanday yashaganini so'rash o'quvchilar uchun qiziqarlidir. Undan gugurtsiz olov yoqishni ham o'rganish mumkin.

Bilishga doir yurishlar va ekskursiyalar barchaga ma'lum. Lekin bunda bolalarning o'zlari muammolarni qo'yishlari, gipotezalarni bayon qilishlari va ularga javob topishlari muhimdir. Bu borada daladagi o'simliklarning nima uchun har xil o'sishi, gunafshaning chiroyliligi va hokazolar haqida fikr yuritish g'oyat foydalidir. Sinfda o'quv jarayonini bolalarni qiziqtiradigan savollarga javob topish yo'sinida tashkil qilish mumkin.

Hech qachon unutmazlik kerakki, pedagogik jarayonning ikkita qatnashchisida – o'qituvchi va o'quvchida ikki xil maqsad bo'lishi mumkin. Masalan, o'qituvchi o'quvchini tabiat hodisalari bilan tanishtirishni istasa, o'quvchi o'yin uchun vaqt topish haqida o'ylaydi. Buni bitta yo'ldan ikki xil maqsadga qarab borish desa bo'ladi.

Faoliyatga intilishning eng yaxshi omillaridan biri hayratlanishdir. O'qituvchilardan o'quvchi darsdan nima olib ketishi kerakligi so'ralsa,

ular: uyga vazifa, yangi bilimlar, baholar, deb javob beradilar. Aslida o'quvchi uyiga zavq-shavq va qoniqish bilan, yana darsga kelish ishtiyoqi bilan qaytishi kerak. O'qituvchining darsda nimanidir amalga oshirishga ulgurmagani hech gap emas. Uning bolalarda uyg'otgan qiziqishi keyingi safar kamchilikni to'ldirishda unga yordam beradi. Dars oxirida o'qituvchi bolalarni hayratlantiradigan savolni ochiq qoldirsa, bolalar sarguzashtlarning davomini kutgandek, u bilan yana uchrashishga intiladilar.

Afsuski, darsliklarimizdagi matnlarda aqlga nomuvofiq fikrlar uchramaydi, barcha ziddiyatlar bartaraf etilgan va shunga ko'ra darsliklar zerikarli. Odatda, dastlabki manbalarda aqlga nomuvofiq fikrlar, ziddiyatlar, to'qnashuvlar juda ko'p bo'ladi. Dastlabki manbalardan foydalanish yaxshi, lekin ularni o'qish qiyin. Shuning uchun, bir tomondan, bolalar tushunadigan tilda yozilgan, ikkinchi tomondan, o'zaro zid fikrlar uyg'otadigan mazmundagi o'quv matnlari zarur.

Bizning juda bo'sh o'quv materiallarimizni xayoliy qo'shimchalar bilan jonlantirish mumkin va bu ish murakkab emas. Masalan, o'qituvchi darsni quyidagicha boshlaydi: «O'zimizni kosmik kemada uzoq galaktikadagi noma'lum planetaga uchib kelgandek his qilamiz. Undagi hamma sharoit xuddi yerdagidek, lekin faqat tortish kuchi kam. Unda qanday hayvonlar yashashi mumkin?» Bu holda bolalarning maqsadi mazkur planetada hayvonot dunyosini ko'paytirishdan iborat bo'ladi. O'qituvchi esa ularga yerdagi hayvonot dunyosini o'rgatishni ko'zlaydi. O'qituvchi ham, o'quvchilar ham o'z maqsadlariga erishadilar, binobarin, taqqoslash bilishning yaxshi yo'lidir.

Maktablarimizdagi o'quv predmetlarning mazmunida asosiy e'tibor definitsiyalarga, ya'ni tushunchalarni ta'riflashga qaratilgan. Lekin ana shu tushunchalarga turli nuqtayi nazardan qarash g'oyat foydalidir. Har qanday obyekt o'zi haqidagi tushunchaning ta'rifidan ancha boydir. Bolaning miyasiga tushunchalar ta'rifini qanchalik ko'p tiqishtirsak, ana shu boylarning imkoniyatlari shunchalik yo'qolib boradi.

O'qituvchining materialni takrorlash va mustahkamlashga qaratilgan vazifalari ham o'quvchilarning faoliyatini kuchaytirishi lozim. Uyga beriladigan vazifaning o'qish va so'zlashdangina iborat bo'lishi ma'qul emas. Undan ko'ra bolalarning o'qituvchiga savollar bergani yaxshiroqdir. Ammo o'tilgan mavzu bo'yicha berilgan savollar o'quvchilarni yangi bilimlarni o'zlashtirishga tayyorlashi kerak. Suv solingan idish isitilsa, itarilish kuchi qanday o'zgaradi? O'qituvchi darsda isbotlagan qoidalarni amalda sinab ko'rishni bolalarga tavsiya etishi mumkin. Chunki bahslashish uchun bilim kerak.

Hozir maktablarda o'quvchilarga o'zlari o'rganadigan predmetlarni yoki mavzularni tanlash huquqini berish mumkinligi xususida gaplar bo'layotir.

Bolaga ko'chaga chiqishdan oldin etigini kiyish yoki kiymasligini aytish kerak emas. Chunki u «kiymayman» deyishi mumkin va so'ragan kishi mulzam bo'lib qoladi. Unga etikni avval chap yoki o'ng oyoqqa kiyishini aytish boshqa gap. U o'zining tanlash huquqidan qoniqish bilan foydalanadi.

O'QITISHNING AMALIY METODLARI

Ta'limiy topshiriqlar. Maktablardagi ta'limning hamma bosqichlarida o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish juda muhimdir. Lekin kichik yoshligidan boshlab ularning ijodiy fikrlashini shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Chunki boshlang'ich sinflarda, xususan, ta'limning birinchi yili bolalarda o'qish qobiliyatlari shakllana boshlaydi.

O'quvchining ijodiy fikrlashi yangilik kashf etishida, ko'rilayotgan narsani yaratishning boshqacha usulini topishda, o'quv materialidan o'zgacha bog'lanishlarni ochib berishda va hokazolarda aks etadi. O'quvchilarning namunaga tayanmay qandaydir yangi narsani yaratish qobiliyati ijodkorlikni talab qiladigan faoliyatda rivojlanadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlan-tirishda ta'limiy topshiriqlar muhim rol o'ynaydi. Bunday topshiriqlar fikrlash faoliyatining maqsadi sifatida xizmat qiladi va uning xarakterini belgilaydi.

Topshiriqlarning har xil turlari kichik maktab yoshidagi o'quvchilar fikrlashining rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. O'quv faoliyatida reproduktiv topshiriqlarning ko'p qo'llanishi bolada ilgari o'zlashtirgan bilimlarini va ish usullarini qayta tiklashga intilishni, namunaga qarab ishlash odatini vujudga keltiradi va bu odat fikrlash jarayonining reproduktiv asosiga aylanadi. Lekin ijodiy fikrlash ishning andazasiz usullarini amalga oshirishni, yangi maqsadlar qo'ya olishni, nazorat qila bilish va baholashni, rejalashtirishni, tahlil, taqqoslash va umumlashtirishning o'ziga xos usullarini, baholash mezonlarini shakllantirishni talab qiladi. O'quvchilarda mazkur fikrlash jarayonlarini tarkib toptirish uchun darsda produktiv topshiriqlarni qo'llash, ularning bevosita ijodiy fikrlashi maqsadlar qo'yishga, rejalashtirishga, umumlashtirishga, shuningdek, nazorat qilishga va baholash kabi jarayonlarni rivojlantirishga qaratilishi kerak.

Maqsadlar qo'yish jarayoni matn, rasm mazmuniga savollar tuzish, javob qaytarayotgan o'quvchiga qo'shimcha savol berish, masalaning shartlariga turli savollar qo'yish va hokazolarda amalga oshadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ishni rejalashtirish ko'nikmasini rivojlantirish uchun ular bilan o'zlarining kelgusidagi darslarda har qanday topshiriqlarni bajarishdagi xarakterlarini qanday tasavvur etishlarini doimiy ravishda muhokama qilib borish zarur. Shuningdek, darslarda hikoyaning

rejasini tuzish, bayon yozish, masalalar yechish kabi topshiriqlardan keng foydalanish kerak.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish zarurligi o'qituvchining oldiga o'quv jarayonida o'quvchilarda tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlardan ham keng foydalanish vazifasini qo'yadi. Ana shu jihatdan matematika darslarida, xususan, masalalar yechishda katta imkoniyatlar mavjud bo'ladi.

Fikrlash faoliyatining nazorat-baholash mexanizmini shakllantirish har bir darsda o'quvchilarni faqat faoliyatning natijasini emas, balki ana shu faoliyat jarayonida tegishlicha baholashni ham amalga oshirishga undaydigan topshiriqlardan foydalanishni talab qiladi.

Dars strukturasi ga produktiv topshiriqlarni kiritish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda yangi maqsadlar qo'yish, rejalashtirish, andazasiz tahlil qilish, taqqoslash, nazorat qilish va baholash kabi fikrlash jarayonlarini shakllantirishning asosiy shartlaridan biridirki, bu jarayonlar ijodiy fikrlashning rivojlanishida katta rol o'ynaydi.

Savol va topshiriqlar

1. O'qitish metodi va usuli tushunchalarini izohlab bering.
2. O'qitish metodi o'qituvchi va o'quvchilarning nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qanday talablar qo'yadi?
3. Darsning turlari va mashqlarni tushuntirib bering.
4. Metod tushunchasini nimalar tashkil etadi?
5. Suhbatning yutuq va kamchiliklari nimalardan iborat?
6. Kitob (darslik) bilan ishlash metodlari qanday?
7. «Ta'lim metodi», «metodik usul» tushunchalarini izohlang.
8. Biror bir dars fragmenti misolida o'quvchilarning faolligini oshirish yo'llarini ko'rsatib bering.

II QISM

VII BOB. INNOVATSION PEDAGOGIKA

Novatorlik bu – umumiy muammolarga xos yechimlarni o‘z ichiga qamrab olgan, pedagog tafakkurini rivojlantirishning alohida bir turidir. Pedagog ta’lim va tarbiya berish jarayonida qanchalik izlanuvchan, mahoratli bo‘lsa ham u bosqichga ko‘tarilavermaydi.

Innovatsion pedagogika – nazariy va amaliy muammolar yechimini topish uchun asos qilib olingan. Innovatorlar fikricha, odatdagi mumtoz pedagogik nazariyalar eskirib qolgan, yangi sharoitda hozirgi avlodni bu yo‘l bilan tarbiyalash mumkin emas. Bu vaziyatda innovatsiya juda muhimdir.

Pedagogikada innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion pedagogika, ta’limda innovatsion jarayonlarni boshqarish kabi tushunchalar XX asrning 60-yillarida dastlab AQSH va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida, «ta’lim texnologiyasi» tushunchasi e’tirof etilgan vaqtida paydo bo‘ldi. O‘sha vaqtdayoq Yevropada pedagogik innovatsiyalar markazi va instituti tashkil etildi. Bu tushunchalarning paydo bo‘lishi va innovatsion ta’lim nazariyasining yaratilishi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu tushunchalar ta’lim tizimini texnologiyalashtirish, pedagogik texnologiyalarni ta’lim tizimiga kiritish orqali ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta’minlash, bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishish uchun ta’lim jarayonida bolaga do‘stona munosabatlarni shakllantirishga urinish natijasida vujudga keldi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida o‘tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmida, pedagogik faoliyat bu – ijodiy jarayon va pedagogik innovatsiyalar birlashmasi, degan yangi ilmiy yo‘nalish tarkib topdi. Bu esa o‘qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatining shakllanishi va rivojlanish jarayonini tahlil qilish imkonini berdi.

Innovatsion faoliyatning umumiy va alohida jihatlarini K. Angelovskiy, G.I. Gorskaya, V.A. Kan-Kalik, S.L. Kuzmina, V.A. Slastenin, L.M. Fridman kabi olimlar o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida yoritib berdilar. Mamlakatimizda pedagogik innovatsiyani rivojlantirish muammolari ustida pedagog olimlardan N. Azizxo‘jayeva, B. Farberman, R. Mavlonova, U. Nishonaliyev, N. Sayidahmedov, M. Ochilovlar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar.

Innovatsiyalar dolzarb muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi, shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya – ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir.

Bugun ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash ma'qullanmoqda:

- Faoliyat yo'nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi).
- Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan).
- O'zgarishlar ko'lamiga ko'ra (lokal, modulli, tizimli).
- Kelib chiqish manbayiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Innovatsiyaning maqsadi – sarflangan mablag' yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman o'z-o'zidan paydo bo'ladigan yangiliklardan farqli o'laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmini tashkil etadi.

Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. Shu sababli «novatsiya» va «innovatsiya» tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatib o'tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko'lamiga asos bo'lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, o'z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba'zi elementlarini o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holda biz novatsiya bilan muloqot qilayotgan bo'lamiz. Agar faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi o'sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o'zgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olamiz.

Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagicha: novatsiya amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi. Innovatsiya esa tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi, ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot subyektlari pozitsiyalarini to'la yangilaydi. Bunda faoliyatning yangi yo'nalishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat natijalariga erishiladi, natijada amaliyotning o'zi ham yangilanadi.

Innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon deb innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amalga oshirish jarayoniga aytiladi.

«Innovatsion faoliyat – bu yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy me’yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me’yoring mavjud me’yor bilan to‘qnashuvi natijasida vujudga kelgan, majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir», – deb ta’kidlaydi V.I.Slobadchikov. Innovatsion faoliyat amaliy nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimidir, u ma’lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo‘lishdir. O‘qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o‘quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat.

O‘tgan asrning 70-yillari oxirlarida A.M.Arseneva, K.N.Volkov, M.N.Skatkin va o‘zbekistonlik pedagog-olimlardan bir guruhi pedagogika fani va amaliyotida muvaffaqiyatga erishish muammosini hal qilish borasida samarali g‘oyalarni ilgari surdilar va ta’lim samaradorligini ta’minlashda o‘qituvchining ta’lim jarayoniga yangiliklarni kiritishga tayyorgarlik darajasi asosiy o‘rin egallashini asoslab berdilar. Shunga ko‘ra «Innovatsion o‘zgarishlarni sezish, anglash har qanday o‘qituvchiga xos bo‘lavermaydi, – deb yozadi U.Nishonaliyev, – bu yerda eng asosiysi o‘qituvchining o‘zi yangilikni sezishga psixologik jihatdan tayyor bo‘lishidir».

Innovatsion faoliyat – bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajribasinoz ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratish bo‘lib, uning progmatik xususiyati shundaki, u g‘oyalar maydonida ham va alohida bir subyektning harakat maydonida ham amalga oshirilmaydi, balki bu faoliyatni amalga oshirish tajribasi kishilar hayotida hammabop bo‘ladigan holdagina haqiqiy innovatsion hisoblanadi. Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo‘lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi loyihaga, loyihani texnologiyaga aylantirishga yo‘naltirilgan faoliyatdir.

O‘qituvchi innovatsion faoliyatni tashkil etib, uning shakllanish bosqichlarini quyidagicha belgilashi mumkin:

Birinchi bosqich – tayyor metodik tavsiyanomalar aniq qilib ko‘chiriladi.

Ikkinchi bosqich – mavjud tizimga ayrim yangi moslama (modifikatsiya) lar, metodlar kiritiladi.

Uchinchi bosqich – yangi g‘oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari va shakli to‘la ishlab chiqiladi.

To‘rtinchi bosqich – o‘qituvchi o‘qitish va tarbiyalashning o‘z konsepsiyasini va metodikasini ishlab chiqadi.

O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda jamoadagi psixologik muhitni, jamoa a'zolarining qanchalik darajada dunyo ta'lim bozorida yangiliklardan xabardor ekanligini hisobga olish zarur.

Pedagogika – ta'lim-tarbiya to'g'risidagi ilmiy bilimlar tizimi: obyektivlik, maqsadga muvofiqlik, mustahkamlik, bir-biriga zid bo'lmaslik uning asosiy xarakteristikalaridir. Insonning shakllanganligi, rivojlanganligi va tarbiyasi haqidagi bilim, uning yuksak darajasi, talabga muvofiqligi obyektivlikning yagona talabidir.

O'sib kelayotgan avlod tarbiyasi juda jiddiy jarayon bo'lib, uni o'tkinchi narsalarga bog'liq qilib qo'yish mumkin emas. Chunki uni tashkil etuvchi qoidalar inson tabiati va uning rivojlanishi haqidagi obyektiv ma'lumotlarga ziddir.

Mustahkam, kuchli, ta'sirchan tarbiya tizimini faqatgina pedagogika fanida o'rnatilgan obyektiv asoslar va amaliyotda tasdiqlangan qoidalar yordamida rivojlantirish mumkin. Bu, albatta, innovatsion pedagogika hamda gumanistik (insonparvarlik) pedagogikalar bilan bog'liqdir. Insonparvarlik lotincha «hunmanus» so'zidan olingan bo'lib, «insoniy» degan ma'noni anglatadi. Insonparvarlik – inson qadriyatlarini, erkinliklari, baxtga bo'lgan huquqini, qobiliyatlarini rivojlanishi va namoyon bo'lishini tan oladigan qarashlar tizimi. Gumanistik pedagogika, ko'pincha, fanda innovatsiya deb ataladi. Bunga o'quv-tarbiyaviy ta'sir etish natijalari va tizimning ichki qayta tashkil etilishi evaziga erishiladi. Gumanizm – insonning ma'naviy boyligi va yagona konsepsiyasidir. Bu konsepsiyaning asosiy maqsadi shaxs qadr-qimmatini himoya qilish, uning ijodiy erkinligini rivojlantirish, o'z qobiliyatini namoyon etishdan iborat.

Insonparvarlik pedagogikasi o'z navbatida shaxsqa qaratilgan. Uning belgilari:

– ma'lumotlarni egallab olish va ma'lum doiradagi mahorat va ko'nikmalarni yuzaga keltirish hamda ularning psixik, jismoniy, intellektual (aqliy) rivojlanishiga diqqatning qaratilishi;

– ijodiy, erkin, mustaqil fikrlovchi barkamol shaxsni shakllantirish uchun har qanday hayotiy va o'quv vaziyatlarda asosli qarorni tanlab qabul qila oladigan insonparvar fuqaroni yetishtirish;

– o'quv-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli qayta yo'naltirishga erishish uchun kerakli tashkiliy shart-sharoitlar bilan ta'minlash. O'quv-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirishda avtoritar (ko'r-ko'rona)likdan voz kechib, o'quvchi va pedagog o'rtasida haqiqiy insoniy munosabatlar o'rnatish, shuningdek, shaxs tarbiyasiga qaratilgan pedagogikani tushunishdan iborat.

Insonparvarlik tarbiyasining maqsadi har bir tarbiyalanuvchining munosabatlarini, o'zlashtirish faoliyatini to'la namoyon etib, haqiqiy

mustaqil, izlanuvchan, erkin shaxs qilib yetishtirishdan iborat. Tarbiya jarayonining insonparvarlik darajasi, shu jarayonda shaxs o'zini namoyon eta olishi, o'zidagi hamma tabiiy imkoniyatlarini ochib berishi, uning qobiliyati, ijodiy faoliyatini keng yoritishi uchun shart-sharoitlar yaratib berish maqsadga muvofiqdir.

Ta'limning o'ziga xos tomoni, u tarbiyani ijtimoiy hodisa sifatida shaxsning shakllanishini o'ziga birlashtirib, ana shu asoslar yordamida pedagogik jarayonni tuzadi, bu jarayon turli ta'lim-tarbiya konsepsiyalari, nazariyalari asosida loyihalashtiriladi va ta'lim tizimi muassasalarida tatbiq etiladi.

Ta'lim tushunchasi, bu umumiy va yaxlit sifat mazmunining bog'lanishidir.

Gumanistik pedagogika maktabi o'quvchining moslashuvini va unga qulay sharoit yaratishni talab qiladi.

Insonparvarlik maktabi amaliy innovatsion faoliyatning aniq shakl va uslublarini ishlab chiqqan. Quyida ulardan ba'zilar keltirilgan:

- o'quv-tarbiya faoliyatini differensiallash;
- o'quv-ta'lim jarayonlarini har xil shaxs faoliyatiga qarab muvofiqlashtirish;
- har bir tarbiyalanuvchi qobiliyati va qiziqishini rivojlantirish uchun kerakli sharoitlarni yaratib berish;
- o'quv-tarbiya faoliyatiga psixologik qulaylik yaratish;
- o'quvchiga va uning kuchi hamda imkoniyatlariga ishonish;
- o'quvchini qanday bo'lsa shunday qabul qilish;
- ta'lim-tarbiya ishlari muvaffaqiyatini ta'minlash;
- maktabning maqsadli yo'nalishini o'zlashtirish;
- har bir o'quvchi rivojlanish darajasining asoslanishi;
- o'qituvchining shaxsiy ichki yo'l-yo'riqlariga qayta yo'naltirish;
- insonparvarlik ta'limini kuchaytirish.

TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISH

Innovatika muammolariga murojaat etish va ularni muhim zamonaviy ilmiy yo'nalishlarga qo'shish jamiyatda innovatsion jarayonlar harakatining o'sib borayotganini tushunish natijasida vujudga keldi. Bizning adabiyotlarimizda innovatsiya muammolari ko'p vaqtgacha iqtisodiy tadqiqotlar tizimida o'rganib kelingan. Ammo vaqt o'tishi bilan jamiyat hayoti faoliyatining hamma sohalarida innovatsion o'zgarishlar asosida sifat xususiyatlarini baholash muammosi yuzaga keldi. Ammo bu o'zgarishlarni

faqatgina iqtisodiy nazariyalar bilan aniqlab bo'lmaydi. Innovatsion jarayonlarni o'rganish uchun boshqa yo'llar zarur, unda innovatsiya tahlili faqat fan va texnikada erishilgan zamonaviy yutuqlardan foydalanishnigina o'z ichiga olmay, balki boshqarish sohaslarida, ta'lim sohaslarida, huquq va boshqa sohalarda ham keng joriy etilmoqda.

Innovatsion pedagogik muammolar yechimini izlash ta'lim sohasida innovatsion jarayonning xususiyati, mazmuni, tarkibini tasniflash va tekshirish natijalarini tahlil qilish bilan amalga oshiriladi.

«Innovatsiya» tushunchasi birinchi marta AQSHda XX asrda madaniyat-shunos olimlar tomonidan aniqlangan va paydo bo'lgan. Ularning fikricha, bir madaniyat elementlarini boshqasiga joriy qilish ma'nosini bildirgan. Uning bu ma'nosi etnografiyada hozirgacha saqlanib qolgan.

XX asr boshlarida biror bilim sohasiga yangiliklarni kiritish va qo'llash fani yuzaga kelgan. Bu so'z (innovatsiya) dastlab mahsulot ishlab chiqarish sohasida texnik yangiliklarni kiritish qonuniyatlarini o'rgatgan. 30-yillarda AQSHda «innovatsion firma siyosati», innovatsion jarayon atamaları paydo bo'ldi. 60–70-yillarda G'arbda firmalar va boshqa korxonalarda amalga oshirilayotgan yangiliklarni tekshirish keng quloq yoydi. Shu bilan birga, yangiliklarni tekshirish ikki asosiy sohaga qaratiladi, ularning har birida o'zlarining nazariy-metodologik madaniyati ustun turadi.

Bu ikki sohada yangiliklar kiritish va amaliy tekshirishlar bir qator fanlarning nazariy yangiliklaridan foydalanishni taqozo etadi.

Olimlar yangiliklar kiritish va tekshirishni uch bosqichga ajratadilar:

Birinchi bosqich – yangiliklar muvaffaqiyatiga yordam beruvchi yoki to'sqinlik qiluvchi omillarni o'rganish va turli xil yangiliklarni tahlil qilish.

Ikkinchi bosqich – yangilik kiritish jarayonini bir soha muhitidan ikkinchi soha muhitiga olib o'tish mexanizmini hisobga olish bilan birgalikda o'rganish.

Uchinchi bosqichda yangilik yaratuvchining diqqati turli xil innovatsion vaziyatlarni tahlil qilish, tavakkalchilikni baholash metodlarini ishlab chiqish, yangiliklarni kiritish sohasida tavsiyalar ishlab chiqish.

Pedagogik innovatsion jarayonlarni G'arb mamlakatlarida 50-yillar oxirlaridan boshlab, bizning mamlakatimizda esa so'nggi o'n yilliklar ichida olimlar maxsus fan sifatida o'rgana boshladilar. Jahon pedagogik jamoatchiligining qiziqishi maxsus innovatsion xizmat, nashriyot faoliyati, jurnallar va informatsion maqolalar ko'rinishida paydo bo'la boshladi. Xususan, bu to'g'risida YUNESKO qoshida Ta'limni rivojlantirish Osiyo pedagogik innovatsiyalar markazi mavjud bo'lib, dunyodagi turli mamlakatlardagi pedagogik yangiliklarni umumlashtirib, ta'lim masalalari bo'yicha xalqaro byuro bilan birgalikda pedagogik jamoatchilik maxsus nashrlar ular to'g'risida ma'lumotlar tarqatadi.

Bizning mamlakatimizda pedagogik innovatsiyaning rivojlanishi keng jamoatchi pedagoglar harakati, maktabning tez rivojlanishiga bo'lgan talab va uni pedagoglar amalga oshira bilmasliklari o'rtasida yuzaga kelgan qarama-qarshiliklar bilan bog'liq. Shu sababli yangi bilimlarga bo'lgan talab, «yangilik», yangi «innovatsiya», «innovatsion jarayon» tushunchalarini anglash talabi kundan kunga ortib bormoqda.

«Innovatsiya» so'zi lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib, yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi.

Olimlar innovatsion jarayonlarning tuzilishini o'rganib, yangilik kiritishning «hayotiy davri» deb alohida tushuntirib o'tganlar. Bu jarayon yangilikni yaratish va ijro etishni ta'minlovchi faoliyatlarni turlarga ajratuvchi bosqichlarga bo'linadi. Hozirgi davrga kelib, ilmiy adabiyotlarda quyidagi innovatsion jarayonni bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Yangi g'oyaning paydo bo'lishi yoki yangilikning yuzaga kelishi bosqichi, uni shartli ravishda fundamental va amaliy-ilmiy tekshirishlar (yoki birdan paydo bo'ladigan) natijalaridan kelib chiqadigan yangilik bosqichi deb ataydilar.

2. Kashf etish bosqichi, ya'ni moddiy yoki ma'naviy namuna ko'rinishidagi yangilik yaratish.

3. Yaratilgan yangilikning amalda qo'llanishi uni qo'shimcha ishlab mukammal-lashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu bosqich yangilik kiritish orqali yuqori samaradorlikka erishish bilan yakunlanadi.

4. Faqatgina yangilikni qabul qilish sharti bilan amalga oshirish.

5. Yangilikning tarqalishi, uning yangi sohalarga keng tatbiq etishni amalga oshirish.

6. Yangilikning biror sohada hukmron bo'lishi, bunda, xususan, yangilik o'z yangiligini yo'qotib, yangilik sifatida mavjud bo'lmay qoladi.

7. Yangilik qo'llanilishining doirasi qisqarib, uning yangi mahsuldorligi bilan almashadi.

Yuqorida keltirilgan innovatsion jarayonlar bir-birini ketma-ket almashtirib, muntazam rivojlanib, soddalashtirilgan tizim asosida ifodalaydi. Innovatsion jarayon bu bosqichda ketma-ketlikka va o'zaro bog'liqlikka rioya qilishi shart emas.

Yangilik kiritish, yangilik yaratish va tarqatish maqsadga muvofiq jarayon sifatida inson talab va ehtiyojlarini yangi vositalar bilan qondirishdan iborat bo'lib, bu uning samaradorligini, muntazamligini va hayotiyiligini ta'minlovchi uslub va tizimlarni ma'lum sifat o'zgarishiga olib keladi.

Innovatsion jarayon eskirib qolgan qoida va vaziyatlarni qayta ko'rib chiqish va sifatli holatga o'tish bilan bog'liq bo'ladi.

Yangilik kiritish ichki yo'nalishga ega bo'lib, u yangilik g'oyasi (fikri) tug'ilishidan to uning foydalanila boshlanishigacha bo'lgan harakatlarni rivojlantirish hamda innovatsion jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatni to'g'ri ifodalaydi.

Shu tariqa yangilik kiritish yuksak tizim bo'lib, ichki mantiq kabi vaqt davomida qonuniy rivojlanishi uning atrof-muhit bilan o'zaro bog'liqligini ifodalaydi. Innovatsion jarayon tuzilishi yangilikning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tib borishi bilan o'zgarib boradi. Shu bilan birga, yangilikning xususiyatlari uning natijalari va yakuniy samarasiga bog'liq bo'ladi. Yangilikning yakunlanganligi yoki uning imkoniyatlari muayyan maqsadning amalga oshirilish darajasida innovatsion jarayonning hamma bosqichlari muvaffaqiyatli bo'lishiga bog'liqdir. Yangilikning samaradorligini uning natijasidan belgilash kerak.

«Innovatsiya» atamasiga yaqin bo'lgan tushunchalar «o'zgarish», «mukammallashtirish», «isloh qilish» tushunchalari hisoblanadi, ammo ular o'rtasida ma'lum farqlar ham mavjud. Yangilik pedagogik tekshirishlarni baholashning asosiy o'lchovlaridan biri bo'lib, u ijodiy jarayonning asosiy natijasidir. Bu o'z navbatida har qanday yangilik kiritishning mustaqil qiymati va xususiyatidir.

«Yangi» tushunchasi innovatsion pedagogikada markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi.

Har qanday vositaning yangiligi – nisbiydir. Bir o'qituvchi uchun yangi bo'lgan narsa boshqasiga yangilik bo'lmasligi mumkin. Yangilik doimo aniq tarixiy o'ziga xos tushunchaga ega bo'ladi. Aniq bir vaqtda vujudga kelgan vazifalarni hal etgan yangilik tezda ko'pgina kishilarning mulkiga, hamma tomonidan qabul qilingan ommaviy tajribaga aylanishi mumkin.

Masalan, Y.A.Komenskiyning sinf-dars tizimi, Munavvar qorining diniy tarbiya nazariyasi, ibn Sino, Beruniy, Ulug'bek, Avloniyilar ilgari surgan ta'lim jarayonini ommalashtirish nazariyasi va boshqa yangiliklar o'z davrining buyuk g'oyalari bo'lgan va shunday bo'lib qolaveradi.

INNOVATSION TA'LIMDA MUALLIFLIK MAKTABLARINING RIVOJLANISHI

Mualliflik maktabi tushunchasi biror bir muallif yoki mualliflar jamoasi tomonidan ishlab chiqilgan yetakchi psixologik-pedagogik konsepsiyaga asoslangan eksperimental o'quv-tarbiyaviy muassasadir. Mualliflik maktabining maqsadi yangi tashkil etilgan ta'lim jarayoni, uning dunyoqarashi, maktabning xususiy, o'ziga xos faoliyat tarzi, ta'limning chuqurlashtirilgan mazmunidir.

Bizning davrimizda mualliflik maktabi o'zbek ta'limi uchun me'yoriy xususiyat bo'lib qoldi. Maktab ham, individual shaxs kabi, o'zining takrorlanmas xususiyatiga ega, degan fikr barcha olimlar tomonidan tan olinmoqda. Har bir maktabning o'ziga jalb qiluvchi, ya'ni o'quvchilarni va ularning ota-onalarini o'ziga tortuvchi bir xususiyati bo'lishi lozim.

Keyingi yillarda yangi toifadagi, ya'ni fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablarga tushayotgan arizalar ularning imkoniyatlaridan oshib ketmoqda. Bu hol esa oddiy maktablarda o'quvchilar miqdorini yetarlicha to'play olmayapti. Shuning uchun ko'p sonli maktablar faoliyatida quyidagi tendensiya ko'zga tashlanmoqda, yangi maktab o'z taraqqiyot yo'nalishini o'zi mustaqil tarzda tashkil etmoqda.

O'rta Osiyoning mutafakkir allomalaridan Bahovuddin Naqshband, al-Kindiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbuddiy, Abdurauf Abdurahimboy o'g'li Fitrat, Hamza Hakimzoda, Asqar Zunnunov Abdulhamid Cho'lpon va boshqa mashhur qomusiy olimlar ta'lim-tarbiya va madaniyatning rivojlanishining tengi yo'q vakillari hisoblanadi.

Bahovuddin Naqshbandning ta'lim-tarbiya haqidagi fikr-mulohazalari va pand-u nasihatlari g'oyat qimmatlidir. U barkamol insonni tarbiyalash dastlab odobdan boshlanishini ta'kidlab shunday degan edi: «Adab xulqni chiroyli qilish, so'z va fe'lni soz qilishdir... Adab saqlash – muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxtining urug'i hamdir. Agar adabda ozgina nuqsonga yo'l qo'ysangiz ham, nimaiki qilsang, beadablikdek ko'rinadi. Odam o'zini bir xil sifat va ko'rinishda olib yurishi lozimki, toki odamlarda unga tasarruf (ta'sir qilish) tamasi paydo bo'lmasin».

IX asrda yirik faylasuf, Arastu izdoshlaridan bo'lgan al-Kindiy dunyoviy ma'rifat va ta'limning tarqalishi masalasini qo'yan; u ta'kidlaganki, inson aql-zakovati haqiqatni izlashda yaratganning ta'siridan xoli bo'lishi lozim. Kindiyning fikricha, haqiqatni bilishda va bu haqiqat bilan o'z harakatlarini moslashtirishda sababni aniqlash inson shuuriga ulkan yordam beradi. «Qidirilayotgan haqiqatni, – deb yozadi u, – uning sababini bilganimizdan keyingina bilib olamiz. Istalgan narsani va uning barqarorligini bilishning sababi esa haqiqat hisoblanadi, chunki mavjudlikka ega bo'lgan barcha narsalar haqiqatdir. Haqiqatni bilish mumkin, binobarin, mavjud bo'lgan barcha narsalarni ham bilish mumkin». Kindiyning o'ylashicha, haqiqiy bilimlarni, atrof-olam haqidagi tushunchalarni shakllantirish qobiliyatiga esa faqat ong egadir.

Forobiy nihoyatda buyuk olim va mutafakkir edi. Chunonchi, uning asarlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, u o'z ilmiy qarashlari bilan yangi davrga darcha ocha bilgan va zamondoshlaridan bir necha asr olg'a ketgan.

Forobiyning quyidagi pedagogik qarashlari yoshlarga muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Forobiy birinchi bo‘lib ta‘lim va tarbiyaga quyidagicha ta‘rif bergan olimdir:

1. Ta‘lim – so‘z va o‘rganish bilangina amalga oshiriladi.

2. Tarbiya esa amaliyot, ish-tajriba bilan amalga oshiriladi.

3. Har kimki ilm, hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, so‘zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo‘lsin, xiyonat, makr va hiylalardan uzoq bo‘lsin, diyonatli bo‘lsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin.

4. Inson yaxshi tarbiya ko‘rmagan va turmushda yaxshi tajriba orttirmagan bo‘lsa, u ko‘p narsalarni nazarga ilmaydi, ulardan jirkanadi. Bunday noo‘rin bo‘lib ko‘ringan narsalar zaruriy bo‘lib chiqadi.

5. Ma‘lumki, inson hech qachon tug‘ilganda yaxshi yoki yomon bo‘lib tug‘ilmaydi... Biroq har bir kishida biror bir fazilatga yoki qabihlikka mayl, qobiliyat bo‘ladi va shu fazilatlarni 2 turga bo‘ladi:

1. Fikriy fazilat.

2. Xulqiy fazilat.

Fikriy fazilat aqliy quvvat hisoblanib, aqllilik, donolik, fahm-farosatlilik, zehnlilikdan iborat.

Xulqiy fazilat intiluvchi quvvatga ega bo‘lib, iffat, shijoat, saxiylik va adolatlikni o‘z ichiga oladi. Yomon fazilatlar razillikdir, degan fikrlarni bildiradi.

Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo‘llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. O‘quvchiga bilim berishda u:

– o‘quvchini zeriktirmaslik;

– bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o‘rgatavermaslik;

– uzviylik, izchillik;

– yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko‘rgazmali bayon etish va hokazolarga e‘tibor berish kerakligini uqtiradi.

Abu Ali ibn Sino o‘qitish jarayoniga katta ahamiyat beradi va o‘qitishni quyidagicha tashkil qilish kerak, degan fikrni bildiradi:

– Bolani birdan kitobga jalb qilib qo‘ymaslik kerak.

– O‘qitish asta-sekin, osondan qiyinga o‘tish yo‘li bilan olib borilishi lozim.

– O‘quvchilar bilan amalga oshiriladigan tarbiya ularning yoshiga mos bo‘lishi shart.

– O‘qitish jamoa tarzida uyushtirilishi darkor.

– O‘qitish bolaning mayli va qobiliyatini hisobga olgan holda olib borilishi kerak.

– O‘qitish jismoniy mashqlar bilan qo‘shib olib borilishi zarur.

Olimning pedagogika faniga qo'shgan hissasi shundaki, u ta'lim-tarbiyaviy qarashlarida insonning ham aqliy, ham axloqiy, ham estetik hamda jismoniy tomondan rivojlanishi, kamolga yetishining mezonini ishlab chiqadi.

Tarbiya tizimiga jismoniy tarbiyaning kiritilishi esa olimning tarbiya sohasidagi katta xizmatlaridan hisoblanadi.

Yana uning xizmatlaridan biri shundaki, u insonning mehnati, qobiliyati, aql-zakovatini ulug'ladi, undagi qudratga ishondi. Inson tafakkurining tantana qilishi kerakligini targ'ib qildi. Ibn Sino tarbiyaning asosiy maqsadi mukammal xarakterni tarbiyalashda deb hisoblagan. U to'g'ri tarbiya natijasida ikki xil «foйда»ga erishiladi: «Bittasi bola qalbi uchun, chunki bola yoshligidan yaxshi xulqli bo'lib o'sadi, bu esa odatga aylanadi. Ikkinchisi – bola jismi uchun, chunki yomon xulq yaramas tabiatdan kelib chiqadi. Agar badxulqlik odatga aylansa, u yaramas tabiatni keltirib chiqaradi. Masalan, g'azab jismning nihoyatda qizib ketishiga, qayg'u esa jismning qurib ketishiga, befarqlik qalb kuchini zaiflashtiradi», deb yozadi.

Ibn Sino bolalik va o'smirlik yoshida tarbiya ta'sirida ruhiyatning rivojlanish jarayonini tadqiq qilishga katta ahamiyat bergan va o'z kuchini uning samaradorligini oshirish vositalarini qidirishga qaratgan. Bola xarakterining yaxshilanishiga, bola qiziqqan va intilgan narsasining bo'lishiga, bola yomon ko'radigan narsalarning bo'lmasligiga doim e'tibor qaratish lozim. Bu bilan ham ikki xil foydaga erishiladi: birinchidan, bolada yoshligidanoq qat'iy xarakter shakllanadi, ikkinchidan, bunday xarakterning shakllanishi bolaning jismoniy rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Ibn Sinoning fikriga ko'ra, o'quvchilar birgalikda ta'lim olishsagina bir-birlarini hurmat qilishadi va ilm olishda bir-birlariga yordam berishadi. Bola yolg'izlikda ta'lim olsa, bu uni badxulq qiladi. Maktabning afzalligi shundaki, deydi Ibn Sino, o'quvchilar bir-birlaridan ortda qolmaslikka harakat qilib ilm o'rganishadi. Ularning turli mavzular bo'yicha olib boradigan o'zaro suhbatlari ularning do'st bo'lishlariga yordam beradi.

Yusuf Xos Hojib asarlarida inson kamoloti masalasi markaziy masala bo'lib hisoblanadi. U bilimni buyuk, o'quvni ulug' deb ta'riflaydi. Chunki zakovatli inson ulug' bo'ladi, bilimli kishi buyuk bo'ladi, degan fikrni bildiradi. Olim ezgu ishlarning barchasi ilm tufayli amalga oshirilishi mumkinligini ta'kidlaydi. U dunyoda odam paydo bo'libdiki, faqat bilimli kishilargina ezgu ish qilib, adolatli siyosat yurgizib kelinganligini, inson yaratilgandayoq unga bilim, uquv, zakovat berilganligi, ana shu bilim va zakovati tufayli kishilar razolatdan poklanganligini uqtiradi. Hatto hukmdorlar ham yurtni, davlatni aql, ilm, zakovat bilan idora etsa, el-yurt farovon bo'ladi, to'q va tinch hayot kechiradi, deydi.

Qomusiy olim Kaykovus «Qobusnoma» asarida oʻz mulohazalari va maslahatlarining asosini insoniy fazilatlar barcha insonlarga ham nasib boʻlavermaydigan aql, rostgoʻylik va insonparvarlik ekanligiga boʻlgan ishonch tashkil etadi. Har bir inson hayotining asosiy yetakchi ibtidosini esa quyidagi uchta axloqiy qoidaga rioya qilish tashkil etishi lozim: nimanigapirsang oʻshani qil, haqiqatga qarshi borma, sabrli boʻl.

«Qobusnoma» muallifining mulohazalarida inson hayotida bilimlarning roliga pragmatik yondashuv seziladi. Bu esa mazkur asarning amaliy yoʻnalishini izohlab beradi: «Agar mol-mulk jihatidan kambagʻallashsang, aql bilan boyishga harakat qil, chunki mol bilan boyishdan koʻra aql bilan boyish afzalroqdir. Axir aql bilan boylik topsa boʻladi, lekin boylik bilan aql yigʻib boʻlmaydi. Aqlsiz tezda kambagʻallashadi, lekin aqlni oʻgʻri ham oʻgʻiray olmaydi, suv ham, olov ham yoʻqota olmaydi. Shunday qilib, aqling boʻlsa, nimanidir oʻrgan, chunki koʻnikmasiz aql – kiyimsiz badan, yuzsiz odamdir, aytishadiki, taʼlim – aqlning yuzidir».

Alisher Navoiy tasavvuridagi komil insonga xos boʻlgan eng yuksak fazilatlariga ijodkorlik, qobiliyat, ilm-fanga muhabbat ham kiradi. Chunki baxtli hayotga intilgan ijodkor, oqil, qobiliyatli, dono inson oʻzining kuch-quvvatiga, aql-u zakovatiga ishonadi.

Alisher Navoiy ilmni quyosh va oy hamda kunduzga oʻxshatib, u insonni baxt-saodatga eltadi, demoqchi boʻladi: yaʼni bu maqolat «ilm osmonning yulduzlardek baland martabaliligi haqidakim, bilimsizlik tunni yoritish uchun «ayn» – quyosh, «lom» – oy, «mim» – kunduz belgilarini koʻrsatadi; bilimsizlik shomning qorongʻu koʻrinishi haqidakim, gʻaflat chaqini pastlik kechasida zohir qilib, bu kechada baxtsizlikdan hikoya aytadi; olimning butun baxtsiz vujudining quyoshdek yuksakligi johilning esa butun borligʻi boylik, mol boʻlsa ham tuproqdek xorligi» haqida fikr bayon etadi.

Demak, Alisher Navoiy ilmni inson kamoloti uchun eng zarur fazilatlardan biri deb biladi. U ilmni insonni, xalqni nodonlikdan, jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida taʼriflaydi. Alisher Navoiy orzu qilgan komil inson faqat ilmi boʻlish bilan qanoatlanib qolmaydi. Uni haqiqiy inson sifatida taʼriflashga, yana sabr-qanoat, saxiylik, himmat, toʻgʻrilik, rostgoʻylik, tavoze, adab, ishq-vafo va hokazolar ham asos boʻladi. Navoiy insonning axloqiy xislatlari – yaxshi feʼl-atvorlar xususida toʻxtalib oʻtar ekan, avvalo har bir insoniy fazilatning taʼrifini beradi.

Abdurahmon Jomiy oʻz yashagan davridagi insonni, yuksak axloqiy xislatlarni, goʻzal fazilatlarini bayon etgan allomalardan sanaladi.

Abdurahmon Jomiy ham oʻz asarlarida insoniy yuksaklikni taʼrif etadi. Uning uchta lirik devon, yetti dostonon iborat «Haft rang» («Yetti taxt»), taʼlim-tarbiyaga oid «Bahoriston» asarlari bilan jahon madaniyati taraqqiyotida munosib oʻringa ega boʻlgan.

Abdurahmon Jomiy ta'limiy-axloqiy qarashlarini mashhur «Silsilat uz-zahab» («Oltin tizmalar») dostonining «Sevimli aziz farzandga nasihat» bobida, avvalo, har bir yosh bilim olishi zarurligi, chunki inson umri juda qisqa bo'lib, bu umrni behuda o'tkazmasligi, ammo bilim olgandan so'ng unga amal qilish lozimligini ta'kidlaydi va amaliyotsiz ilm ham behuda ekanligini alohida uqtiradi.

Husayn Voiz Koshifiy ham o'z davrining yirik olimi sanaladi. U o'z asarlarida inson aqliga, aqliy tarbiyaga katta e'tibor beradi. Aqlni haqiqat sifatida ta'riflab, inson o'zining faoliyatini aql yordamida amalga oshiradi, deydi.

U ilm boyluk va dunyo orttirish uchun emas, balki hayot kechirish uchun zarurdir, chunki ilm – doimiy, mol-dunyo o'tkinchi, deb tushuntiradi. Haqiqiy dono, bilimdon kishilar o'tkinchi narsalarga e'tibor bermaydilar, deydi. Demak, Koshifiy ilmni amaliyot bilan bog'lab tushuntiradi. Koshifiy har bir ishning muvaffaqiyatini bilimlarni amalda qo'llanish bilan belgilagan. Bunda u ilmni inson aqliy faoliyati sifatida talqin etib, o'z navbatida bu faoliyat yangi bilimlarning paydo bo'lishiga asos bo'ladi, degan fikrni bildiradi.

Mahmudxo'ja Behbudiy ta'lim-tarbiya ishini ijtimoiy hayot, jahon miqyosida sodir bo'layotgan voqealar bilan bog'liq holda olib borishni talab etadi, yoshlar tarbiyasida oila, ota-onalar alohida mavqega ega ekanini ta'kidlaydi. U «Padarkush» asarida: «Bizlarni xonavayron... bewatan va bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdir, bewatanlik, darbadarlik, asorat, faqirlik, zarurat va xorliqlar... hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir...»!, – deb yozadi.

U maktab tarbiyasi bilan oila tarbiyasi uzviy birlikda olib borilishi kerakligini ta'kidlaydi.

Munavvar qori bolalar tarbiyasida faqat ota-onalar emas, balki muallim va keng jamoa javobgar ekanligini aytib, ulardan bolalarni axloqli qilib tarbiyalashni talab etdi. U yoshlarni bilimlarni puxta egallashga, mehnat qilishga, umuminsoniy qadriyatlargasadoqatlibo'lishgachorladi, ota-onalarni farzandlarida ma'naviyat, nafosat, go'zallik tuyg'usini rivojlantirishga da'vat qildi. Munavvar qorining fikricha, yosh avlodni tarbiyalash bilangina millatni uyg'otish, Vatanni ozod qilish, xalq ma'naviyatini yuksaltirish, turmushni farovonlashtirish mumkin. Adib yoshligidan bolalarda mehnatga qiziqish, g'ayrat, jasorat fazilatlarini tarbiyalashni tavsiya etadi.

Abdulla Avloniy 1904-yilda Mirobodda usuli jadid maktabini ochishga muvaffaq bo'ldi. 1907-yil 4-dekabrda uning muharrirligida «Shuhrat» gazetasining birinchi soni bosmadan chiqdi.

Avloniy 1909-yilda «Jamiyati xayriya» tashkilotini ochdi va mahalliy xalq bolalarining o'qib, bilim olishi uchun pul yig'ib, maktablarga tarqatadi.

¹ Behbudiy. Bayoni haqiqat. «Ulug' Turkiston» gazetasi. 1917, 12-iyun.

Maktab ishi, xalq orasiga ma'rifat tarqatish Avloniy faoliyatining bosh yo'nalishini tashkil qildi. Ammo, Chor mustamlakachilik siyosatini amalga oshirib borayotgan o'lka ma'muriyati 1908-yilda maktabni yopdi.

Avloniy 1909-yilda Degrez mahallasida yangi maktab ochdi, 1909–1917-yillar davomida uning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy Guliston yoxud axloq», «Maktab gulistoni», 6 qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» to'plami nashr etildi. Abdulla Avloniyning fikricha, axloq – bu xulqlar majmuyidir. Xulq esa, kishida o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma'lum bir sharoit, tarbiya kerak. Kishilar yomon bo'lib tug'ilmaydilar, ularni muayyan sharoit yomon qiladi.

Avloniyning ta'kidlashicha, axloq tarbiyasi xususiy ish emas. Bu tarbiya ijtimoiy ishdur. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq.

Abdulla Avloniy kishining ilm olishini eng yuksak fazilat hisoblaydi. Uning aytishicha, ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, xalq farovonligi yo'lida qo'llanilmasa, u o'likdir. Shuning uchun ham adib xalqqa ko'proq nafi tegadigan ilm-hunar bilan shug'ullanishni taklif etadi.

Adib ilmning amaliy ahamiyatini chuqur tahlil etadi. Uning fikricha, har bir kishi biror ilm, hunarni egallar ekan, uni hayotda qo'llay bilishi darkor, ana shundagina ilm-hunarning jamiyatga nafi tegishi mumkin. Avloniy o'z ilmini amalda qo'llay oladigan kishilarni dono insonlar, deb hisoblaydi.

Fitrat ham Turkistonda yangi maktablar ochib, ularni yangi dastur va darsliklar bilan ta'minlash haqida qayg'urdi. U Turkiston maktablarida jiddiy o'zgarish bo'lishi, o'quvchilarga zamonaviy, dunyoviy bilim berish kerakligini, xalqning ijtimoiy, ma'rifiy ongini oshirish zarurligini, ma'rifat baxt-saodat, milliy taraqqiyot va istiqloq zamini ekanligini ta'kidladi.

Fitrat o'z ijodiy va pedagogik faoliyatida yaratgan ilmiy va badiiy asarlarida Vatan, xalq, millat erkinligi, farovonligi haqidagi orzularini, ta'lim va tarbiya haqidagi qarashlarini ifodaladi. U Turkistonda va boshqa Sharq o'lkalarida atoqli olim, maorifchi va ustoz muallim sifatida shuhrat qozondi.

Fitrat ilm-ma'rifatning jamiyat taraqqiyoti va inson kamoloti, madaniyat rivojida muhim ahamiyatga molikligini yuqori baholaydi.

U ma'naviy boylik va go'zallik negizi insoniyat yaratgan tafakkur durdonalarini onga singdirish, joylashdan iborat, degan g'oyani olg'a suradi.

Hamza Hakimzodaning ta'kidlashicha, aqliy tarbiyada bolalar tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini, tabiat hodisalarini, ularning o'zaro bog'liqligini bilishi kerak. Shundagina bolalar jamiyat va xalq farovonligi uchun xizmat qiladigan bo'lib yetishadilar. Uning uqtirishicha, axloqiy tarbiyada bolalarda

insonparvarlik tuygʻusini rivoj toptirish kerak. Zero, insonparvar insongina kishilarni, ota-onani qadrlaydi, insoniy huquqlarni himoya qiladi, ularga hurmat-ehtiromda boʻladi.

Hamza Hakimzoda oʻz pedagogik qarashlarida bolalarda sabrlilik xislatini rivoj toptirishga eʼtibor beradi. Uning taʼkidlashicha, «Sabrli kishilar har yerda izzatlik, har kim qarshisida hurmat va obroʻli boʻlur. Sabrli kishilarni har kim sevar va chin koʻngildan doʻst tutar»¹.

Abdulhamid Choʻlponning asarlarida ifodalangan insonparvarlik, vatanparvarlik haqidagi fikrlar oʻz davri taʼlim-tarbiyasida alohida ahamiyat kasb etdi, yoshlar maʼrifiy ongi rivojiga kuchli taʼsir koʻrsatdi, yoshlarning oʻtmish allomalarning hayot yoʻllari, olgʻa surgan gʻoyalarini anglab olishlariga yordam berdi. Choʻlpon asarlarida ifodalangan maʼrifiy fikrlar hozirgi yoshlarni barkamol qilib yetishtirishga ham xizmat qilmoqda.

Asqar Zunnunov taʼlim-tarbiyada ibratning mohiyati haqida shunday deydi: «Boqiy olamning oʻzi ibrat manbayidir. Hayotdagi yaxshilik va yomonlik, poklik ibrat namunasidir. Inson yaxshilik odamga quvonch baxsh etishini koʻrib, yaxshilik qilishga intiladi, yomonlik odamni badnom qilishini koʻrib, undan yiroqlashishga harakat qiladi. Ibrat shu jihatlari bilan inson tarbiyasida alohida oʻrinda turadi.

Donishmand ota-bobolarimiz, maʼrifatparvar allomalar oʻz faoliyatlarida bolalarga oʻrnak boʻlishga harakat qilganlar, ijod etgan narsalarini inson aql-zakovatining yaratuvchilik qudratiga ega ekanligini namuna qilib koʻrsatganlar, bolalarni koʻproq tabiat bagʻrida boʻlishga chorlaganlar, oʻsimlik va hayvonot olami bilan tanishtirganlar. Ota-bobolar ana shu amaliy ishlari bilan yoshlarga ibrat boʻlganlar».

Asqar Zunnunovning taʼkidlashicha, taʼlim va tarbiyada ikkinchi darajali ish boʻlmaydi. Barcha ishning samarali boʻlishi ularni oqilona amalga oshirilishiga, oʻqituvchilar oʻrtasida ahillik barqaror boʻlishiga, ularning ijodkorligiga, oʻquvchilar bilan odilona muloqotda boʻlishlariga bogʻliqdir.

Asqar Zunnunov pedagogik tajribada, maktabda, taʼlim-tarbiyada ishni qamrovli tashkil etish kerakligini aytadi. Zotan, bu tadbir zamon talabi boʻlib, taʼlim-tarbiyani oʻzaro bogʻliq tarzda, yaʼni oʻqituvchilar jamoasi erishgan ilgʻor usullarni hayotga tatbiq etish bilan takomillashtirib borish, maktabdagi tarbiya bilan oiladagi tarbiyaning uzviylikda boʻlishiga erishish oʻquvchining shaxs sifatida shakllanishida muhim omil boʻlishi shubhasizdir.

Mahalliy mualliflik maktablari, jamiyat hayotidagi oʻzgarishlar taʼlim va tarbiya tizimiga oʻz taʼsirini koʻrsatmay qolmagan. XX asrning ikkinchi yarmida musulmonlar muhitidan mutaxassislarni tayyorlash maqsadida yangi

¹ *Hamza Hakimzoda. Qiroat kitobi. 1914. 25-bet.*

tipdagi maktablar ochila boshlangan. Bunday yangi tipdagi maktablarning ochilishining tashabbuskori Ismoyilbek Gasprinskiy edi. Aslini olganda, Gasprinskiyning g'oyalari burjua-millatchilik xarakteriga ega bo'lgan, lekin ularning ko'p jihatdan ommabop bo'lishi bilan o'z e'tiborini tortgan. 1884-yilda Gasprinskiy tomonidan Boqchasaroyda bunday tipdagi birinchi maktab ochiladi. Unda haqiqatan ham ko'p yangi narsalar bo'lgan: bolalar polda emas, balki partalarda o'tirishgan, tijorat va savdo-sotiqqa oid fanlar o'rgatilgan. 1900-yilda Buxoroda bir necha oylar davomida mavjud bo'lgan yangi tipdagi maktab ishga tushgan. Natijada Gasprinskiyning g'oyalari bilan tanishib chiqqan Buxoroning tatar ziyolilari Buxoro va Qo'qonda tatar bolalari uchun maktablar ochishgan. Bir necha vaqtdan so'ng bunday maktablarga o'zbek hamda tojiklarning bolalari qabul qilina boshlangan. Yangi tipdagi maktablarning tarafdorlari tobora oshib borgan. Boqchasaroy va Istanbul o'rtasida do'stlik aloqalari o'rnatilgan, «Tarjimon» gazetasiga obuna bo'lingan. «Usul Savtiya» maktabining faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida ba'zi bir mutaxassislar Boqchasaroy va Istanbulga safarga o'tlanishgan. Bu voqeadan bezovtalangan ruhoniylar bunday yangi tipdagi maktablarni yopishga qat'iy talab qo'ya boshlashgan.

Bunga javoban turk hamda mahalliy ziyolilar tomonidan Buxoroda jadidlar maktabi tashkil etilgan edi. Ularning maqsad va vazifalari boshqa maktablardan farq qilar edi. O'rta Osiyo, buning qatorida Turkistondagi bunday maktablar Munavvar qori guruhi tomonidan tashkil etilgan edi. Toshkentning Beshyog'och dahasida ko'p pog'onali maktab-internatning tajribasi o'rganilgan. Bu yerdagi mashg'ulotlar yaxshi jihozlangan fizika, kimyo, matematika, tarix xonalarida o'tilgan: mashg'ulotlarda berilgan bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshirish maqsadida har xil tajribalar o'tkazilgan. Maktab o'qituvchilari fizika, kimyo, matematika, tarixga oid kitoblar va o'quv qo'llanmalarni rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishar edi; maktabdagi ustaxonalarda o'quvchilar mehnat ko'nikmalarni egallash imkoniyatiga ega edilar. Maktabda musiqa, drama, radiohavaskorlik va boshqa turli hil to'garaklar tashkil etiladi. To'garak ishtirokchilari ishchilar, mahallada yashovchi odamlar uchun konsertlar tashkil qilardilar, tashviqot va targ'ibot ishlari bilan shuq'ullanar edilar. 1921-yilda maktab-internat K.Libxent nomidagi tajriba-namunaviy mehnat maktabi nomi bilan o'zgartirilgan bo'lib, biologiya yo'nalishida bo'lgan, keyin esa maktab shaharchasiga aylantirilgan. Uning rahbari V.F Lubnikov bo'lgan. To'qqiz yillik maktabdan tashqari shaharchaning tarkibida pedagogika va qishloq xo'jaligiga doir ikki yillik kurslar ochilgan. Bundan tashqari, botanika, zoologiya, kimyo, fizika, matematikaga doir dasturlar batafsil tuzilgan. Yuqori kurs talabalarning tadqiqot ishlari ilmiy xarakterga ega bo'lgan. Misol

uchun: talabalar tomonidan olib borilgan bir yillik meteorologik kuzatuvlar Toshkent observatoriyasida qo'llanilgan. O'quvchilar tabiatni, aholi nima mashg'ulot bilan shug'ullanishi, sanoat, qishloq xo'jaligi, aholining turmush tarzi va madaniyatini o'rganishgan. Sh.A.Amo-nashvilining «Hayot maktabi» pedagogika g'oyasiga asoslangan.

INNOVATSION PEDAGOGIKA TUSHUNCHASI

Respublikamizda oliy (o'rta maxsus, kasb-hunar, maktab) ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarni malaka oshirish kurslarida ilg'or pedagogik va axborat texnologiyalari bo'yicha yangi bilimlar tizimi bilan qurollantirishni uzluksiz tashkil etish davr talabidir.

Innovatsion pedagogika – hozirgi davrda norasmiy fan sifatida ma'lum bo'lgan, biroq kun sayin butun jahon soha mutaxassislarining e'tiboriga tushib, jadal rivojlanib borayotgan bilimlar tizimidir.

Hozirgi davrda ta'lim sohasiga yangi yo'nalishga ega bo'lgan innovatsion pedagogika fani kirib keldi.

Innovatsion pedagogika atamasi G'arbiy Yevropa va AQSHda 1960-yillarda paydo bo'ldi. Innovatsion pedagogika va innovatsion faoliyat haqida O.N.Gonobolin, V.A.Slastenin, N.V.Kuzmina, A.I.Hervanov va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. Innovatsion pedagogika nazariy va amaliy muammolarni hal etish uchun asos qilib olingan.

Amerikalik innovatsiyachi E.Rodjers tomonidan yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik juhatlari ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining tasnifi, ularning yangilikka bo'lgan munosabati va boshqalarni ko'rsatgan.

Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi. Yangilik – bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalardan iborat.

«Innovatsiya» – bu ta'lim. U ma'lum bosqichlar bo'yicha rivojlanadigan jarayon.

Ta'lim sohasida innovatsion pedagogika shakllanib, rivojlanib bormoqda. Mazkur yangi fan haqida olimlar tomonidan jiddiy fikrlar bildirilmoqda. Bu fanning asosiy vazifasi hukmron bo'lib turgan butun o'quv-tarbiya tizimi nazariyasini innovatsiya asosida qayta tashkil etib o'zlashtirishdir.

Innovatorlar fikriga asosan odatiy mumtoz pedagogik nazariyalar eskirib qolgan, yangi sharoitda hozirgi avlodni bu eskirib qolgan yo'l bilan tarbiyalash mumkin emas.

Pedagogika bilimlar tizimidir. Obyektivlik, maqsadga muvofiqlik, mustahkamlik, bir-biriga zid bo'lmaslik uning asosini tashkil etadi.

Pedagogik tizimini loyihalashtirishda har qanday ilmiy nazariya kabi tizimni tashkil etuvchi tamoyillar birlashtiradi.

Obyektiv nazariyaning asosiy tamoyillari faqatgina ilmiy prinsip bo'lishi shart, ammo g'oyaviy bo'lmasligi lozim.

Insonning aqliy rivojlanishi va tarbiyasi haqidagi bilim darajasining talabga muvofiqligi – obyektivlikning yagona talabidir. M.I.Potashnik innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini ko'rsatadi:

Faoliyat tuzilmasi – motiv-maqсад-vazifa-mazmun-shakl-metodlar – metodik komponentlar yig'indisi.

Subyektiv tuzilma – innovatsion faoliyat subyektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqalar.

Mazmun tuzilmasi – o'quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruvda yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi va o'zlashtirilishi.

Tashkiliy tuzilma – tashxislash, oldindan ko'ra bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tadbiq etuvchi.

Innovatsiya jarayoni o'z ichiga tarkibiy tuzilmalarni va qonuniyatlarni qamrab olgan.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayonining kechishini 4 ta asosiy qonuniyatini farqlanadi:

1. Pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bir sharoitda emasligi qonuni.

2. Nihoyat amalga oshirish qonuni.

3. Komillashtirish qonuni.

4. Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanish va qaytish qonuni.

Nihoyat amalga oshirish qonuni yangilikning hayotiyligi bo'lib, erta yo kech, stixiyali yoki ongli ravishda amalga oshadi.

Komillashtirish qonunida pedagogik innovatsiya fikrlashni bir qolipga tushirish va amaliy harakat tendensiyasiga ega bo'ladi.

Pedagogik innovatsiyaning davriyligi va qaytish qonuni bo'yicha yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi.

Slastenin, Levina va boshqalar oliy maktab innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlar yotadi:

1. Madaniyatshunoslik jihatidan (insonga bilishning ustuvor rivojlanishi) yondashuv.

2. Shaxsiy faoliyat jihatidan (ta'limdagi yangi texnologiyalar) yondashuv.

3. Ko'p suhbatli (dialogik) yondashuv, kasbiy tayyorgarlikni inson-parvarlashtirish.

4. Individual-ijodiy (o'qituvchi va talabalarning o'zaro munosabatlari) yondashuvi.

Innovatsion faoliyatning subyekti – o‘qituvchining shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda pedagog shaxsining ijtimoiy, madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo‘ladi.

Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi va o‘zini-o‘zi safarbar qilishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo‘nalishlaridan biri talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish bo‘lib, u talabalarning o‘quv ishlarini faollashtirish va kasbiy ixtisoslashuvining faollashuviga olib keladi.

Innovatsion faoliyatga aksiologik yondashuv inson tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlarni anglatadi.

Aksiologik yondashuv insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir maqsadi sifatida qaraydi.

Ma‘lum bo‘lishicha, amaliyotda yo‘l ko‘rsatuvchi pedagogik nazariyamizning asosiy kamchiliklaridan biri bilim va ta‘limning ustunligini qattiq bo‘rttirib (kuchaytirib) yuborishdadir.

Insonning ma‘naviy tarbiyasida yodlab olish hajmi ko‘payib borishi maktab hayotida odatiy hol bo‘lib qoldi. Hozirgi tarbiya nazariyasi va u boshqarayotgan amaliyotning hamma belgilari bo‘yicha inqiroz holatda ekani ko‘rinib turibdi.

Bu holatdan chiqish uchun bo‘lgan har qanday harakat innovatsion deb hisoblanyapti va bu holda ular o‘z nomlariga mosdir. Innovatsion pedagogikani ko‘pincha an‘anaviy, muqobil pedagogika deb ataydilar. Bu fikrga qo‘shilmaslik mumkin emas, hech bo‘lmaganda eng oddiy tushunchalar bo‘yicha: sinf ham, o‘qituvchi ham va dars mazmuni va darsliklar yo‘qolib ketmaydi-ku. Agarda, pedagogik tizim saqlanib qolsa, unda faqat uni mukammallashtirish haqida gapirish mumkin.


YANGILIKLAR KIRITISH MAZMUNI VA YO‘NALISHLARI

Pedagogik jarayon, bilamizki, pedagogik tizim asosida o‘tib boradi. Pedagogik tizim – bu tashkil etuvchilarning birlashtirilgan majmuyi bo‘lib, ular o‘zgarishlarda ham barqarorligicha qolaveradi. Agarda o‘zgarishlar (yangilik kiritish) qandaydir mumkin bo‘lgan chegaradan oshib ketsa, tizim buziladi, uning o‘rniga yangi boshqa xususiyatli tizim yuzaga keladi. Pedagogik tizim – elementlarning juda mustahkam birlashuvidir. Har qanday pedagogik tizimning tuzilishi hozirgi davrda quyidagi elementlar variantlari yig‘indisi, o‘zaro bog‘liqligi ko‘rinishi: o‘quvchi; tarbiyaning maqsadi; tarbiya mazmuni; tarbiya jarayoni; o‘quvchilar (yoki TTV – ta‘lim texnik vositalari); tarbiyaviy ishlarning tashkiliy shakllaridan iborat bo‘ladi.

Bu tizimning tarkibiy qismlaridan har biri har qanday darajada elementlarga detallashtirib yoyib ko‘rsatilishi mumkin.

Qurilgan tizimning tarkibiy tuzilishi emas, deb hisoblashga asoslarimiz bor. Ko'rsatib o'tilganlarga qo'shila olmaydigan pedagogik tizimning muhim tarkibiy qismlari, «Natijalar», «O'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish», «Texnologiya»lardan iborat.

Ular quyida berilgan Pedagogik tizim modelida ko'zga tashlanadi. Maqsadlar natijalar bilan mos kelib, uzluksiz sikl tashkil etiladi. Maqsadlarning natija bilan to'la mos kelishi pedagogik jarayonning ishonchi, o'lchov ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik tizim boshqaruv, birlashtiruvchi hamma tarkibiy qismlari nisbatan mustaqil qism hisoblanadi, chunki ular o'z maqsad va tuzilishlariga ega:



Pedagogi tizimning tashkil etuvchi tarkibiy qismi sifatida uni alohida omillar birligi ekanligini ta'kidlagan holda, ko'pincha, o'quv-tarbiya jarayonining texnologiyasini ko'rsatadilar. Bunday yondashish pedagogik tizimda ko'zlangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan mustahkam tashkiliy texnologik kompleks bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, pedagogik tizim har doim ham texnologiyadir. Ana shu belgisi bo'yicha pedagogik tizimni tarkibiy qismlar ixtiyoriy «to'plamidan» ajratib olish osondir. Texnologiya bu qat'iy tashkiliy mantiqqa bo'ysunuvchi imkoniyatlarni belgilovchi tizimning ichki sifatidir.

Shu bilan birga topshiriqni baholash darajasining o'zidayoq texnolog ma'lum jarayonlar hamda hodisalarga tayanadi. Ma'lum jarayonlar muvaffaqiyat ifodasi, ajoyib hodisalar natijalari esa yangi sabab va formula manbalari sifatida amalga oshiriladi. O'quv texnologiyalarni loyihalashtirish metodik «Tajribalarni umumlashtirishdan» farqli «Mumkin emas» xulosasini bilmaydi. Texnolog uchun bu faqatgina vaqt va xarajatlar masalasidir. Texnolog faqatgina yaxshi ma'lum, tekshirib ko'rilgan, asoslangan, shubha

qilinmaydigan fikrlarga asoslanadi. Texnolog tajribalar o'tkazmay, aniq ko'zlangan natijalar bilan ish olib boradi. Texnologiya variantlikka yo'l qo'ymaydi, uning asosiy vazifasi – aniq kafolatlangan natija olishdir, u har doim ham asosiy yechimida oddiydir. Asosiy yechimni tushunish qolgan hammasini, o'zaro zarur elementlar sistemasi tartibining mazmunini ochib beradi. Texnologiyadan hech bir qismni olib tashlab bo'lmaydi, u yerda ortiqchasi bo'lmaydi, bo'lishi mumkin emas. Bu juda murakkab holat, har ikkinchi o'qituvchi izlash – tadqiqotchilik tartibida ish olib boradi, shu bilan bolaning maktabdagi hayoti natijasi noaniqligini kuchaytiradi.

Pedagogika tizimining har bir modifikatsiyasi ko'zlangan natijaga erishish, aniq xususiyat va imkoniyatlarga ega. Bu imkoniyatlar sistemaning aniq xususiyatlari bilan belgilanadi. Bunda biz ta'lim va tarbiyadan ko'zlangan daraja va sifatga erishmoqchi bo'lsak, unda shunga mos pedagogika tizimini ishlab chiqishimiz kerak. Buning natijasi o'quv-tarbiyaviy jarayonning yana-da yuqoriroq samaradorligi, har doim pedagogik tizimni takomillashtirish oqibatidir. Bu juda murakkab muammo, ularni ishlab chiqishga dunyo bo'yicha endi kirishilmoqda.

Tizimning umumiy nazariyasidan ma'lumki, tizimni baravariga bir necha parametrlar bo'yicha yaxshilash mumkin emas. To'g'ri yo'l yangilikni asta-sekin, uning foydaliligiga ishonch hosil qilib, har tomonlama tekshirib ko'rib, keyingi ishlarni o'ylab kiritishdan iborat. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, har bir yaratilgan yangilik oldiniga albatta ilgarigisidan ham yomon ishlaydi. Chunki o'rganish, moslashish, sustkashlikni yengish kerak.

Pedagogik tizimni takomillashtirishning asosiy yo'llari ikkita: intensiv va ekstensiv. Intensiv rivojlanish pedagogik sistemani ichki imkoniyatlar hisobiga, ekstensiv yo'l esa qo'shimcha kuchlar jalb etish – ya'ni, vositalar, asbob-uskunalar, texnologiyalar hisobiga takomillash-tirishni ko'zda tutadi. Pedagogika texnologiyaning intensiv rivojlanish imkoniyatlari tugagan deb hisoblaydi: maktabning mavjudligi ming yilliklar davomida hamma yo'llarni sinab ko'rib bo'lgan, tarbiya mazmuni va vazifasini, mantiqiy chuqur esga olish, uning birlamchi asoslariga chuqur tushib borishdan iborat.

G'arb maktablari ekstensiv yo'l bilan pedagogik mahsulotni yangi informatsion texnologiyalar, vaqtni turli xil o'quv faoliyatlariga taqsimlash, sinfdagi differentsiatsiya va individuallashtirish hisobiga oshirish bilan rivojlanib bormoqda. Shu bilan pedagogik mahsulot sifati yaxshilanmoqda: ko'pchilik mustaqil ekspertlar bunga ishonchsizlik bildirmoqdalar. Bu holatdan chiqish yo'li innovatsion yangiliklar deb ataluvchi, intensiv va ekstensiv yo'llarni birlashtirishga imkon beruvchi pedagogik sistema rivojlanishi hisoblanadi. Bu pedagogikaning foydalanilmagan imkoniyatlarini chuqur tekshirishni talab qiladi, ular turli ko'rinishdagi, turli

xarakterli va turli darajadagi pedagogik tizim tashkil etuvchilari uchrashgan nuqtada namoyon bo'ladi.

Yangi pedagogik texnologiyalarni mustahkamlab, pedagogik sistemaning umumiy samarasini yaxshilash mumkin bo'ladi.

Agar shunday nuqtayi nazar bilan innovatsion chaqiriqlarga qaralsa ularda deyarli yangi jihatlar yo'qdek tuyuladi. Jumladan, eski muammolarni hal etish uchun yangi «retsept»lar ham yo'q. Umuman olganda, innovatsion g'oyalarga insoniyat taraqqiyoti jarayoni haqidagi yangi bilimlarga asoslangan, pedagogik muammolarni hal qilishda ilgari qo'llanilmagan nazariy yondashuvlar, aniq amaliy texnologiyalardan olingan yuqori natijalarni kiritishga majburiy.

Pedagogika fanida berilgan g'oyalarni ishlanganlik darajasining muvofiqlik jihatlari bo'yicha umumiy va qisman innovatsion loyihalar miqdori, shuningdek, pedagogik amaliyotda ulardan foydalanishning imkoniyatlari mavjud.

Pedagogik amaliyot tizimi quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik fan tizimi va pedagogik amaliyot yangi bo'lmagan, biroq doimiy dolzarb va o'zidan o'quv-tarbiya jarayonini bitimlashtirishning umumiy g'oyalari va amaliy texnologiyalarini o'zida mujassam qilgan.

2. Insonparvarlik pedagogikaning barcha nazariy qoidalari va amaliy texnologiyalarining yig'indisi.

3. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda yangi g'oyaviy yondashuvga asoslangan.

4. Axborotlashtirish, ommaviy kommunikatsiyalashning yangi g'oyalari va vositalarini qo'llashga asoslangan texnologiyalar innovatsion texnologiyalar hisoblanadi.

Pedagogik tizimda innovatsion tuzilmalarining bosh yo'nalishi:

- yaxlit pedagogik tizim;
- o'quv yurti;
- pedagogik nazariya;
- o'qituvchi;
- o'quvchilar;
- pedagogik texnologiya;
- mazmun;
- shakl, metodlar, vositalar;
- boshqaruv;
- maqsad va natijalardan iborat.

Tizim osti tuzilmalarning chuqurligi bo'yicha innovatsion yangi kiritmalarning mohiyati, sifati va maqsadga muvofiqligi haqida xulosa qilish mumkin.

REFLEKSIV-INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Refleksiv-innovatsion texnologiyalarning barcha ko'rinishlarini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Yangi g'oyalar izlash bosqichi.
2. Yangiliklar yuzaga keltirish bosqichi.
3. Yangiliklar kiritishni amalga oshirish.
4. Yangiliklarni mustahkamlash bosqichi.

Yangi g'oyalar izlash bosqichi innovatsion pedagogika asoslari kursi bo'yicha axborot innovatsion sharoit yuzaga keltirish, maktab muammo va talablarini dolzarblashtirish, maqsad, yangilik yaratish g'oyalarini ifoda etish bo'yicha dastlabki ishlar, bo'lajak maktab sharoitini tasavvur etishdan iborat. Yangilik kiritishni shakllantirish bosqichi yangilik kiritish ishlarini faol ravishda loyihalashtirish, tanlangan yangiliklarni sinab ko'rish, maktabda yangiliklarni kiritish bo'yicha qaror qabul qilishdan iborat.

Yangiliklarni kiritish bosqichini amalga oshirish maktabda tajriba o'tkazish uchun sharoitlar yaratish, tajriba jarayonini tahlil qilib borish, yangilik kiritish va mazmunini tuzatib borishdan iborat bo'ladi.

Yangilik kiritishni mustahkamlash bosqichi maktabning yangidan shakllantirilgan obrazini o'qituvchilar ongida mustahkamlash, o'qituvchining innovatsion harakatlarini mukammallashtirish bo'yicha psixokorreksion metodik ishlardan tashkil topadi.

Barcha to'rt bosqichning asosiy maqsadi yangilikni o'zlashtirishni rivojlantirish va o'zlashtirilayotgan yangilikka subyektiv munosabatda bo'lishdan iborat.

O'qituvchilarni refleksiv-innovatsion texnologiyaga tayyorlash modeli quyidagi jadvalda keltirilgan:

Vazifalari	Pedagogik munosabat va pedagogik faoliyatning umumiy texnologiyasini takomillashtirish, innovatsion faoliyat texnologiyasini o'zlashtirish.
Mazmuni	Mualliflik dasturlarini tuzatish metodikasini o'zlashtirish. Tajriba bosqichlarini rejalashtirish, tatbiq etiladigan yangilikni tahlil qilish, rivojlantirish, yangilikni pedagogik jarayonga tatbiq etish, tuzatish, tajriba ishlari natijalarini kuzatish.
Texnologiyalari	Tashkiliy faoliyat o'yinlari. Refleks-innovatsion amaliyot mualliflik konsepsiyalarini o'rganish. Mualliflik dasturlarini tuzish. Innovatsion turdagi o'quv yurtlarida amaliy ishlar, turli xil malaka oshirishda ishtirok etish. Pedagogik ustaxonalar.
Daraja	Psixologiq tayyorgarlik metodologik tus oladi, refleksiv-analitik mahorat, yuqori mas'uliyat, ijodiy faoliyat rivojlanadi.

Ilgari aytilganidek, muhokama qilinayotgan texnologiyalarni tatbiq etish innovatsion sharoit maktab muammolarini dolzarblashtirishdan boshlanadi. Buning asosi innovatsion pedagogika bo'lib, u talabalarni innovatsiya asosiy bo'limlari bilan tanishtiradi. Bular: neologiya, aksiologiya, varaksiologiya. Bu kursning asosiy vazifasi faqatgina o'qituvchi innovatsion faoliyatining sabab, omil, to'siqlarini ochib berishgina emas, balki yangilikni qabul qilish uchun psixologik tayyorgarlikni yuzaga keltirish, pedagogik innovatsiyalarni qabul qilishni ham rivojlantirdi. Ijodiy faoliyat psixologik qonuniyatlarni yechish, izlash, tanlash mexanizmini o'rganish, treningli ta'lim sharoitida amalga oshiriladi. Dasturning asosi shaxsning o'zini ijodiy rivojlantirish tamoyilidan iborat. Qachonki subyekt o'z faoliyatida faqatgina namoyon bo'lib va ko'rsatibgina qolmay, balki ijodkorlik qilsa va aniqlasa, uning faoliyati yo'nalishiga qarab uning o'zini aniqlash va shakllantirish mumkin (S.L.Rubinshteyn).

Innovatsion pedagogika asoslari bo'yicha dasturning asosiy bo'limlari innovatsiya, yangilik, ta'limning innovatsion jarayonlari, o'qituvchi innovatsion faoliyati tuzilishi, yangilik kiritish texnologiyasi tushunchalarini ochib berishga mo'ljallangan.

Ushbu kursda o'ziga xoslik sifati bilan ajralib turuvchi pedagogik g'oyani ta'riflashga mualliflar turli ta'lim modellari orqali yondashgan.

Eng avvalo ommaviy pedagogik harakatlar, gumanistik pedagogik rivojlanishga turtki bergan konsepsiya va ta'lim metodlari o'rganib chiqiladi, talabalar turli o'quv yurtlarini o'rganadilar, ularning maqsadi, tashkiliy tizimi o'ziga xosligi, ta'lim va tarbiya mazmuni, amaliy tajribalarini o'rganish bilan shug'ullanadilar.

Asosiy e'tibor mualliflik dasturi, ta'lim va tarbiya konsepsiyalari yaratish darajasida pedagogik tajribalar ishlab chiqish va o'tkazish texnikasiga qaratiladi. Talaba amaliy faoliyati konsepsiyalarini o'rga-nish, qoida, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, haqiqiy muqobil o'quv yurtlari bilan tanishish kabi ishlar olib boriladi. Bakalavriyat, ayni magistraturada bo'lajak pedagoglar shu kabi konsepsiya ishlab chiqish bo'yicha ijodiy jamoaga jalb etiladilar. Kurs dasturi 120 soatga mo'ljallangan bo'lib, 10 ta nazariy bo'limlardan iborat va ma'ruza, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil tadqiqot ishlarini tashkil etishni ko'zda tutadi. Ma'ruza mashg'ulotlarida innovatsion pedagogika asosiy muammolarini yagona tushunishini ta'minlovchi, keyingi mustaqil ishlari uchun metodologik va ilmiy asoslar yaratuvchi eng umumiy nazariy savollar o'rganiladi.

Kursni yana-da mukammal o'rganishni belgilaydigan muhim nazariy bo'lim innovatika asosiy qoidalariga bag'ishlangan.

Ta'limda yangiliklar kiritish mohiyati nimadan iborat? Ularni qanday tahlil qilish kerak?

Shu tariqa kurs boshlanishidan asosiy konseptual g'oyalar, innovatika qoidalari ko'rib chiqiladi, innovatsion jarayonning ba'zi metodlari va bu jarayonga ta'siri bayon etiladi. Bu keyingi mustaqil ishlari uchun vazifa qo'yish imkonini beradi, seminar mashg'ulotlari innovatsion pedagogika asosiy g'oyalarini tushunishga, bolalarni tarbiyalash va o'qitish modellarining muqobil turlarini o'rganish asosida analitik mahorati konseptual yondashishni yuzaga keltirish, nazariy bahslardan iborat bo'ladi. Seminar mashg'ulotlarida turli konsepsiyalarni tahlil asosida muqobil ta'lim ba'zi modellariga daliliy baho beradilar. Laboratoriya mashg'ulotlari talabalarining innovatsion turdagi maktablarda ishlashga tayyorgarligini yuzaga keltirish, yangilikni ishlab chiqish va o'zlashtirish texnologiyasi bilan tanishish, pedagogik tajribani tashkil etish metodikasi, mualliflik dasturini tuzishga yordam beradi. Laboratoriya mashg'ulotlarida ijodiy faoliyat to'rsiqlarini olib tashlash bo'yicha psixologik trening o'tkaziladi.

Maktabda amaliyot o'tkazish talabalarini pedagogik jarayonga faol ishtirok ettirish, ularni individual talabalariga tayanib innovatsion pedagogika tamoyillarini tashkil etish, ularga ta'lim shakli va mazmunini tanlash erkinligini berish, o'z nuqtayi nazarlari va suhbatini dolzarblashtirish asosida o'quv muammolarini yechish, turli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish hamda kommunikativ guruhlar tashkil etishni ko'zda tutadi. Talabalarining bakalavriat va magistratura bosqichlarida mustaqil ishlari o'ziga xos xususiyatlarga ega: ikkinchi bosqichda u ko'p jihatdan mavjud ta'lim loyihalarini mustaqil tushunish bilan bog'liq; uchinchi bosqichda u o'z shaxsiy ijodiy mahsulotini yaratish, individual yoki ijodiy jamoada muqobil maktab konsepsiyasi ishlab chiqish bilan bog'liq.

Innovatsion pedagogika asoslari kursini amalga oshirish pedagogik o'quv yurtlarida mavjud shartlarga ko'ra ikki variantni ko'zda tutadi:

1) hamma talabalar uchun asosiy qismlar bo'yicha kursni tizimli o'tish va tadqiqot ishlari mavzusini mustaqil tanlash, ularga yakka holda maslahatlar berish;

2) innovatsion pedagogikaning eng muhim muammolari bo'yicha yo'naltiruvchi ma'ruza va seminar o'tkazish.

Ta'lim va tarbiyaning alohida muqobil modellari va ularga mos maktab turlarini o'rganish talabalarining qiziqishi va layoqatidan kelib chiqib, ularning tanlovi asosida amalga oshiriladi. Dasturning birinchi varianti bakalavriat uchun ko'proq to'g'ri keladi, ikkinchisi esa magistratura uchun. Umuman olganda, variantni tanlash talaba va o'qituvchi xohishiga bog'liq bo'ladi. Asosiy maqsad yangiliklarga ijobiy munosabat va o'z mualliflik dasturini ishlab chiqish va tatbiq etish istagini rivojlantirishdan iborat. Chunki innovatsion texnologiyalarni egallash faqatgina talabalar o'z faoliyati, o'z

kamchiliklari va qarama-qarshiliklarni ko'rib va o'rganganlarida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun innovatsion pedagogika asoslari kursini o'rganishda kurs ishlari yozish bilan bir vaqtda olib borish to'g'ri bo'ladi. Bunday ta'lim berish yangilik kiritishning maqsadini aniq belgilash, haqiqiy va mumkin bo'lgan yangilik manbalarini aniqlash, muammoni ifoda etish imkoniyatlarini beradi. Innovatsion pedagogika asoslari kursini o'qitish va tatbiq etish birga olib borilganda ma'noga ega bo'ladi. Agarda o'qitish jarayoni talabalarning shaxsiy amaliy muammolarini tahlil qilish va yechish asosida tashkil etilmasa, unda faqatgina innovatsion faoliyat uchun shart-sharoit yaratishgina mumkin.

Kursni o'rganishning muhim omili bo'lajak pedagoglarning yangiliklarning ijtimoiy-madaniy muammolarini tushunib yetishlari, bu esa yangilikni ishlab chiqish va tatbiq etish yo'llaridagi to'siqlarni yenga olishga, maktab rahbariyati va kasbdoshlari o'zaro munosabatlari dina-mikasining hamda boshqa o'zgarishlarning uzluksiz reaksiyasini ko'ra bilishga imkon beradi. Ko'rsatilgan o'qituvchi-innovator sifatlari shakllanishi quyidagi asosiy savollarni tushunib yetishni ko'zda tutadi:

Innovatsion faoliyat samaradorligini amalga oshirish omillari nimalardan iborat?

Innovatsion dasturni qanday ishlab chiqish mumkin?

Yangi g'oyalarni tatbiq qilish metodlarini qanday qo'llash kerak?

Yangilikni kasbdoshlar, ota-onalar, o'quvchilar, maktab rahbariyati qanday qabul qiladi?

Innovatsion salohiyatni yangilik kiritish samaradorligi omili sifatida qarasaq, bu jarayon ishtirokchilari turli rollarini muvofiqlashtirish, ishtirokchilar harakatlariga maqsadga muvofiq ta'sir etish imkoniyatlari nazariy jihatdan yuzaga kelishi mexanizmini to'g'ri tushunishga bog'liq bo'ladi: tashabbus, ko'maklashish, qarshilik yoki befarqlik, ma'lumki, bu savollar pedagogik fanlarda maxsus o'rganilmaydi, bu talablarda innovatsion jarayon qarama-qarshiliklarsiz va kurashsiz, vakuumda sodir bo'ladigan jarayon sifatida taassurot yuzaga keltiradi. Bu yangiliklarni shakllantirish bosqichini biz refleksiv-innovatsion amaliyotda amalga oshirdik. Refleksiv – bu qayta anglashdir. Refleksiv muhit yaratish o'qituvchiga nisbatan alohida, juda yaxshi sharoitlarni yaratishga imkon beradi. Unda faqatgina uning shaxsiy va intellektual tajribasi yetarli emas, balki maqsadga erishish yo'lida o'ziga xos to'siq (faqatgina vosita emas) bo'ladi. Shu bilan birga muammoli intellektual qarama-qarshilik sifatida ochiladi. Ma'lum bilim va mahoratlar to'qnashuvi ko'rinishida dolzarblashadi. Bu innovatsion vaziyat sharoitlari xususiyatlari bilan pedagog o'ziga tushunarli harakat usullarini amalga oshiradi. Shu bilan birga uni yechishda nizolar yuzaga keltiruvchi

xususiyatlari aniqlanadi. Ya'ni, o'qituvchining shaxs sifatida yuzaga kelgan harakat usullari bilan unga aniq bir vaziyatda ko'rsatilgan haqiqiy talablar o'rtasidagi shaxsiy xususiyatdagi qarama-qarshiliklar. Shunday qilib, muammoning mohiyati hal etish jarayonida men ifodasi bilan (ya'ni, intellektual va shaxsiy iboradagi) yangilik kiritish jarayonining talab hamda harakatlari o'ziga xosligi o'rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklardan iborat bo'ladi. Bu qarama-qarshilik mustaqil natijada yangilik ochishga olib keladi va bir vaqtning o'zida fikrlashni qayta tashkil etish, shaxsning faol qayta shakllantirishdan iborat shaxsiy va intellektual rivojlanish sifatida sodir bo'ladi. Ijodiy faoliyatda yangilikning yaratilishi shaxsda maxsus yangiliklar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi, u o'qituvchi o'zi haqidagi tasavvuri o'zgarishidan iborat bo'ladi.

Refleksiv innovatsion amaliyot o'qituvchi ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilib, bunda pedagogik fanda faqatgina yangilik yaratish qobiliyatigina emas, balki o'z-o'ziga, o'z mehnatiga, bolalarga, har qanday muammoli vaziyatni hal etishga va umuman hayotga o'ziga xos ijodiy munosabatda bo'lish tushuniladi. Bular o'qituvchi uchun muhim ahamiyatga ega, chunki zamonaviy vaziyatlar murakkabligi dinatizmi undan odatiy mutaxassislik ko'nikmalardan xoli bo'lish, erkinlikni talab qiladi. Shu bilan birga o'qituvchi innovatsion faoliyatini ko'rsatuvchi xususiyatlari bu yuzaga kelgan vaziyatda maksimal ravishda erkin bo'lish va maktabda yangilikni joriy qilishni o'zi belgilay olish qobiliyati hisoblanadi. Bu bosqichda innovatsion harakatlar rivojlanish jarayonini biz shunday tasavvur qilamiz: yangiliklarni yaratish va joriy qilishga qarshilik qiluvchi bir xildagi odatlarni buzish va qayta tuzish.

Xususan, eski odatlarni buzish ularni yo'q qilib yuborish emas, chunki ular osonlik bilan yangilari bilan almashtiriladi. Ushbu bosqichda innovatsion harakatlarni yuzaga keltirish uslublariga quyidagilarni kiritish mumkin: polilog, munozara, refleksiv inversiya, intervyu. S.N.Maskov fikricha ijodga o'rgatish, ijobiy qobiliyatlarni yuzaga keltirish mumkin emas, xuddi qandaydir ko'nikma yoki bilim va mahoratlar yig'indisi sifatida ijodda chiniqqanlik, ijodiy qobiliyatlarni taraqqiy qilish zarurligini bildiradi. Ana shu g'oyani biz katta kurs talabalari bilan refleksiv-innovatsion amaliyoti mavzusida kiritdik. Amaliyotda metodologik va metodik mavzuga birgalikda ijod qilishni yoyish refleksiv muhit g'oyasiga tayandik.

Asosiy masalalardan biri qulay innovatsion muhit yaratishdir. Refleksiv innovatsion amaliyot ishtirokchilari haqiqiy pedagog sharoitda bo'lishlari sababli, qisqa vaqt ichida ilgarigi stereotiplarni bartaraf qila oldilar. Refleksiv innovatsion amaliyot ilgarigi tajribani dolzarblashtirish, uni qayta anglash bo'lajak maktabning yangi muammo va munosabatlarini aniqlash

uchun imkon berdi. Asosiy masalalardan biri o'z-o'zini va o'z faoliyatini qayta anglash jarayonini yangiliklar yaratish sohasiga yo'naltirishdir. Qayta anglashga talab nizoli vaziyatga duch kelganda paydo bo'ladi, unda ilgari tajriba tubdan o'zgarigan sharoitlarda mutaxassislik sohasida kerakli natijalarni ta'minlashga qodir bo'lmay qoladi. Ushbu vaziyatni ijodiy inqiroz sifatida ifoda etish mumkin. Buning ijobiy tomoni shundan iboratki, inqiroz holati yangilik izlashga yordam beradi, ammo bunga erisha olinmasa, unda vaziyatning keyingi rivojlanishi o'zi barbod bo'lishiga olib keladi.

Alohida ijodiy muhit yaratash natijasida ushbu muammo bo'yicha ma'lumot va tajriba almashish sodir bo'libgina qolmay, undan tashqari, alohida birga ijod qilish muhitini yaratish hisobiga yangi fikrlarga, beg'arazlikka erishiladi, u keyinchalik innovatsion faoliyat asosi bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, refleksiv innovatsion amaliyotni amalga oshirish quyidagi masalalarni hal etadi:

1. Munozarani rivojlantiradi.
2. Tez o'zgaruvchi sharoitlarga o'qituvchilar moslashuvini ta'minlaydi.
3. Yangiliklarni taxmin qiladi.

AN'ANAVIY VA INNOVATSION TA'LIMNING QIYOSIY TAHLILI

Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvga kirib borishini taqozo etmoqda. O'qitish muammolari nafaqat pedagoglar, sotsiologlar, balki faylasuflar, psixologlarning ham diqqatini o'ziga qaratmoqda. «Innovatsiya» tushunchasi o'zining asosiy mazmun-mohiyatiga ko'ra yangiliklarni kiritish, ularni tarqatishni emas, balki bu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan ta'limdagi faoliyat o'zgarishlarini, fikrlash yo'llarini ham o'z ichiga oladi.

Innovatsion ta'lim o'quvchini jamiyatda o'zgarishlarini qabul qila oladigan, ijodkor, ishbilarmon qilib tarbiyalaydi. Innovatsion ta'limning asosiy mohiyati quyidagilardan iborat: ta'limning ochiq istiqbol, qadriyatlarni baholay olish, yangi vaziyatlarga kirisha olish.

Innovatsion ta'lim qirralari quyidagi jadvalda keltirilgan:



Bu holat o'qituvchidan pedagogik faoliyatdagi innovatsion xulqni talab etadi.

V.A.Slastenin va L.S.Podimovalarning ishlarida keltirilgan psixologik nazariyaga oid ma'lumotlarga ko'ra o'qituvchilarning innovatsion faoliyatiga xalaqit beruvchi quyidagi sabablar mavjud:

1. Pedagog tomonidan tanaffuslarning maqsadi tushuntirilmaligi. Noaniqlik va ikkifirkilik o'qituvchida yangilikka nisbatan qo'rqinch hissini uyg'otadi.

2. Yangilikning kiritilishi va amalga oshirilishida pedagoglarning ishtirok etmasligi.

3. Jamoada mavjud an'analarni hamda ishlash uslubining o'zgarishi.


4. Yangiliklarga subyektiv yondashuv.

5. Ish hajmining ortishi. Bu holatning bo'lish xavfi asosan tajriba rahbarining faoliyati oldindan rejalashtirilganligi.

6. Yangilikni olib kiruvchi nisbatan ishonchsizlik, hurmatning talab darajasida emasligi. Afsuski, o'qituvchilar asosan yangilik mazmuniga emas, balki uning muallifiga e'tibor qaratishadi. Agar bu muallif jamoada hurmatga, e'tiborga ega bo'lmasa, bu o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

V.A.Slastenin va L.S.Podimovalarning pedagogning kasbiy tayyorgarligi, uning qarashlarining innovatsion tizimi, yangiliklarni ular tomonidan tavsiya etilgan texnologik xarita quyidagi modellar yordamida aniqlashtirilgan:

Kasbiy tayyorgarlikning I-bosqichida o'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash



Mazmuni	Umumiy psixopedagogik bilimlar. Ijod texnologiyasi bo'yicha. Bilim va malaka. Avval o'rganilgan bilim va malakalarni mustaqil qo'llash, tanish vaziyatlarda muammoni kiritish. Obyektning yangi funksiyalarini ko'ra bilish. Yechimning alternativlarini ko'ra bilish, yangi uslublar va avval o'zlashtirilgan faoliyat uslublarini kombinatsiyalash. O'zini va o'z faoliyatini tahlil qila olish bo'yicha bilim va malakalar.
Texnologiyalar	Shaxsiy o'sish treninglari. Faol ta'lim metodikasi muammoli-izlanish texnologiyalari. Vaziyatdagi yangiliklar bilan tanishuv.
Daraja	Pedagogik yangiliklarni o'zlashtirishga intilish. Pedagogik faoliyadan qoniqish. Pedagogik vaziyatlarni yechishda izlanish elementlari. O'z-o'zini rivojlantirish zaruriyatini tushunish.

Kasbiy tayyorgarlikning 2-bosqichida o'qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorgarligi

Vazifalar	Pedagogik faoliyatning turli-tumanligini rivojlantirish. Ma'naviyatni boyitish. Pedagogik yangiliklarni o'zlashtirishga ehtiyojlarni shakllantirish. Pedagogik refleksiyaning shakllantirish. Yangi tipdagi maktablarda innovatsiyaning axborotlashuvini tashkil etish.
Mazmuni	Psixopedagogik bilim va malakalar. Innovatsion pedagogikaga asoslangan bilim va malakalar. Uning ijtimoiy va ilmiy omillari. Asosiy tushunchalari. Maktabni tashkil etishga alternativ yondashuvlar. Pedagogik tadqiqotlar metodikasidagi bilim va malakalar. Pedagogik muloqotdagi bilim va malakalar.
Texnologiyalar	Muammoli izlanuvchanlikka asoslangan ta'lim. Muloqot va o'z-o'zini anglash treningi. Ta'limning rivojlantiruvchi texnologiyalari bilan tanishish va ularni o'rganish. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. Mualliflik konsepsiyalarini amalga oshirish. Ta'lim metodlarini tanlash. Mashg'ulot, kompozitsiyalash va b. Pedagogik texnika va texnologiyalar bo'yicha treninglar. Mustaqil ishlarni tashkil etish.
Daraja	EVRISTIK: Pedagogik yangiliklarga aniq munosabatda bo'lish. Pedagogik izlanishning asosiy tarkibiy elementlarini o'zlashtirish. Refleksiya va empatiyani shakllantirish. Yangiliklarni inkor etish darajasining pasayishi. Pedagogik innovatsiyalarning ochiqligi.

Ta'lim o'qituvchining innovatsion tayyorgarligi bilan bog'liq, ko'p darajali ta'lim agar OTM da shaxsga yo'naltirilgandagina o'z samarasini beradi. Afsuski, hozircha o'quv dasturlari faqatgina bilim, malaka va

ko'nikmalarning hajmini ko'rsatib, o'ziga xos tinglovchilarning individual xususiyatlaridan qat'i nazar o'zlashtirilishi majburiy bo'lgan o'ziga xos axborot tizimidan iborat bo'lmoqda.

Ularning ko'pchiligida innovatsion faoliyatning asosini tashkil qiluvchi shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga kam e'tibor qaratilgan. Shuning uchun ham mahoratni egallash uzoq yillarga (oliygohni bitirgandan so'ng) cho'ziladi va ko'pgina hollarda katta qiyinchiliklar, ko'p mehnat evaziga erishiladi. Bundan xulosa shuki, talabalarning qobiliyatlarini differenziatsiyalashga xizmat qiladigan, shaxsiy xususiyatlarini yuzaga chiqaradigan o'rganuvchi muhit qanchalik erta yaratilsa, yangiliklarni kiritish jarayoni shunchalik tezlashadi va osonlashadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning tashkil etilishi o'quv dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatini beradi.

Oliy ta'lim muassasasi ta'limining turli bosqichlarida tayanch tayyorgarligiga nisbatan talablarning qo'yilishi turlicha tavsiflanadi. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etishiga ko'ra o'quv dasturining baholanishiga munosabat bildiradi. Psixologik-pedagogik fanlarda bo'lajak o'qituvchi-innovatorning shaxsiy sifatleri: tashabbuskorlik, mustaqillik, reflektivlik, natijaning yaxshilanishi, o'z imkoniyatlarini adekvat baholash, tanqidiy tahlil shakllanadi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, OTM bitiruvchilari faqatgina bilim, ko'nikma va malakalari bilangina farq qilmaydilar. Bir xil ta'lim muassasalarini tugatgan bitiruvchilar turli kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lib, bu holat ularning kasbiy o'sish darajalarini ham belgilaydi.

Yaxshi o'zlashtirilmagan bilimlarni o'z ustida ishlab to'ldirish mumkin, lekin kasbiy ijodkorlikni tarbiyalash ancha qiyin kechishini qayd etish lozim. Buning uchun ta'limiy dasturlar talab etiladi.

Agar bilim yetarli bo'lmasa, uni o'qib-o'rganish mumkin, biror kasbiy ijodkorlik haqida bunday ish qilish qiyin kechadi. Inson xulqida bunday sifatlarni shakllantirish uchun maxsus dasturlar asosida ularni modellastirish va qabul qilishni amalga oshirish mumkin. Bizningcha, bu jarayonda unchalik qiyin bo'lmagan psixotreninglar, innovatsion o'yinlar, refleksiv amaliyotlar o'qitishning asosiy vositalari bo'lishi darkor.

Ilmiy bilimlarni o'zlashtirish mobaynida yuqorida keltirilgan metodologik yondashuvlar xilma-xildir. Bunday holatlarning bo'lishi saralash, ta'minlash asosida amalga oshadi.

Tabiyat, jamiyat qonuniyatlarini o'rganish metodologik yondashuvning xilma-xilligini aniqlaydi.

Aytish lozimki, ilmiy metodologiyada hech bir yondashuv rad etilmaydi va hech biri asosiy o'ringa chiqmaydi. Ularning har biri yordamida umumiy tarzda obyektiv borliq qonuniyatlarini o'rganish mumkin.

Savol va topshiriqlar

1. «Innovatsiya» atamasini siz qanday tushunasiz?
2. Innovatsion o'quv jarayonini yo'lga qo'yishda nimalar talab qilinadi?
3. Gumanistik pedagogikani, ko'pincha, innovatsion pedagogika deb atashadi. Bu haqda sizning fikringiz qanday?
4. Bizning davrimizda mualliflik maktabi ruhi O'zbekiston ta'limi uchun me'yoriy xususiyat bo'lib qoldi. Bu fikrni siz qanday tahlil qilasiz va ushbu maktab bo'yicha qaysi mualliflarni bilasiz?
5. «Pedagogik tizim» va «yangilik kiritish» tushunchasini izohlang.
6. Gumanistik pedagogikani innovatsion pedagogika deb atashning ma'nosini qanday tushunasiz?
7. «Innovatsion pedagogika» tushunchasini izohlang.
8. Innovatsion pedagogika hukmron nazariya, nazariy va amaliy muammolarni hal etishning asoslari, deganda nimani tushunasiz?

VIII BOB. TARBIIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK TIZIM

Ijtimoiylashtirish ta'siri va o'zini tarbiyalash, shaxsni tarbiyalash, ya'ni pedagogning kasbiy faoliyati bilan bog'liqdir. Ushbu faoliyatning mohiyati ijtimoiylashtirish va o'zini tarbiyalash jarayonlarini boshqarishdan iborat. Haqiqatan ham siyosiy va pedagogik jarayonlarda o'xshashliklar ko'p. Siyosatning «imkoniyatlar san'ati» kabi tushunchasi pedagogikaga ham mos keladi. Ko'pincha bunday imkoniyat hajmi bilib turib oshirib yuboriladi, ba'zan, aksincha, kamaytiriladi. Ba'zan insoniyat hamjamiyati ma'naviy hayoti yuksak obro'li odamlari go'yo «tarbiya to'g'risidagi masalani bekor qiladilar». Masalan, L.N.Tolstoy shunday yozadi: «Tarbiya, biz o'qitish, tarbiyalashni xohlamas ekanmiz, murakkab va qiyinligicha qoladi. Agarda boshqalarni biz faqat o'zimiz orqali tarbiyalashimiz mumkinligini tushunib olsak, unda tarbiya masalasi yo'qoladi va hayot to'g'risidagi masala qoladi: o'zim qanday yashashim kerak!»¹

Bunday tarbiya to'g'risidagi masala shunga qaramay qoladi. Hatto «O'zimiz qanday yashashimiz kerak?» degan savolni his etishga e'tiborni jalb etsak ham biz boshqa savollardan xoli bo'lmaymiz: «Odamlar orasida qanday yashash kerak?», «O'z hayot talablarining uning hayot talablari bilan mos kelishi qobiliyatiga qanday qilib ega bo'lish mumkin?» Oxirgi savolni hal etganda, odam (birinchi navbatda bola, lekin ba'zida kattalar ham) ichki va tashqi ta'sirni tizimlashtirish, ularga mos ravishda javob qaytarib, shaxs shakllanishini tushunib va bog'lashga yordam beruvchi pedagog, o'qituvchi tomonidan tushuniladi.

¹ L.N.Tolstoy. Asarlar to'plami, M. 1984-y.19-t. 346-bet.

O'qituvchida zamonaviy talablar asosan uchta vazifa orqali amalga oshiriladi:

1. Fan bo'yicha.

2. Pedagogik.

3. Oldindan berilgan vazifa bilan mos ravishda o'qish jarayonini loyihalashtira bilish malakalariga ega.

Ushbu vaziyatda o'qituvchi haqida gap boradi. Agarda tarbiyachi o'qitish bo'yicha uy vazifalarini bajara olmaydi, deb hisoblasak, unga kamroq talablar qo'yish kerak. Lekin shu yerda bir gapni aytib o'tish kerak:

«Bolaning aqliy rivojlanishi asosi bo'lib xizmat qiluvchi, uning jismoniy rivojlanishi shartlari bilan tanish bo'lmagan ayol aniq va to'g'ri harakat qila olmaydi, – deb yozadi Klara Setkin. – O'qitish texnik metodlarini bilmagan ayol bolaning o'n marta o'z onasi bo'lsa ham (hatto shunday mumkin bo'lmagan holatda ham) haqiqiy insonni tarbiyalay olmaydi, bola tarbiyasini unga ishonib bo'lmaydi».

Shunday qilib, Klara Setkin fikricha, ona qanchalik mehribon, bolasini sevadigan va sevimli odam bo'lmasin, «o'qitish texnik metodlarini» bilmasa ekan, bola tarbiyasi jarayonidan chetlashtirilishi kerak. Bu nuqtayi nazardan kasbiy tayyorgarlikni talab etuvchi juda muhim ish – tarbiya masalasiga qaratilmoqda. Tarbiyachi bu yerda yaqqol o'qitish vazifasini ham bajaradi.

Kasbiy tarbiyachi zarurmi?

Albatta, chunki murakkab tizim – tarbiyalash tizimi faoliyati to'g'risida gap bormoqda, u tizim turli subyektlar harakatlariga rahbarlik qilishi va boshqarishi kerak.

Tarbiyachi inson hayotda baxtli bolalik rolini tushunib, individni shakllantirish jarayonini madaniyatga, ijtimoiy hayot qarama-qarshiliklariga va bilimga yo'naltirishi kerak. Natijada, bola va hayot ittifoqiga yanada keng va chuqur bo'lishga yordam berib, bu ittifoqning buzilmasligi maqsadini ko'zlash kerak. Inson rivojlanishi jarayonining maksimal evolyutsion, minimal inqirozli – pedagogning san'ati mana shundan iborat.

Shakllanayotgan shaxs ma'lum majburiyatlarga ega bo'lib, kasbiy tarbiyachi jamiyat oldida ham shunday mas'uliyatga ega bo'ladi. Jamiyat, asosan, o'zining yangi insonni o'sishi jarayonini ta'minlaydi, shuning uchun u yangi a'zosi ijtimoiy munosabatlarga qodir, yuzaga kelgan munosabatlar tuzilishida yashay olishga va kerakli rivojlana olishga tayyor bo'lishiga ishonishga haqlidir.

Turli milliy madaniyatlar doirasida pedagogika an'anaviy ravishda faqat jamiyat oldida va aksincha, faqat shaxs oldida ancha mas'uliyatliroq tushunilishi mumkin. Haqiqatda esa, kasbiy, ya'ni pedagogik ta'sir ko'rsatishning takomillashtirilishini faqatgina ikkala manfaatdor taraflar

talab va ehtiyojlariga yo'naltirib amalga oshirish mumkin. Munosabatlar maqsadlari qanchalik ta'sirchan bo'lmasin, pedagog ular bilan o'z ishida tarbiyalanuvchi qiziqishlari huquqi erkinligini poymol qilishini oqlab bo'lmaydi. Pedagogik ta'sir ko'rsatish maqsadi – jamiyat manfaatlarini maksimal hisobga olib, shaxsning maksimal mumkin bo'lgan rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Jamiyat tomonidan, agarda hozirgi davrda ijodiy individuallikka ehtiyoj sezilsa, unda pedagogning vazifasi osonlashadi, chunki ushbu holatda ijtimoiylashtirish va pedagogik ta'sir ko'rsatish jarayoni bir yo'nalishda boradi. Jamiyat shaxs qobiliyatlarini cheklamaydigan, uning o'sishiga to'siq bo'ladigan bunday vaziyatni qurish zarur bo'ladi. Bunday vaziyat muvofiqli pedagogik jarayonning majburiy sharti hisoblanadi. Shaxsning rivojlanishi eng erta bosqichlarida jamiyat ehtiyojlariga uning munosabati shakllana boshlaydi. Bu munosabat tarbiyalanuvchining birinchi pedagoglari – ota-onalarining ortiqcha e'tiborliliklari sababli egoistik ko'rinish olishi mumkin.

Ko'pchilik ota-onalar o'z bolalarining barcha talablarini bajarishga harakat qiladilar va to'laqonli hayotga tayyorlashning asosiy yo'li mana shundan iborat, deb hisoblaydilar. Bunday tarbiyachilar jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatlari to'g'risidagi tasavvurlarini yo'qotadilar. Ba'zan bu holat hattoki anglab yetilgan bo'lsa ham bolaga mehr qo'ygan tarbiyachilarni xavo-tirga solmaydi, ular faqat o'z vazifalarini faqat biryoqlama tushunadilar – ovqat, yana ovqat berish va yana berish. Biroq tarbiyachining jamiyatga nisbatan mas'uliyatsizligi oxir-oqibat tarbiyalanuvchini halokatga olib keladi.

Shunday qilib, kasbiy tarbiyachi shaxs oldida ham va jamiyat oldida ham javobgar hisoblanadi. Bu majburiyatlarni buzganda tarbiyachi ijtimoiy hayot buzilishi va shaxsning inqiroziga sabab bo'ladi.

Inson psixikasi asosi haqli ravishda hisoblanuvchi odamning mustaqil va oqilona harakatlarini amalga oshirishga qobiliyatli, ijtimoiy muhitda juda ko'p sonli omillar bilan shakllantiriladi. Shuning uchun u hech qachon faqat kasbiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish natijasi sifatida qaralishi mumkin emas. Pedagogning kasbi o'z ustida mustaqil ishlashida tarbiyalanuvchining ehtiyojlarini e'tiborsiz qoldirmay, bolani mos bo'lmagan ta'sirlardan himoya qilib va zehni e'tiborli rivojlantira borib, tarbiyalanuvchilar bilan munosabatlarda me'yorini topishni belgilashda ifodalanadi.

E.Pistolossi insoniylik mohiyati ichki yo'nalganlik va faqat harakat qilish emas, balki harakat qilmaslik erkinligi bo'lmaganda normal amalga oshirilishi mumkin emas, deb aytadi. Falsafiy nuqtayi nazardan bu tushunarli: harakat o'z qarama-qarshiligidagi holatda o'z o'lchamini topadi. Sotsiologiyada esa madaniyat tushunchasi orqali ijtimoiy harakat o'lchamini aks ettiradi. Shaxs munosabati va tahlil bir-biri bilan bog'liq

bo'lgan bosqichlar orqali rivojlanadi. Bola atrofidagilardan uzoqlashishga ehtiyoj his etadigan davr o'z tarbiyalanuvchisini chindan yaxshi ko'radigan tarbiyachilar tomonidan ba'zan tushunib yetilmaydi. Bunday holatda ko'pchilik hech ham tarbiyaning takomillashishiga yordam bermaydi. Ba'zida esa mehribon pedagog o'z tarbiyalanuvchilari bilan munosabatlarga doimiy tayyorgarligi bilan odatda faqat jismoniy emas, balki anglab yetilmagan intellektual, emotsional tinchlikka ehtiyoji qoniqtirilmaganligi sababli yuzaga keluvchi norozilik hissini keltirib chiqaradi. O'qituvchini ham, o'quvchini ham o'z ishidan ko'ngli qolishidan saqlash uchun tarbiya butun hayot davomida faqat kasbiy vazifasiga qaratilmasligi kerak. Tarbiyalanuvchiga pedagog bilan munosabatlarda tinchlik, dam olish zarur bo'lsa, o'qituvchi shaxsining normasi rivojlanishi uchun unga ham xuddi shu kerak. Pedagogik mehnat mazmunini aniqlashda biz pedagog – bu munosabat jarayonida shakllanayotgan shaxs va jamiyat, ijtimoiylashishi va o'zini tarbiyalash jarayoni o'rtasida nizolarga yo'l qo'ymaslik maqsadini qo'yuvchi odamdir, degan fikrdan kelib chiqdik. Pedagogik faoliyat rivojlana borgan sari mana shu maqsadga erishish ko'plab vositalari ishlab chiqilgan. Asta-sekinlik bilan ular jamlanadi, yagona kasbiy faoliyat ichida ikkita faoliyat turini tashkil qiladi: rivojlantiruvchi va ikkinchi tomondan, muvofiqlashtiruvchi, tartibga keltiruvchi, bir tizimga soluvchi. Chunki rivojlantiruvchi faoliyat, kasbiy-tarbiyaviy faoliyat yuqorida aytilgan maqsadni bajarishga bevosita yo'naltirilmagan. Bu tarbiya muammosini o'rganuvchi ko'plab tadqiqotchilar tarbiyalash so'zining «asl mazmunida» o'qitishga kiritilmasliklariga olib keladi. Biroq, bundan boshqa nuqtayi nazar ham mavjud. Bu nuqtayi nazar o'qitishni, rivojlantiruvchi faoliyatni tarbiyalash faoliyatining bir qismi va hatto rivojlantiruvchi faoliyatning atributi sifatida qaraydi. Bola tug'ilgandan boshlab qisman potensial, qisman aktuallashtirilgan shaxs hisoblanadi. Tug'ilgan bolaga nisbatan jamiyat ma'lum xususiyatdagi talab ishlab chiqadi. Lekin, jamiyat bola bilan o'zaro munosabatlarga kirishadi, jamiyatda ushbu individga u katta bo'lganida qo'yiladigan talablar, ehtiyojlar murakkab zanjirini shaxs va jamiyat munosabatlarini boshqaruvchi – pedagog esdan chiqarmasligi kerak. To'g'ri, o'zaro munosabatlarga shaxsni tayyorlar ekan, pedagog uni rivojlantirmasligi mumkin emas va to'playotgan bilimlarini tizimlashtirishga yordam bermasligi mumkin emas. Faqat rivojlantirish – o'qitish yoki uyg'unlash-tirish, insonparvarlikka mos, ijtimoiy qoidalarga yo'naltirilgan kasbiy tarbiya ortda qolishi va butun kasbiy faoliyat muvafaqqiyatsizlikka uchrashi mumkin.

Shunga asosan tarbiya jarayonini faqat mustaqillikdan emas, balki mavjud subyektdan ham mahrum etamiz. Qaysi pedagog tarbiyalanuvchini

rivojlantirmay, bilimlarini boyitmay, ya'ni uni o'qitmay dars berishi, qoida, me'yor, sifat haqida tasavvur berishi mumkin.

Hozirda inson o'zini ta'limsiz jamiyatda teng huquqli da'vogar deb his etishi qiyin. Shu bilan bir vaqtda ilmlilik – bu anglab yetiladigan «yashirin» bilimlarga asoslangan shaxsning holati. Biroq, bilimsiz jamiyatda shaxs o'zaro munosabatlarini samarali yo'lga qo'yish mumkin emas.

O'qitish – bu tarbiyaning muhim bir qismi. Bundan ikki ming yil avvalroq Platon tarbiyalovchi ta'lim to'g'risida fikr yuritgan. O'qitishning chegaradan chiqib ketgan «tarbiyaviyligi» ko'pincha uning axborotlar yetkazish imkoniyatlari pasayishiga, ortiqcha nasihatgo'ylik, g'oyaviylikka olib keladi. Ta'lim-tarbiya doirasida rivojlantirish, bilimlar, tasavvurlar, ko'nikmalar berish vazifasini bajarishi kerak. Mana shu yo'nalishda muammolar ko'p.

TARBIYA TIZIMIDA INNOVATSIYALAR

Hozir respublikamizda pedagogik innovatsiyalarning yaratilishi va rivojlanishi, keng pedagogik jamoatchiligining harakati, umumta'lim maktablarining moderinizatsiya qilinishi, standartlarni takomillashtirilishi va dasturlarning yangilanish jarayoni ketmoqda.

Yangiliklarni yaratish, izlash, to'plash, qo'llash ishlari jadallashib bormoqda. Maktabda innovatsiyalar masalasini muhokama etganda, tarbiya tizimlarida innovatsiyalar tashkil topishi to'g'risidagi masalalarni gapirib o'tmay bo'lmaydi. Lekin buning uchun avval tarbiyaviy tizimning ichki tushunchasini kiritamiz. Shundan keyin tarbiyaviy tizimni falsafiy va texnologik jihatdan ko'rib chiqishda innovatsiyalar yuzaga kelishini o'rganamiz.

Shunday qilib, pedagogikada «tarbiya» kategoriyasining bir vaqtda, bir necha tushunchalari mavjud tarbiyani o'rganayotgan avlodga tarbiyani eng muhim ijtimoiy tajribalarni yetkazish bo'yicha maxsus tashkil etilgan jarayon sifatida tushunish eng keng tarqalgan tushunchalardan hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, har qanday tarbiya jarayonining asosi, haqiqatda, o'qitish hisoblanadi, degan xulosaga kelish to'g'ri bo'ladi. Ushbu holatda tarbiya jarayoni didaktik vositalar bilan ko'rina boshlaydi.

Tarbiya jarayoni o'zining o'ziga xosligini «saqlab qolish» uchun «tarbiya, tarbiya... tarbiya!» birgalikdagi monografiya mualliflari V.A.Karakovskiy va psixolog X.I.Laymete taklif etgan uning boshqa tushunchasidan foydalanadilar. Agarda tarbiya jarayonini «Laymete bo'yicha» qaraydigan bo'lsak, unda tarbiya tizimi didaktikadan iborat bo'lmaydi, balki bir tomondan psixologo-pedagogik, boshqa tomondan esa ijtimoiy-pedagogik tizimdan iborat bo'ladi.

Bu o'z navbatida tarbiya tizimi o'quvchilarga faqat didaktik tizim sifatida emas (o'qituvchilar, darslar, darsliklar, uy vazifalari orqali), balki ijtimoiy omil sifatida bolalarning atrof-muhitga jalb etilganligi orqali; otalar, o'qituvchilar va bolalar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar orqali, albatta, har bir ta'lim muassasalarida tashkil topadigan ma'lum psixologik muhit orqali ta'sir ko'rsatadi.

Didaktik tizim tushunchasi pedagogikada ancha qadimdan shakllangan. Maktabning didaktik tizimi ta'lim maqsadlari, o'qish mazmuni, uni tashkil etishning metod va shakllari orqali ifodalanadi. Albatta, tarbiyaviy maqsadlar o'rganilayotgan material mazmuni, uni yetkazish shakli va metodlari hamda shu kabilarni belgilash orqali o'qitish jarayonida ham amalga oshiriladi. Lekin tarbiyaning ikkinchi tushunchasi mantiqida didaktik tizim o'zi tarbiyaviy tizimining didaktik tizimida ishtirok etadi, ya'ni uning tizimi hisoblanadi.

Ta'lim muassasining tarbiyaviy vazifasi, birinchi navbatda, o'quvchilar dunyoni anglab yetishi, boshqalar orasida o'z o'rnini topish qadriyatlarini shakllantirishdan iborat. Lekin mana shu vazifani faqat o'qitish jarayonida amalga oshirib bo'lmaydi: u individual manfaatlarini qondirish bilan bog'liq dam olish doirasidagi o'yin, mehnat, ijodiy faoliyat bilan ham bog'liq. Shunday qilib, xususan, tarbiya tizimi innovatsiyalarini o'rganish imkoniyati paydo bo'ladi. Uni yaratish va rivojlantirish jarayonida har gal qator aniq masalalarni hal etish kerak bo'ladi: yuqorida nomlari keltirilgan mualliflar ularning beshtasini alohida urg'u bilan ko'rsatadilar:

1. Bolalarda dunyoning yaxlit va ilmiy asoslangan ko'rinishini shakllantirish.

2. Fuqarolik, o'zini anglashni, vatani taqdiri uchun javobgarlikni shakllantirish.

3. Bolalarni umuminsoniy qadriyatlarga jalb etish, ular orasida mana shu qadriyatlarga mos bo'lgan xulqni shakllantirish.

4. O'sib kelayotgan kelajak avlodda shaxs xususiyatlari sifatida «ijodkorlikni» shakllantirish.

5. O'z-o'zini anglashni shakllantirishda bolaga yordam ko'rsatish.

Albatta, bu masalalar ro'yxatini davom ettirish mumkin. Lekin har qanday holatda ham mana shu vazifalarning o'zi yuqorida sanab o'tilgan tarbiyalash vazifalarining «alohidaligini» ko'rsatadi.

Yuqorida bayon etilgan didaktik qarashlarda innovatsiyalar yuzaga kelishi va shakllanishi imkoniyatlarini chuqur muhokama qilish hamda tarbiya tizimini falsafiy va texnologik jihatlarini o'rganishda tarbiyaviy innovatsiyalardan foydalaniladi.

Tarbiya tizimining falsafiy jihati tarbiyaning mazmun-maqsadlarini asoslashni va tarbiyaning kerakli mazmuni bilan aloqasini asoslab berishni

ko'zda tutadi. Biz avval aytganimizdek, bugungi kun qarashlari ostida tarbiya tizimida ikki – turlicha bo'lgan konseptual (ko'p jihatdan qarama-qarshi) yondashishlar mavjud.

Birinchi yondashish tarbiya – bu o'ziga xos mazmunga ega bo'lgan (falsafiy-pedagogik, g'oyaviy, psixologo-pedagogik, ma'naviy va boshqa) bola shaxsiga ijtimoiy belgilangan va maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishga asoslanadi. Bunday tarbiya ma'lum shakllarda (frontal, guruhli, individual) va ma'lum metodlar bilan amalga oshiriladi.

«Tarbiya ta'sir ko'rsatish sifatida» pedagog barcha choralar bilan samarali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga erishishi kerak. U (pedagog) o'zi ixtiyorsiz bolalar va ota-onalar teng qimmatli ishtirokisiz – mana shu tizimda asosiy subyekt bo'lib qoladi, chunki bolalar va «olib boruvchilar» rovida ishtirok etadilar. Va, albatta, tarbiyada teng huquqli sherik hisoblanmaydilar. Bu yerda bola «tarbiya predmeti» sifatida ishtirok etadi va bolaning faolligi subyektivlik to'g'risidagi murojaat har gal «kerakligini faol o'zlashtirish» yoki adaptiv faollik deb ataluvchi xususiyatga ega bo'ladi.

Bu yondashish biz ilgari keltirib chiqargan ijtimoiylashtirish kategoriyasi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq, bunda biz tarixiy ishlab chiqilgan ijtimoiy qoidalarni, qadriyatlar, munosabatlar, ma'naviy va moddiy madaniyat bilan munosabat usullarini inson tomonidan o'zlashtirilishi jarayonini tushunamiz. Umumiy qabul qilingan tip asosida aytadigan bo'lsak – bolani tarbiyalash (mana shu tushuntirilishda) – uni kattalar dunyosiga olib kirish, uni umumiy qonunlar bo'yicha «birga» yashashga o'rgatish demakdir.

Shunday qilib, ijtimoiylashtirish insonning «adaptik faollik» qobiliyatiga ega bo'lishni ko'zda tutadi va maqsadga muvofiq jarayonlar (o'qitish va tarbiyalash), maktabgacha, maktab, maxsus kasb-hunar muassasalarida hamda tasodifiy omillar (oilalar, ommaviy axborot vositalari, san'at bilan muloqat qilish) ta'siri ostida amalga oshiriladi.

Bu ta'sir ko'rsatish tarbiya tizimi (yoki ijtimoiylashtirish) insonparvarlikka zid kabi baholanishi mumkin emas. Unda o'qituvchi va bolalar o'rtasida insonparvarlik munosabatlari mavjud bo'lishi, gumanitar qadriyatlar targ'ib qilinishi, guruhli va individual ijodkorlik elementlari tatbiq qilinishi mumkin.

Bundan tashqari, ta'sir ko'rsatish ushbu tarbiya tizimi o'zi tarbiya jarayoniga demokratik qadriyatlar va qoidalar kiritishi kerak (atrof-hayotdagi o'zgarishlar ortidan): hayotni tashkil etish demokratik usullarini o'zlashtirish (bolalar hamjamiyatidan boshlab), boshqalarga nisbatan huquq va majburiyatlarini o'zlashtirishga amal qilish.

Lekin, tarbiya bilan bog'liq bu yondashish amalda o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash bilan bog'liq bo'lib chiqmoqda, chunki bolaning

xulqi va hayoti bu holatda to‘laligicha tashqi kuchlar bilan belgilanadi. Va unda bu tanlovni amalga oshirish imkoniyati qolmaydi. Yetkazish kerak bo‘lgan qandaydir tarbiyaviy mazmun, mana shu tarbiyaviy standartdan kelib chiquvchi ijtimoiy-pedagogik-nazariy – bu narsalarning barchasi bolaning ichki «xohlayman» istagiga, balki tashqi «kerak» talabiga yo‘naltirilgan metodlarni talab etadi. Shuning uchun ushbu tarbiyaviy tizim qandaydir jazo va majburlashlarsiz mavjud bo‘lishi mumkin emas.

Tarbiyadan boshqa yondashish insonparvarlik tarbiyaviy tizimini yaratish bilan bog‘liq. Bu yondashish, birinchi navbatda, biz ilgari bo‘limda batafsil ko‘rib chiqqan individuallashtirish jarayoni bilan mos keladi (lekin uni bola ijtimoiylashtirish masalalarini iloji boricha yaxshi o‘zlashtirib olishi maqsadi bilan bog‘liq yondashish bilan adashtirish kerak emas). Yana bir bor eslatib o‘tamiz, individuallashtirish, – bizning tushunishimizcha, – bu bolada mavjud yoki o‘zining individual tajribasida egallagan yagona, alohida va o‘ziga xosligini ta‘minlab turish va rivojlantirish bo‘yicha kattalarning hamda bolaning faoliyatidir.

Individuallashtirish – birinchidan, birlamchi asosiy ehtiyojlarni individual yo‘naltirilgan holda yordam ko‘rsatishni ko‘zda tutadi, busiz tabiiy «o‘zligini» his etish mumkin emas: ikkinchidan, aynan mana shu individ uchun xos bo‘lgan tabiat bergan (meros bo‘lib o‘tgan) jismoniy, intellektual, emotsional qobiliyatlar imkoniyatlarni maksimal, erkin amalga oshirish uchun sharoitlar yaratishni ko‘zda tutadi. Va, nihoyat, uchinchidan, individuallashtirishning belgisi, asosiy xislati – avtonom ma‘naviy o‘zini qurishda, o‘zini ijodiy gavdalanitirishda, «moslashuvchan bo‘lmagan faollik», hayotiy o‘z yo‘lini tanlashdagi qobiliyatini rivojlantirishda insonga yordam ko‘rsatish.

Shaxsni individuallashtirish uning o‘zligini rivojlantirish, shunday qilib, keng ma‘noda insonparvarlik-tarbiyaviy tizimini tashkil etadi. Tarbiyada bunday yondashishning maqsadi bolalarga, ularning subyektiv mavjudliklarini tashkil etishda yordam ko‘rsatish hisoblanadi. Buning uchun ushbu tarbiyaviy tizimda insonga o‘zini anglash va o‘zini amalga oshirishda yordam beruvchi maxsus vositalar ishlab chiqiladi. Insonparvarlik tarbiyaviy tizimining subyeksi endi faqat pedagog emas, balki bolalarning o‘zlari ham hisoblanadi (bola, asosan, tarbiya obyeksi hisoblangan ta’sir ko‘rsatish tarbiyaviy tizimidan, uning asosiy farqi ham mana shundan iborat). Ushbu paradigmadagi pedagoglar ham, bolalar ham maktab oldida turgan maqsadlarini birgalikda aniqlashtiradilar, ularni amaliy vazifalar darajasiga ko‘taradilar va hamkorlikdagi faoliyatda amalga oshiradilar. Maktab insonparvarlik tarbiyaviy tizimi samaraliligining muhim sharti, bolalar va kattalarni umumiy jamoaga birlashtirish hisoblanadi (lekin o‘z vazifalari

bo'yicha turlicha bo'lsa ham – bolalar, pedagoglar, ota-onalar). Bolalar va kattalarning o'zaro munosabatlari ma'lum munosabatlarni yuzaga keltiradi, ular birinchi navbatda tizimning tarbiyaviy imkoniyatlarini belgilaydi.

Har qanday insonparvarlik tarbiyaviy tizimi aniq tizim hisoblanadi. Uning tashkil topishi, faoliyati va rivojlanishida muhit, shu bilan birga faqat tashqi ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida emas, balki ushbu tizimning tarkibiy qismida katta rol o'ynaydi.

Tarbiyaviy tizimning ikki turini taqqoslash, tahlil qilish, yakunida ta'sir ko'rsatish, ta'lim tizimi va insonparvarlik tarbiya tizimi o'zining predmeti mazmunida ham farq qilishini alohida aytib o'tamiz.

Birinchisi, birinchi navbatda, dunyoning ijtimoiy ko'rinishini o'rganadi. Ikkinchi tizim o'zini o'zi o'rganish usulini o'rganadi. Ma'lum ijtimoiy qoidalarni, qadriyatlarni, munosabatlarni yetkazib ta'sir ko'rsatish tarbiya tizimi bolalarda o'zini anglashga qobiliyatni rivojlantirish masalasini o'z oldiga qo'ymaydi – bu uning predmeti hisoblanmaydi.

Insonparvarlik tarbiyaviy tizimi – bu boshqa gap. Inson tanlab olish subyekti sifatida ishtirok etar ekan, u bu tanlovni o'ziga nisbatan amalga oshirishi ko'zda tutiladi, demak, o'zini anglash jarayonisiz bu tizimni amalga oshirish mumkin emas. Shuning uchun turli insonparvarlik-tarbiyaviy tizimlar, hozirgi kunda, aynan mana shu yo'nalishda rivojlanmoqda. Innovatsiya (anglagan holda, umuman yangilikni kiritish sifatida) ishchi (amaliy) tushunchasini eslab, aniq misolda tarbiya tizimini falsafiy jihatdan qanday shakllanishini ko'rib chiqamiz.

Taqdim etilgan yondashishlarning har birida innovatsiya yondashishlardan birini aniqlashtirish hisoblansa ham, har gal qandaydir yangi g'oya bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, O.S.Gazman tarbiya insonparvarlik paradigmasini muhokama qilib, tarbiya maqsadini birinchi navbatda o'zini rivojlantirish va pedagogik yordam ko'rsatish g'oyasi bilan bog'laydi. Ko'pchilik hozirgi zamon mualliflari insonparvarlik paradigmasini o'rganishlarida, shaxs rivojlanishiga amal qilib, o'zini rivojlantirishga (yoki o'zining o'zligini rivojlantirishga) turli tomondan yondashadilar. Ba'zi mualliflar ushbu so'zning keng ma'nosidan kelib chiqadilar: o'zini umumiylikka yetkazish, barcha odamlar uchun xosliklar, hammasiga mos kelish, ya'ni u yoki bu sotsial ideologik talablarni kontekstdan chetga chiqadilar, umuminsoniylikni, o'zini rivojlantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydilar.

Mualliflar ikkinchi guruhi esa boshqacha fikrlaydilar: inson o'zining individualliligini, alohidaliligini, o'zining o'zligini rivojlantiradi (bu ko'pincha umuminsoniylikni namoyon etish individual ifodalangan usullarini o'z ichiga oladi).

O.S.Gazman «Erkinlik pedagogikasi: XXI asr insonparvarlik taraqqiyotidagi yoʻl» nomli asarida «Oʻzini rivojlantirish» terminida yuqorida aytilgan ikki mazmuni birlashtirish va oʻzini rivojlantirishni faqat yagona subyektda taqdim etilishi mumkin boʻlgan yangi sifatni tashkil etish uchun insonning oʻzida sanʼatni (madaniyatligini) va tabiiyki, toʻplash, birlashtirish jarayoni sifatida tasavvur etishni taklif etadi. Faqat ijtimoiy va biologik emas, balki erkin (ekzestensial) mavjudot sifatida oʻsib borayotgan inson toʻgʻrisidagi tasavvur madaniyligi va tabiiyligi tamoyillarini erkinlik tamoyili bilan toʻldirilishini talab etadi.

Tarbiya texnologiyasi deganda biz tarbiyaning maʼlum maqsadlariga erishishga qaratilgan maxsus pedagogik uslublar tizimini tushunamiz. Har qanday tarbiya metodikasi tarbiya texnologiyalaridan tashkil topadi. Masalan, jamoani rejalashtirish, oʻsmirlar bilan aloqa oʻrnatish, pedagogik diagnostika texnologiyasi va boshqalar.

Agar texnologiya – bu tarbiya metodikasining yakunlangan qismi boʻlsa (uning birligi), uslub esa oʻz navbatida bu umumiy yoki shaxsiy pedagogik madaniyatda qayd etilgan tarbiya texnologiyasiga nisbatan yakunlangan elementdir. Agarda uslub biror bir tarbiya masalasi bilan barqaror bogʻliq boʻlsa, u oddiy tarbiyaviy texnologiya boʻlib qoladi.

Masalan, sinfni mikroguruhlariga boʻlish (qiziqishi boʻyicha, qurʼa tashlash boʻyicha, yetakchilari boʻyicha): hamkorlikdagi faoliyatda oʻyin rollarini yaratish usullari; guruhni muhokamada soʻzga chiqish tartibi va boshqalar – bularning barchasi tarbiyachilari aniq uslublariga misollar. Lekin ulardan hech biri qandaydir aniq tarbiyaviy masala bilan toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻliq emas, shuning uchun mana shu uslublarni turli xil texnologiyalarga kiritish mumkin.

Mikroguruhlariga ajratish uslubini jamoa boʻlib maqsadni belgilashda ham, hamkorlikda rejalashtirish va umumiy ishlarni bajarish texnologiyasida ham, guruhli tahlilni tashkil qilish usuli sifatida ham va muloqot reytingida mashqlar oʻtkazish uslubini sifatida ham qoʻllash mumkin. Shunga mos ravishda ishlab chiqilayotgan pedagogik yordam texnologiyalari ham ilgari maʼlum boʻlgan uslublar yoʻnalishidan iborat boʻlishi mumkin, lekin maʼlum tartibda tuzilgan ularning ketma-ketliklari yangi tarbiya vazifalariga javob bera boshlashi mumkin. Pedagogik yordam texnologiyasi – bu oʻsib borayotgan odamning boshqalardan oʻzining farqini anglab yetishga yordam beruvchi oʻquvchining jismoniy, intellektual, maʼnaviy, ijodiy vositalardan foydalanish tizimidir.

Bu oʻquvchining taʼlim olishida mustaqil va muvaffaqiyatli ilgari borishi, shaxsiy hayot yoʻli va hayot mazmunini tanlashi uchun zarurdir.

Ushbu texnologiyani amalga oshirish oʻquvchining savolidan boshlanadi: «Men kim boʻlaman?», «Qanday boʻlishim kerak?» Pedagog

bilan birgalikda mana shu savollarni muhokama qilish yana boshqa bir mustaqil savolni ham keltirib chiqaradi: «Qanday yashash kerak?» Maxsus tashkil etilgan maslahatlar orqali aynan mana shu o'quvchiga xos bo'lgan individual hayot tarzi asta-sekin tuziladi, intellektual, emotsional, jismoniy yuklamalar qulay rejimi tanlanadi.

O'quvchi pedagog yordamida muvaffaqiyat va baxtsizliklarga bardosh berishning o'zi uchun mos usullarini topadi, mehnat faoliyati mos turini aniqlaydi, bo'sh vaqtini uzluksiz ish shakllari, odamlar bilan munosabatlar xususiyatlari bilan belgilaydi.

«Pedagogik yordam» tushunchasining semantik ma'nosi birinchi navbatda faqatgina biror narsaga ega bo'lgan, lekin yetarli darajaga ega bo'lmagan odamgagina yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash mumkinligidan iborat. Shuning uchun bolaning o'zida biror narsani bilish istagi paydo bo'lsa va bu yo'lda uning oldida qiyinchiliklar paydo bo'lsa pedagogik yordam harakatga keladi.

Shunday qilib, pedagogik yordam texnologiyasi, birinchi navbatda, vaziyatga javob qaytarishdan iborat bo'ladi. O'z navbatida bu texnologiya turli usulblardan iborat. Ulardan biri baholash – algoritmik uslub hisoblanadi.

Bola faoliyatini tuzatish va baholash munosabati: «yaxshi – yomon», «to'g'ri – noto'g'ri», «mumkin – mumkin emas» kabilar ma'lum yosh bosqichida belgilar xulqi doirasini belgilaydi. Bu uslub o'qituvchi obro'si hali juda kuchli bo'lmagan kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun ancha samarali bo'ladi.

Pedagogik yordam texnologiyasi bu – bir uslub ijtimoiy ko'nikmalar kursini maqsadga muvofiq kiritish hisoblanadi. Ushbu kurs ijtimoiy munosabatlar, shaharlararo munosabatlar, qaror qabul qilish, o'zini anglash kabi sifatlardan iborat. Ushbu ikki fanning – amaliy mashg'ulotlar yoki o'zini namoyon etish va o'zaro aloqalar hamda hamkorlik tajribasi uchun jamoani ijodkorlik bo'yicha mashg'ulotlar ko'rinishida qurilishi juda muhim.

Pedagogik yordamni amalga oshirishdan keyingi uslub – bolalar jamoasini tashkil etish va boshqarishda pedagogning yordami hisoblanadi.

O'zini boshqarish buyruq bo'yicha yuzaga kelmaydi, balki bolalar va o'smirlar qiziqishlari hamda maktab fuqarosi huquqlari ham o'z manfaatlarini o'zaro himoya qilishlari ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Ushbu o'zini boshqarish (aynan mana shu yerda pedagogning yordami kerak) maktab doirasida bolalar qiziqishlarini birlashtiruvchi bo'lganida va maktabning o'zi fuqarolik jamiyati sifatida qurilganda paydo bo'ladi.

Diskoteka o'tkazish, sayohatga borish yoki qandaydir tanlovlar o'tkazish uchun o'smirlar birlashtirishni xohlasalar, mana shu vaziyatda

o'zini boshqarish lokal tajribasi paydo bo'ladi. Kattalar esa bu vaziyatda yordamchi bo'lib qolishlari mumkin. O'zini boshqarishda qoidalar ishlab chiqarish majburiy element hisoblanadi. Bolalarning o'zlari yaratadigan qoidalar, qonunlar, huquq qoidalarining muhim ahamiyatga egaligi pedagogikada ancha avval payqalgan.

Bolalarning o'zlari yaratgan qoidalar ularni birlashtiradi. Maktab hayoti muammolarini yana-da demokratik hal etishga imkon beradi. Lekin, asosiysi, bunday qoidalar erkinlik va mas'uliyatlik doirasini belgilab beradi. Ushbu holatni intizomlilikni rivojlantirishning kuchli vositasi sifatida tushunib, ko'pchilik maktablar o'zlarining qonunlarini, o'rtoqlik nizomlarini, vijdon kodekslarini yaratmoqdalar. Lekin ushbu uslubda ham ma'lum xavfli tomonlar mavjud. Pedagog ba'zi bolalar boshqalar ustidan nazoratchi bo'lib qolmasliklarini kuzatib borishi zarur. Bunday holatda bolalar jamoasida adovat ham yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatda bolalar qonunni bajaruvchilar va ularga qarshi kuzatuvchilarga ajralib qolishlari mumkin. Shunday qilib, yuqorida tasvirlangan uslublar (ularning ro'yxati, albatta, davom ettirilishi mumkin) to'plami yangi maqsad – pedagog yordam uchun texnologiyani belgilab beradi va mana shu mazmunda innovatsion texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umuman olganda, har qanday tarbiya tizimining yangilanishi innovatsiyalar hisobiga amalga oshiriladi. Bu esa ikki – revolutsion (inqilobiy) va evolutsion yo'l bilan sodir bo'lishi mumkin.

Inqilobiy yo'l odatda maktab hayotida jamiyat hayotidagi favqulodda vaziyatlar bilan kelib chiqadi. Ikkinchi yo'l tarbiya tizimini samarali pedagogik boshqarish bilan bo'ladi, chunki yangilanish mexanizmlari tizimning o'zida mavjuddir.

Tizimning holati va faoliyati to'g'risida yaxshi yetkazilib turiladigan obyektiv axborotlar, pedagoglar va o'quvchilar jamoasining doimiy, ijodiy izlanishiga yo'nalgan ishlari ta'lim tizimi yangilanishini rejali va boshqariladigan qiladi. Innovatsion maktab tashkil topishi didaktik jihatini tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelishga imkon beradi:

I. Innovatsion maktab tashkil topishi jarayonini didaktik ko'rib chiqish turlicha jihatlar orqali amalga oshiriladi:

- Falsafiy-metodologik (o'qitish maqsadlari).
- Nazariy (o'qitish mazmuni, o'qitish jarayoni tuzilishi va qonuniyatlari).
- Texnologiya (o'qitish jarayoni qoidalar tamoyili).

Didaktik qarashning falsafiy-metodologik jihati quyidagidan iborat. U yoki bu ijtimoiy buyurtmaning mazmunidan qat'i nazar, maqsadlarni aniqlashtirish jarayoni har doim ma'lum pedagogik strategiyani tanlash bilan berilishi kerak. Ijtimoiy buyurtmadan o'qitish jarayonini tashkil etish

aniq maqsadlariga o'tish jarayonida haqiqatda ishtirok etuvchilar barchalari shunday tanlovni amalga oshirishga majburlar: olim-didaktiklar, maktab ma'muriyati, birinchi navbatda esa yangi ta'lim modellarini ishlab chiquvchi innovatsion maktablar o'qituvchilari.

II. Turli pedagogik strategiyalardan tanlab olishning to'rtta yo'nalishi mavjud:

Ta'lim sohasida eng yuksak vazifalar.

O'qitish va rivojlantirish jarayonlari nisbati.

Ta'lim mazmuni konsepsiyasi ma'lum turiga yo'nalganligi.

Inson madaniyati tuzilishi to'g'risida tasavvur.

Ushbu ma'lum pedagogik strategiyani tanlash ilmiy obyektiv vazifalar bilan umuman hal etilishi mumkin emas. U har bir aniq innovatsion guruhning umumiy dunyoqarashi bilan, metodologik, falsafiy, antropologik qarashlari bilan bog'liq.

III. Didaktik qarash falsafiy metodologik jihatdan maktabning innovatsionligi g'oyaning o'zi umuman yangiligidan tashqari, maktabda maqsadni shakllantirish jarayoni mavjudligi qayd etilganligidan ham iborat bo'lishi mumkin. Maqsadni shakllantirish innovatsion maktabning mavjudligiga sabab bo'ladi va o'z navbatida o'qitishning o'zi u sababli bo'ladi.

IV. Innovatsion maktabning tashkil topishi didaktik qarash (o'qitish mazmuni, o'qitish jarayoni tuzilishi va qonuniyatlari) nazorat jihatlari quyidagilardan iborat. Zamonaviy ta'lim vaziyatlari sharoitlarida deyarli har bir maktabda variantiv qismini aniqlash hisobiga boshlash, keyin esa, invariant asosini aniqlashtirib shaxsiy pedagogik strategiyasini ishlab chiqish imkoniyatiga ega. Ya'ni zamonaviy asosiy o'quv rejasi faqatgina turli innovatsiyalar yuzaga kelishiga yordam beruvchi omil sifatida emas, balki haqiqiy rag'batlantirish sifatida ham amal qila boshlaydi.

V. O'qitish nazariyasi (o'qitish jarayoni tuzilishi va qonuniyatlari) o'qitish mazmunidan farqli ravishda innovatsiyalar yuzaga kelishi uchun imkoniyat hisoblanmaydi. Lekin innovatsion maktab tashkil topishini didaktik qarashda texnologik jihatida yuzaga keladigan innovatsiyalar uchun cheklovchi rolida ishtirok etishi mumkin.

Innovatsion maktab tashkil topishini didaktik qarashdagi texnologik jihati quyidagilardan iborat.

O'qitish mazmuni va texnologiyasida o'zaro bog'liqlik mavjud. O'qitish mazmunidagi o'zgarish (misol uchun o'quvchi fikrlarini tashkil etuvchi sxemalar kiritish) darhol mana shu mazmuni yetkazib berishga qodir yangi pedagogik texnologiyani ishlab chiqishni talab qiladi. Va, aksincha, ma'lum texnologiyalar o'qitish mazmuni hajmining o'ziga xos

chegaralovchilarini ilgari suradi, masalan, davomiyligi va qamrab olish kengligi. Aniq pedagogik texnologiyalar ko'rinishida berilgan har qanday innovatsiyalar didaktik qarash texnologik jihatida, bir tomondan, o'qitish nazariyasi va mavjud maqsadlar bilan cheklangan, ikkinchi tomondan esa ushbu innovatsion texnologiya «mos» keladigan yondashish xususiyati bilan (texnoizlanish) cheklangan.

TARBIYA TIZIMIDA IJTIMOIYLASHTIRISH

Pedagogik jamoa har bir bolaga ta'sir ko'rsatish imkoniga ega. Ular bolalarda boshqalarni tushunish, jamoada bir-biriga ta'sir ko'rsatish, tengdoshlari va kattalar bilan hamkorlik qilish malakalarining rivojlanishiga yordam beradi.

Sinfdan tashqari ishning ana shu ommaviy shakllarini ikkita katta guruhga ajratish mumkin. Bu guruhlar bolalar faoliyatining xarakteri bilan farq qiladi.

Birinchi guruh – frontal shakllar. Bolalarning faoliyati «yonimda», «yonida» prinsipi bo'yicha tashkil etiladi, ya'ni ular bir-birlari bilan o'zaro ta'sirda bo'lmaydilar, har bir bola aynan bir xil ishni mustaqil ravishda bajaradilar. Pedagog har bir bolaga biryo'la ta'sir ko'rsatadi. Cheklangan bolalar bilangina teskari aloqa o'rnatiladi. Sinfning hammasi bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy mashg'ulotlarning ko'pchiligi «yonida» prinsipi bo'yicha tashkil etilgan.

Bolalarning sinfdan tashqari faoliyatini tashkil etish shakllarining ikkinchi guruhi «birga», «birgalikda» prinsipi bilan xarakterlanadi. Umumiy maqsadga erishish uchun har bir ishtirokchi o'z rolini bajaradi va umumiy natijaga o'z hissasini qo'shadi. Hammaning xatti-harakati muvaffaqiyati har bir ishtirokchining harakatiga bog'liq. Ishning bunday tashkil etilishi jarayonida bolalar bir-birlari bilan yaqin hamkorlikda ish ko'rishga majbur bo'ladilar. Bunday faoliyat jamoa faoliyat nomini olgan, tarbiyaviy ish esa jamoa tarbiyaviy ishlar deb nomlanadi. Pedagog har bir bolaga alohida ta'sir ko'rsatmaydi, balki bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqaga ta'sir etadi, bu esa pedagog bilan o'quvchilar o'rtasidagi teskari aloqaning yaxshilanishiga yordam beradi. Bolalarning juft-juft, kichik guruhlarda sinfdagi faoliyati «birgalikda» prinsipi bo'yicha tashkil etilishi mumkin.

Har bir yo'nalishning o'z afzalliklari va kamchiliklari bor.

Birinchi guruh pedagog uchun tashkil etishda oddiyligi bilan farq qiladi, lekin jamoa o'zaro ta'sir malakalarini kamroq shakllantiradi. Ikkinchi guruh bolalarda hamkorlik, bir-biriga yordam berish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish malakalarini rivojlantiradi. Biroq kichik yoshdagi o'quvchilarning yosh

xususiyatlariga ko'ra (ular boshqa kishida teng huquqli insonni ko'rolmaydilar, kelishib olishni, birga bo'lishni bilmaydilar) jamoa shakllarni tashkil etish pedagogdan ko'p vaqt va muayyan tashkilotchilik malakalarini talab etadi. Uning pedagog uchun murakkabligi ham mana shunda.

Ikkala yo'nalish o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiradi, shu sababli quyida biz har bir yondashuv imkoniyatlarini aniq bir forma (shakl) misolida qarab chiqamiz.

Jamoa ijodiy ish texnologiyasi demokratik maktab sharoitida ayniqsa aktualdir, chunki u gumanistik negizga – o'quvchilarning kichik guruhlardagi o'zaro hamkorligi asosiga qurilgan. U to'rtta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi.

Birinci bosqichda bolalar oldiga umumiy maqsad qo'yiladi. Bu maqsadga erishish uchun ular guruhlariga (3 dan 7–9 kishigacha) bo'linadi. Har bir guruh o'z variantini, bu maqsadga erishish loyihasini taklif etadi. Bu bosqichda faoliyatning umumiy maqsadi asosida bolalarning birlashuvi ro'y beradi va har bir bolada bu faoliyatni asoslash uchun sharoitlar yaratiladi.

Ikkinchi bosqichda taklif qilingan barcha variantlarni muhokama qilish davomida bittasi tanlanadi yoki yig'ma variant yaratiladi. Shundan so'ng har bir guruh vakillaridan ish kengashi saylanadi. Bu kollektiv boshqaruv organi bo'lib, ishning barcha ishtirokchilari o'rtasida vazifalarni, bajaradigan ishlarni taqsimlaydi. Bolalar boshqalarning nuqtayi nazarini tushunish, kelishib olishga o'rganadilar.

Uchinchi bosqichda ish kengashi tayyorgarlik ishlarini amalga oshiradi, guruhlar o'rtasida topshiriqlarni taqsimlaydi, zarur yordam ko'rsatish maqsadida ularning ishini tekshirib boradi. Har bir guruh umumiy loyihani amalga oshirishga o'z hissasini qo'shadi. Bunda boshqalarning muvaffaqiyati bir guruhning ishiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun guruhlarining ishi ular o'rtasidagi raqobatga emas, balki hamkorlik asosiga quriladi. Bu bosqichda bolalar jamoa bo'lib faoliyat yuritish tajribasini egallaydilar, bir-birini tushunish, bir-biriga g'amxo'rlik qilish, yordam ko'rsatishga o'rganadilar, turli xil amaliy ko'nikma va malakalar hosil qiladilar, o'z qobiliyatlarini rivojlantiradilar yoki kashf etadilar.

To'rtinchi bosqichda o'tkazilgan ish muvaffaqiyat va kamchiliklar nuqtayi nazaridan muhokama qilinadi. Har bir guruh o'zining xatti-harakatini tahlil qiladi, kelgusi ishga doir takliflar aytadi. Mazkur bosqich bolalarda o'zining va boshqalarning ishlarini tahlil qilish, ularga o'zgarishlar kiritish, malakalari shakllanishiga yordam beradi. Bolalarda, shuningdek, obyektiv ravishda o'ziga-o'zi baho berish hissi rivojlanadi, chunki bunday muhokamalarda hech qachon bolalarning shaxsiy fazilatlariga daxldor gaplar aytilmaydi.

Jamoa ijodiy ishlar bolalarga har tomonlama ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ularning shaxsiy tajribasini boyitadi, muomala doirasini kengaytiradi. Jamoa ijodiy ishlar texnologiyasini muntazam ravishda qo'llashda har bir bola turli guruhlarda ishtirok etish va turli rollarni (tashkilotchi va ijrochi rolini) bajarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Jamoa ijodiy ishlar texnologiyasi bilan sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish texnologiyasi o'rtasida ba'zi bir o'xshashliklar bor: unda ham, bunda ham modellashtirish, ishlarni amaliy ravishda bajarish va tahlil qilish mavjud. Shu sababli, agar pedagog o'zini tarbiyaviy ishlarni mazkur algoritim asosida tashkil etishga o'rgatsa, uning bolalarni Jamoa ijodiy ishlarga jalb etishi oson bo'ladi.

Umumsinf tarbiyaviy mashg'ulotni tayyorlash. Faraz qilaylik, algoritmik muvofiq bolalar jamoasini o'rganish bosqichi tugallangan va pedagog mashg'ulotning mana shu shaklini tanlagan. Birinchi navbatda mashg'ulotning mazmuni belgilanadi, unga muvofiq mazkur sinf aktual bo'lgan mashg'ulot mavzusi tanlanadi va mashg'ulot g'oyasi ifodalanadi.

Pedagog o'zidan fikran shunday deb so'rashi kerak:

«Mazkur mavzuni ochib berish orqali bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish natijasida nimaga ega bo'lishni istayman?» Umumsinf tarbiyaviy mashg'ulotning mazmuni rivojlantirish, to'g'rilash, shakllantirish vazifalarini aks ettirishi kerak. Ta'lim berish vazifasi umumiy vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Boshqa so'z bilan aytganda: «...haqidagi ma'lumotlarni bayon qilish» tarbiyaviy mashg'ulotning maqsadi bo'lishi mumkin emas (vazifalardan biri bo'lishi mumkin). Pedagog sinfdan tashqari mashg'ulotning maqsadi hamda vazifalarini qanchalik aniq ifodalasa, uning istalgan natijalar haqidagi tasavvuri ham aniq bo'ladi. Faqat shundan keyingina mashg'ulotning mazmunini, metodlarni, vositalarni tanlashga kirishish mumkin. Bunda mashg'ulotning mavzusi, mazmuniga alohida ahamiyat berib, uning maqsadini ifodalashga yondashiladi yoki uni umuman e'tibordan chetda qoldiradigan pedagoglar mahorat bilan ish ko'radilar. Bunday holda tarbiyaviy ishning maqsadga yo'naltirilganligi va tizimliliigi yo'qoladi.

Mashg'ulot modelini tayyorlash natijalari umumsinf tarbiyaviy mashg'uloti konspektida aks ettiriladi. U quyidagi tuzilishda bo'ladi:

Mashg'ulotning nomi.

Maqsadi, vazifalari.

Jihozlanishi.

O'tkazish shakli.

Borishi.

Mashg'ulotning nomida sinfdan tashqari mashg'ulotning mavzusi aks ettiriladi. U faqat aks ettirib qolmay, shakl bo'yicha lo'nda qilib ifodalangan, jozibali bo'lishi lozim.

Vazifalar juda aniq bo'lib, mazkur mazmuni aks ettirishi kerak. Ular universal xarakterda bo'lmasligi lozim. Masalan, «Jonajon shahriga muhabbat uyg'otish» vazifasi o'rniga «Shahar tarixiga qiziqishni oshirish», «Bolalarda shahar yubileyiga tayyorgarlik ishlariga o'z hissasini qo'shish istagini uyg'otish», «Bolalarda o'tmishda shaharning mashhur kishilariga nisbatan hurmat hissi shakllanishiga yordam berish» kabi vazifalarni qo'yish yaxshi bo'ladi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotning jihozlanishiga turli vositalar: qo'llanmalar, o'yinchoqlar, videofilmlar, diapozitivlar, adabiyotlar va boshqalar kiradi. Adabiy manbaning nominigina emas, balki uning muallifi, nashr etilgan joyi va yili ko'rsatilishi kerak.

Sinf mashg'ulotlari ekskursiya, viktorina, konkurs, spektakl va hokazo shaklda o'tkazilishi mumkin. Bunday holda mashg'ulot rejasida uni o'tkazish shakli «Matematik viktorina», «Fantaziyachilar konkursi», «Hayvonot bog'iga ekskursiya» nomi bilan birlashtiriladi. Agar sinf mashg'uloti o'zida bironta o'tkazish shakllarini birlashtirsa, unga bolalarni joylashtirish usuli ko'rsatiladi: aylana, komandalar va hokazo.

Mashg'ulotning borishida uning mazmuni, tarbiya metodlari tavsif etiladi va pedagogning mashg'ulotni birinchi shaxs nomidan batafsil, izchillik bilan bayon qilinishdan iborat bo'lishi yoki (pedagogning shaxsiga qarab) asosiy mazmuni kartochkalarda ifodalangan tezisli plandan tashkil topishi mumkin.

Mashg'ulotning borishini modellashtirishda uning davomiyligi va strukturasi hisobga olish zarur. Sinf tarbiyaviy mashg'uloti olti yoshlilar uchun 15–20 daqiqadan o'n-o'n bir yoshlilar uchun 1–2 soatgacha davom etishi mumkin.

Mazmuni va metodlari bo'yicha xilma-xil bo'lgan sinf mashg'ulotlarini samarali o'tkazish maqsadida uning asosiy to'rt bosqichdan iborat bo'lishiga amal qilish ma'qul:

1. Tashkiliy qism (0,5 – 3 min.).

Pedagogik maqsad: bolalarni o'quv faoliyatidan faoliyatning boshqa turiga ko'chirish, ana shu faoliyat turiga qiziqish, ijobiy his-tuyg'ular uyg'otish.

Tipik xatolar: darsning boshlanishini aynan takrorlash, uning vaqt jihatidan uzoq davom etishi.

Tavsiyalar: tashkiliy qismida kutilmagan holatni yuzaga keltirish, ya'ni topishmoqlar, muammoli masalalar, o'yin davri, tovush yozuvlari va hokazolardan foydalanish; bolalarni uyushtirish shakllarini o'zgartirish; boshqa binoga (matematika, tabiatshunoslik, fizika, musiqa sinflariga, kutubxonaga, maktab muzeyiga) o'tkazish yoki ularni sinfda gilamcha

istida, aylana shaklda joylashtirish bolalarning darsdan tashqari faoliyati samarali ko'chishiga yordam beradi. Bu bo'lajak mashg'ulotga qiziqish, ijobiy his-tuyg'ular uyg'otadi.

2. Kirish qismi (butun mashg'ulot vaqtining 1/5 qismidan 1/3 qismigacha).

Pedagogik maqsad: bolalarni faollashtirish, ularni tarbiyaviy ta'siriga moyil qilish. Pedagog o'zining pedagogik ma'lumoti haqiqatda bolalarning imkoniyatlari, shaxsiy sifatlari, mazkur mavzu yuzasidan xabardorlik darajasi, emotsional kayfiyati, faollik, qiziqish darajasi bilan qanchalik mos tushishini aniqlaydi. Bu bosqichda pedagogdan bolalarni qiziqtirishgina emas, balki mashg'ulotning borishi davomida unga qanday tuzatishlar kiritishi kerakligi va tuzatishlar qanday xarakterda bo'lishini aniqlash talab etiladi. Masalan, pedagog o'zi ma'lum qiladigan narsalarning yangiligiga umid bog'lab, hikoyani planlashtirgan edi, ammo kirish suhbat bolalarning bu muammoni bilishini ko'rsatdi. Bunday holda pedagog hikoyani suhbat yoki o'yin vaziyati bilan almashtirishi zarur. Shunday qilib, kirish qismining maqsadi bolaning shaxsiy tajribasidan mashg'ulot mavzusiga «ko'priq tashlash»dan iborat.

Tipik xato – pedagogning kutilmaganda bolalarning ta'sirlanishidan (bolalar pedagog kutayotgan narsani aytmaligi yoki qilmasligi mumkin) qo'rqqani tufayli bu bosqichni inkor etishi.

Pedagog mashg'ulotning kirish qismini bolalarning faolligiga emas, balki shaxsiy faollik asosiga quradi, teskari aloqani mensimay, bolalarga passiv tinglovchilar rolini beradi. U bolalarning emotsional kayfiyatini e'tiborga olmaydi.

Tavsiyalar kirish qismi mashg'ulotning mazmuniga qarab kirish suhbatidan (bilish), xarakteridan, estetik va axloqiy mashg'ulotlar yoki aqlni «charxlab olish» topshiriqlaridan (viktorina, konkurs va h.k.) iborat bo'lishi mumkin.

Birinchi holatda savollar, ikkinchisida topshiriqlar bolalar uchun qiziqarli bo'lib qolmay, pedagogga o'quvchilarning tayyorlangan materialni idrok qilishga tayyorligi haqida axborot berishi kerak. Kirish qismida pedagog bolalarning bo'lg'usi mashg'ulot haqidagi dastlabki tasavvurlarini shakllantiradi, ularning faoliyatini tashkil etadi, ya'ni baholash sistemasi bilan tanishtiradi, mashg'ulot planini ma'lum qiladi, ularni komandalarga bo'ladi. Baholashning an'anaviy tizimida pedagog aniq mezonlarni berishi, zarur qoidalarni tushuntirishi kerak.

Bolalar komandalarga bo'linganda ularning xatti-harakatlarini raqobat asosiga emas, balki hamkorlik asosiga qurish lozim. Buning uchun quyidagi usul samaralidir: komandalarga to'g'ri javoblar uchun ochkolar o'rniga

qirqib ajratilgan rasmning bo'lakchalari tarqatiladi. Mashg'ulotning yakuniy qismida bu bo'laklardan umumiy rasm yig'iladi hamda ballar miqdori emas, balki umumiy natija muhimligi ayon bo'lib qoladi.

Mashg'ulotning kirish qismida bolalarni faollashtirishning turli-tuman metodlari hamda vositalaridan: muammoli suhbat, rebus, krassvord, topqirlik va chaqqonlikka doir topshiriqlar va hokazolardan foydalanish mumkin.

3. Mashg'ulotning asosiy qismi vaqt jihatidan eng davomli bo'lishi kerak (mashg'ulotning 2/4, 1/3 dan sal ko'proq qismi).

Pedagogik maqsad: mashg'ulotning asosiy g'oyasini amalga oshirish.

Tipik xatolar: bolalarning qisman yoki butunlay passivligida pedagogning faolligi. Metodlarning bir xilligi – faqat hikoya yoki suhbat. Ko'rgazmalilikning yo'qligi, foydalaniladigan tarbiya vositalarining juda ham kamligi. Ongni shakllantirish metodlarining xulq-atvorni shakllantirish metodlaridan ustunligi. Darsning o'quv muhiti yaratilishi. Ibratlilik, o'rganish, nasihatgo'ylik qilish.

Metodik tavsiyalar: agar bolalar maksimal ravishda faol bo'lsalar, mashg'ulotning rivojlantiruvchi, to'g'rilovchi, shakllantiruvchi, tarbiyalovchi, ta'lim beruvchi vazifalarini amalga oshirishda tarbiyaviy samara yuqori bo'ladi. Sinfdan tashqari mashg'ulotda bolalarni faollashtirishda darsdan farq qiladigan alohida emotsional muhitni yaratish birinchi darajali ahamiyatga ega. Masalan, bolalardan qo'llarini ko'tarish, o'rnilaridan turish talab etilmaydi. Intizomni saqlab turish uchun alohida qoidalar joriy qilinadi.

Bir masala yuzasidan bir necha o'quvchi o'z fikrini bildirishi eng qulaydir. Pedagogning nutqida («to'g'ri», «balli», «ofarin» deb baholaydigan fikrlarning bo'lmasligi, baholar o'rniga xayrixohlik, his-hayajon, pedagogning his-tuyg'ularini ifodalovchi, qoyil qolish bilan aytilgan «Ha». «Juda qiziqarli». «Yangi xabaring uchun rahmat», «Shundaymi?», «Buni qarang-a!» kabi iboralardan foydalanish iliq, xayrixohlik muhitining yaratilishiga yordam beradi.

Agar pedagog xulq-atvorni shakllantirishning xilma-xil metodlaridan iloji boricha ko'p foydalansa: vaziyatni, o'yinni tarbiyalovchi mashqlar, o'rgatish, topshiriqlar berish, mashg'ulotga turli xil faoliyat turlari: mehnat, ijodiy ishlar, sport elementlari va hokazolarni kiritisa samaradorligi oshib boradi. Pedagog turli faoliyat turlarini tashkil etishda bolalarni komandalarga birlashtirar ekan, ularni bir-birlari bilan erkin muomalada bo'ladigan qilib joylashtirishi, vazifalarni esa har bir ishtirokchi o'zi uchun alohida emas, balki o'zini jamoaning bir qismi deb his etadigan qilib taqsimlashi kerak. Topshiriqni bajarish uchun vaqt berishda komandaga uni bajarishni

muhokama qilishiga vaqt ajratish va komanda vakilidan tayyorligini soʻrash lozim. Shunday taqdiridagina bolalarda faoliyatning umumiy maqsadi, xilma-xil vazifalar va hamkorlik uchun sabab (motiv)lar boʻladi.

Ongni shakllantirish metodlari bolalarda eʼtiqodning, amaliy yetik (axloqiy) tushunchalarning tarkib topishiga yordam berishi kerak. Bu maqsadlarda hikoya metodini oʻquvchining axboroti, dokladi tarzida oʻzgartirish, tez-tez munozaradan foydalanish yaxshi samara beradi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning quyidagi ommaviy shakllarida bolalarni munozara qoidalariga oʻrgatish lozim:

– Shuni yodda tutingki, bahslashuvchilar haqiqatni izlaydilar, ammo uni turlicha tasavvur qiladilar; bahsda umumiy mazmunni aniqlash, keyin esa qarashlardagi farqni oydinlashtirish va bunga hurmat bilan munosabatda boʻlish kerak.

– Munozaraning maqsadi – tomonlardan birining haqligini aniqlash emas, balki haqiqatni qaror toptirishdir.

– Haqiqatni opponent shaxsiga ayblar qoʻyish bilan emas, balki faktlar yordamida qidirish zarur.

– Soʻzlovchini avval hurmat bilan tinglash, keyin esa oʻz nuqtayi nazarini bildirish lozim.

– Mashgʻulotning yakuniy qismi.

Pedagogik maqsad: bolalarni egallagan tajribalarini oʻzlarining maktabdan tashqi hayotlarida amalda qoʻllashga moyil qilish (xohish uygʻotish) va mashgʻulot qanchalik muvaffaqiyatli boʻlganligini aniqlash. Shunday qilib, yakunlovchi qism pedagogning bolaga boshqa muhitda tarbiyaviy taʼsir koʻrsatishiga imkon beradi.

Tipik xatolar: bu qism umuman inkor qilinadi yoki «Yoqdimi?», «Yangidan nimalarni bilib oldingiz?» qabilidagi ikki savoldan iborat boʻlib qoladi.

Tavsiyalar: dastlabki natijalarni aniqlash uchun krossvord, kichik viktorina, berilgan savolga uzoq oʻylamay tez javob qaytarish, oʻyin vaziyatlari kabi bolalarni qiziqtiradigan test xarakteridagi kontrol topshiriqlar. Bolalarning egallash tajribalarini shaxsiy hayotlarida qoʻllashga doir turlicha tavsiyalar berish. Bu mazkur muammoga doir kitoblarni koʻrsatish, bolalarning mashgʻulotda egallagan bilim, malaka va koʻnikmalarini qoʻllashi mumkin boʻlgan vaziyatlarni muhokama qilish boʻlishi mumkin. Hosil qilingan tajribani qoʻllashga doir bolalarga maslahatlar: ular oʻz yaqinlariga nimalarni gapirib berish, mazkur mavzu yuzasidan nimalar haqida soʻrash mumkin; qayerga borish, u yerda nimalarga eʼtibor berish, qanday oʻyinlar oʻynash, mustaqil ravishda nimalar qilish va hokazo. Yakunlovchi qismda mashgʻulot mavzusini kelgusida yana yoritib

borish zarurati bormi, bor bo'lsa buni qanday yo'l bilan amalga oshirish mumkinligini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Mashg'ulotning yakunlovchi qismidan pedagog bundan keyingi sinf mashg'ulotlarini o'tkazishda bolalar tashabbusini rivojlantirish uchun ham foydalanishi mumkin.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning individual va ommaviy shakllari, agar ularni tashkil etish va o'tkazishda ota-onalar bevosita ishtirok etsalar bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda ancha samarali bo'ladi.

O'QITUVCHI PEDAGOGIK FAOLIYATIDAGI PSIXOLOGIK TO'SIQLAR

Insonda qachonki u o'z g'oyalari amalga oshirsa, o'z qobiliyatlarini ishlatsa va shu odam uchun o'zgacha subyektiv mazmunga ega bo'lgan, o'z ishlariga va o'z qadriyatlarining tizimiga qarshi chiqishga majburlanmaganda hayotdan to'liq qoniqish hissi paydo bo'ladi. Bu tizimning ortiqcha inersiyaligi, ishonchlarini psixik mustahkamligi deb ko'rsatiladi. Boshqa tarafdin, qadriyatlar tizimining harakatchanligi, o'zgaruvchanligi qabul qilingan qonunlarning qadrsizlanishida, har xil xatolarga yo'l qo'yishda aks etadi.

Insonning tashqi va ichki muhitidan chiquvchi ma'lumotlarning hammasi qadriyatlar va to'siqlar tizimi tomonidan kuzatiladi. Psixologiyada psixologik to'siqlar odamga ma'lum bir harakatni muvaffaqiyatli bajarishga xalaqit qiluvchi ichki to'siqlar (istamaslik, qo'rquv, o'ziga ishonmaslik va hakoza) deb tushuniladi. Psixologik qarshiliklar yig'indisini himoyalash uchun ishlatib, tashqi muhitning turli xil akklarini yaratamiz. Har bir odam tashqi axborotlar yig'indisidan uning ruhiy hayoti bilan hech qanday qarshi chiquvchilarni kiritmay, o'zgartiriladigan ma'lumotni tanlaydi. Lekin dunyo haqidagi bu tasavvurning saqlanishi anchagina fikrlash ijodiy jarayoniga to'siq bo'la oladi. Shuning uchun kirib keluvchi yangi ma'lumotlarni buzuvchi, himoyalashning ta'siridan ishonchni ozod qilish degan masala kelib chiqadi.

Qadimdan yangi va noma'lum hodisalar odamlarda xavotir hamda qo'rquv tug'dirgan. Demak, salbiy jinslarning paydo bo'lishi bilan individual va jamlangan onglarning stereotip bo'lishini hayot tarzi, insonparvarning qiziqishi va odatlariga qarashli bo'lgan innovatsiyalar, ularda ko'ngilsiz taassurotlarni paydo qilishi mumkin. Bu hol hayotiy ehtiyojlarining xavfsizlik, himoyalash, o'zini hayotda topish bilan bog'liq. E. Yermolayeva tomonidan innovatsiyada quyidagilar ajratiladi:

- a) juda tez kiritiladigan innovatsiyalar;
- b) juda ko'p kiritiladigan innovatsiyalar (doimiy);
- d) ko'p hajmli (tizimli) innovatsiyalar;
- e) alternativsiz innovatsiyalar.

Psixologik qarshiliklarning shunday transformatsiyasi yangilik kiritishning turli bosqichlarida har bir aniq holatlarda (obyektiv va subyektiv) to'siqlar determinantini o'rganish, uni turli usullar bilan boshqarishning yo'llarini ishlab chiqish va tadqiq etishni talab etadi.

M.V.Kroz uning ko'rinishini ijtimoiy o'rgatishi, aniqrog'i, ushbu o'rgatishning negativ qutbi deb hisoblaydi. Shunday yo'nalish muammoning chegarasini kengaytirishga yordam beradi hamda psixologik to'siqlarda ham salbiy, ham ijobiy qutblarida diqqatni o'rnatadi.

Himoyalani shuning barcha turlari umumiy xususiyati – ularni anglay olmaslik, shuning uchun himoya qiluvchi mexanizmlar ishining faqat tashqi ko'rinishlarini kuzatsa bo'ladi. Odatiy xulq zaiflashadi: qo'rquv, o'ziga ishonmaslik, xavotirlanishlar paydo bo'lishi mumkin. Yoqimsiz ma'lumotni eshitib, inson unga har xil munosabatda bo'lishi mumkin. Tezda uning ahamiyatini kichraytirish (unga istalmas edi) uni bajarilishiga imkoniyat yo'qligini bilib o'z xohishlarining darajasini pasaytirish, uning muvaffaqiyatsizligi omillariga diqqat qilmaslikka urinadi. Psixologik himoaning yaqin o'rganilgan ko'rinishlari maxsus nomlarga ega bo'ldi: inkor etish, susayish, ratsionaliatsiya, chiqarib qo'yish, proyeksiya, indentifikatsiya, begona bo'lish, o'rin almashish va boshqalar.

Pedagogik jasorat o'z xulqining o'zgarishi haqida yechimni qabul qilishida eng muhim onlardan biri bo'ladi. Shu paytda kuch, vositalar, noma'lum munosabatda yutuq munosabati qo'rquv va yangilanish bilan qiziqishlarning aralashmasidan yaratiladi.

Izlanish jasoratining ma'nosi yangilashga qiziqilgining to'g'ri yo'lini tanlashdan iborat. Kirituvchi jasorat yangilanishni yangiliklar kiritishga o'tkazib ko'rishda shunday o'tkazishning istagan va zararli natijalarning solishtirishdan kelib chiqadi.

Pedagog xulqining o'zlashtirish mexanizmlaridan biriga indentifikatsiya qaraydi. Indentifikatsiya – ongsiz ravishda o'zini boshqa odam bilan solishtirish va o'ziga yoqqan hissiyot sifatlarining unga o'tkazilishi. Bu o'z individualligining chegaralarini kengaytirish bilan o'zini boshqa insonga ko'tarib qo'yishi ekan: agar inson o'zining meniga boshqasini kiritisa, uning fikr, his yoki harakatlarini olib keladi. O'zini «namuna» o'rniga qo'yib ko'rib, o'zining «men» markazini umumiy fazoda joylashtirib, u mehrlikni, emmotsiyani, boshqasini o'zidek sezish va uni yaxshiroq bilib olish mumkin, ammo kechinmalarini tushunishi umumiy his va tuyg'ular orqali individualliklarning «qo'shilishini» anglatadi. Indentifikatsiya faqatgina o'zini birortasi bilan solishtirganda emas, balki o'zini ma'lum bir bo'limga, sinfga psixologik tur ko'rinishida ishlanadi. Demak, o'qituvchilar, u yoki bu pedagogik oqimning davomchilari («Zankovetslar» va boshqalar) o'zining

ichki dunyosiga ular tomonidan hurmat qilingan insonlarning qadriyatlarini kiritadilar. Pedagogik oqimga kirilishi o'z hurmatini qadrlash tuyg'usini shakllantiradi, o'z hurmatini oshiradi, chunki o'qituvchi o'zidan baland, zo'r hodisaga qarashlilikini sezadi. Bu o'qituvchiga kuchli bo'lishga, himoyasizlikni yechishga yordam beradi. Identifikatsiya o'zini tarbiyalash vositasi bo'lib, uning asosi boshqa odamlar his va ahvoli bilan emotsional umumiylikni sezishdan iborat.

Turli xil psixologik himoyalarni ko'rib chiqish odamni tinchlantiradi, qadriyatlar tizimini o'zgartiradi va bu tizimga yangilanishni kiritadi: boshqalar esa yangilanishning inkor etishiga yordam beradi va o'z ichki «men»ni saqlab qoladi. Lekin pedagogik yangilanishlarni o'zlashtirishni ijtimoiy himoyasini yaratuvchi ijtimoiy jamoaga, pedagogik jamiyatga bog'liq. Ijtimoiy himoya – bu jamiyatda bor bo'lgan xalq usullari, ular qarama-qarshilikdan va tushunmovchilikdan tug'iladi.

Antipedagogik to'siq – jamiyatshunoslik, psixologik adabiyotda an'anaviy ishlatiladigan tushuncha. Psixologik, ichki shaxsiy to'siq o'qituvchining individual xossalardan va o'zi kiradigan jamoaning ijtimoiy-psixologik belgilaridan kelib chiqadi.

Ularning ko'pchiligi pedagogik yangilash hollarida ishlatiladi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Bizda bu hol bor. Taklif qilinadigan yangilanish bilan o'xshash belgilariga bir misol keltiriladi. Muxollifkar bu holatda farqlarning mazmunini va o'xshashligini inobatga olishi lozim. Ikki taraf bahs san'atiga qarab ish tamomlashga imkoniyat bor.

2. «Bu narsa bizda chiqmaydi». Quyidagi yangilanishni imkoniyatsiz qiluvchi obyektiv sharoitlari, xususiyatlari sanab chiqiladi, ularning hammasi taniqli bo'lmaydilar: agar u «o'ziniki» bo'lsa, tashqi tartibining tushuntirishlari ko'p, agar ichida bo'lsa, joydagi xossasiga e'tibor beriladi («bizda moddiy asos yo'q»).

3. «Bu narsa bizning asosiy muammolarimizni yechmaydi» – qisman yechimlarining tarafdosh fikri. Shu vaqtda innovatsiya haqiqiy rivojlanishning uncha mard va aktiv bo'lmagan o'tkazuvchining xossalriga ega bo'ladi. Agar bosh va ikkinchi darajalikning – interpretatsiya ko'rib chiqiladigan bo'lsa, olib qo'yishining imkoni doimo kafolatlanadi.

4. «Bunisi qayta ishlanishni talab qiladi». Yangilanishda uning haqiqiy kamchiliklari, chetlanishlar, ishlay olinmagan elementlar chiqib turadi, chunki har qaysi loyiha ish rejasi ko'rib chiqishga muhtoj. Lekin shunisi bilan yangilashni «tayyor emas», «oxirigacha o'ylab olinmagan» va agarda ishlatishga juda kerakli xossasiga ega bo'ladi.

5. «Bu yerda hammasi ham bir xil bo'la olmaydi» – ayrim detallarning kesib olishga qarorgohni, shuning uchun yangilashni o'zining pedagogik

potensial bo'yicha «begunoh» bo'ladi, «o'rgatiladi» yoki bu sababdan ma'nosiz bo'lib qoladi yoki seziladigan taassurotlar bo'lmaydi.

Boshqa fikrlar ham bor. Boshqa mualliflar, maktablar tomonidan chiqariladigan quyidagi yangilanishga real alternativa tushuniladi. Shunda opponent parallel innovatorlar bilan raqobat munosabatda qo'yiladi. Bu holat masala yechish muammosini ular orasidagi o'zaro munosabatlar sohasiga o'tkazadi. Yangilashning hayotiy antipedagogik ongning va yangilanishini o'zlashtirish bosqichidagi xulqning kelib chiqishini xarakterlaydi. Boshlangan pedagogik jarayon yangilashga o'tsa, uni to'xtalishida metodlarning yaxshi ishlab chiqilgan to'plami mavjud. Ular orasida eng keng tarqalganlari quyidagilar hisoblanadi:

a) «konkretlashgan hujjatlarining usuli» – yangilashning, uning mazmunining, hajmining keng tarqalishiga yo'l qo'ymaslik;

b) «bo'lakli kiritish metodi» – birgina elementning kiritilishi;

d) «doimiy tajriba metodi» – tajribali situatsiyada sun'iy ushlab olish;

e) «hisobot kiritish metodi» – haqiqiy kiritishning o'zgartirishi;

f) «parallel kiritish metodi» – yangilashning eskisi bilan birga mavjud bo'lishi. Elementlarning ko'pchiligi yangilarga almashmaydi, ammo ular bilan bog'liq bo'lgan yangilanishida harakatlarni davom etadi.

Psixologik to'siq bilan bog'liq bo'lgan yangilanishga qarshilik degan o'zgacha ichki sabablar mavjud. Ular orasida omilkor emasligini ko'rsatishdek, shaxsiy mulkdorsizligidan, o'zini o'zi baholash haqida xavotirlanish, qo'rquvni aytsa bo'ladi. Innovatsiyalarni o'zlashtirmaslik sabablaridan biri rivojlanmagan, yecha olsa bo'ladigan motivatsiyadir, shunda o'qituvchilarda omadsizliklardan qochish usullari bo'ladi.

Yangi o'qituvchi uchun o'zining diqqat-e'tiborini bir joyga jalb etish hamda o'z kechinmalari, o'z xulqiga diqqat qilishi xos. Yosh o'qituvchi yangilanishga mardona intiladi. Kichik yetakchi o'qituvchining qiziqishlari, kechinmalari, ish usullariga o'tadi. O'qituvchining tushunishiga yordam beruvchi, u bilan muloqot o'rnatish, uning rivojlanishiga yordam berishga qaratilgan yangilanishlar o'qituvchini qiziqtiradi. Quyidagi holatda o'qituvchining markazlanishi faqat o'qituvchilarga ma'lum bir ma'noni o'tkazish uchungina emas, balki ijodiy izlanish va shaxsiyatining o'sib borishiga qaratiladi. Ilgariroq ko'rsatilgan pedagogik to'siqlarga ijodiy to'siqlarni kiritisa bo'ladi. Ular quyidagilar:

1. Boshqa odamlarga o'xshash, ulardan o'z mulohazalarda, xulqlarda farqlanmaslikka intilishda ijoddan ustun bo'lishda konformizmga ishtiyoq.

2. Odamlar orasida «oq-qora»(o'zgacha) bo'lishi va tentak ko'rinishidan qo'rquv. Bu ikkala yo'nalishlar o'qituvchining birinchi mustaqil pedagogik xulqida, birinchi ijodiy mulohazalar, pedagoglar, ota-onalar, bolalar orasida kerakli taskinlarni topmasa paydo bo'lishi mumkin.

3. Boshqa insonlarning fikrlarini tanqid qilish va o'zining yoqtirmasligi uchun agressiv (serjahl) ko'rinishdan qo'rquv. Bizning madaniyat sharoitida quyidagi fikr keng tarqalgan: agar odamni tanqid qilsang – o'zingning hurmatsizligingni bildirasan.

4. Biror insonning vaziyatini tanqid qilsak, u tomonidan qasd qilishdan qo'rquv. Odamni tanqid qilsak, u javob reaksiyani qaytaradi. Shu reaksiyadan qo'rqib, o'z ijodiy tafakkuri – rivojiga to'siq qo'yishimiz mumkin.

5. Shaxsiy xavotirlanish, o'ziga ishonmaslik, o'zini salbiy o'zlashtirish («Men konsepsiya»), o'z shaxsiyatini baholashda pasayishlar bilan karakterlangan.

6. Tafakkur rigidlash («yopishqoqligi»)ni Arxangelskiy o'zlashtirilgan bilimlarni ularning xilma-xillik imkoniyatisiz yaxshi tushunib olish degan xossasi deb ko'rib chiqadi.

Odatiy o'ylash qobiliyati ko'pchilik hollarda yangiliklarni qabul qilmasdan, ularni chetlab o'tishga olib keladi. O'qituvchi to'satdan keluvchi yangiliklarni o'zlashtirmay ijodga intilishga urinmaydi. Tafakkurning yangi fikrlarga, o'z xulqining modelida doimiy o'zlashtirishda ixchamligi bo'lmasa, o'zgaruvchan muhitga mos kelolmaysiz. Dunyo o'zgaradi va har qaysi odam birgalikda o'zgarishi kerak, aniq, to'g'ri tasavvurlar o'zgartirib turib vujud bo'lmaydi, deb tushunish kerak. Eskirgan tasavvurlarning buzilishi o'qituvchining kasbiy bilimida kamchilikka aylanadi va u yangi taxminlar bilan to'ldirishga urinadi. Lekin buni o'zgartirish oson emas. chunki o'ylashlar o'rnatilsa, o'z fikrini o'zgartirmaslikka harakat qiladi, shunda paydo bo'lgan qarashlar tasavvurni susaytiradi, ya'ni fikrlarni chiqarganda ozodlikka chek qo'yadi.

O'tmish yondashuvlarining qotib qolish – stereotipi yangi fikrlar va kashfiyotlar yo'lida turadi. Yangi usullar pedagogik jamiyatda qizg'inlik tug'diradi, shu holda o'qituvchi o'z kechinmalarini o'z-o'zi bilan kelishmovchilikka keladi.

Boshqa holda u pedagogik jamoa madaniyatiga moslashadi. Qachonki u «keraklicha» ish qilsa o'zining ruhiy sog'lig'ini asray oladi. Lekin bu yomon ichki kelishmovchiliklarga olib keladi.

Pedagogik xulq – bu o'z individualligining maksimal rivojlanishi, o'zini muhim bo'lishini anglash. O'qituvchi shuni bilishi kerakki: agar inson o'zining axloqiy, intellektual bir butunligini buzsa, o'z qadriyat, g'oyalarning bo'lagidan voz kechsa, demak, u baxtsiz bo'ladi va ozodligini yo'qotadi. Ozodlik boshqalarning hurmatini hamda shaxsini izzat qilishga olib boradi. Agar o'qituvchi o'zining ichki bir butunligiga yetsa, boshqalarga qaraganda, omadi kam bo'lsa ham, lekin o'ziga ishonchi bor, boshqalarning fikriga qo'shilmaydi. Bu hodisa uning ijodiy ishlab chiqarishni aniqlaydi, chunki

u o'z faoliyatining o'zgarishlarini ijobiy qabul qiladi. Chunki qiyinchiliklar bilan mustaqil kurashga tayyor bo'ladi. Jamiyatda shunday maxsus usullar «borki», insonni pedagogik faoliyatni tamomlashga majbur etadi.

Ijtimoiy to'siqlarni shakllantiruvchi operatsiyalaridan biri inson ustidan kulishdir.

Insonni yenga olish uchun uning o'z bo'lmag'urlicini anglab olish va sezdirish kerak. Boshqa operatsiya – ijtimoiy statusni tekshirish, ham yuqori, ham past statuslar o'z afzallik va kamchiliklariga ega. Odatda o'qituvchi afzalliklar va kamchiliklarni qo'shib yozish o'qituvchining statusni aniqlashdan so'ng va statusga binoan amalga oshadi. Bu narsa ko'proq o'zini oqlash va o'z mavqeyini himoyalagan chuqur ehtiyojini bildiradi. Agar o'qituvchi pedagogik jamoaning kutishlariga munosib bo'lmasa, unda uyat hissi – his uyg'onadi. Shu hisni o'qituvchi «Men» konsepsiyaga binoan boshqaradi. Shu konsepsiya shaxsiy tajriba emas, balki madaniyat natijasidir. Eng muhim operatsiyalardan biri – personifikatsiya ijtimoiy harakatlarni aniqlaydi. Personifikatsiya proyeksiya va indentifikatsiya mexanizmlarni bajaruvi, shunda salbiy qiliq va uyg'otishlar qanday sabablarga ko'ra mos bo'lgan o'qituvchiga yo'naltiriladi. Bunday holatda innovator – o'qituvchining salbiy xossalari: urishqoq, mahmadona, kasbiy bilim va ko'nikmalarni uncha bilmaydi, deb o'zidan qo'shib yozadilar.

O'qituvchi pedagog faoliyatni olib borishga xalaqit beradi. Psixologik to'siqlar, «komplekslar»ni yaxshi o'zlashtirib, ulardan kechishi zarurdir. Xulqning va ichki dunyosining standartlashtirishi pedagogning faoliyatida yo'l-yo'riq qonunlari juda katta ahamiyatga egaligi bilan kuzatiladi. Ongda pedagogik faoliyatining shaxssiz tayyor namunalari ko'payib boradi. Biroq jamiyatning rivojlanishi o'qituvchidan pedagogik xulqni, ya'ni aktiv va tizimli ijodni uning pedagogik faoliyatida talab qiladi. O'qituvchining pedagogik faoliyatini olib borishga xalaqit beradigan psixologik to'siqlarni umumlashtirib yangilik kiritishlarga o'qituvchilarning ko'proq qarshilik bildirish sabablarini ta'kidlab o'tish zarur.

1. O'zgarishning maqsadi o'qituvchilarga tushuntirilmagan yashirin gapning ikki ma'nosi xavotir va noma'lumlikni keltiradi. Noma'lumdan qo'rquvi har qaysi yangi usulga o'qituvchilarni yo'llashi mumkin.

2. O'qituvchilar yangilikni kiritishda, rejalashuvda va ishlab chiqarishda qatnashmaganlar.

3. Jamoa an'analarini diqqatga olmaslik o'z ishining odatiy usuli.

4. Yangi usullarga subyektiv munosabati va qo'rquv, status, yo'qotish hislari.

5. Ish hajmining ko'payishi rahbar o'qituvchilar faoliyatida, o'zgarishlarni rejalashtirmasa, shunda qo'rqish paydo bo'ladi.

6. Yangilik kirituvchi initsiatori (g'oyali odam) hurmat va ishonchga ega bo'lmasa. Afsus, ko'pincha o'qituvchilar loyihaga emas, uning muallifiga qaraydi. Agar bu insonning hurmati kichik bo'lsa, pedagog uning qadrliligiga qaramay, bu odamga ishonchsizligi uning g'oyasiga o'tkaziladi. O'qituvchi ijodining muammolarini shaxsiyatning axloqiy munosabatiga qarab mulohaza qilish mumkin. Qancha odamdan foydali g'oyalarni topsa, shunda uning savobiy kuchiga qaratilgan yoki egoistik hislar uni boshqaradi deb uni javobgar deb qo'yadi. Agar ijodiy aktivlik asossiz va absolut qadriyatlarga e'tiborini qaratmasa, demak, bu aktivlik juda xavfli. Yosh o'qituvchining bilim berish va kasbiy faoliyatida ijodiy rivojlanishi uchun ko'p variantli yechimlarga olib boruvchi mashqlarni topmaganlar. M.V.Klarining «Chet el pedagogik izlanishlarda ta'limotning pedagogik modellari» monografiyasida katta sinf o'quvchilari bilan darslarni tashkillashtirish asosiga kiritilgan quyidagi masalalar taqdim etiladi:

- Ijodiy yaratishlarda ichki to'siqlarni yo'qotish. O'quvchilar ijodiy izlanishga tayyor bo'lsa, ularga o'quvchilar va o'qituvchilar bilan o'zaro munosabatlarda o'zida ishonchni o'rnatishga yordam berish lozim. Ular qabul qilinadimi yoki ular ustidan kulinadimi, xavotirlanishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Ular xato qilishdan qo'rqqanligi kerak.

- Ongsiz ishga e'tibor berish. Agar muammo diqqatning markazida joylashmasa ham miyaning ongsiz qismi uning ustida ishlaydi. Ayrim g'oyalar chiqib qolsa, ularni vaqtida eslab qolish kerak hamda tushuntirib, joylashtirib qo'yish va foydalanish kerak.

- Baholashdan chetda yurish. Bu ham o'quvchilarning g'oyalar oqimini kengaytirish, muammoning ustidan erkin fikrlashiga ko'proq vaqt va e'tibor berishga imkoniyat beradi.

- O'quvchilarga ijodiy izlanish va yangi tasavvur – bog'lanishlarning topilishi uchun metafora va o'xshatishlarni ishlatilishiga imkonlar hisobiga kengayadi.

- O'rta va oliy maktablarda ixtirolar bilan ishlash, obrazli tafakkurga chaqirish, obrazlarning yaratilishida va ularni anglashiga yo'nalishida spantallikning birlashuvini kiritadi.

- Aqliy mashqlar imkoniyatini berish. Boshqa holatlarda o'rganishi uchun o'quvchilarga mashqlar beriladi: sababi – yechimni topish holatida ular o'zgacha his etadi, o'zini yo'qotishga yo'l qo'ymaslik.

- Tasavvurning aktivligini qo'llab-quvvatlash bu ijodiy o'ylashning asosi bo'ladi. Tasavvurni, xayolni o'z joyiga qo'yish, ularni nazorat qilish, ichki ozodalik yaratilgandan so'ng hamma gaplar mulohaza qilinadi va ko'rinadi.

- O'zlashtirishni rivojlantirish, sezish, o'zlashtirishni kengaytirish va to'ldirishlarni kuchaytirish.

· O'quvchilarga ularning ijodiy faoliyatida ma'nosining umumiy yo'nalishlarini anglashga yordam berish, o'z imkoniyatlarining rivojlanishini bilish. Shunday tushunchasiz ijodiy faoliyatni kuchaytiradigan mashqlar o'yin deb o'zlashtiriladi.

Sanab o'tilgan maslahatlar erkin muloqotda, fikr almashuvda, ijodiy bahslashuvda, eksperimental ish jarayonida bo'lib o'tishi mumkin. Mashg'ulotlarning tashkil etishda asosiy shart – o'quvchilarni ijodga shaxsiy kiritish. Shunday ta'lim bilim, idroklarni shaxsiyat sohasining shakllantiradi, katta sinf o'quvchilari ochiq, o'zlashtirish va boshqa nuqtayi nazarini tushunishi uchun qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Misol uchun qobiliyatlar rivojlanishining natijasini ko'rib chiqamiz: «Shuni ko'rib o'tish kerakki, hozir nimalarni mulohaza qilsa, hammasi tushunarmikan... Nimaga u o'z qarashiga meni ishontir-moqchi?» Menimcha: «Ma'lumotlarim yetarli emas: to'la-to'kis bilib olsam, yaxshi bo'ladi... Uni nohaq deb bildiryapmanmi yoki ochiqchasiga o'z munosabatimni bildiryapmanmi? Bu hol ishonchliroq va men o'z fikrimni o'zgartirishim kerak»...

O'quvchilarda ijodiy fikrlash rivojlanish metodlarini va mazmunini didaktik izlash bilim va usullarini shakllantirishga olib keldi. Shunday tadqiqiy oriyentatsiya o'quv jarayoniga pedagogik yondashuvni o'ziga kiritadi, shularda ta'limning maqsadi yosh o'qituvchilarda yangi tajriba, kasbiy-tadqiqiy faoliyatning qurollanishining, rolli va o'xshatish modellashlarini o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi.

Bolalar tomonidan mazmunan ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan aniq shakllarga murojaat qilamiz. Ta'lim modellarining misollari orasida biz muammolar tizimi yechimi asosida ijobiy izlanishni tashkillashtirishning bahslashuv va didaktik o'yinlarini ajratamiz.

Sanab o'tilgan modellar orasida biz didaktik va rolli o'quv o'yinlarga alohida joy beramiz.

Didaktik o'yinlar metodikasinnig asosiy lari ularning tizimida o'rnatilgan, shu yerda 4 bosqichni ajratsa bo'ladi.

Oriyentatsiya – o'rnatiladigan mavzuning tasavvuri, o'xshatilishi va uning qoidalar xarakteristikasi, o'yin mulohazalarining bayoni, o'yin o'tkazishda uning sahnalashtirilishi, o'yin mazmunining detallar ishlab chiqarishi katta ahamiyatga ega. Sahna – bu o'yinning tashkiliy va sujetli sxemasi, umumiy reja ekan.

Sahna odatda o'z ichiga shunday bilimlarni kiritadi: qiyin holatning tasviri, o'yin atributlari; o'yin harakatlarini, o'yin qatnashuvchilarining repertuarini ishlab chiqish; o'yin qatnashuvchilari uchun metodik ko'rsatkichlarni yaratish.

Savol va topshiriqlar

1. Jamiyat va shaxs bir-biri bilan qanday munosabatda bo'ladi?
2. Tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida o'sib kelayotgan yosh avlodning jamiyat hayotida qanday tarixiy jarayon hisoblanadi?
3. Tarbiya – ijtimoiy hodisa sifatida uning mohiyatini ifoda etuvchi asosiy belgilar bilan ifodalanadi. Siz bu fikrga qanday qaraysiz?
4. «Tarbiya» kategoriyasi tushunchasini ochib bering.
5. «Didaktik tizim» tushunchasini izohlang.
6. Ta'lim muassasasining tarbiyaviy vazifasi qanday?
7. «Tarbiyaviy ta'sir» ko'rsatish sifati qanday?
8. Innovatsion maktabning tashkil topishida didaktik qarashdagi texnologiya nimadan iborat?

IX BOB. KREATIVLIK

KREATIVLIK MUAMMOSIGA ZAMONAVIY YONDASHISH

Pedagogika va psixologiyada kreativlik xususiyatlarining rivojlanishi. Ta'limning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishi va takomillashuvini innovatsiyalarning turli shakllarini tadqiq etmasdan, bugungi kunda mutaxassisni nimaga va qanday tayyorlashga bir qator yondashuv va munosabatlarni tamoyillar asosida ko'rib chiqmasdan amalga oshirish mumkin emas. Shu bilan birgalikda, oliy maktab pedagogik tarkibi jadal rivojlanayotgan innovatsion ta'lim tizimi, birinchi navbatda, ijodiy qobiliyatlar, ijod potentsiali, o'z-o'zini ijodiy rivojlantirish, ijodiy individuallik va kreativlik talablariga javob berish muammosiga katta e'tibor qaratishi lozim.

Shaxsning ijodkorlik imkoniyatlarini tadqiq etishga bo'lgan ijtimoiy buyurtma kreativlik muammosining alohida muhimligini belgilaydi. Shaxsiy ijodkorlikning dinamik (rivojlanib, o'sib boruvchi) tasniflanishi kreativlik va uning asosiy qirralarida aks etadi. Biroq, kreativlik psixologiya va pedagogika fanlarining belgilangan ilmiy kategoriyasi bo'lsa-da, «kreativlik» tushunchasi tegishli lug'atlarda munosib differensiyasini topmagan va ijod psixologiyasida yetarlicha aniqlanmagan. O'nlab ilmiy ishlarda ilmiy ijodkorlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o'ziga va na unga taalluqli bo'lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to'xtam mavjud emas.

Hozirda, rivojlanishning zamonaviy bosqichida, mazkur an'analari inson faktorining hal qiluvchi o'rnini belgilamoqda. Bu faktorning fenomenologiyasida ijodkorlik uning belgilangan asosini tashkil etadi.

Ijodkorlik inson fenomenining namoyon bo'ladigan yuksak ko'rinishi bo'lishiga qaramasdan, u eng kam o'rganilgan soha bo'lib, tabiiy qonuniyat sifatida qaraladi. Gap shundaki, ijod jarayonining tabiatidagi tasodifanlik, kutilmaganlik avval-boshdanoq uning zamonaviy ilmiy metodlarda o'rganish imkoniyatini chegaraladi. Zamonaviy fan imkoniyatlari ijodkorlik tabiatining mavjud dalillar va savollarni to'liq qoniqtiradigan universal tushuntirish imkoniyatiga ega emas. Hozirgacha Vatanimizda va chet ellarda to'plangan bilimlar ijodkorlik psixologiyasi mohiyatini tushunishga yetarli emas.

Jamiyat taraqqiyoti tajribasida psixologiya va pedagogikada ijodkorlik psixologiyasi sohasida izlanishlarni faollashtirish taqozo etilmoqda, chunki ijodkorlik natijalari faqatgina shaxsiy tasnifga ega emas, balki ijtimoiy ahamiyatga egadir.

Psixologiyada ijod va ijodiy faoliyat muammosini o'rganuvchi alohida yo'nalish – ijodkorlik psixologiyasi yo'nalishi vujudga keldi.

Ijodkorlik psixologiyasining asosiy maqsadi psixologik qonuniyatlar, ijod jarayoni mexanizmi va kreativ (*creativity* – inglizcha *ijodiy*)likni o'rganishdan iborat. Ijodkorlikka rivojlanishning asosiy mexanizmi sifatida (N.V.Kipiaki, A.M.Matyushkin, Y.A.Ponomarev, I.N.Semenov va boshqalar) qaraladi va uning o'rganilishi M.S.Bernshteyn, V.S.Bibler, V.N.Shkin, O.K.Tixomirov, E.G.Yudin va boshqalar nomi bilan bog'liq.

Psixologik ijodkorlikning kreativlik deb nomlanuvchi yo'nalishi ustida g'arb olimlari: J.Gilford, S.Liding, V.Smit, D.Xalperik va boshqalar izlanishlar olib borishgan.

Chet el olimlarining kreativlik tushunchasi haqidagi izlanishlarini tahlil qilib va umumlashtirib R.Xameni yozadi: «Kreativlik o'zida yangicha yo'sinda amalga oshirilgan o'zlashtirish to'liqlinini (Makkelif), yangicha aloqadorliklarni aniqlash (Kyubi), yangicha munosabatga kirishish (Rodjers), yangiliklar (Lassuel), ongning yangicha e'tirozlariga sabab bo'luvchi faoliyatidir».

Ko'pchilik tadqiqotchilar kreativlikni belgilashda shaxsning o'ziga xosligi va xususiyatlariga e'tibor qaratadilar. J.Gilfodning fikricha, kreativlik va ijodiy imkoniyat qobiliyatlar va ijodiy tafakkurga ta'sir etuvchi omillar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi.

E.Torrens kreativlikni yechimlarni topishda bilimlarning yetarli bo'lmasligi muammosi, qiyinchiliklar qarshisidagi indentifikatsiya va taxminlarning shakllanishi, yechimlarning topilish jarayoni deb qaraydi. (E.Torrens, 1996-y.)

Ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-boshqaruv darajasida – ijodkorlik determinantlari borasida jamoa ijodkorligini boshqarishda tashkilotchilik

muammosi, jamoaning funksional-rolli differensiyasi yoʻnalishi boʻyicha izlanishlar olib borilmoqda.

Kreativlik ijodiy tafakkurning yangi mahsuli yoki natijasi ekanligi yuzasidan bahslar hali ham ayrim olimlar orasida davom etmoqda.

Boshqa izlanishlarda ijodkorlikning yangilik yaratishdagi yetakchiligi taʼkidlanadi.

V.Arteymning izlanishlarida ijodkorlik uning mahsuli boʻlgan obyektga qarab baholanmaydi, deb aniq munosabat belgilanadi. Uning fikricha: «Kreativlik bilim, faoliyat va istakning uygʻunligi».

Psixologiyada evristika muammosini oʻrganish borasida V.N.Pushkin: «Evrestik faoliyat shunday psixologik jarayonki, uning yordamida muammo yechimi topiladi, yangi yondashuv ishlab chiqiladi, evrestik faoliyat deb ataluvchi qandaydir yangilik yaratiladi», degan edi.

Kreativlikning tasniflanishi kasbiy faoliyat jarayonida namoyon boʻluvchi psixik komplekslar tarkibi bilan bogʻliq.

Kreativlikning psixologik izlanishlardagi asosiy urgʻu muammolarni mustaqil yechishga undovchi, oʻziga xos katta hajmdagi gʻoyalarni yuzaga keltiruvchi va ularning oʻziga xos yechimini topishga asos boʻluvchi individning intellektual va shaxsiy qobiliyatiga qaratiladi.

Kreativlik istisno etilgan va gʻaroyib fenomen deb baholanuvchi dastlabki izlanishlardan farqli ravishda, zamonaviy izlanishlarda kreativlik har bir shaxs ega boʻlishi mumkin boʻlgan individ kompleksi sifatida qaralmoqda. Bu kreativlik muammosiga turlicha yondashuvlarda namoyon boʻladi: u faqatgina har bir shaxs ham qoʻlga kirita olmaydigan natija emas, balki refleksi va oʻz-oʻzini baholashdagi shaxsning yangicha sifat koʻrsatkichi deb oʻrganilmoqda.

Kreativlik haqidagi koʻpgina izlanishlarda har bir shaxsda u yoki bu daraja va miqdorda mavjud boʻladigan psixologik kreativlik mexanizmi va ijodkorlik imkoniyatlariga asosiy eʼtibor qaratilmoqda.

Anʼanaviy psixologiya va pedagogikada kreativlikka shaxs kategoriyasi sifatida qaraladi, uni talqin qilish, aniqlash borasida bahslar yuritilgan: Kreativlik tafakkur sifatida (J.Gilford, Y.K.Tixomirov) yoki intellektual faollik sifatida (D.B.Bogolevskaya, L.B.Yermolayeva-Tomina), yoki shaxs sifatlarining integratsiyalashuvi (Y.A.Ponomarev va boshqalar). Biroq oliy taʼlim pedagogikasi (kreativ androgogika)da uning sifat koʻrsatkichini va namoyon boʻlish darajasini aniqlashning oʻzi yetarli emas. Kreativlik biryoqlama salbiy jihat sifatida qaralsa-da, uning muammolar tizimi umumlashtiriladi va bir butunlikni tashkil etadi, bu ayniqsa oʻzida taʼlim jarayonida ijodiy taʼlim va tarbiyani mujassamlashtirgan shaxsning ijodiy imkoniyatlari va kreativlikni rivojlantirish jarayonida oliy

maktab pedagogikasiga taalluqlidir. Shu sababli, kreativlikni rivojlanish imkoniyatlarini kreativ ta'lim va tarbiya jarayonida shaxs kategoriyasi sifatida o'rganish zarur.

O'tgan asrning 60–70-yillari pedagogikada kreativlik muammosini o'rganishda keskin burilish yillari bo'ldi. Shu davrda ijodiy izlanuvchan pedagog-novatorlar paydo bo'ldi. Novatorlar erishgan natijalar nafaqat pedagoglarni, balki psixologlarni ham qiziqtirdi, ular ijodiy ta'limining psixologik tomonlarini, ijod faoliyatining pedagogik psixologiyadagi mexanizmini o'rgandilar. (V.V.Davidov, I.A.Zimnaya, N.V.Kuzmina, A.M.Matyushkin, Y.A.Ponomarev, R.A.Mavlonova rahbarligidagi pedagogika fanlari ilmiy-tekshirish instituti jamoasi.)

Kreativlikni o'rganishda amalga oshirilgan nazariy tahlil uni kasbiy anrogikada qo'llashning umumiy qonuniyatlari va o'ziga xosligini aniqlash imkonini beradi (V.M.Morozov). Biz kreativlikning tizimlilik tuzilishidan kelib chiqib, unga shaxsning o'ta intellektual-evristik jihati sifatida emas, balki shaxsni qadrllovchi, tabaqalashtirilgan ta'lim sifatida qaraymiz.

Kreativlik – shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi.

Kreativlik jarayonini tashkil etish va boshqarishning murakkabligi shundaki, bunda ijodiy individuallikning nafaqat ongli, balki ongosti tushunchalari paydo bo'ladi.

Kreativlik tabiatini o'rganish muammosiga bag'ishlangan psixologo-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilib, odatda, intellektual kreativlik masalasiga duch kelamiz. Ijtimoiy va aniq pedagogik kreativlik sohasida amalga oshirilgan izlanishlar ancha kam. Ko'p hollarda tadqiqotchilar pedagogik kreativlik emas, balki pedagogik muloqot jarayonini o'rganadilar, o'qituvchi va o'quvchi muloqotini yaxshilash uchun tavsiyalar beradilar.

Pedagogika va psixologiyadagi kreativlik tabiati uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillar haqidagi yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirib quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: bu xodisa yaxlit va tuzilish jihatdan tushunish uchun yagona tushunchalar tizimi mavjud emas.

Inson shaxsida kreativlik, uning darajasi, tuzilishi va o'ziga xosligi inson individualligining boshqa bir jixatini o'zlashtirish jarayonining

o'ziga xosligi va shaxsiy xususiyatlari bilan uzviy bog'liq. Bu bog'liqlikni tasniflash kreativlik hodisasining kelajakda o'rganilishi kutilayotgan yangi bir yo'nalishidir.

Kreativlikni intellektual kreativlik va ijtimoiy kreativlikka bo'lish mumkin. Intellektual kreativlik analiz va sintezdan iborat. Analiz va sintez qila olish qobiliyati umumiy intellektning asosidir.

Ijtimoiy kreativlik o'zida kasbiy kreativlikni mujassamlashtiradi, uning ko'pgina turlari orasida pedagogik kreativlik ham mavjud.

Pedagogik kreativlik kommunikativ va didaktik kreativlikdan iborat. Didaktik kreativlik o'zida intellektual boyliklarga intilish va shu bilan birga novatorlik qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Kommunikativ va didaktik kreativlik pedagogik qobiliyatning asosi hisoblanadi. Pedagogik qobiliyat ijodkorlik qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi va o'z navbatida ichki sezimni rivojlantiradi. Pedagogik ijodkorlik qobiliyati, ichki sezim va umumiy intellekt kesishganda ijod mahsuli yaratiladi.

Kreativlikni rivojlantirishda kreativ insonlarni kreativmas insonlardan farqlovchi hissiy chizgilari (o'z-o'ziga ishonch, tajovuzkorlik, o'z-o'zidan qoniqish, ijtimoiy cheklovlarga va boshqalar fikriga toqatsizlik) individning shaxsiy o'ziga xosligi katta ta'sir ko'rsatadi.

Kreativlikning motivlikka munosabatini belgilovchi yagona qarashlar tizimi mavjud emas. Nuqtayi nazarlardan biriga ko'ra, kreativlikda individ o'z imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanadi, faoliyatning yangi qirralarini izlab topadi. Boshqa bir nuqtayi nazarga ko'ra kreativ kishilarni motivlashtirish, tavakkalchilikka intilish, o'z imkoniyatlari chegarasini aniqlashga intilishdir. Aytish mumkinki, har ikkala nuqtayi nazar ham o'zida kreativ insonlarning, motivlashning individual variantlarini mujassamlashtirgan.

Innovatsion faoliyatning o'ziga xosligi muammosida o'qituvchi xulq-atvorining o'quvchilar kreativligini rivojlantirish bilan bog'liq tasniflanishi katta ahamiyatga ega, chunki oxir-oqibat bilim emas, balki rivojlanish omili bo'lgan alohida malakalar va ularning xulq-atvoriga qo'llanishi muhimdir. Torransning izlanishlarida o'qituvchi xulq-atvorida bolalar kreativ rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi dalillar keltirilgan: ijodiy fikrlash qiymatini baholash, bolalarni atrofda qo'zg'atuvchi omillarga nisbatan sezuvchanligini oshirish, obyekt va g'oyalarni erkin boshqara olish, ijod jarayoni haqida konstruktiv axborotni rivojlantirish, tanqidchilikni emas, konstruktiv tanqidni rivojlantirish, o'z-o'ziga hurmatni orttirish, baholanishdan qo'rqish hissining oldini olish va boshqalar.

Shunday qilib, potensial kreativlik imkoniyatlar kreativligidir.

Imkoniyatlar kreativligi amaldagi kreativlikka – dolzarb kreativlikka aylanishi uchun, dastlabkisi ma'lum faoliyatda o'zlashtirilishi uchun ichki o'zgarishlarga duch keladi.

Shunday qilib, kreativlik o'zlashtirilganlar asosida rivojlantiriladi, keyinchalik o'zgartirishlar kiritiladi, o'qituvchining mavjud tajribasi qayta tuziladi. Pedagogik innovatsiyalarga moslashishdan toki qayta tuzishgacha bo'lgan yo'l o'qituvchi innovatsion faoliyati dinamikasi asosini tashkil qiladi.

Olimlar pedagogik mahoratning quyidagi uch darajasini ko'rsatadilar: birinchi daraja – bu sinf bilan elementar munosabat. O'qituvchi teskari aloqani qo'llaydi, uning natijasiga ko'ra o'z harakatlarini belgilaydi. Lekin bu faoliyat metodik qo'llanmalar yoki boshqa o'qituvchi tajribasi asosida amalga oshiriladi. Ikkinchi daraja – dars faoliyatini, uning rejasini tuzishdanoq optimallashtirish bosqichidir. Bunda ijodkorlik o'qituvchiga ma'lum maqsadni amalga oshirishda mazmun, metod va shakllarni to'g'ri tanlashdan iborat. Uchinchi daraja – evristik. Pedagog o'quvchilar bilan jonli muloqotning ijodiy imkoniyatlarini qo'llaydi. O'qituvchining eng yuqori darajadagi ijodkorligi uning to'liq mustaqil faoliyatida namoyon bo'ladi. U avvaldan ma'lum bo'lgan usullarni qo'llashi mumkin, ammo u ularga o'zining shaxsiy munosabatini qo'llaydi. O'qituvchi ijodiy individualligi, tarbiyalanuvchining shaxsiy o'ziga xosligi, ta'limning aniq darajasi, tarbiyalanganlik darajasi, sinfning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda zaruriyat taqozo etgan darajada ish olib boradi. Tayyor tavsiyalarni amalda qo'llash darajalari ham farqlanadi: optimallashtirish, evristik daraja, shaxsiy, mustaqil.

Tadqiqotchilar fikrlari orasida kreativ insonlar boshqalarga taqlid qilmasdan, o'zlari tanlagan faoliyatlarining barcha bosqichlariga ijodiy yondashadilar, degan fikr yetakchilik qiladi.

O'rganilayotgan muammoga V.A.Slastenin, L.S.Podimova, N.M.Gnatko qarashlari bilan birgalikda, kreativlik mexanizmini ikki turga bo'lishni taklif qiladilar: potensial va dolzarb. Potensial kreativlik – muallifning fikricha, kreativlik faoliyatidir, individumni potensial joylashuvi ma'lum tashqi sharoitlarda dolzarb kreativlikni egallashning asos tayyorgarligini tashkil etadi; potensial kreativlik – ijodning subyektiv zarur sharoitidir.

V.A.Slastenin, L.S.Podimova potensial kreativlikning dolzarb kreativlikka izchil taqlid qilish mexanizmi orqali o'tishi muammosiga o'ziga xos yondashganlar. Shunday qilib, kreativlik taqlid qilish, nusxa ko'chirishdan ijodiy nusxa ko'chirish, taqlidiy ijod va haqiqiy ijodkorlikka tomon rivojlanib boradi. Tabiiyki, barcha o'qituvchilar ham kreativ rivojlanishning barcha bosqichlari bilan tavsiflanmaydilar: ba'zilar tayyor metodik tavsiyalardan nusxa olib, faqat birinchi darajaga erishadilar;

ikkinchilari to'liq konsepsiya va tizimlarga ega bo'lmasdan turib, ba'zi metodik usullarga o'zgartirishlar kiritadilar, uchinchilari ma'lum g'oya asosida to'liq mazmun, metod va shakllarni ishlab chiqadilar; to'rtinchilar esa ta'lim va tarbiyada o'zlarining konsepsiya va metodikalarini tavsiya etadilar. Yuqoridagilarga munosabat bildirib aytish mumkinki, dastlabki uchtasi taqlid bosqichida bo'lib, to'rtinchisi ularga qarama-qarshi tarzda ijod bosqichida.

Intellektual faollik darajasini belgilangan kreativlik bosqichlari bilan taqqoslash, ikkala yo'nalish orasida ma'lum mutanosiblikni, innovatsion-pedagogik faoliyatning bir necha bosqichda takomillashib borish darajasidagi tushunchalarni aniqlashga imkon berdi. Pedagog faolligining borgan sari yuqoriroq darajadagi faoliyatga ko'tarilib borishi kelajakda innovatsion ta'lim strategiyasini tashkil qilishni belgilaydi.

KREATIVLIK VA UNING TASHXISLANISHI

XX asrning 50-yillarida ingliz-amerika psixologlarining izlanishlarida kreativlik deb nomlanadigan (*creatio* – lotincha «yaratish») alohida qobiliyatlarni o'rganish katta ko'lamda qiziqish uyg'otmoqda. Kreativlikni alohida o'rganishga an'anaviy intellekt testlari bilan muammoli vaziyatni muvaffaqiyatli yechimi orasida aloqaning mavjud emasligi haqidagi ma'lumotlarning aniqlanishi turki bo'ldi.

E'tirof etilishicha, kreativlik ma'lum masalaning yechimini topishdagi axborotlarni tez sur'atda foydalanish qobiliyatiga bog'liq.

Bu qobiliyatni kreativlik deb atadilar va uni intellektga bog'liq bo'lmagan holatda – individning yangi tushunchalar yaratuvchi va shakllantiruvchi yangi malakalari sifatida o'rgandilar. Kreativlik shaxsning ijodiy ko'rsatkichlari bilan belgilanadi.

Kreativlikni o'rganish asosan ikki yo'nalishda olib boriladi:

1-yo'nalish. Kreativlikni intellekt bilan bog'liqligi masalalarini va kreativlik bilan bog'liq ta'limiy jarayonlarni belgilashni o'rganadi.

2-yo'nalish. Shaxs va uning psixologik o'ziga xosligi kreativlikning asosiy aspekti ekanligi, shaxsga va uning motivatsion chizgilariga urg'u berilishi bilan tasniflanadi.

Intellektual faktorlarni ta'limiy yo'nalishlarda qo'llanilishida, kreativlikni o'rganish, baholashda 1950-yillarda J.Gilford va uning izdoshlari 16 ta gipotetik intellektual qobiliyatni ajratib ko'rsatadilar.

Ular orasida: fikrning turiligi (ma'lum vaqt oraliqidagi g'oyalarning miqdori), fikrning (bir g'oyadan ikkinchisiga ko'cha olishi) originalligi (o'ziga xoslik – umume'tirof etilgan qarashlardan farq qiluvchi g'oyani

yaratish qobiliyati), qiziquvchanlik (o'zini o'rab turgan olamdagi muammolarga ta'sirchanlik), gipoteza qilish qobiliyati (reaksiyaning stimuldanda mantiqiy mustaqilligi), fantastikali (stimul va reaksiya orasidagi mantiqiy bog'liqlikning borliq hayotdan butunlay uzilganligi).

Gilford bu faktorlarni tafakkurning divergentligi degan umumiy nom bilan ataydi, u muammo endigina aniqlanayotgan, uning yechimini avvaldan belgilangan, aniq yechimi bo'lmagan vaqtda yuzaga keladi, deydi (ma'lumotga tayanuvchi yoki muammoning «mos» yechimi, konvergent tafakkurdan farqli ravishda).

Tafakkurni ifodalovchi qobiliyatlarni o'rganish, an'anaviy intellektual testlar vositasida kreativlikni maxsus testlar vositasida aniqlash jarayonida olimlar qarama-qarshi natijalarga erishdilar. Bu natijalar asosida intellekt va kreativlik o'zaro aloqadorligi haqida xulosa chiqarish mumkin emas.

Agarda testlar o'rniga kreativlikni baholovchi boshqa mezon – bajaruvchi faoliyat yuritgan ish turi bo'yicha erishilgan ijodiy muvaffaqiyatlar bo'yicha baholanganda, intellekt va kreativlikni belgilovchi bir xil mazmunga ega natijaga erishish mumkin.

Ba'zi olimlar kreativlikka intellektning an'anaviy testlar yordamida o'lchab bo'lmaydigan bir qirradi sifatida yondashdilar. Ular kreativlikni orttirilgan tajribaga, o'zlashtirilgan bilim va malakalar tasnifiga, qurshab turgan muhitning o'ziga xosligiga bog'liqligini ko'rsatadigan tajribalar natijasiga tayanadilar. Barcha mamlakatlarda tabaqalashtirib o'qitiladigan sinf o'quvchilari kreativlik testlari bo'yicha o'zlarining oddiy sinflarda o'qiydigan tengdoshlariga nisbatan yaxshiroq natijaga ega bo'lganlar.

Kreativlikni baholashda atrof-muhitning bog'liqligi uning shakllanishi va rivojlanishida namoyon bo'ladi. Avvalo qanday muhitdan rivojlantiruvchi ta'sirni kutish mumkin? Tadqiqotlarning natijasiga ko'ra, muhit, axborotning ko'pligi va erkinlikni ta'minlanganligi bilan ajralib turishi kerak.

Tadqiqotlar kreativlikning rivojlanishida shaxsiy qobiliyatning katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kreativlikni o'rganishda yakka yondashuvda asosiy e'tibor hissiy va motivatsion omillarga qaratiladi. Kreativlik bilan bog'liq shaxsiy qobiliyatlar munosabatida turli tadqiqotlar natijasida o'zaro moslik mavjud. Kreativ individlarni kreativmaslardan ajratib ko'rsatadi. Ba'zilar shaxsiy o'ziga ishonch, tajovuzkorlik, o'z-o'zidan qoniqish, ijtimoiy cheklolarga va o'zgalar fikriga toqatsizlik aniqlangan.

Ba'zi psixologlarning fikricha, kreativ bo'lmagan tipdan farqli ravishda, kreativlikka ega bo'lgan kishilar tipi mavjudligini bildiradi. Shunisi qiziqi, bolalar va yoshlar orasida o'tkazilgan tadqiqotlar yosh va balog'atga yetgan individlarda kreativlik belgilari bir xil bo'ladi.

Shunday xulosa chiqarish mumkinki, kreativlik shaxsiy qobiliyatlarga asoslangan holda bolalarning juda kichikligidan bashoratlash mumkin.

Ijodiy muvaffaqiyatlar asabbuzarliklar bilan bog'liq degan nuqtayi nazar ham mavjud. Shu bilan birga bu fikrga qarama-qarshi ravishda yuksak kreativ individlarda katta ruhiy kuchga egalik, tashqi muhitga, turli nizolarga nisbatan muvozanat mavjudligini ta'kidlovchi tadqiqotchilar ham mavjud.

Kreativlikni motivatsion tasniflashga aloqador yagona qarashlar mavjud emas. Bir nuqtayi nazarga asosan kreativ individ o'z imkoniyatlaridan iloji boricha samarali foydalanishga, yangi, o'zlashtirilmagan yangi faoliyat turlarini bajarishda o'z qobiliyatlarini ishga soladi. Boshqa nuqtayi nazarga ko'ra kreativ bolalar motivatsiyasi tavakkalchilik, o'z imkoniyatlari chegaralarini aniqlashga asoslanadi.

Yuqorida aytilganlarni xulosalab aytish mumkinki, intellektual qobiliyatlarning kreativlik deb nomlanadigan alohida tipi bugungi kun psixologlari tomonidan keng ko'lamda o'rganilmoqda.

Kreativlik va shaxsning ijodiy muvaffaqiyatlari orasida bog'liqlik mavjud, ammo uning xususiyatlari oxirigacha o'rganilmagan.

Kreativlikni intellektning an'anaviy tushunchalaridan ajratib olish mumkin emas.

Kreativlikning birinchi testlari J.Gilford tomonidan XX asrning 50-yillarida yaratilgan.

Bu metodika Janubiy Kaliforniya testlari nomi bilan mashhur bo'lib, Gilford tomonidan divergent deb nomlangan fikrlashning o'ziga xos tipini belgilashda foydalanilgan 14 ta testdan iborat bo'lgan. Ularning dastlabki 10 tasiga og'zaki javob, 4 tasiga tasvir orqali javob talab etilgan.

Verbal vazifalardan namunalar:

1. So'zdan foydalanishda yengillik. Berilgan tovush ishtirokida so'z yozing («o» – oy, ro'mol, oddiy, muddao va b.);

2. Assotsiatsiyalardan foydalanishdagi yengillik. Berilgan so'zga mazmunan o'xshash so'zlarni yozing («og'ir», «zilday», «vazmin» va boshqalar).

Tasviriy vazifa namunasi.

Bezash. Ma'lum obyektlarni detallar bilan to'ldirish.

Gilford testlari kattalar va yuqori sinf o'quvchilariga mo'ljallanadi. Ularni standartlashtirish katta bo'lmagan tanlovlarda, ishonchlilik ma'lumotlari bir testdan ikkinchisiga o'tganda o'zgarib turadi va to'liq qoniqarli bo'lmaydi. Psixologlar fikricha, ijodiy qobiliyatlarni baholashda Gilford testlari samaraliligi kam bo'lishiga, bilimlar natijasini bilish shaxsiy xarakterlarga emas, balki bajarish tezligiga asoslangani sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, vazifalar ma'lum sondagi javoblarni belgilanmagan, bu natijani aniq hisoblash imkonini bermaydi. Shu sababli, ba'zi

psixodiagnostlar kreativ testlar uchun va ularning natijalarini aniqlashda ishonchli mutaxassislarni jalb etishni taklif qiladilar.

Hozirgi kunda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda E.P.Gorrensning kreativlik testlaridan foydalanilmoqda. Gorrens test topshiriqlari ijodiy jarayon modeli sifatida ko'rib, unda talabalarning bilimi natijaga emas, balki ijod jarayoniga qaratilgan.

1966-yilda angliyalik olimlar tomonidan Verbal shakldagi test ishlab chiqilgan. Bu test 5 yoshli bolalardan boshlab kattalarga mo'ljallangan. U 7 ta topshiriqdan iborat. Dastlabki uchta topshiriq bir rasmga bog'liq savollardan iborat: rasmga ko'proq savollar tuzish, tasvirlangan narsalarning nima uchun chizilganligi va oqibatlari haqida iloji boricha ko'proq sabablarni ko'rsatish so'raladi. 4-topshiriqda berilgan rasmdagi o'yinchoqlar o'rnini iloji boricha ko'proq va qiziqroq tarzda almashtirish so'raladi.

5-topshiriqda turmushda ishlatiladigan predmet (masalan, bo'sh quti) dan ko'proq noodatiy va qiziq foydalanish usullarini o'ylab topish so'raladi.

6-topshiriqda shu predmet haqida noodatiy savollarni o'ylab topish so'raladi.

7-topshiriq noodatiy vaziyatning yechimlari haqida iloji boricha ko'proq izlanishlar olib borish so'raladi. Har bir subtekstni bajarish uchun ma'lum vaqt ajratilgan.

Test guruhli bo'lib, ikki parallel «A» va «B» shaklga ega. Testlarning asosiy ko'rsatkichi vazifani bajarishdagi tezkorlik, serqirralik, o'ziga xoslik va mukammallikka qaratiladi.

Bu test rus tiliga tarjima qilingan bo'lib, uning ishonchliligi, vatanimizdagi standartlarga javob berishi haqida ma'lumotlar mavjud emas. Shuning uchun Torrensning testlaridan yurtimizda faqatgina tadqiqot maqsadlarida foydalanish mumkin.

Torrensning Verbal shakldagi testlarini rus tiliga N.B.Shumakov, E.I.Sheblanova, N.P.Sherbalar tarjima qilgan va o'zlari o'tadigan darslarga moslashtirganlar.

Bu test 3 ta quyidagi topshiriqdan tuzilgan bo'lib, 5–18 yoshli bolalarda qo'llash uchun mo'ljallangan.

1-topshiriq – «Rasm chizib bering». Vazifa bajaruvchi qog'oz varag'iga rangli qog'ozlardan qirqib olingan noto'g'ri shakldagi qog'ozni yopishtirish va uning asosida o'ziga xos rasm chizish so'raladi.

2-topshiriq – «Rasm chizishni tugallang» – test daftarlarida berilgan tugallanmagan shakllar rasmi asosida noodatiy sujet, rasm va predmetni chizib berish so'raladi.

3-topshiriqda parallel chiziqlar va doiralar asosida iloji boricha ko'proq predmetlarni chizib berish so'raladi. Har bir subtestning bajarilishi uchun

10 minut vaqt ajratiladi (javoblarning tahlili tezkorlik, ko'p qirralik, egiluvchanlik, o'ziga xoslik va mukammallik mezonlari bo'yicha tahlil qilinadi).

1980-yilda Torrens tomonidan maktabgacha yoshdagilar uchun yaratilgan yangi kreativlik testini tuzish holati ko'zda tutildi. Bu testning vazifalari shunday tuzilganki, go'dak o'zining ijodiy qobiliyatlarini biror bir xonada erkin harakatlanish asnosida namoyon qiladi.

Ijodiy fikrlashni reproduktivga qarshi qo'ygan psixologlarning intilishlariga qaramasdan, amaliyotda kreativlik testlari intellekt testlari bilan bir xil prinsiplarda, ya'ni tezlik metodikasi va qat'iy mazmun asosida qurilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, ularning asosiy kamchiligi motivlarni va individning boshqa ijodiy qobiliyatni tashkil etuvchi tavsiflarini hisobga olinmaganligidadir. Ko'pgina psixologlar kreativlikni testlar yordamida aniqlash mumkin emas, deb hisoblaydilar. Fan, texnika, san'at va boshqa inson faoliyatidagi muvaffaqiyatlarga erishish, turli qobiliyatlarning va shaxsiy xususiyatlarining murakkab tuzilmasini (shu jumladan, intellektual va maxsus) talab qiladi.

Hozirgi davrda mavjud bo'lgan kreativ testlarda ijodiy qobiliyatning alohida elementlariga e'tibor qaratiladi, ijodiy muvaffaqiyatlarni bashoratlashda buning o'zi yetarli emas. Ayrim psixologlar ijodning ayrim qismlarini tahlil qilish yo'li bilan kreativlikni aniqlash mumkin deb hisoblaydilar.

Vatanimiz psixologiyasi kreativlik mazmunini ochib berishga, ijodiy faoliyat mexanizmini va ijodiy qobiliyat tabiatini o'rganishga katta e'tibor qaratadilar.

Kreativlikni tashxislash yo'nalishi deyarli o'rganilmagan.

Bu sohada professor D.B.Bogoyavlenskaya (1983-yil) ijodiy qobiliyat intellektual tashabbuskor birliklarini yaratdi. U muammoning yechimini topishda inson oldiga qo'yilgan masalani fikrlash faoliyati deb ataydi.

D.B.Bogoyavlenskaya gipotezasi (taxmini)ga muvofiq bajaruvchiga tashqi qo'zg'atuvchilar ta'sirisiz nazariy umumlashtirishlarga va vaziyatni baholashga o'ta oladigan «kreativ doira metodi»ni taklif qiladi.

Bu metod doirasida bir necha metodikalar ishlab chiqilgan. Tashqi mezonlarni belgilashda muallif sezilarli qiyinchiliklarga duch keldi. Ijodiy muvaffaqiyat bir qator kamchiliklarga ega bo'lgan tajribalar asosida aniqlanadi.

«Kreativ doira» ning tamoyillari:

1) Tashqi qo'zg'atuvchidan va baholashni belgilovchi stimulidan voz kechish.

2) Obyektni tadqiq etishda «chegara»ning bo'lmasligi – chegaralanmagan faoliyat.

3) Eksperimentning davomiyligi.

KREATIV DARS TUZILISHINING TEXNOLOGIYALARI

Kreativ darsi ijodiy metodologik tuzilishiga ko‘ra an’anaviy darsdan farq qiladi va o‘zida dars maqsadini qamrab oluvchi bloklari bilan kreativ ta’limning maqsadlarini amalga oshiradi.

Ijodiy darsning tuzilishi mantiqan ta’limni haqiqatda rivojlantiruvchi jarayonga aylantirishni ko‘zda tutadi. Ta’limning birinchi navbatda insonparvarlik maqsadlarini ko‘zlagan holda ta’lim faoliyati tuzilishida ma’lum o‘zgarishlar olib boriladi. Ta’lim faoliyatining yangi shakllarini konstruksiyalash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy shakllanishi asosini tashkil qiladi. Dastur fikrlash shakllarini tubdan yangilash; maktab o‘quvchilarini intellektning yangi bosqichida o‘tkazishni ko‘zda tutadi. Chunonchi: ko‘rgazmali – aniqlikdan og‘zaki mantiqiylikka; emperikdan nazariy-tadrijiy fikrlashga.

D.B.Elkoninning fikricha, ta’lim samaradorligi o‘qitish jarayonida egallangan bilimning miqdori va sifati; rivojlanish samaradorligi o‘quvchilar qobiliyati o‘sishi darajasi bilan belgilanadi. Qobiliyatning rivojlanishi shaxs sifatlaridan biri bo‘lib, faoliyat samarasini belgilaydi, mazkur dasturni amalga oshirishda qobiliyatning funksional tizim samaradorligi oshishidagi ahamiyati katta.

Rivojlanishga ta’sir etuvchi ta’lim tuzilishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini faol ta’limiy faoliyat turlariga safarbar etadi, faol faoliyat turining turli shakllarini turlicha vositalar yordamida egallash; hayratlanarli buyumlar haqida fikrlash; boshqotirmalar yechish; kompyuterda o‘lchamli masalalar yechish o‘quvchining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mazkur texnologiyaning psixologik asosi o‘quv jarayonining o‘quvchi tomonidan rejalashtirilishidir. Tizimli refleksiya tashkil etilishiga ehtiyoj hosil qiluvchi omil – ta’lim jarayoni natijasini vaqti-vaqti bilan testlar yordamida aniqlash va o‘quvchilarni o‘quv faoliyatini rejalashtirishga o‘rgatish.

Darsga motivatsion sayqal berish deganda, dars davomida ijobiy motivatsiyani qo‘llab-quvvatlovchi tuzilgan maxsus topshiriqlar tushuniladi. Har bir o‘quv sikli so‘ngida o‘quvchilarning yutuqlar haqidagi ijobiy hissiyotlari rag‘batlantirilib, keyingi bosqichga o‘tish ishtiyoqi kuchaytiriladi.

Ikki fan umumlashgan darsning tuzilishi – namuna sifatida


№	Dars bloklari	Qisqartma belgilanishi	Vaqt	Izoh
1.	Motivlash («Mo'jiza bilan uchrashuv»)	M	5'	I akademik soat
2.	Dasturiy materialning mazmuni (DM i F + propedevika TRIZ)	DMM-I	20'	
3.	Psixologik dam olish (autotrening, o'yin yoki jismoniy daqiqasi)	PDO	5'	
4.	Boshqotirma	B	10'	
Tanaffus				
5.	Intellectual mashqlar	IM	10'	I akademik soat
6.	Kompyuter intellektual vordam	KIYO	10'	
7.	Rezyume	R	5'	

Kreativ darsning ma'lumot kartasi quyidagi yo'nalishlardan iborat:
1-yo'nalish. Motivlash.


Bu bo'limda go'dakni surpriz qarshi oladi. U tafakkurini u yoki bu darajada hayratlantiradigan nima bilandir to'qnashadi.

2-yo'nalish. Dasturiy materialning mazmuni. Darsning bu qismida ta'lim mazmuni berilgan mavzu bo'yicha aniq dars materiali ikki qismda beriladi.

Axborot kartasi (kreativ darsning tuzilishi)



Kreativ dars komponentlarining tizimli bog'lanishi



3-yo'nalish. Psixologik dam olish.

Darsning bu qismi jismoniy daqiqada sport, raqamli, jismoniy mashqlarning o'yin shaklida yoki bosh miya yarim sharlarining uyg'unligini ta'minlovchi mashqlardan tashkil topdi.

4-yo'nalish. Boshqotirma.

Darsning bu qismi ijodiy faoliyatga, motivlashtirishga, topqirlikni, ijodiy tafakkurni, go'dakning ijobiy qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

5-yo'nalish. Intellektual mashqlar.

Darsning bu qismi ijodiy faoliyatni, tafakkurni va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishni ko'zda tutadi.

6-yoʻnalish. Fikrlashning kompyuterli intellektual tayanchi.

Taʼlimning bu shakli ijodiy fikrlashning chuqur rivojlanishiga yoʻnaltirilgan boʻlib, oʻquvchilar ijodiy qobiliyatini kompyuter muhiti, multimediyalar, interaktiv taʼsir va boshqalar yordamida qoʻshimcha imkoniyatlar bilan darsda foydalanilgan boshqotirmalarning davomi sifatida foydalaniladi.

7-yoʻnalish. Rezyume.

KREATIV DARS YOʻNALISHLARINING MAZMUNI VA PSIXOLOGIK ASOSI

1-yoʻnalish. Motivlashtirish (hayratlanish, surpriz).

«Hayratlanish – donishmandlikning boshlanishidir» (Suqrot).

Axborotlardan toliqishning oldini olish va oʻquvchilarni intellektual faolligini oshirish maqsadidagi izlanishlar yoʻlidagi muqobil usullaridan biri «hayratlanish» yoki boshqacha aytganda, «moʻjiza effekti».

Hayratlanarli predmetlar bilan toʻqnashuv tizimi, ularni yaratilish haqidagi izlanishlari kichik maktab oʻquvchilarining qiziqish va faoliyati samaradorligini taʼminlaydi.

Motivlashtirish dars jarayonida predmetlar timsolida, masalan, goʻdak tafakkurini jumboqliligi, siri va favqulodda goʻzalligi bilan olib boriladi. Bunday predmetlar turlicha boʻlishi mumkin. Jumladan, oynasi orasiga oʻrgimchak kirib qolgan soat, ichiga yelkanli kema joylashtirilgan butilka va h.k. Bolalar qiziqishini oshiruvchi oddiy fokuslar. Masalan: quti ichida bir koʻrinib, bir koʻrinmaydigan sichqoncha va b.

Bunday jihozlar unutilgan qadimiy oʻyinchoqlar vazifasini ham bajarishi mumkin. Yogʻochdan yasalgan choʻqiyotgan tovuq, pianino chalayotgan ayiq, ayiq bilan oʻtin arralayotgan dehqon.

Bolalarda sovun koʻpiklarida hosil boʻladigan shakllar ham hayrat va qiziqish uygʻotadi.

Sovun pufagini hosil qiluvchi qismi boʻlgan oddiy ruchka yoki sovun pufagidan chiroyli shakllar yasovchi pistolet – avtomat oʻyinchoqʻi. Obyektning tortishish markaziga asoslangan oʻyinchoqlar: yiqilmas matroshkalar, magnit tortishiga asoslangan kamondan oʻq otish oʻyinchoqlari oʻquvchilarda kuchli qiziqish uygʻotadi. Bundan tashqari, oʻyinchoq-boshqotirmalar ham qiziqarli.

2-yoʻnalish. Dasturning mazmuni.

Dasturning mazmuni boshqa yoʻnalishlarni tizimli umumlashtirish asosida bir butunlikda ijodiy tafakkurning va fantaziyasining rivojlanishiga hamda tasviriy masalalarning nazariy yechimi degan jiddiy muammoni (G.S.Altmuller) yechishga xizmat qiladi.

Bu yerda shuni hisobga olish kerakki, qiyin masalalarni yechishda yuqori natijalarga erishish uchun 3 ta muhim omil mavjud: Qobiliyat, imkoniyat, individualliklarni ogʻzaki, matematik va texnik hisoblash, oʻzlashtirish qobiliyati, abstrakt va murakkab fikrlash natijasidir. Bunday qobiliyatlar boshqa kishilar tomonidan ijobiy eʼtirof etilishi muhimdir.

Imkoniyatlar goʻdakni intellektual faol va oʻz muammolarini mustaqil hal etishdan manfaatdor boʻlgan, atrofdagi eng yaxshi, oʻz-oʻziga ishonch tugʻdiradigan boshlangʻich tajribalarni oʻzida mujassamlashtiradi.

Individuallik dastlabki ikki omilning taʼsirini kuchaytirishga, shu bilan birga qobiliyatlar shakllanishini qiyinlashtirishga taʼsir qiladi. Ijodkor shaxsning shakllanishida uni qurshab turgan muhit ijobiy sharoitni yaratishi lozim.

3-yoʻnalish. Psixologik dam olish.

Psixologik dam olish sifatida qoʻllaniladi. Bosh miya yarim sharlarini garmonik rivojlanishiga taʼsir etuvchi jismoniy mashqlar (Shuni esda tutish lozimki, oʻng va chap qoʻllar imkoniyatini rivojlantirish muhimdir. Psixologlarning taʼkidlashicha, oʻng va chap qoʻlda birday harakatlanish xotira, fikrlash va nutqning rivojlanishi, yaxshilanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi.)

Oʻyinlar, sport-hissiyotli, teatrlashgan, taqlid etuvchi raqslar. Sport hissiyotga asoslangan «Jangler», «Arqon tortuvchilar» kabi oʻyinlarni shu turkumga kiritish mumkin. Quvnoq bolalar kuylariga raqsga tushish, goʻdakka harakat va teatrlashtirilgan taqlidchan «Tabassum oʻyini» va shu kabilar oʻziga xos kulgi terapiyasidir. Topshiriqlar turlari xilma-xil boʻlib, oʻqituvchining ixtiyoriga qarab yangilari bilan toʻldirib boriladi. «Pantomima» oʻyinlarida 2 tomonlama dam olishga erishiladi: tegishli guruh muskullari dam oladi va oʻyin ijobiy hissiyotlar hisobiga reaksiya amalga oshadi.

Pantomimo bilan shugʻullanish ijodkorlik rivojlanishining boshlanishi boʻlibgina qolmay, goʻdakni oʻz-oʻziga ishonchini orttiruvchi ijobiy hissiyotdir.

Psixologik va fiziologik kuzatishlar aqliy va hissiy toliqish bilan, vegetativ qoʻzgʻalishlar bilan skelet muskullaridan toliqishning uzviy bogʻlanishini koʻrsatmoqda.

Hammaga maʼlumki, muntazam jismoniy mashqlar ishchanlik va sogʻlomlikni taʼminlashda katta ahamiyatga ega.

Bosh miyaning optimal funksional holatini taʼminlash, bundan tashqari, miyadan chiqayotgan nerv impulslarining toʻlqinini boshqarishga ham bogʻliq. Oʻz-oʻzini boshqarish tizimi yordamida markaziy qoʻzgʻalishni periferikka koʻchirish, eng avvalo, skelet muskullarini va shu bilan birga asabiy zoʻriqishning oldini olishni taʼminlaydi.

Ta'kidlash kerakki, tetik holatda fikriy qabul qilish (ijobiy hissiy reaksiyalar ta'sirida yuzaga kelgan) kelgusida quyidagi siljishlarga olib kelishi mumkin: o'z-o'ziga ta'sir etish orqali oldin boshdan kechirilgan emotsional holatlar tiklanishi mumkin. O'z-o'ziga ta'sir faqatgina oliy nerv faoliyatining xarakteriga ta'sir etib qolmasdan, organizmning hujayralar-gacha bo'lgan mexanizmini boshqarishga ta'sir ko'rsatadi.

Autogen mashqlarning psixologik nazorat mashqlari – «Tinch maskan», «To'liq potensial», «Lazzatlar ro'yxati» kabilar muskul va psixologik reaksiya jarayonida o'z-o'ziga ta'sir etuvchi holatlarda yordam beruvchi formula va timsollardir.

O'quvchilarda o'z-o'zini boshqarishga o'rgatishga o'qish va ijodiy faoliyati, munosabat va xulqi jarayonida o'z ustida nazorat o'rnatuvchi muhim omil sifatida qarash kerak.

4-yo'nalish. Boshqotirmalar.

Zamonaviy kreativ darsning muhim elementlaridan biri sifatida o'quvchilar ijodiy faoliyati tabiiy obyektlar tizimida o'tkir aql va topqirlik mujassamlashgan boshqotirmalar muhim ahamiyatga ega.

Boshqotirmalar o'quvchi oldiga yechimini topish jarayoni fikrni noan'anaviy birikishga olib keladigan muammo zararsiz materiallar (yog'och, qog'oz, metall, plastmassa)dan yasalgan buyumlardan foydalanish mumkin. Taklif etiladigan boshqotirmalar ko'p sonli obyektlar ichida didaktik prinsiplarga mos ravishda tanlab olinadi.

Quyidagi talablar qo'yiladi:

- Boshqotirmaga asoslangan g'oyaning jozibadorligi.
- O'quvchilar qiziqishlariga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik quvvati.
- Maktabda o'qitiladigan predmetlar bilan bog'liqlik (fizik, kimyoiy, biologik va boshqalar.).
- Go'dakning obyekt bilan estetik uyg'unligi.
- Go'dakning qiziqishlari va yoshiga bog'liq ijodiy imkoniyatlari.
- Natijani topishda asta-sekin yuksalish.

Boshqotirmalarning bunday tizimi biz tomonimizdan dunyo tajribasida birinchi marta dars tizimining yaxlit bir bo'lagi sifatida tavsiya etilmoqda.

Biz tomonimizdan saralangan boshqotirmalar tizimi kreativ ta'lim tizimining yangi didaktik vositasidir. Uning bosh funksiyasi ijodiy fikrlashni, topqirlikni, fikrlash to'siqlarini yengish, ijodiy tafakkurni rivojlantirishdan iborat. Bundan tashqari, bu tizim kuzatuvchanlikni, qiziquvchanlik va ijodkorlik faoliyatini natijasi sifatida intellektual faollikni rivojlantiradi.

Boshqotirmalarni yechish insonning doimiy o'yinga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. O'yin ijodiy faoliyatning o'ziga xos tayyorgarlik turi bo'lib, boshlang'ich maktab o'quvchisining kreativ sifatlarini rivojlantiradi.

Ehtiyojning kitob javoni matematik boshqotirma va o'yinlar bilan to'la bo'lganligi ham bejiz emas.

«Alisa mo'jizalar mamlakatida», «Alisa ko'zgu ortida» kabi umume'tirof etilgan ertaklarning muallifi, ajoyib ertakchi, Oksford universitetida matematikadan dars o'tgan Lyuis Kerrol boshqotirmalarning katta ixlosmandi edi. U oddiy qog'oz varag'ini buklash orqali g'aroyib figuralar (origami)dan juda ko'p foydalangan. Uning qo'llarida varaqni buklash orqali oddiy geometrik chiziqlardan kutilmaganda o'quvchilar ko'z o'ngida o'zining mukammalligi bilan miniatura asarlari, yarim abstrakt haykallar paydo bo'lgan.

Boshqotirmalar tizimida yana bir muhim (motivatsion) funksiyasi shundan iboratki, ular o'quvchilarning o'rganilayotgan materialga nisbatan qiziqishini orttiradi, bundan ko'p samaraliroq motivlash shaklini topish mushkuldir.

Berilgan masalalarni bir necha usullarda yechish ham samaralidir. Boshqotirmalar bilan olib boriladigan faoliyat fikrlash mahsuldorligini oshirishda qo'shimcha imkoniyatlarni ishga soladi. Tafakkurda xayoliy obrazlarning mavjudligi, taxminlarni tekshirishda kattalar yordamiga tayanmaslik o'quvchida zoriqmasdan belgilar olamidan obrazlarga yoki aksinchaga o'tishga yordam beradi.

Yaxlit ta'limiy ish shaklida o'qish, o'z holicha aqliy rivojlanish amalga oshiriladi.

5-yo'nalish. Intellektual mashqlar.

Intellektual mashqlar ham boshqotirmalar singari o'quvchilarni ijodiy faoliyatga, motivlashtirishga xizmat qiladi.

Ijodiy bilimlar tizimi (IBT) intellektual mashqlar izchil kreativ ta'limning didaktik prinsiplari asosida tuzilgan. U maxsus bilimlarni talab qilmaydigan, faqat fikrlash, topqirlik va mustaqil yechimlarni talab qiladigan ijodiy topshiriqlarni o'z ichiga oladi.

Bu bilimlarning murakkablashtirilgan tizimi bo'lib, o'quvchilar yoshiga mos maqsadga yo'naltirilgan qiziquvchanlikni, ijodiy qobiliyatni, tafakkurni, narsalarga o'zgacha qarashni talab etadi.

Ijodiy bilimlar tizimi – intellektual mashqlar o'zida asosan quyidagicha topshiriqlarni qamrab oladi:

- Taxminiy xulosalar chiqarish: ular o'quvchilarni sabablar va oqibatlar haqida fikrlashga majbur qiladi.

- Obyektlarni noodatij qo'llanishi.

- Qonuniyatlarni izlab topish (bu topshiriqlar mantiqiy fikrlashni, umumlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi).

- Kutilmagan vaziyatlarda to'g'ri yo'l tanlay olish, bunday topshiriqlar go'dakda mardlikni rivojlantiradi.

· Mavjud obrazlar asosida obrazlar sxemasini tuzish (abstrakt tafakkurni, asosiy sifatlarni, obyekt tarkibi).

· Obyektni rivojlantiruvchi vazifalar, masalan, o'yinchoqlarni (kuzatuvchanlikning mustaqil yechimini topa olish va o'z fikrini himoya qila olish mashqlari).

· Topshiriq chegarasidan chiqa olish qobiliyatini rivojlantirish, fikrlash inersiyasini yengib o'tish.

· Maqsadga yo'naltirilgan savollar bera olish va javoblar asosida predmetni aniqlash.

· Tafakkurni bosqichma-bosqich rivojlantirish.

Mazkur dars komponentining psixologik qiymati shundaki, aqliy mehnat qoidasi va shakli mustahkamlanadi, fikrlash samaradorligini oshirish, yechimlarning alohida bosqichlarida ijodiy jarayonning malakalari shakllanadi.

Intellektual mashqlar bosh funksiyasi murakkab topshiriqlar bajarishda axborot tahliliga asoslanishdan iboratdir.

6-yo'nalish. Fikrlashning kompyuter intellektual (tayanchi) yordami.

Fikrlashning kompyuter intellektual yordami motivlashtirilgan topshiriqlar, boshqotirma shaklidagi mashqlar, intellektual topshiriqlar asosida yuzaga kelgan g'oyalarni davom ettiradi va chuqurlashtiradi. Fikrlashning kompyuter intellektual yordamini qo'llash kompyuter muhitining, ayniqsa, multimediyalar, interaktiv o'zaro ta'sir vositalarining qo'shimcha imkoniyatlaridan foydalaniladi.

Fikrlashning kompyuter intellektual yordami topshiriqlarning avvalgi yo'nalishlari bilan chambarchas bog'liq bo'lishi zarurligini esda tutish kerak. Hayotdagi aniq obyektlar ustida topshiriqlar bajarishdan virtual obyektlarga ko'chirish, tashqi o'rganishdan ichki o'rganishga, ya'ni fikriy o'rganishga olib keladi. Virtual muhitda o'quvchining ko'rish kanali haddan ziyod faollashadi, muammoning yechimini topishga bo'lgan qiziqish va ehtiyoji faoliyatni kompyuter texnikasi bilan uyg'unlashtiradi.

Fikrlashning kompyuter intellektual yordamida topshiriqlar bajarish o'quvchi tafakkurini, fikrlashi, diqqati, xotirasini rivojlantiradi va qonuniyatlar haqidagi malakalari hosil bo'lishiga imkoniyat yaratadi.

Kompyuter didaktik o'yinlar mazmuniga qo'yiladigan talablar quyidagicha:

1-talab. Kompyuter didaktik o'yinlardan foydalanishda belgilangan bosqichlarga qat'iy amal qilish kerak. Dastlab bolalar «Boshqotirma» yo'nalishida tanish bo'lgan obyektlar bilan ishlaydilar, o'ynaydilar.

Keyin ular notanish elementlar qo'shilgan obyektlar bilan, keyin notanish obyektlar bilan ishlaydilar.

2-talab. Mazmunan ular ketma-ketlikda bo'lishi kerak.

Sodda topshiriqlardan murakkabga.

Aniq (konkret) dan mavhum (abstrakt)ga.

Kam hajmdan katta hajmga.

3-talab. Kompyuter didaktik o'yinlar turli tipda bo'ladi: alohida qismli suratlarini yig'ish, rangli mozaikalar, elementlardan konstruksiyalash, xotirani, diqqatni rivojlantiruvchi, qonuniyatlarni aniqlovchi, obyektlarni klassifikatsiyalovchi va b.

4-talab. Topshiriq: yorqin rangli, bezatilishi tajovuzkor bo'lmasligi kerak. Bezash ishlarida o'rganilayotgan kursdagi mavjud materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday holatda o'rganish samarasi oshib, o'quv material qo'shimcha mustahkamlanadi.

5-talab. Ekraning maksimal to'laligi minimal tugmalarni ishlatgan holatda amalga oshirilishi kerak.

6-talab. Qo'llab-quvvatlovchi bolalar musiqasining jo'rligining ta'minlanishi, zaruratda ularni o'chirib qo'yish imkoniyatining mavjudligi.

7-talab. Topshiriqning ayrim bosqichlarini muvaffaqiyatli yakunlashda, rag'batlantirish maqsadida qiziqarli kitoblar sovg'a qilish lozim.

Fikrlashning kompyuter intellektual yordamining psixologik asosi shundaki, dars jarayoniga virtual obyektlar ishtirokida topshiriqlar va mashqlarni kiritish har xil shakl va turdagi fikrlash operatsiyalarining analiz va sintez qilinishiga olib keladi.

Tavsiya etilayotgan o'yinlar tizimli differensiatsiyalangan bo'lib, dastur materialini to'liqroq o'zlashtirish bilan birgalikda o'quvchining ijtimoiy hayotga kirib borishi samaradorligini oshiradi.

Ma'lumki, o'quvchiga o'z xulqini samarali tashkil etish uchun yangilikni qabul qilish va o'zgarishlarga tayyorlik muhimdir. Yaratuvchanlik ruhidagi kompyuter o'yinlar orqali go'dak yangilik yaratuvchisiga aylanadi, uni o'rab turgan olam tuzilishining ko'pgina yangi tomonlarini o'zlashtiradi va o'rganadi. Falsafaning miqdor va sifat o'zgarishlari, butun va qism birligi haqidagi qonuniyatlarini o'zida kashf etadi.

N.M.Sechenov ta'kidlaganidek, mustaqil tushunish o'z tushunchalariga tanqidiy yondashuvni shakllantiradi, tahlil qiladi va taqqoslash imkoniyatini beradi.

Go'dakning ongi uning ongli kompyuter virtualini vizual shaklda ko'rsata oladi.

Go'dakning ongi uning ongli harakatlari bilan uyg'unlikda rivojlanadi, ong uning harakatlariga asos sifatida sharoit yaratadi.

Refleksiya o'zini anglashning yana bir xarakterli ko'rinishi bo'lib, u o'z qarorlarining oqibatlarini ko'ra bilish va o'zi boshqalarning xulq-atvori ustidan tizimli kuzatishni ta'minlaydi.

Tafakkur va o'zini anglashning uyg'unligida mustaqil va maqsadga yo'naltirilgan holda o'z xulqini boshqarishdek muhim ijtimoiy samaraga erishiladi.

Kompyuter yordamida ishlash o'quvchilarning fikrlashining yangi psixologik yoki ommaviy shakli bo'lib, ta'lim sifatini va axborotlarni o'zlashtirish tezligini oshirish imkonini beradi.

Masalalarning yechimini topishdagi qiyinchiliklar yangicha usullarda yechimlarni izlab topishni taqozo etadi. O'zgartirilgan sharoitlarda noodatiy qarorlar chiqarish qobiliyati shaxsning o'z ustida ishlashini ta'minlaydi.

7-yo'nalish. Rezyume.

Darsning bu qismi o'qituvchi va o'quvchi orasida aniq dars mavzusi bo'yicha materiallar yuzasidan fikrini bilish va baholashda qarama-qarshi aloqa o'rnatish imkonini beradi.

Har bir kreativ yo'nalishning dars mazmuni va psixologik asosi quyida berilgan:

«Dars» tizimida tizimli tashkil etuvchi element bo'lib, go'dakning ijodiy potensialini yuqoriga ko'taruvchi o'quvchining ijodiy faoliyati ko'zda tutiladi.

O'qituvchi diqqatiga bunday mashg'ulotlarning dastlabkisi shunisi bilan diqqatga sazovorki, u pedagog va sinf orasida ijodiy mikroiqlimni o'zaro tushunish va ishonchni uyg'otadi.

Buning uchun o'qituvchi darsni o'yin shaklida qiziqarli tarzda o'quvchilar diqqatini bir faoliyatdan ikkinchisiga qaratib, istisnosiz barcha o'quvchilarni faol izlanish faoliyatiga jalb qila bilishi kerak.

O'QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATIDA IJODIY IMKONIYATNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

Mutaxassislik mahorat va bilimlarni o'zi rivojlantirishi qulay, ixcham tizimlarni taraqqiy ettirish nuqtayi nazaridan, reflektiv-gumanistik pedagogika va birlashib ijod qilish psixologiyasi asosida yaratiladigan intensiv-innovatsion metodlar yuqori samaraga ega bo'lishlari mumkin.

Bizning fikrimizcha, reflektiv-gumanistik yondashishning asosiy aksiologik yutuqlari asoslaridan biri, barbod etmaydigan uslublarni ko'paytirib taraqqiy ettirish mumkinligini amaliy isbot qilib berish bo'ldi. Shunday qilib, yangi konsepsiya yaratish, yangilikni kashf qilish uchun hech ham o'tmish merosidan biror narsani buzish shart emas. Birgalikda ijod qilish asosiy gumanistik tamoyil amaliyot ishtirokchilari har bir ichki va tashqi hayoti turli-tumanligi (polifonik), ko'payishi, doimiy rivojlanish to'raligi (yagonaligi)ni ta'minlashdan iborat. O'qituvchi innovatsion harakatni amalga oshirishda rivojlanuvchi muammolarni kiritadi.

Uslubdan maqsad: o'qituvchida innovatsion faoliyat muammolarini mustaqil tushunib yetish va innovatsion qarorga kelishga ijodiy imkoniyatlarini dolzarblashtirish va rivojlantirish. Bunday uslub quyidagi bosqichlardan tashkil topgan:

1. Maktab muammolarini ishlab chiqish bosqichi, unda har bir ishtirokchi ilgargilarni takrorlamay o'z muammosi tuzilishiga harakat qiladi.

2. Ushbu muammolarni hal etish bo'yicha g'oyalarni oldinga surish bosqichlari.

3. Jamoatchilik bo'lib birgalikda muhokama qilish.

Polilog—«aylana» tuzilishdatashkiletishningmazzmuni, birinchidan, faqatgina tuzilishidan «ilgarilab ketgan, surilgan» o'qituvchilar muammolarini yechishda rivojlantiruvchi natija berish, ta'minlash emas, balki ma'lumoti kamroq ijodiy muammolarni ham yechishdan iborat. Qaytarishga imkon bermaslik vositasida har bir ishtirokchi tomonidan muqobil yechimlarni anglab yetish maksimal samaraga erishiladi, keyingi innovatsion xatti-harakatlarni rivojlantirish uslubi nuqtayi nazarlar haqida munozaralar uslubi bo'lib, bunda turli pedagogik yangiliklar haqida ma'lumotlar olishga imkon beriladi, balki ularni tanqidiy tahlil qilish jarayonini ham ta'minlaydi. Bunday munozara mexanizm uch guruhga ajratishni ko'zda tutadi.

Birinchi guruh diqqatni bo'lajak yangilikning loyihasini ishlab chiqishga, uni o'z tushunishlarida yechib berishga jamlaydi. Chunki guruh munozara oxirida faqatgina bitta ishlab chiqilgan variantni umumiy muhokamaga olib chiqishlari kerak. Guruh o'z yangilik loyihasini bayon etib bergandan keyin muhokamaga ikkinchi guruh qo'shiladi, ularning vazifasi taklif etilgan yangilikka nisbatan boshqa muqobil variantlarni aniqlab olib va bunga asoslangan holda birinchi guruh fikrlarini noto'g'ri ekanini isbotlab berishdan iborat. Taklif etilgan fikrni rad etib ikkinchi guruh o'z yechimini ishlab chiqishga kirishadi. Shundan so'ng ular ham o'z dasturlarini bayon qiladilar. Uchinchi guruhning vazifasi analiz qilib bayon etilgan loyihalarda konstruktivlikni izlashdan iborat. Chunki bu sintez qilib hal etish, murosa yo'llarini izlaydi. Shundan keyin guruhlar vazifalari o'zgartiriladi, bu sikl aylanib yana takrorlanadi.

Guruhlar ishlab chiqqan har qanday ijobiy natijalar har bir bosqichda qayd etib beriladi. Ammo amalda shunday vaziyatlar vujudga keladiki, bir vaqtning o'zida bir nechta loyihalar taklif etiladi. Ulardan har biri konstruktiv yechimga ega bo'ladi. Bu holda «Yechimlar auksioni» o'tkazishga to'g'ri keladi. Uning mazmuni loyihalarni umumiy plenumda yana-da chuqurroq tahlil qilishdan iborat. Natijada yechimning har bir loyihasi tahliliy ekspertizadan o'tadi. Bu «savdo» mexanizmi yordamida amalga oshiriladi. «Mablag'» sifatida ularni tatbiq etishdan keladigan natija hisoblanadi.

Shu tariqa yangilik kiritish natijasida yuzaga keladigan jarayon va hodisalar haqida yagona tasavvur shakllanadi.

Hodisalar avj olishi va amaliy qo'llanishi mexanizmi yangilikni ishlab chiqishda ko'zga ko'rinmagan salbiy kamchiliklarni yuzaga chiqaradi, ushbu tartib taklif etilgan yangiliklarni, ularni amalda qo'llash darajasini klassifikatsiya qilib beradi. Natijada eng ko'p salbiy natijalarga ega bo'lganlari ro'yxatdan o'chiriladi.

Amaliyotning ishchi dasturi quyidagilar:

1. O'qituvchining ijodiy fikrlashi, pedagogik masalalarni yechish psixologik-pedagogik analiz.

2. O'qituvchining innovatsion faoliyati: amalga oshirishning texnologiyasi va tuzilishi.

3. Yangilikni qabul qilishda psixologik to'siqlar.

4. Innovatsion munosabatlar rivojlanish uslublari: ijodiy masalalarni ochib berish va kashfiyot uslublari: «Aqliy hujum», hayratlanarli savollar, innovatsion o'yinlar va boshqalar.

5. O'qituvchi mutaxassislik faoliyatida refleksiya (refleksiv qobiliyatlar trenningi).

Yuqorida aytilganidek, o'qituvchining kreativligi va innovatsion munosabati rivojlanayotgan muhit ta'siri ostida shakllanishi kerak. Tekshirishlarga asoslanib, ijodni qandaydir tahliliy vaziyatdan yoki mavjud bilim chegarasidan chiqish deb belgilab, shunday tasdiqlash mumkin: kreativ muammoni shaxsiy fikrlarga to'la dolzarb qo'yishda ifoda etilgan chuqur xususiyatdir.

Shuning uchun biz mikromuhit orqali to'g'ridan-to'g'ri bo'lmagan shakllantiruvchi ta'sir ko'rsatishga intildik.

O'qituvchi dolzarblasha oladigan muhit yuqori darajali noaniq va potensial ko'p variantlikka ega bo'lishi kerak (boy imkoniyatlar). Noaniqlik tayyor yo'nalishlarni qabul qilmay, o'z izlanishlarini rag'batlantiradi; ko'p variantlilik ularga topishga imkon beradi. Bundan tashqari, muhim kreativ munosabat va uning natijalari namunalari tarkib topgan bo'lishi kerak. Biz tekshirishlarimizda o'qituvchi faoliyatidagi mikromuhit bir qator ko'rsatkichlari uyg'unligini taklif etdik, munosabat past darajadagi reglamentligi, kreativ munosabatning namunalari ko'rsatilishi va informatsion boyligi – pedagogning innovatsion munosabatiga belgilovchi ta'sir ko'rsatadi. Bu texnologik darajada ham ifoda bo'ladi.

Tekshirishlar kurs Pedagogika universiteti boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va metodikasi fakultetining 149 talabasi ishtirokida o'tkazildi. Bu guruh umumiy tayyorgarlik talabalari va pedagogika kolleji bitiruvchilaridan tashkil etilib, ikki 23 kishilik guruh tajriba guruhlari bilan taqqoslash uchun tuzildi.

A) Talabalar kreativlik darajasi uch ko'rsatkich bilan hisobga olindi; mahsuldorlik, ijodiy yo'nalganlik sabablari, refleksivlik, kreativlik diagnostikasi, amaliyot hamda turdagi topshiriqlari natijalari va jarayonida olib borildi. Ishlab chiqilgan yangiliklar kreativ qimmatligi ularni quyidagi turlardan biriga taalluqligi bilan belgilanadi:

1. Maktabning yana-da rivojlanishiga turtki bo'luvchi ko'pgina yechimlarni, ko'zda tutilgan muammolarni qo'yish.

2. O'ziga xos, ilgarilarga o'xshamagan, kutilmagan yechimlar.

3. Yechish ma'lum bo'lgan konsepsiyalarni yoki pedagogik yondashishlarni davom ettirishni ko'zda tutadi.

Ishni tashkil etuvchilar talabalarning fikrlari, ularning qiziqishlari, ishni davom ettirish istagi, faolligining hisobga olish yordamida baholanadi.

Refleksion tashkil topuvchilar ko'zda tutilgan yechimni anglab yetish va o'zini o'qituvchi-innovator deb his etish darajasi bilan baholanadi.

B) Muhitning tafsiloti quyidagi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi: informatsion xabardorligi, kreativ munosabatlar namunalari mavjudligi, innovatsion munosabatlarning tartiblilik darajasi.

Informatsion xabardorligi darajasi taklif etilgan yechimni turlicha yo'llar bilan o'zgartirish, ularni turli yo'llar bilan tiklash darajasi yo'li bilan o'rganiladi. Yuzaga keltiruvchi tajribalar, innovatsion amaliyot davrida munosabatlar tartib-qoidalariga solinmagan sharoitlar yaratilishi, informatsion ma'lumotlar ko'pligi, kreativ namunalar ko'rsatib berilganligidan iborat bo'ladi. Tajriba yakunlangandan so'ng sinov va tajriba guruhlari yakuniy test o'tkazish bilan taqqoslanib ko'riladi. Tajribaning boshlanishi, o'rtasi va oxirida biz talabalar innovatsion munosabatlari va kreativlik darajasini, o'rtacha ko'rsatkichlar ifodalarini baholadik.

<i>Kreativlik. Boshlang'ich darajadagi talabalarda kreativlik yuzaga kelishi, dinamikasi turlari (% da)</i>	<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>
	<i>Ilgarigi tenglikni tiklash</i>	<i>Yangi mustahkamlikka ega bo'lish</i>	<i>Dinamika-ning yo'qligi</i>
yuqori	33	59	8
o'rta	49	20	3
past	27	15	48

Tajribalar natijalari tekshirilayotgan uchta ko'rsatkichlar uch turi bo'yicha katta farqlar borligini ko'rsatdi.

Birinchi bosqichda shaxsni sabablar ko'rsatkichi o'sdi, ikkinchi bosqichda shaxsiy sabablilik va mahsuldorlik, uchinchi bosqichda

mahsuldorlik, refleksiv ko'rsatkichlar yuqori bo'ldi. Shu bilan birga innovatsion faoliyatning shaxsiy sabablilik ko'rsatkichining o'sib borishi shaxsiylik darajasining yana-da chuqurroq o'zgarishlari haqida gapiradi, xususan: izlash jarayoniga emotsional ishtiroki, maktab muammolarini qo'yish va tushunish o'sadi, amaliy ishlarda mashg'ulotlarni davom ettirish istagi yuzaga keladi, erishilgan sabablilik darajasini qo'llab-quvvatlash mahsuldorlik faoliyati darajasi ham o'sadi, deb xulosa qilish mumkin.

Innovatsion faoliyatning rivojlanish jarayoni aynan shaxsiy sabablilik darajasidan boshlanadi. Mahsuldorlik darajasida biz ancha murakkabroq tashkil etuvchilarga duch kelamiz: shaxs ijodiy imkoniyatlari va refleksli birligiga, innovatsion munosabatga yo'l ko'rsatish, doimiy muammolar qo'yish va ularni turlicha yechishni nazarda tutadi. Hamma sodir bo'layotgan hodisalarga o'ziga xos munosabat ishlab chiqiladi: mazmunini izlash, yashirin tomonlarini ko'ra bilishga intilish.

Tajribalar ma'lumotlari yuqori boshlang'ich kreativ munosabat darajali talabalar ko'pchiligi yangi barqaror yuqori darajaga erishganliklari ular yuqori mahsuldorlik bilan ajralib turishlarini ko'rsatdi: o'rtacha kreativ darajali ko'pgina hollarda bir qancha harakatchanlik ko'rsatdilar. Lekin «mavzuni o'zgartirish, variatsiya qilish» turi bo'yicha yechishga intilsalar ham.

Past kreativlik talabalar kamdan-kam yangi darajaga erisha oladilar, ular harakatchanlik qilmaydilar, ko'pincha ilgarigi birlamchi yechimga qaytadilar.

Shuni ta'kidlash kerakki, bunday holat kreativlikning oshishiga rivojlantiruvchi muhitning mos ravishda ta'siri sababli, bir yo'nalishli bo'lmaydi. Innovatsion faoliyatning o'zgarishi umumiy tendensiyasi quyidagi xususiyatlarga ega: hamma ko'rsatkichlari ancha o'sishi ketidan ularning biroz pasayishi kuzatiladi, bu ma'lum darajadagi emotsional pasayish va diskomfort o'zini noqulay sezish bilan bog'liq bo'ladi, rivojlanish muhiti innovatsion munosabat vazifasi va uslublaridan iborat bo'lishi, talabalar noma'lum yechimlarni izlash usublari va metodologiyasini egallagan bo'lishlari kerak.

Innovatsion faoliyatga yondashish o'qituvchilardan ilmiy tekshirish metodikasini o'zlashtirib olishni talab etadi. Talabalarning tajriba maydonida tekshirish ishlarini «harakatdagi tekshirish», odatdagi qarashlar, yondashishlarga qarama-qarshi deb nomlash mumkin. Asosiy e'tibor innovatsion faoliyat texnologiyasidan ko'ra ko'proq bilimga qaratiladi. Tajriba maydonchasidagi ishlardan asosiy maqsad talabalarni innovatsion jarayonga jalb etish, bunda ularni o'qituvchi bilan birgalikda o'z mualliflik dasturini sinab ko'radi, yangilik kiritish uslublarini aniqlaydi, tatbiq etish

samarasini baholaydi. Talabalar tekshirish guruhlarini tuzish o'ziga xos talablarni o'qitish obyekti sifatidagi modeli muqobil gumanistik modelni ko'zda tutadi.

Bunday shaklda ish olib borishning qimmatli tomoni bo'lajak o'qituvchilarga tajribada faol va bevosita ishtirokchilar sifatida qaraladi. Ular tanqidiy mulohaza yuritishga, tanlay bilishga, muqobil texnologiyani amalga oshirishga, natijalarni ko'ra bilishga o'rgatiladi. Shu bilan birga butun pedagogik jamoa birga ijodiy hamkorlik qilish sharoitida faoliyat ko'rsatadilar. Ilmiy tekshirish uslubi va guruhli ish yuritishni bir-biriga bog'lab ish olib borish guruhli tekshirishlarni tashkil qiladi, ana shu tajriba maydonida talabalarni uyushtirish texnologiyasi asosini tashkil etadi. Guruhli ish olib borish bilan birga o'quv ustasi bilan individual ish olib boriladi.

Guruhli ish olib borishning o'ziga xosligi shundaki, mashg'ulotlar seminar-munozara shaklida olib boriladi. Har bir talaba ilmiy tekshirish ishtirokchisi bo'lib, muammo bilan shug'ullanadi. Shunday variantlar ham sinab ko'riladi: 2–3 talaba bir muammoni turli yoshdagi guruhlar hamda turli nuqtayi nazardan ishlab chiqadilar. Talabalar bir oyda bir marta uchrashib o'z tekshirishlari davomidagi natijalaridan xabardor qilib, munozara va jonli fikr almashish ko'rinishida keyingi muammoni muhokama qiladilar, tajriba olib borish davomida bo'lajak o'qituvchilar rahbar (pedagog) bilan hamkorlik qiladilar. Bizning ishimizning masalalaridan biri talabalarga shaxsiy talablariga yarasha innovatsion tajriba berish edi.

Butun tajriba ishlari uch bosqichdan iborat bo'ldi: birinchisi – sabablarini aniqlash (tashxis – diagnostika) – «erta rivojlanish maktabi» konsepsiyasini tatbiq etishda pedagog va bolalar qiyinchiliklarini aniqlashga qaratiladi.

Ikkinchi bosqich ta'lim beruvchi ilmiy-tekshirish ishlari mahorati va ko'nikmalarini ishlab chiqishga bag'ishlandi. Bir qancha birinchi mashg'ulotlar bolalar erta rivojlanishi muammosi bo'yicha ilmiy adabiyotlarni o'rganish, maktabgacha tarbiya va boshlang'ich maktabda bolalarni rivojlantirish, turli konsepsiyalarini analiz qilish, qo'llanishi mumkinligi va tizim tashkil etuvchi bog'liqliklarni aniqlash, o'z va muallif nuqtayi nazariga annotatsiya va interpretatsiya tuzish ishlari olib borildi.

Ta'lim berish turidagi keyingi mashg'ulotlar maktabda innovatsion ishlar o'tkazish uslublarini egallashga qaratildi; kuzatish xaritalarini tuzish, muallif konsepsiyalarini aniqlash, tatbiq etishning borishi va natijalarini, qiyinchiliklarini ko'ra bilish. Yakuniy maqsad yagona mualliflik konsepsiyasini ko'rishdan iborat bo'lib, unga kichik guruhlarda muhokamalar (yordam) sabab bo'ldi. Talabalar ilmiy-tekshirish ishlarini rag'batlantirish uchun o'qituvchi-novatorlar o'z yangiliklarini kiritish tajribalari bilan

o‘rtoqlashdilar. Yakunlovchi bosqich mualliflik konsepsiyasini yozma ifoda etishdan iborat bo‘ldi. Seminarda ishni tashkil etish, yangiliklarni tatbiq etish bosqichlarini tashkil etish kabi muammolar ko‘rib chiqildi.

IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH

Pedagogika tarixini bir xil natija bilan orqaga va oldinga varaqlash mumkin – to‘g‘risini aytganda, hammavaqt yangi g‘oya sifatida bir xil pedagogik g‘oyalar bayon qilinadi. Bolaning o‘z-o‘zini ijodiy rivojlantirishi zarurligi, mustaqil fikrlashi, uning individual qiziqishlarini hisobga olish zarurligi va boshqalar haqidagi g‘oyalar har xil variantlarda takrorlanadi. Lekin, shu bilan birga, tarbiya va ta‘lim ko‘pincha shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish tabiiy jarayoniga to‘sqinlik qiladi, uning ijodiy boshlanishini oldindan «tayyorlangan ramkalariga» kuch bilan kiritishga va o‘quv rejalarini oson yo‘ldan olib borishga harakat qiladilar.

Tasavvur va fantaziyaga bizning maktablarimizda e‘tibor berilmaydi, diqqat va yodda saqlashga ko‘proq e‘tibor berilishiga hayron bo‘lmasa ham bo‘ladi. Diqqat bilan tinglash va tirishib esda saqlash qobiliyati shu kungacha namuna bo‘ladigan o‘quvchining farqli xususiyati hisoblanadi.

Ijod nimadan boshlanadi?

Uzoq vaqt davomida falsafada tasavvur va fantaziyaning ta‘riflashda farq bor edi. Ularning har biriga ma‘lum rol ajratilgan edi: tasavvurga ega aql odam tajribasida bo‘lgan narsani shunchaki qaytarish, fantaziyasiga ega aql ijod qilishni bildiradi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, fantaziya birinchi darajali, tasavvur esa ikkinchi darajali bo‘lib qoladi.

Bu ikkita tushuncha butunlay bo‘lingan holatda qoldi va odamlarni shoirlarga (rassomlarga), ijodiy fantaziyaga qobiliyatli va qobiliyati o‘rtacha mexanikka o‘xshagan, tasavvuri amaliy vazifa doirasidan chiqmaydigan odamlarga bo‘lishga bahona bo‘la boshladi. Natijada pedagogikada fanlarni ko‘proq ijodiy-gumanitar (adabiyot, tarix va boshqalarga) va kamroq ijodiy (tabiiy va aniq) fanlarga bo‘lish paydo bo‘ldi.

Bugungi kunda falsafa ham, psixologiya ham tasavvur bilan fantaziya o‘rtasidagi farqni aniqlamaydi. Bu ikkita so‘zni sinonim sifatida ishlatish xato bo‘lmaydi.

L.S.Vigotskiyning «San‘at psixologiyasi» va Jon Dyuning «Biz qanday o‘ylaymiz?» kitoblari tufayli tasavvurning roli haqidagi tushuncha jiddiy o‘zgardi.

L.S.Vigotskiy o‘ziga xos bo‘lgan jo‘shqinlik va ishonchlilik bilan o‘z asarlarida tasavvurning ikkinchiligi haqidagi afsonani yo‘qotdi: «Tasavvur qilishga ijodiy qobiliyat hammadam – olimda ham, injenerda ham bor, u ilmiy

kashfiyot uchun xuddi san'at asarini yaratishdek muhim, u kundalik hayotda ham kerak.

Ijodiy tasavvurning kurtaklari bolalar o'yinlarida namoyon bo'ladi! O'yin – bu shunchaki boshdan kechirilgan taassurotlar haqidagi xotiralar emas, balki ularning ijodiy qaytadan ishlab o'zlashtirilganidir, u jarayonda bola o'zining qiziqishlari va talablariga javob beradigan yangi reallikni yaratish uchun ushbu tajribalarni birlashtiradi. Buning uchun bola ijodiy intilishlarga boy bo'lgan sharoitda o'sishi kerak».

Shu fikrni Dyui asosli ravishda kengaytiradi: «Tasavvurning o'ziga xos funksiyasi butun borliqni oddiy idrok qilishda ko'rib bo'lmaydigan holda ko'ra bilish qobiliyatidir. Tasavvur bizdan uzoqdagi, hozir yo'q bo'lgan narsani aniq ko'rishni o'zining maqsadi qilib qo'yadi». So'ngra Dyui davom etadi «...tasavvurning kuchini nafaqat tarix, adabiyot, jug'rofiya, tabiiy fanlar darslarida, balki geometriya va arifmetika darslarida ham foydalanish kerak, chunki ular ham faqat tasavvur yordamida tushunib bo'ladigan ko'p narsalarga ega».

L.S.Vigotskiy va J.Dyui fikrlaricha, faqat tasavvur va ijodiy fantaziya orqaligina bola to'la tajribaga, rivojlanishga ega bo'lishi mumkin. Aynan tasavvur va fantaziya ijodiy faoliyat boshlanadi.

Ijodkor shaxsning o'ziga xos xususiyatlari qanday?

Ijod – fikrlashning original usulining sinonimi, ya'ni odatdagi, qabul qilingan chegaralarni buzish qobiliyatidir. Ijodiy aql – bu aktiv, sinchkov, boshqalar muammolarni ko'rmagan joylarda ularni topa oladigan aqlidir. Ijodkor shaxs o'zgarib turadigan vaziyatda o'zini suvda yurgan baliqday his qiladi, boshqalarga xafv bordek tuyulgan joyda u hech kimga bog'liq bo'lmagan holda, mustaqil ravishda qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega. Unday odam o'zini hech qanday dogmatlar va turg'un qoidalarga o'ralib qolishga yo'l qo'ymasdan narsalar va tushunchalardan yangicha foydalanadi. Bu xususiyatlarning hammasi ijod qilish jarayonida namoyon bo'ladi. Bu jarayon esa hammavaqt, hatto «jiddiy matematika» haqida gap ketganda ham qiziqarli.

XX asr ijod fenomeni, unga xos xususiyatlarni, ijodning boshlanishi obyektiv qonuniyatlarga asoslanganligini tekshirishga boy asr bo'ldi.

J.Gilfordning ishlari nashr qilinishi fikrlashning ikki turi o'rtasidagi prinsipial farqni aniqlashga imkon yaratdi.

Chiziqli mashina qat'iy mantiqqa asoslangan taklif qilingan variantlardan birdan-bir to'g'ri xulosani izlashga yo'naltirilgan.

Qo'shimcha fikrlash ichki tuyg'uga mos keladigan qarorlarning iloji boricha keng qamrovini yaratishga yo'naltirilgan. Ijodkorlik qobiliyatining quyidagi asosiy jihatlarini ajratgan:

- muammolarni aniqlab qo‘ya bilish qobiliyati;
- juda ko‘p g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;
- o‘zgaruvchanlik – har xil g‘oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;
- o‘ziga xoslik – ta‘sir qiluvchilarga (qolipdan tashqari) javob berish, bevosita bog‘lanmagan fikrlarni o‘ylab chiqish, odatdagidan boshqacha javoblar topish qobiliyati;

- muammolarni hal qilish qobiliyati, ya‘ni semantikaga oid o‘zgaruvchanlikni namoyon qilgan holda, obyektga yangi belgilarini ko‘rish, analiz va sintez qilish, yangi foydalanish yo‘lini topish qobiliyati.

Gilfordning ilmiy tekshirishlaridan kelib chiqqan holda ijodkorlik qobiliyati bilan o‘qishni o‘zlashtirish o‘rtasidagi bog‘liqlik juda ozligi aniqlangan, «ideal a‘lochi» va «ijodkor odamning» shaxsiy xususiyatlari esa bir-biridan jiddiy farq qiladi.

Ijodkorlik qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxsga xos bo‘lgan xususiyatlar:

- ko‘z qarashlarining o‘ziga xosligi;
- chegaradan chiqishga harakat qilish, «chegarani buzish»;
- noaniq vaziyatlarga bardoshlilik;
- predmetga oid faoliyatda konstruktiv (amaliy) faollik;
- mustaqil ishlash imkoniyati va ijtimoiy muhitning ta‘siriga bardosh beradigan iroda va kuch;
- har qanday yangi va g‘ayrioddiy narsalarni qo‘rqmasdan, yaxshi qabul qilishlik;
- go‘zallikka ta‘sirchanlik.

Bolalarni ijodiy tasavvur mexanizmlariga qanday o‘rgatish kerak?

Ba‘zi katta odamlar «xursandchilik» va «yengiltaklik» aynan bir xil deb o‘ylashadi. Aslini olganda, hazil va qiziqchilik – jiddiy muammoning o‘zi va bola ongi o‘rtasidagi eng yaqin masofadir. Tasavvur va matematika, fantaziya va fan bir-biriga raqib va dushman emas, balki ittifoqdoshlardir. Agar shunday bo‘lsa va biz haqiqatan ham bolalarni ijod zavqiga erishtirmoqchi bo‘lsak, u holda uchta asosiy maqsadga diqqat-e‘tiborni qaratishimiz kerak:

- Bolalarni ochilmagan sir va jumboqlarni O‘Z kuchlari bilan ochish mumkinligiga ishonitirish;
- bu sirlarni topish va ochishga imkon beruvchi ijodiy tasavvurning asosiy yo‘llarini o‘rgatish;
- idrok qilish, diqqat-e‘tiborni, xotirani, his-tuyg‘u va fikrlashni rivojlantirish uchun ijodiy tasavvur mexanizmlaridan foydalanish.

Xatolar ustida ijodiy ishlash yo‘llari.

1-bosqich. O‘qituvchi doskaga ikki ustunda so‘zlarni yozadi: juftlarni paydo qilish uchun xatosi bor so‘zlar va xatosi yo‘q so‘zlar.

2-bosqich. O‘qituvchi o‘quvchilar yordamida kulgili yoki fantastik

hikoya tuzadi, u yerda ushbu soʻzlar ertak qahramonlari sifatida ishtirok etadi: katta va kichik akalar, yuvingan va yuvinmagan odamlar va hokazo.

3-bosqich. 2 bosqichning variantini ifodalaydi.

1-variant. Oʻqituvchi «toʻgʻri va notoʻgʻri» soʻzlarni tarqatib, oʻquvchilarni juft yoki kichik guruhlariga boʻlib, mustaqil ravishda kulgili hikoya yoki fantastik qissa tuzishni taklif qiladi.

2-variant. Uyga vazifa beriladi.

4-bosqich. Oʻquvchilar ishlari oʻqiladi. Oʻqituvchi oʻquvchilar yordamida natijalarni jamlaydi, shu tarzda xatolar ustida ishlashni tugatadi.

Darslarda teskari ertaklardan foydalanish usullari

1-bosqich. Oʻqituvchi doskaga dars mavzusiga bogʻliq boʻlgan asosiy soʻzlar va tushunchalarning roʻyxatini yozadi.

2-bosqich. Oʻqituvchi oʻquvchilarga hamma biladigan ertakni tanlashni taklif qiladi. Tanlangan ertak asosida oʻqituvchi oʻquvchilar yordamida qanday qilib bosh qahramonlarning paydo boʻlishini, ularning harakatlari va asosiy sujetda boʻlgan sarguzashtlar ketma-ketligini aks ettiruvchi chizmani tuzish mumkinligini namoyish qiladi.

3-bosqich. Oʻqituvchi qanday usullar yordamida ertakning «avra-astarini» agʻdarish, yaʼni bosh qahramonlarning joylarini almashtirish, ularning harakatlarini oʻzgartirish va shu kabilarning mumkinligini oʻquvchilarga koʻrsatadi.

4-bosqich. Oʻqituvchi oʻquvchilar bilan birgalikda «yangi ertakning» sxemasini tuzishni taklif qiladi, u yerda dars mavzusiga bogʻliq tushunchalar muhim rol oʻynaydi.

5-bosqich. Oʻqituvchi birgalikda, juft-juft boʻlib yoki kichkina guruh boʻlib ogʻzaki yoki yozma hikoya – oʻqish ertagini tuzishni taklif qiladi.

Xulosa

1. Xato metodi yangi fikrni yuzaga keltiradi, yangi hikoyaning konturini moʻljallaydi.

2. «Teskari ertaklar» metodini biror ertakning bir elementiga yoki hamma elementlariga qoʻllash mumkin, qisman yangi yoki butunlay yangi hikoya boʻlib chiqishi aynan shunga bogʻliq.

3. Birinchi va ikkinchi sinflarda ertaklarni yaratish ikkinchi bosqich asosida boʻladi, yaʼni tanlangan ertak «kadrlarga ajratiladi» va asosiy sujetning sxemasi tuziladi, u sujetga dars mavzusiga bogʻliq boʻlgan asosiy soʻzlar va tushunchalar kiritiladi hamda shu asosda ertakning oʻzgartirilgan shakli yuzaga keladi.

4. Uchinchi va toʻrtinchi sinflarda oʻquvchilar hikoyalar tuzishning har xil usullarini oʻzlashtirganlaridan keyin bosqichma-bosqich koʻrsatmada tasvirlangan hamma muolajalardan foydalanishi mumkin. Variantlardan

biri quyidagicha bo'lishi mumkin: o'quvchilar mustaqil o'quv materialini o'qishadi va asosiy tushunchalar, yangi va notanish so'zlarni ajratib, bilgan ertakni qismlarga bo'ladilar, «teskari» ertakning sxemasini tuzadilar va unga yangi ma'lumotlarni kiritadilar, yozadilar va aytib beradilar.

TALABALARNING IJODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

«...XXI asr sivilizatsiyasiga yo'l boshlovchi ilmiy-texnika jarayoni kimda-kim o'zining intellektual imkoniyatlarini tahlil qilish, sintezlash, baholash, shuningdek, moslanuvchan aqliy va ijodiy qobiliyatlarini boshqalarga nisbatan yaxshi rivojlantira olsa o'shanga ish va mansab in'om etadi», – bu deyarli 20 yil avval yozilgan bashoratli satrlar, zamonaviy mutaxassislar tayyorlashga qo'yilayotgan talablarni juda aniq belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi bilan ta'lim muassasalarining barcha turlarida, jumladan, oliy o'quv yurtlarida ham o'quv-metodik adabiyotlarni, moddiy-texnik bazani, professor-o'qituvchilar tarkibini, mutaxassislar tayyorlash strukturasi yangilashga qaratilgan qayta qurish boshlandi.

Lekin strukturani yangilash bilan bir qatorda ta'lim jarayonini mazmunan yangilashni ham qo'shib olib borish zarur. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar mutaxassislarning yangi avlodi egallashi zarur bo'lgan bilimlar, malakalar va ko'nikmalarga yangi-yangi talablarni keltirib chiqarmoqda. Bu, birinchidan, ilmiy bilimlarni ko'p talab qiladigan texnologiyalarni keng tarqalishiga taalluqli bo'lsa, ikkinchidan, ishni tashkil qilishdagi o'zgarishlar va o'qitish jarayonining natijalariga tegishlidir.

Uzoq vaqtlar davomida ijod – bu insonga tabiat ehson etgan noyob qobiliyat, u har kimga ham berilmaydi, deb kelingan. Tajribali pedagog-psixologlarning ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, ijodiy qobiliyatga hamma ham ega, lekin uning namoyon bo'lishi, ro'yobga chiqishi real hayotiy sharoitga va individning psixologik holatiga bog'liq ekan.

Zamonaviy ta'lim tizimida ijodiy fikrlashni rivojlantirishning o'ta muhimligini eng kamida ikkita asosiy sababi bor.

Birinchidan, oliy o'quv yurti akademik ta'limining haqiqiy hayot talablaridan ajralib qolganligi, berilayotgan «tayyor» umumiy va kasbiy bilimlarning amaliyotga mos kelmasligi talabalarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarining susayishiga sabab bo'ldi. Va buning oqibatida olingan bilimlarning sifati pasaydi. Bu bilimlarning o'zi ham ko'pincha ma'lumot xarakteriga ega bo'lib, o'zlashtirishning reproduktiv darajasigagina taalluqli bo'lib qolmoqda. Vaholanki, hayot «...fanlarni kognitiv o'zlash-

tirish bilan chegaralanmaslikni talab qiladi. Yangi pedagogik va didaktik yondashuvlarga va ularning rivojlanishiga sharoit yaratish zarur. Chunki, aynan shular kommunikatsiyaga, ijodiy va tanqidiy tahlil, mustaqil fikrlash (mualliflar tomonidan belgilangan) va ko'p madaniyatli mazmunda jamoatchilik mehnati bilan, qachonki ijod ham an'anaviy yoki milliy bilim va ko'nikmalarni zamonaviy fan va texnika yutuqlari bilan uyg'unlashuviga asoslanganida munosib malakalarni egallashga, bilimdonlik va qobiliyatlikni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadilar».

Ikkinchidan, o'zbek xalqiga xos mentalitet – kattalarning irodasiga bo'ysunish, o'qituvchi o'rgatgan narsaga so'zsiz ishonch hosil qilish, hayotiy masalalarni hal qilishda samarasiz bo'lsa-da, eng oson yo'l tanlash, amaliy ziddiyatlarni mumkin qadar chetlab o'tish kabi qator qonimizga singib ketgan odatlarimiz ko'p hollarda ijodiy fikrlashning cheklanib qolishiga sabab bo'ladi.

Shuning uchun ham kelajakda buyuk taraqqiyotga ega, huquqiy davlat qurishni maqsad qilgan Vatanimiz yoshlarida ijodiy fikrlashni rivojlantirish, ularning yangilik yaratishga bo'lgan xohish va istaklarini imkon darajasiga ko'tarish ko'zlangan maqsad va ezigulik yo'lidagi ta'lim tizimining asosiy tadbirlaridan biri hisoblanishi lozim.

BILIMLARNING SHAKLLANISHIDA FIKRLASHNING ROLI

O'qitishga an'anaviy yondashuvda «tayyor» bilimlarni uzatib berish modeli asosiy o'rin egallagan. Bilim insondan insonga suvni bir idishdan ikkinchi idishga quygandek uzatiladi. Shiddat bilan o'zgaruvchi hozirgi zamon jamiyatida esa bunday yondashuvni qo'llab bo'lmaydi. O'zgarishlarga moslashuvchan bo'lish uchun asosiy va hayotiy zarur talab sifatida o'qishga qobiliyat xizmat qiladi. Ya'ni, bunda o'qishga tayangan, ta'lim jarayonining markaziga talabani qo'yadigan ta'lim modeli namoyon bo'ladi. Ushbu modelda bilim dinamik ko'rinishga, mazmun nuqtayi nazaridan o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega tushunchadir. Biz barchamiz noldan boshlashimiz va g'ildirakni qaytadan ixtiro qilishimiz kerak, deb o'ylash, turgan gapki, haddan tashqari sodda o'ylashdir. Biz yangi bilimlarni yaratish uchun ilgari kimdir yaratgan bilimlarga tayanamiz.

Psixologiya akademik fan sifatida paydo bo'lgan 100 yildan ortiq muddat davomida fikrlash jarayonini o'rganish bilan shug'ullanganiga qaramay, kognitiv psixologiya, ya'ni psixologiyaning fikrlash tabiati va bilimlarni o'rganish sohasi keyingi 20 yil davomida ilmiy psixologiyada haqiqatan ham hal qiluvchi o'rin tutmoqda. Uning namoyandalari masalalarni hal qilishda, mulohaza yuritishda va qarorlar qabul qilishda foydalaniladigan texnika

va strategiyalarni o'rganish vazifasini o'z oldilariga asosiy maqsad qilib qo'yadilar. Bundan tashqari, bu qobiliyatlarni intellektga qanday bog'liqligi masalasi ham ularni qiziqtiradi. Fikrlash jarayoniga bunday jiddiy qiziqish, psixologiyaning «kognitiv jarayonlarga o'rgatish» deb nom olgan yangi sohaning paydo bo'lishiga olib keldi. Uning vazifasi – insonlarga o'z fikrlash qobiliyatlarini yaxshilashga yordam berish uchun inson fikrlashi jarayonlari va mexanizmlari haqidagi biz to'plagan bilimlarni qo'llash imkonlarini topishdan iborat. Bu sohada to'plangan bilimlar, xaritalarni o'qishni harbiy malakalardan tortib, to qulay va tushunishga oson bo'lgan kompyuter dasturlarini ishlab chiqishgacha bo'lgan jarayonda, amaliy masalalarni hal qilishda qo'llana boshlandi.

Zamonaviy tadqiqotlar ta'kidlashicha, fikrlash aqliy qobiliyatlarga bog'liq emas va murakkab muammolarni hal qilish zarurati ta'sirida rivojlanmaydi. Intellekt bilan fikrlash orasidagi bog'liqlik mashina bilan uning haydovchisi orasidagi bog'liqlikka o'xshash: yuqori quvvatli mashinani uquvsizlik bilan, kamtarona avtomobilni esa mohirlik bilan boshqarish mumkin. Quvvat mashinaning salohiyati bo'lganidek, intellekt aqlning salohiyatidir. Lekin mashinaning harakatlari boshqaruvchining mohirligiga bog'liq. Fikrlashni ketma-ket bosqichlar seriyasi sifatida amalga oshiriluvchi axborotni uzatish va qayta ishlash jarayonidan iborat, deb tasavvur qilish mumkin.

XX asr boshlarida psixologlar fikrlash inson ongida qator obrazlarni kombinatsiyalash yo'li bilan ro'y beradi, deb tushunar edilar. Keyinchalik boshqa psixologlar fikrlash – bu so'zlari ovoz chiqarib aytilmaydigan, o'z-o'zi bilan gaplashishga o'xshash «ichki nutq», degan gipotezani ilgari surdilar. Biz ko'p hollarda nimalar bo'layotganligini butunlay yoki deyarli anglamaymiz.

Albert Eynshteyn o'zining o'ta murakkab masalalarni hal qilish qobiliyatlarini, ko'pincha, har doim tasavvur yordamiga murojaat qilishdan, deb bilar edi. Shaxsiy tasavvurdan foydalanishning yorqin misoli sifatida kimyogar Kekule bilan ro'y bergan hodisani keltirish mumkin.

Hozirgi vaqtda keng tarqalgan, inson fikrlashini tushunishga yo'naltirilgan yondashuv fikrlash jarayonlarini kompyuterlarning ishlash prinsiplariga o'xshash tarzda modellashtirishdan iborat. Psixologlar va ularning yondashuvlari ma'qul bo'lgan boshqa olimlar (muhandislar, tilshunoslar, tibbiyot sohasi mutaxassisleri) foydalangan yo'llardan biri, qandaydir masalani yechishda hisoblash mashinasida bo'lib o'tadigan jarayonlar va operatsiyalar inson fikrlashini imitatsiya qiluvchi holatlarni yaratishdan iborat.

Odamlarni qanday fikrlayotganligini bilish uchun ular qandaydir bir masalani yechayotganlarida xayoliga kelgan barcha narsalarni ovoz chiqarib

aytishni so‘rash kerak. Bunda tajriba o‘tkazuvchilar «ovoz chiqarib fikrlash bayonnomasi»ni tuzadilar. Bayonnoma sinaluvchining masalani hal qilish ustida ishlayotgan vaqtida nimalar qilayotganligini bildiruvchi o‘z og‘zidan so‘zma-so‘z olingan yozuvdan iborat bo‘ladi. Fikrlash bayonnomasi fikrlash jarayonlarini tushunish uchun ham, ularni takomillashtirish uchun ham foydali bo‘lar ekan. Matematikani o‘qitish sohasida ko‘zga ko‘ringan Tomas Gudning aniqlashicha, o‘quvchilar matematikani o‘rganishda materialni yaxshi o‘zlashtirishlari uchun o‘qituvchilar biror bir masala ustida ular bilan birga ishlayotganda yechish jarayonini ovoz chiqarib gapirib o‘tkazishlari zarur. Pedagoglar ovoz chiqarib fikr yuritayotganida «axborotni qayta ishlash strukturasi va fikrlash usulini...» namoyish qiladilar, «...va bunda o‘quvchilar yashiringan bog‘lanishlarni yaxshi tushunishlari mumkin». Fikrlashni yaxshilash yo‘llaridan biri – mutaxassislarining fikrlash bayonnomalarini tahlil qilish va keyin ularga o‘xshab o‘zlarining fikrlash jarayonlarini modellashtirishdan iborat.

Tadqiqotlar aniqlashicha, modellashtirishning bu usullari yangi o‘rganuvchilarning fikrlash jarayonlarini rivojlantirish uchun juda foydali hisoblanadi. Shuningdek, shaxsiy fikrlash yozuvlarini o‘rganish, o‘zining bo‘sh joylarini, masalan, axborotni qandaydir bir turlari bilan ishlashga qobiliyat yetishmasligi yoki boshqa kamchiliklarni ko‘rish uchun ham foydali. Ovoz chiqarib fikrlashni amalda qo‘llab, «odamlar aniq tizim bo‘yicha – oldinga ham ketib qolmay va asossiz bashorat bilan ham shug‘ullanmay ishlashga o‘rganadilar. Fikrlashni verballashtirish jarayoni fikr yurituvchiga u tanlagan strategiyani baholashga va muloqot qilish malakalarini rivojlantirishga imkon beradi. Bu uslubiyotlar fanlar bo‘yicha kurslarni o‘zlashtirishda ham foydali, chunki ular o‘quvchilar e‘tiborini o‘zlarining fikriy tushunchalariga va o‘rganayotgan faniga jalb qiladi.

Fikrlash jarayoniga bo‘lgan an‘anaviy nuqtayi nazarga asosan tanqidiy fikrlash, munozara, tahlil va mantiqqa e‘tibor qaratiladi. Bu jabhalar juda katta ahamiyatga ega, lekin ularning barchasi fikrlash jarayonining bir qismidan iborat.

IJOD TA'RIFI VA UNING BILISH JARAYONIDAGI ROLI

Ijod tushunchasining yagona ta‘rifi yo‘q shu sababli, odamlar «g‘ayrioddiy», «yaxshi» va «foydali» deb nimani atash mumkinligi haqida yagona fikrga ega emaslar, bu tushunchalar juda nisbiy bo‘lib, qaysi nuqtayi nazardan qarashingizga bog‘liq. Biror bir g‘oya yoki qandaydir bir faoliyat natijasi ijodiy deb e‘tirof qilinishi uchun, avvalambor, uni atrofida g‘ayrioddiy, yaxshi va foydali, deb tan olishlari zarur. Yana shuni ta‘kidlash

zarurki, ijod tushunchasida vaqtlar o'tgan sayin muhim o'zgarishlar ro'y bermoqda. Masalan, bizning zamonamizda Yerning aylanishi haqidagi tushuncha o'z vaqtida ahmoqona fikr, deyilgan edi.

Gardner ijodga bergan ta'rifida yana bir shartni qo'shdi. U ijodiy inson albatta uzluksiz ravishda ijodiy masalalarni hal qilishi va ijod mahsulotlarini yaratishi shart, deb hisoblaydi. Bu qo'shimcha shart ijodiy jarayondagi «omad» tushunchasini siqib chiqaradi, chunki uzluksiz natija hisoblanayotganda favqulodda va juda kam bajariladigan harakatlar e'tiborga olinmasligi kerak. Lekin biz qaysi ta'rifni tanlab olmaylik, baribir barchamiz ijodga ehtiyoj sezamiz va u yoki bu darajada ijod qilamiz. Ijodiy faoliyat bizning kundalik hayotimizni jozibaliroq qiladi; fan va san'atni ijodsiz tasavvur qilib bo'lmaydi; ijodsiz matematika va boshqa fanlar taraqqiyotini tasavvur qilish mumkin emas. Biz har doim murakkab fikrni ifodalaganimizda yoki oq qog'ozni matn bilan qoraytirganimizda ijod qilamiz. Agar biz shu ishni samarali va g'ayrioddiy tarzda uddalay olsak, buni rosmana ijod qilish, deb atash mumkin.

Hozirgi zamon psixologlari, Eynshteyn, Mariya Kyuri va Motsart kabi ijodiy gigantlarda «hech qanday g'ayritabiiylik» mavjud bo'lmay, ularning ijodini kundalik oddiy jarayonning davomi degan xulosaga kelishdi. Vaysberg har doim ijodni oddiy hodisa, deb qarashni himoya qilar edi. Bunga misol tariqasida u temir va simlardan yasalgan abstrakt haykallari bilan mashhur bo'lgan rassom Aleksandr Kalderning tarjimayi holini keltiradi. Yoshligida Kalder simlardan o'z singlisiga bezaklar yasagan. Uning ota-onasi rassomlar bo'lib, farzandlariga san'at darsini o'tar va bola yoshligidan otasi yaratgan haykallar va onasining chizgan rasmlari bilan qurshalgan edi. U vaqti-vaqti bilan mashhur, o'z ishlarida «kuchli» sof ranglar va abstrakt kashtalardan foydalangan rassom Pit Mond-rianning ustaxonasida ko'p bo'lib turar edi. Shuning uchun rassom tomonidan shu bolalikning barcha hayotiy taassurotlari yorqin abstrakt konstruksiyalarda o'z ifodasini topganligi hech qanday kutilmagan hodisa emas. Kalder ijodida turli ta'sirlarning uyg'unlashuvi o'z aksini topdi. Vaysbergning so'zlariga qaraganda, shunday bo'lishini uning tarjimayi holidagi faktlarga ko'z yugurtirib oq oldindan aytish mumkin edi.

Ijodiy jarayonda biz ko'p ham biror narsani isbot qilishga harakat qilavermaymiz, balki barcha imkoniyatlarimizdan foydalanib muammoning yechimini ilgarilatishga urinamiz va faqat yangi g'oyaga kelgandan so'ng uning haqiqiylikini va ahamiyatlilikini isbotlashga kirishamiz.

Ijodiy fikrlash «sakrab» birorta yangi holatni egallashga va keyin tanlab olingan natijani anglashga imkon beradi.

Gipotezalar, farazlar yoki g'oyalardan foydalanib keskin ijodiy sakrashni amalga oshirish mumkin. Ayrim hollarda axborot taqchilligida

biz yetishmayotgan tafsilotlarni o‘ylab topishga majburmiz. Ijodiy fikrlash jarayonida farazlar va taxminlarni ilgari surish axborotlar olishga va g‘oyalarning paydo bo‘lishiga yangi yo‘llar ochadi.

Faqat axborotlarni tahlil qilishgina yangi g‘oyalarning paydo bo‘lishi uchun yetarli emas. Bunda aql foydalanishga oldindan tayyor qilib qo‘yilgan, ya‘ni eski g‘oyalarnigina ko‘rishi mumkin. Shuning uchun farazlarni ilgari surish san‘atini rivojlantirish zarur. Ularning diapazoni yetarli darajada keng, ya‘ni to‘la asoslangan tasdiq (gipotezalardagi kabi)dan tortib to ko‘p hollarda, hatto, to‘g‘riga o‘xshashlikka da‘vo ham qila olmaydigan mantiqsiz farazlargacha bo‘lishi mumkin!

Mantiqsiz g‘oya muammoga boshqa tomondan nazar tashlashga imkon beradi. U yangi yo‘llarni taklif qilmaydi, lekin eski va toptalgan yo‘llardan chiqaradi.

Ijodiy fikrlashdan foydalanib «sakraganda» biz fikrlashimizdagi ikki holatni birlashtiruvchi «so‘qmoq» ochamiz, mashaqqatli, sekin va ko‘p mehnat talab qiluvchi ma‘lum faktlarni tanlashdan voz kechish bilan go‘yo o‘z fikrlarimizdan ilgarilab ketganday bo‘lamiz.

IJODIY FIKRLASHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JABHALARI

XV asr o‘rtalarida (kitob chop etish ixtiro qilingan vaqtlarda) Yevropada har yili 1000 ga yaqin yangi kitoblar yaratilar edi. XVIII asrning boshlarida yangi yaratilgan ilmiy asarlarning soni yuztadan ortmas edi. XX asr o‘rtalarida 120 000 tagacha yangi kitoblar nashr qilindi. Bugungi kunda butun dunyoda har yili 60 million bosma ilmiy va texnik adabiyotlar nashr qilinadi. Hatto, har bir yangi kitob bizni bilimlarimizni to‘la ma‘noda ko‘paytiradi, deb tasdiqlab bo‘lmasa-da, keskin ortayotgan kitobiy mahsulotning hajmi inson bilimlarini muayyan chegarada sezilarli o‘shishini xarakterlaydi. Hozirgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda ta‘lim rolining o‘shishi, ta‘limning yangilanish sharoitlarida pedagogning an‘anaviy vazifalari ta‘lim berish, tarbiyalash bilan bir qatorda, ta‘limni va ijtimoiy-madaniy muhitni mazmunan va kechish jarayoni jihatidan oldindan bashorat qilish, loyihalashtirish va tashkil etish kabi kasbiy vazifalari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda ta‘lim o‘zgarib borayotganligini, ya‘ni «taqlid qilish» paradigmasidan «axborot» paradigmasiga o‘tib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Ta‘limning axborot tizimida erishilayotgan ulkan muvaffaqiyatlar axborot hajmini kengaytirish va shunga yarasha o‘qitish davrini uzaytirishga bo‘lgan ishtiyoqni tug‘dirdi, bu esa ta‘lim tizimini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi. Shu o‘rinda ilmiy axborot sohasida ham o‘zgarishlar yuzaga kelmoqda. Bular quyidagilardan iborat:

- insoniyat tomonidan jamlangan to‘la ilmiy axborot;
- ilmiy axborotning yillik o‘sishi.

Mavjud mehnat taqsimoti tizimida va unga mos kasbiy ta‘lim differensiasiyasida o‘quv materialini o‘zlashtirish natijasida olingan ixtisoslashtirilgan bilimlar o‘z ahamiyatini tez yo‘qotadi. Mutaxassis o‘z kasbiy vazifalarini malakali bajara olishi uchun o‘z bilimlarini, masalan: malaka oshirish, kasbiy qayta tayyorlanish va hokazo yo‘l bilan uzluksiz yangilab borishi zarur. Olingan bilimlardan samarali foydalanish vaqti tez kamaymoqda.

Siz bilan shunday voqea sodir bo‘lganmi: ko‘p soatlar davomida biror masalani hal qilish ustida natijasiz bosh qotirgansiz-u, lekin qandaydir bir vaqtga xayolingiz chalg‘ishi bilan masalaning yechimi miyangizga o‘z-o‘zidan kelgan. Aynan shu narsa inkubatsiya davri deyiladi. Inkubatsiya anglanilishi qiyin tushuncha. Shu sababli Nobel mukofoti laureati psixolog Gerbert Saymonning bu haqda bergan tushuntirishini misol tariqasida keltiramiz:

«Biz qandaydir bir masalani hal qilish ustida ishlayotganimizda, imkoniyatlari cheklangan qisqa muddatli xotiramizda saqlanayotgan nisbatan kam holdagi tushunchalarga tayanamiz. Biz qachonki masala ustida bosh qotirishni to‘xtatsak, qisqa muddatli yoki operativ xotirada saqlanayotgan axborot tez unutiladi.

Agar bu axborot kerakli yechimini topish uchun mahsulot bermaydigan bo‘lsa, undan kulish hatto foydali omil bo‘lishi mumkin. Buning ishonarli isboti sifatida hammamizga yaxshi tanish bo‘lgan holatni keltirish mumkin. Qachon biz kishini ismini eslashga harakat qilsak va u tilimizni uchida turgan bo‘lsa-yu, lekin hech eslashni ilojini topmasak, u holda natijasiz o‘ylashdan to‘xtashimiz bilanoq u o‘z-o‘zidan bizning xotiramizga qalqib chiqadi».

Psixologlar «biror narsa to‘g‘risida o‘ylash» yoki «biror narsani xotirlash» jarayonlarini faollashtirishning tarqalishi, deb ataydilar. Kengroq bilimlar to‘riga ega bo‘lgan odamlarda faollashtirishni tarqalish sohasi ham kattaroq bo‘ladi. Zich kirishgan bilimlar to‘rini hosil qilishning eng yaxshi usuli – o‘zaro bog‘langan bilimlarga ega bo‘lishdir. Aniq sohadagi bilimlar alohida ahamiyatga ega. Agar siz talabalarigizni ijodiy qobiliyatlarini namoyon qila olishini xohlasangiz, ular muayyan sohada bilimlarni egallashlari, siz esa ularni masalani hal qilishi uchun zarur axborot olish imkoniyati bilan ta‘minlashingiz zarur. Yangi g‘oya yaratish uchun aynan bilimlarning zich kirishgan turi kerak, kam bilimlar yangi g‘oya yaratish uchun yetarli bo‘lmagan fikrlarga olib keladi. Psixologlar «biror narsa to‘g‘risida o‘ylash» yoki «biror narsani xotirlash» jarayonlarini faollashtirishning tarqalishi, deb ataydilar. Kengroq bilimlar to‘riga ega bo‘lgan odamlarda faollashtirishning tarqalish sohasi ham kattaroq bo‘ladi. Zich kirishgan bilimlar to‘rini hosil

qilishning eng yaxshi usuli – o‘zaro bog‘langan bilimlarga ega bo‘lishdir. Aniq sohadagi bilimlar alohida ahamiyatga ega. Agar siz talabalarinigizni fanda ijodiy qobiliyatlarini namoyon qila olishini xohlasangiz, ular muayyan sohada bilimlarni egallashlari, siz esa ularni masalani hal qilishi uchun zarur axborot olish imkoniyatlari bilan ta‘minlashingiz zarur. Yangi g‘oya yaratish uchun aynan bilimlarning zich kirishgan turi kerak, kam bilimlar yangi g‘oya yaratish uchun yetarli bo‘lmagan fikrlarga olib keladi.

Ijodni ham uchta tushunchalar orqali ta‘riflash mumkin, bular: sezgirlik, sinergiya va intuitsiya.

Sezgirlik – bu bizning sezgilarimizdan, bizning «tashqi dunyoga ochiladigan darcha»mizdan foydalanishdir. Biz ular yordamida sezamiz, hidlaymiz, ta‘m tatib ko‘ramiz. Baribir bizning ko‘pchiligimiz odatda e‘tibor bermaydigan narsalarni ijodiy shaxslar sezadi va eslab qoladi. Bunday insonning belgilaridan biri shuki, u faqat masalaning yechimigagina emas, balki uning qo‘yilishiga ham ijodiy yondashadi.

Sinergiya – bu birinchi qarashda qo‘shib bo‘lmaydigan ko‘rinadigan narsalarni bir butun hamda foydali va ishlaydigan qilib birlashtirishdir. Agar siz bilimlarni turli sohalariga tegishli bo‘lgan ikki g‘oyani yangi mazmunda muvaffaqiyatli ishlay boshlaydigan qilib birlashtira olsangiz, demak, siz sinergiyaga ko‘rgazmali misolni namoyish qilgan bo‘lasiz. Sinergiyaga misollarni yuqorida keltirilgan Kalderning qisqa tarjimai holidan ham topish mumkin. Chunki u simlar bilan ishlashdagi o‘z bilimlarini yorqin ranglar va abstrakt rasmlar bilan uyg‘unlashtirib, hayratlantiruvchi konstruksiyalar yarata olgan.

Ijodning baquvvat harakatlantiruvchi kuchi – bu intuitsiyadir. U kutilmagan va rejalashtirilmagan kashfiyotga olib keladi.

Intuitsiyaning ijod jarayonida muhim rol o‘ynashi shubhasiz, lekin, shuningdek, uni maqsadga intilish va mehnatsevarlik bilan mustahkamlash zarurligi ham hech qanday shubha tug‘dirmasligi kerak. Albatta, ilmiy kashfiyotni sof intuitiv ravishda qilish mumkin, lekin bunday baxtli «tasodiflar»ning laboratoriyalarda butun kun-u tun davomida bajarilgan mashaqqatli mehnatdan keyin ro‘y berish ehtimoli kattaroq. Fikrlash jarayonida intuitsiya muhim rol o‘ynaydi, lekin intuitsiya to‘g‘ri yechimni ham ko‘rsatadi, deb o‘ylash va undan umid qilib, faqat kutib o‘tirish yaramaydi. Intuitsiya ba‘zi hollarda pand berishi ham mumkin, lekin u emotsiya va sezgilar bilan bir qatorda fikrlashning ajratib bo‘lmaydigan qismidir.

Mantiq fikrlashning eng muhim elementi hisoblanadi. Bu taajjublanarli emas, chunki maktabda asosan reaktiv fikrlashga urg‘u beriladi. Ushbu holat oliy o‘quv yurtida ham davom etadi, ya‘ni talabadan oldindan rejalashtirilgan sharoitga mos ravishda ta‘sir qilish talab etiladi. Ko‘z oldingizda turgan

narsaga siz qanday munosabatda bo'lasiz? Shunday qilib, masalani hal qilish uchun barcha axborot to'la berildi. Boshqotirmaning qismlari sizning qo'lingizda. Javobni olish uchun siz mantiqiy mulohazani qo'llaysiz.

Tanqidiy fikrlash to'la bo'lmasa ham ko'proq darajada mantiqqa asoslanadi. Shuningdek, muzokaralar va ikki tomonning har qanday qarama-qarshiliklari ham. Mantiq yordamida biz bir holatdan ikkinchisi tomon harakat qilamiz. Tashqaridan axborot kirmaydi, biz ilgariga faqat mavjud ma'lumotlar asosida siljiymiz (deduktiv mantiq).

Mantiqiy dalil kutilayotgan natijaga bog'liq bo'ladi. Agar biz «shunday narsani kutish mumkin» degan ibora bilan kifoyalansak, u holda faraz natija bo'lib hisoblanadi.

Olimlar, oddiy ma'lumotli kishilar ham o'z g'oyalarini har doim mantiqiy bayon qilishga harakat qiladilar. Hatto, agar ilmiy kashfiyot tasodifiy ravishda qilingan bo'lsa-da, u baribir mantiqiy bayon qilinishi kerak. Aks holda u qabul qilinmaydi.

Biz u yoki bu xulosaga qanday kelinganligini bilishimiz zarur, ya'ni biz mazkur natijaga olib kelgan fikrlashni qanday yo'ldan borganligini kuzatishni xohlaymiz.

Idrok – bu, bizni o'rab turuvchi dunyoni ko'rishimizdir. Odatda qabul qilinuvchi obrazlar tilning so'zlariga yoki matematik simvollarga aylantiriladi. Keyin biz qandaydir xulosaga kelish uchun tilshunoslikda va matematikada mavjud mantiqiy qoidalarni qo'llaymiz.

Donishmandlik ham idrokka asoslangan. Donishmandlik – bu mavjud yoki kelajakda paydo bo'ladigan narsalarni qabul qilishdir.

Donishmandlik ularga turli tomondan nigoh tashlashga yordam beradi.

Xayol surish (воображение) – bu haqiqiy va haqiqiy bo'lmagan yangi obyektlar obrazlarini yaratish qobiliyatidir. Uning uch darajasi mavjud:

1) inson tomonidan ilgari qabul qilingan yangi (o'zgartirilgan) obyektning obrazini yaratish (masalan: barcha mevalar va sabzavotlar o'sadigan daraxt);

2) odam o'zi shaxsan idrok qilmagan, lekin u haqda dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lgan obyektning yangi (qurilib bitkazilgan) obrazini yaratish (masalan: vaznsizlik, magnit to'foni, shisha, yomg'ir);

3) butunlay mavjud bo'lmagan va u haqda boshlang'ich ma'lumotlar ham yo'q bo'lgan yangi (sintezlangan) obyekt obrazini yaratish (misollar: o'zga sayyoradan kelgan mavjudot, gazzimon o'simlik, qattiq aks sado, jonli hid, odamning ichida yil fasllarining o'zgarishi).

Ijodiy fikrlashni boshqa har qanday faoliyat kabi ijtimoiy ma'nosidan ajralmas holda qarash zarur, bilish jarayonlariga oid adabiyotlarda aynan shu narsa ko'pincha e'tibordan chetda qoldiriladi.

Ijod bilan shug'ullanuvchi odamlar, odatda, tirishqoq, mehnatkash bo'ladilar. Ishtiyoqning bunday turi ichki ishtiyoq deyiladi, chunki u individning o'zidan chiqadi. Aksincha, odatda, maktabda va ishda taklif qilinadigan ishtiyoq tashqi ishtiyoq deyiladi, u o'zgalardan rag'bat (yaxshi baho va pul va dasi) ko'rinishida chiqadi. Olimlarning fikricha, insonni ijodga eng yaxshi tarzda tortish uchun uning atrofida ichki ishtiyoqini maksimal darajada ko'taruvchi holatni yaratish kerak.

Ijod bu o'z-o'zining ishtiyoqini uyg'otuvchi va o'zini o'zi nazorat qilishni talab qiluvchi og'ir aqliy mehnatning natijasidir. U yetarli darajada tushunish uchun murakkab va sirli: hech kim «ijod» nimaligini va qanday qilib oddiy tashkil etuvchilardan shunday ajoyib narsalar yaratilishini aniq aytib bera olmaydi.

Deyarli har bir ijodiy faoliyat, maqsadga erishish uchun ilgari noma'lum bo'lgan, relevant axborotni aniqlash yo'llarini o'z orqasidan ergashtiradi. Odatda biz ijod tushunchasini san'at va fan bilan bog'laymiz, vaholanki u oddiy hayotda ham o'z mablag'larini o'zining oxirigacha yetadigan qilib taqsimlashdan tortib to'qituvchining o'z vaqtida topshirilmagan amaliyot bo'yicha hisobotni yoki kurs ishini qabul qilishga qanday majburlashigacha kerak va muhim.

Ijodiy yechimni kuta olish uchun ijodiy shaxslar chindan ham o'z ishlariga qiziqqan va g'oyaga sodiq bo'lishlari shart. Lekin masala ustida ishlashga bo'lgan xohishni «shaxsiy majburiyatlar qabul qilish» deb atashgan. Bunda ishtiyoq mehnatsevarlik, sarflangan vaqt va barcha mumkin bo'lgan variantlarni o'rganishga xohish orasidagi yaqin bog'liqlik sifatida tushuniladi.

Ijodiy fikrlash – yangi yaratuvchan – konstruktiv (ayrim hollarda mantiq chegarasidan chiquvchi) g'oyalarni intellekt, intuitsiya va ijodiy tasavvur yordamida generatsiyalash va ro'yobga chiqarish jarayonidir.

TAFAKKUR OLAMIDA IJODIY FIKRLASHNING O'RNI

Bugungi kunda kadrlar tayyorlash milliy dasturida qo'yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda talabalarni ijodiy fikrlashga o'rgatish muammosi oliy ta'limning o'z yechimini kutayotgan eng dolzarb muammolaridan biriga aylanib qoldi.

Xo'sh, ijodiy fikrlash o'zi nima? Uning fikrlashning boshqa turlari bilan munosabati, ular orasida tutgan o'zni va mavqeyi qanday?

Yer yuzidagi eng murakkab va noyob mavjudot – bu insondir. Yashash qonunlari uni atrof-olamni o'zgartira borib, ko'nikib qolingan hayotni ta'minlash uchun uzluksiz fikrlash va ijod qilishga majburlaydi. Insonni fikrlash va ijod jarayonlari yetarli darajada rang-barang va murakkab bo'lib, tor ma'noda uni barcha xossalarini va qonuniyatlarini aniq tavsiflash qiyin.

Shu sababli ijodiy fikrlashning aniq ilmiy ta’rifi bugunga qadar mavjud emas. Shuning uchun bo’lsa kerak, fikrlash nazariyasining ko’zga ko’ringan namoyandalari ham fikrlashning bu noyob turini mahsuldor yoki intuitiv fikrlash bilan bir o’ringa qo’yib qo’yadilar. Fikrimizning dalili sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

«Ijodiy (mahsuldor) fikrlash tarixi va muammosi yetarli darajada aniq ifodaga ega emas. Ismi eslatilishi bilan «mahsuldor fikrlash» atamasi yodga tushuvchi Vertgeymer ham bu muammoni zarur aniqlik bilan ayta olmadi».

Ijodiy fikrlash bir qancha tomonlari bilan tanqidiy fikrlashga yaqin. Shunga ko’ra Devid Klusterning maqolasidagi tanqidiy fikrlash haqida bildirgan qimmatli fikrlaridan moslashtirib foydalanish mumkin.

Birinchidan, tanqidiy fikrlashga o’xshash ijodiy fikrlash atamasi juda ham ko’p turli parametrlar (mahorat, faoliyat turlari va hokazo) ni o’z ichiga olganligi uchun uning aniq ta’rifini berish oson emas.

Fikrlash nazariyasi borasida qilingan ishlar yana ijodiy jarayonni bir necha bosqichlardan (ko’p hollarda uchtdan to’rttagacha) iborat deb xulosa chiqaradi. Turli mualliflar tomonidan taklif qilingan bu bosqichlar, asosan, tafsilotlari tomonidagina farqlanib, umumiy ko’rinishda ularni taxminan quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

Birinchi bosqich (ongli ish)— tayyorgarlik – yangi g’oyani yalt etib paydo bo’lishidan oldin bajariladigan alohida faoliyat holati.

Ikkinchi bosqich (anglab yetilmagan ish) – pishib yetilish – muammoni «yechish» ustida bajariladigan anglanmagan ish, yo’naltiruvchi g’oyaning inkubatsion davri.

Uchinchi bosqich (anglanmagan holatni anglangan holatga aylantirish) – ilhomlanish – anglanmagan ish natijasida ong doirasiga kashfiyot g’oyasining dastlabki – gipotetik holda tushinishi.

To’rtinchi bosqich (ongli ish) – g’oyani rivojlantirish, uni oxirgi ko’rinishda rasmiylashtirish va tekshirish.

Yuqorida aytilganlardan ijodiy fikrlashning intuitiv fikrlashdan farqi birmuncha oydinlashadi. Xo’sh, unda ijodiy fikrlashni fikrlashning boshqa turlari bilan o’xshashligi ham bormi?

Ijodiy fikrlash, eng avvalo, bu, tanqidiy fikrlash kabi mustaqil fikrlashdir. Fikrlash mustaqil bo’lgandagina u ijodiy fikrlash bo’la oladi. Hech kim birov uchun ijodiy fikrlab bera olmaydi. O’quv jarayonida talabalar uchun mustaqil fikrlash va o’ta murakkab masalalarni ham mustaqil hal qilishga imkoniyat yaratish zarur.

Ikkinchidan, olingan axborot ijodiy fikrlash uchun boshlang’ich nuqta bo’lib, aslo oxirgi bekat vazifasini o’tamasligi zarur. Boshqacha aytganda, ijodiy fikrlash axborot, dalillarni olishdan boshlanadi. Yangi bilimlar ijodiy

fikrlash uchun intilishni paydo qiladi. Baʼzida aytiladigan «Boʻsh kalla bilan oʻylab boʻlmaydi»,— degan ibora shu yerda juda oʻrinli. Chunki oʻylash uchun kallada biror narsa boʻlishi shart. Ijodiy fikrlashdek murakkab fikr yuritish uchun dalillar, gʻoyalar, mavzular, nazariyalar, maʼlumotlardan iborat togʻdek «xom ashyo»ni qayta ishlash zarur.

Uchinchidan, ijodiy fikrlash masalani qoʻyish va yechiladigan muammoni aniqlashtirishdan boshlanadi.

Shunday pedagogikagina bugungi kun talabiga toʻla javob bera olishi va unga iloji boricha tezroq oʻtish zarurligi haqida Prezident I.A.Karimov shunday degan edi: «Oʻqituvchi-oʻquvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik oʻrnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechaypti. Oʻqituvchining bosh vazifasi oʻquvchilarda mustaqil fikr yuritish koʻnikmalarini hosil qilishdan iboratligini koʻpincha yaxlit tushunamiz, afsuski, amalda tajribamizda unga rioya qilmaymiz».

IJODIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH PRINSIPLARI

Ixtiroviy masalalar yechish boʻyicha toʻplangan tajribani va fikrlash nazariyalarini tahlil qilish ijodiy fikrlashning asosiy prinsiplarini shakllantirish va ijodiy fikrlashga oʻrgatishning psixologik-pedagogik metodlarini ishlab chiqishga imkon beradi. Rivojlangan ijodiy fikrlashsiz insoniyat XXI asrda yashay olmaydi. Bu prinsiplar quyidagilardan iborat:

1. Talabalarni maqsadga erishishning turli yoʻllarini qidirish, soʻngra eng yaxshisini tanlashga oʻrgatish.

2. Talabalarni yetarli miqdorda qoʻllanmalar va mashqlar toʻplamlari bilan taʼminlash.

3. Zarur savollarni berishga va muammoning mavjudligini aniqlashga oʻrgatish.

4. Talabalarni har qanday sezgilar va emotsiyalarni fikrlashning muhim tashkil etuvchilari, deb qarashga oʻrgatish.

5. Talabalarni eng avvalo ijodiy jarayonning oʻzidan qoniqish hosil qilayotganlarini kuzatayotib, original va foydali gʻoyalarini ragʻbatlantirish. Talabalarga oʻz gʻoyalarini qadrlanishini anglab yetishlariga yordamlashish.

6. Talabalarga nostandart vaziyatlarda yechimlar izlashni taklif qilish. Muvaffaqiyatsizlikka uchraganda izchillikning namoyon boʻlishi muhimligini isbotlash.

7. Talabalarga yechimlarni izlashning rejasini tuzishni taklif qilish.

8. Haddan tashqari tez yorliq yopishtirishdan, masalani oldindan maʼlum masalalar toifasiga kiritishdan va shoshilib qaror qabul qilishdan qochish. Chunki, bu asosiy muammodan ogʻishlarga va fikrlash egiluvchanligining yoʻqolishiga olib keladi.

9. Talabalarni fikrlashning muhim elementlari sifatida sezgi va emotsiyalarni boshqarishga o'rgatish.

10. G'oyalarni generatsiyalash uchun hamda ularni obyektiv va ratsionallashtirish uchun sharoit yaratish.

11. «Bo'lishi mumkin» va «bo'lishi kerak» iboralarini farqlagan holda keskin qarorlar chiqarish.

12. Talabalarda uzluksiz alternativ izlanishga, yangi yondashuvlarga va yangi g'oyalarga moyillikni shakllantirish.

Bundan tashqari, ijodiy yondashuvning yangi g'oyalarni qabul qilish va mustahkamlanish jarayonini yengillatishga yordam beruvchi bir nechta asosiy qoidalarga ham amal qilish lozim. Barcha narsalar juda sodda bo'lishi kerak.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA IJODIY TASAVVURNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Har bir dars bolaning qobiliyatining uchqunlarini alangalata oladigan kichik ixtiroday o'tishi zarur. Atrofdagi olam va o'zini anglashdagi kichik yutuqlar ham butun o'quv faoliyatini g'aroyib va maftunkor qiladi. Bolalar uchun sinfdoshlari oldida o'zini ko'rsata olishi, nimalarga qodirligini isbotlay olishi juda muhim qirra hisoblanadi. Buning uchun ularga imkoniyat yaratish zarur.

1-sinflarda mashg'ulotlarni o'quvchilar tasavvur yordamida tugamas sayohat tarzida tashkil qilish mumkin. O'quvchilar dastlabki xayolot usullarini o'rganishadi va bular asosida qiziq voqealar, hikoyalar, topishmoqlar, she'r va ertaklar yuzaga keladi. Bolalar ijodiyoti o'quv jarayoniga bog'liq ravishda borgan sari boshqariluvchan bo'lib boradi. O'quv yilining oxiriga kelib o'quvchilar mustaqil ravishda hikoya va ertak tuzish usullarini yetarli darajada o'zlashtirgan bo'lishlari kerak hamda tizimlarning ichki tuzilishi bilan tanishib, ularning bo'linmalari va nima uchun xizmat qilishini o'rganish uchun dastlabki qadamlar qo'yilishi kerak.

2-sinfda o'quvchilar ancha narsalarni mustaqil bajara oladilar. O'quv yili so'ngida o'quvchilar dars mavzusi bilan bog'liq tayanch so'z va tushunchalar asosida kichik hikoya, voqea, ertaklarni tuza oladigan bo'lishlari kerak.

Bu davrda bolalar mustaqil ravishda tizimlarni topish, ularning qanday bo'limlardan tuzilganini, qanday xususiyatlarga va belgilarga ega ekanligini, nima uchun xizmat qiladi va boshqa tizimlar orasidagi bog'liqligini anglab yetishi zarur.

3-sinfda o'quvchilar faoliyat muhiti turli-tuman bo'ladi. Bolalar darslikdagi mavzular asosida tuzgan yangi o'quv hikoya yoki turli fanlarga bog'liq ertaklardan yangi «Ertaklar kitobi» shakllanadi.

Tizimlarni bo'limlarga bo'lish va tizimlararo bog'liqlik ko'nikmasi avtomatik darajaga yetkaziladi, 3-sinf o'quvchilari faoliyatining asosiy yo'nalishi kartotekalar yig'ish izchilligini bila olishlaridir.

3-sinf o'quvchilarining qiziqishlari turli-tuman bo'lib, ular o'zlarini qiziqtirayotgan sohalari bo'yicha javob olishni xohlashadi. Berayotgan savollar va javoblari esa turli sohalardan bo'lishi mumkin.

4-sinfda o'quvchilar oson va erkin holda turli hikoyalar va ertaklarni tuza oladilar. Ular orasida maktab dasturiga mos «Ertaklar kitobi» tuziladi.

O'quvchi tizim bo'limlarini saralashni va xususiyatlarini erkin holda amalga oshiradi. Lekin 4-sinfda asosiy ish tadqiqotchilik faoliyati va kartoteka tuzishga qaratilgan bo'ladi.

Tushunchaviy fikrlashni qanday shakllantirish kerak?

Bolalar ijodiy faoliyatining natijasida egallangan malakalarning natijasi shubhasiz turli turdagi tahlillar o'tkazish imkoniyatini yaratadi. Ruhshunos ruhiy tahlil yoki bolalar ijodining ruhiyatini o'rganishning muhim manbalarini topadi.

Tilshunos bolalar folklorini o'rganish uchun boy manbaga ega bo'ladi. Sotsiolog madaniy-etnik muhit va bolalar ertaklari orasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadi. Bu qaydnomani uzoq davom ettirish mumkin. O'qituvchi bolalar ertak, topishmoq va maqollarning tahlilini qaysi usullari uzluksiz va ilmiy fikrlashni shakllantira olishiga qiziqish uyg'otadi.

Ona tili fanida «Alifbo» mavzusi (1-sinf)

Vazifa. «Alifbo»ni tartib bilan joylashtirish.

Buning uchun «Alifbo»dagi harflar alohida qilib kesib olinadi va konvertga solib, har bir guruhga beriladi. Guruh qatnashchilari konvert ichidagi harflarni yoyib (partaga), so'ng bir chekkadan tartib bilan yig'ishlari kerak.

Boshqa guruhlarga nisbatan ishni oldinroq yakunlagan guruhga quyidagi qo'shimcha vazifalarni berish mumkin (yoki o'qituvchi dars maqsadi bo'yicha vazifalarni tayyorlab qo'ygan bo'lishi ham mumkin).

Qo'shimcha topshiriqlar:

1. Unli tovushlarni alohida jamlang.
2. Undosh tovushlarni alohida jamlang.
3. Ismlar (bor harflardan)ni shakllantirishga harakat qiling.
4. Yig'ilgan so'zlarni bo'g'inga ajrating.

Izoh. Berilgan barcha topshiriq daftarga yozilishi kerak (imkon qadar), hamma vazifalar bajarib bo'lingandan so'ng guruhlar nima ish bilan shug'ullanganliklari, nimalarni bilib olganliklari so'raladi va umumlashtiriladi.

Odobnoma **(2-sinf)**

Vazifa. «Bola boshidan, o'g'lon yoshidan» she'rini yig'ish (42-bo'lak).

Buning uchun matndagi so'zlar yoki so'z birikmalari alohida qilib kesib olinadi (2-ilovadan) va konvertga solib har bir guruhga beriladi. Guruh qatnashchilari konvert ichidagi (so'z)larni (parta, stolga) yoyib, so'ng bir chekkadan tartib bilan yig'ishlari kerak. Boshqa guruhlariga nisbatan ishni oldinroq yakunlagan guruhga quyidagi qo'shimcha vazifalarni berish mumkin (yoki o'qituvchi dars maqsadi bo'yicha vazifalarni berishi ham mumkin).

Qo'shimcha topshiriqlar:

1. Hisoblab aniqlang, matn nechta kesilgan bo'lakdan iborat?
2. Hisoblab ko'ring-chi, matn nechta so'zdan iborat (ekanligini ko'rsating).
3. Birinchi to'rtlikda nechta unli harf borligini ko'rib chiqing.
4. Matnni o'rganib, qaysi so'zlar o'rniga rasm chizib ko'rsatish mumkinligini aniqlang.
5. Matndagi inson organlariga tegishli so'zlarni ajrating.
6. Matnning ichidagi tabiatga oid so'zlarni ajrating.
7. Matndagi notanish so'zlarni ajratib ko'rsating.

Izoh. Guruhlar ishlarni yakunlaganlarida har bir guruhning fikri eshitiladi.

Masalan, quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Guruhda kim nima ishlar qiladi?
2. Nima uchun she'rni yig'ish oson bo'ldi? (Yoki aksincha.)
3. Qaysi vazifani bajarishda qiynaldingiz? Nima uchun?
4. Kimniig xatti-harakati sizni quvontirdi?

Odobnoma **(3-sinf)**

1. Dars mavzusi. «Javdari non».

Darsning maqsadi:

a) Javdari non qanday undan tayyorlanishi, uning qanday non ekanligini tushuntirish.

b) Non qanday tayyorlanishini, qanday mehnatlar evaziga dasturxonimizga.

c) yetib kelishini o'rgatish.

d) Nonni isrof qilmaslikka, uni qadrlashga o'rgatish.

Dars turi: amaliy-nazariy.

Dars tipi: aralashgan, ko'rgazmalilik, o'yin.

Dars jihozlari: darsga oid rasmlar, tarqatma didaktik materiallar, rebus va plakat, boshqotirma, lug'at.

Darsning borishi.

2. Tashkiliy qism.

She'r bilan boshlanadi, navbatchi axboroti, davomatni aniqlash, ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.

3. Uyga berilgan vazifani so'rash va baholash.

Uyga vazifa qilib berilgan she'rni yodlash so'raladi, savol-javob o'tkaziladi.

1. Qorbobo yil boshida qanday ekan?
 2. Yil oxirida qanday bo'ldi?
 3. Shu bir yil ichida u nimalar qilibdi?
- So'ng «mazayka» o'yini o'tkaziladi.

O'yin qoidalari. Bu yerda har bir partaga bittadan konvert tarqatiladi, unda uyga vazifa qilib berilgan she'rdan parcha yozilgan. O'quvchilar bu so'zlarni qog'ozga terishlari kerak bo'ladi. Buning uchun ular she'rni yoddan bilishlari shart. Birinchi bo'lib so'zlarni terib tugatgan guruh g'olib bo'ladi.

4. O'tgan mavzularni mustahkamlash.

Qish haqida topishmoq, she'rlar yodlashadi. So'ng barcha o'quvchilar 6 ta guruhga bo'linadilar. Doskadagi rasmlar asosida shar, sovuq, izg'irin, muz, yax, yaxmalak, sumalak, ayoz so'zlariga qo'yib hikoya tuzadilar.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun krossvord – boshqotirma yechiladi. *Quvnoq daqiqalar.*

Daraxt o'sadi tikka, shox chiqaradi yonga,
Quyoshdan nur oladi, yerga soya soladi.

5. Yangi mavzu bayoni.

1. Boshqotirma. Rasmlar berilgan. Shu rasmlardagi bosh harflarni olib so'z yasaymiz. Biz o'rganmoqchi bo'lgan matnning nomi kelib chiqadi.

2. «Javdari non» hikoyasi guruhlariga bo'lib o'qitiladi.


6. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Shu matn yuzasidan savol tuziladi. Guruhlar savollarni tuzishlari uchun vaqt beriladi. Savollar tayyor bo'lgach har bir guruh o'zining savollarini o'qiydi. Boshqa guruhdagilar esa savollarga javob beradilar.

Matnni mustahkamlash uchun qisqacha non haqida ma'lumot berib o'tiladi. Bug'doy qanday yetishtirilishi, qanday qilib un qilishi va albatta non qilib yopish uchun qancha-qancha kishilarning mehnati sarflanishi aytib o'tiladi.

Topshiriq: klaster usulida «non»ning turlari ko'rsatib beriladi.

Non haqida o'z'lari bilgan she'r-maqollar yodlashadi. Topshiriq: «Javdari non» mavzusida rasm chizadilar. Darsda faol qatnashgan o'quvchilarni e'lon qilib, baholaydilar.



7. Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash.

«Javdari non» matnini ifodali o'qib, qayta hikoyalashga tayyorlanib kelish. Shuning bilan darsimiz tamom, tanaffuz.

Boshqotirma

1. Ilm maskani.
2. Tomda uning uyi, pastga o'sadi bo'yi.
3. Konki uchadigan joy.
4. Qishdagi harorat.
5. Fasl.
6. Yangi yil qahramonlari.
7. Maktabdan o'rganadigan narsa.
8. Baho.

	M	A	K	T	A	B			
		M	U	S	T	A	Q	I	L
Y	A	X	M	A	L	A	K		
S	O	V	U	Q					
	Q	I	SH						
Q	O	R	Q	I	Z				
		B	I	L	I	M			
	B	E	SH						

Savol va topshiriqlar

1. Ijod tushunchasining yagona ta'rif yo'qligi shu bilan bog'liqlik, odamlar «g'ayrioddiy», «yaxshi va foydal» deb nimani tushunganliklari haqida yagona fikrga ega emaslar. Ushbu fikrni izohlab bering.

2. Ijodiy jarayondagi «omad» tushunchasini misollar bilan isbotlab bering.

3. Faqat axborotlarni taxmin qilishgina yangi g'oyalar paydo bo'lishi uchun yetarli emas? Buning uchun nima qilish kerak?

4. Har asrda chop etilayotgangan kitoblar sababini ochib bering.

5. Emotsiyalar, sezgilar, intuitsiya orasida bog'lanish bormi?

6. Ijodiy fikrlash tushunchasini ochib bering.

7. Ijodiy fikrlash bir qancha tamoyillar bilan bog'langan (mahorat, faoliyat turlari va h.k.)ligini izohlab bering.

8. Ijodiy fikrlash bilan tanqidiy fikrlashning bog'liqligi bormi?

III QISM

INTEGRATSIYA

X BOB. PEDAGOGIKADA AN'ANAVIY INTEGRATSIYANING TALQIN QILINISHI

«Ilmiy tahlil, – deb yozadi A.Y.Keyn, – tadqiq qilinayotgan pedagogik hodisalar qa'riga chuqur kirib borishga imkon beradigan maxsus vositalarni (instrumentariy) qo'llashni talab qiladi». Birinchi navbatda, tushunchalar ana shunday vosita rolini bajaradi. Tushunchalarning vosita sifatidagi tabiatini J.Dyui yaxshi ochib bergan. Uning fikricha, tushunchalar konsepsiyalar, nazariyalar, farazlar, g'oyalar bilan bir qatorda inson tajribasining turli sohalarida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarga xos vazifalarni bajarishda aqliy vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Integratsiya nazariya sifatida, demak, tushuncha sifatida «pedagogik bilish metodi va amaliyotni o'zgartirish vositasi vazifasini bajara oladi».

Insoniyat tamaddunining ibtidosidayoq Pifagor tomonidan asos solingan maktab mavjud bo'lib, unda «ruhning ko'chib yurishi abadiy deganlar, bunda barcha narsa bir-biri bilan o'zaro bog'langan degan ta'limot maqsad qilib qo'yilgan». Y.A.Komenskiyning ta'limoti ham diniy an'analar oqimiga asoslangan holda yaratilgan: «Barcha mavjud narsalar, Alloh, tizimlar tizimi olam, ko'zgular ko'zgusi aql, izohlar izohi o'lmish muqaddas diniy kitoblar, talqinlar talqini til, kitoblar kitobi yagona bo'lgani singari, barcha narsaga o'rgatuvchi Allohdir va u yagonadir». Pedagogika asoschisining imoni komilki, «bilishi lozim bo'lgan narsalar majmuyini aqlan tasavvur qilish uchun olam zinapoyasi tarzida shunday qurish mumkinki, aql va lat yemagan sezgilarga ega bo'lgan barcha mavjudotlar ibtidodan intihoga, quyidan oliy maqomga asta-sekinlik bilan yuksalish orqali butun olamdan yuqori turgan, oliy dunyoni o'zida mujassam etgan yagona Allohni topa oladi».

Ijtimoiy hodisalarni, shu jumladan, pedagogik hodisalarni ham ularning biologik ildizlariga olib borib taqaydigan G.Spenser pozitivlik an'analari asoschisi bo'lib hisoblanadi. Masalan, u ota-onalarga o'z bolalariga tarbiya berishda biologik qonunlarga rioya qilish bo'yicha maslahatlar berganda biologik qonuniyatlarning ta'sir doirasini kengaytiradi. Shu munosabat bilan rus pedagogi A.A.Krasnovskiy asosli tarzda quyidagi fikrni bildiradi: G.Spenser aniqlik chegarasidan chiqib ketadi, chunki qonuniyatlar umuman qoidalarga ega emas; G.Spenser aytayotgan qonuniyatlar esa hech narsaga majbur qilmaydi; qonuniyatlardan qoidalar chiqarish mumkin, lekin buning

uchun shu qoidalarni chiqaradigan alohida fan zarur bo‘ladi. Bunday fanning pedagogika fani ekanligiga barchaning fahmi yetishiga shubha yo‘q.

A.A.Krasnovskiyning xulosalariga B.G.Ananyevning quyidagi fikrlari mos keladi: «Aytaylik, – deb yozadi olim, – genetika faqat inson jinsinigina emas, balki unga xos bo‘lgan barcha individual (jismoniy va xususiy) xususiyatlarni ham boshqara olish imkoniga ega. Unda butun tabiiy fanlar oldida ijtimoiy nazariya va pedagogika shug‘ullanadigan muammo – dunyoga kelgan inson uchun xos bo‘lgan u yoki bu xususiyatlarni shakllantirish muammosi ko‘ndalang bo‘ladi».

K.D.Ushinskiy quyidagicha ta‘kidlagan: «Biz pedagoglarga unday qiling, bunday qilmang, deb buyurmaymiz, biz aytamizki, siz boshqarmoqchi bo‘lgan psixik hodisalarning qonuniyatlarini o‘rganing va shu qonuniyatlarga hamda bu qonuniyatlar qo‘llanishi mumkin bo‘lmagan holatlardan xulosa chiqargan holda ish tuting».

Integratsiyaga xos bo‘lgan dialektik an‘analarning u yoki bu jihatlari insonni har tomonlama mukammal rivojlantirish bo‘yicha mavjud bo‘lgan pedagogik g‘oyalarda (Aristotel, Pestalotskiy ...) zamonaviy pedagogika hamda zamonaviy pedagogikada keng tarqalgan ta‘lim va tarbiyaning, shaxs va jamoaning, faoliyat va bilishning dialektik birligi o‘z aksini topgan. Dialektik unsur ko‘pgina mashhur pedagoglarning ta‘limiy-tarbiyaviy tizimiga xosdir. A.S.Makarenko pedagogikani «dialektik fan» deb atagan. Bu bejiz emas. Uning nazariy qarashlari va amaliy faoliyati «ajralmas va qo‘shilmas birligining» ikkita tarkibiy qismi bo‘lmish shaxs va jamoa integratsiyasining ajoyib namunasi hisoblanadi. Bunday birlikning A.S.Makarenko tizimiga nisbatan mohiyati shundaki, bunda tarbiya jarayonida shaxsiy va jamoaviy ibtidoning umumiy nuqtalari topilgan, bu shaxsiy va jamoaviy ibtidolar chambarchas qo‘shilib ketgan va shu asosda «tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarga xos individuallikdan ham ustun turadigan hamjihatlik yuzaga kelgan; bu hamjihatlik talablari barchaga: tarbiyachiga ham, tarbiyalanuvchiga ham, shaxs va jamoaga ham bir xilda ahamiyatlidir». Dialektika A.S.Makarenkoning butun pedagogik tizimini u boshidan bu boshigacha ishg‘ol etgan. Uning asarlarini o‘qish jarayonida shunday taassurot paydo bo‘ladiki, «pedagogika» va «dialektika» kabi kategoriyalar bir xil narsalardir; «pedagogik dialektika», «pedagogik faoliyatning dialektikligi», «pedagogik mantiq» kabilar esa pedagogik hodisalarga yondashuvning metodlari sifatida qabul qilinadi.

L.N.Tolstoy yozadi: «Majburlab emas, erkin rivojlangan maktab o‘quvchilari qanchalik ko‘p paydo bo‘lishsa, ular tartib-intizomga shunchalik ko‘p moyil bo‘ladilar va bunda ularga o‘qituvchining ta’siri ham shunchalik kuchli bo‘ladi».

Tarbiyalanuvchilarning uyushmagan yig'indisi uyushgan yaxlit jamoaga aylanadi. Pedagogik tashkilotning oyoqqa turish davrida biz o'ziga xos «aralashma», yolg'iz atomlar bilan ish ko'ramiz. Makarenkoning pedagogik tizimida tashqaridan qaraganda boshqacharoq bo'lgan: boshida tarbiyaning mutlaq hukmronligi, keyin asta-sekinlik bilan tarbiyachi vazifalari bir qismining «faollarga» o'tkazilishi va ana undan keyin jamoa bo'lib boshqarishga o'tiladi. Biroq, uyushgan pedagogik jamoaning ichki rivojlanish jarayoni ibtidosida «betartib yig'indi» mavjud edi. A.S.Makarenko insonga(jamoaga) bo'lgan talablar darajasi bilan insonga(jamoaga) bo'lgan hurmatning mos tarzidagi bog'liqligi qonuniyatiga asoslangan holda real tarbiyachilik amaliyotida jamoa ongining va jamoa faoliyatining «o'z-o'zidan pishib yetilishi», «o'z-o'zidan tashkil topishi» imkoniyatlarini ham nazardan qo'ymaydi.

«Betartiblikdan tartibot tug'iladi», degan tamoyil K.Rodjersning nodirektiv pedagogikasida o'z aksini topgan. Bunda tashqi omillarning ta'siri deyarli yo'qqa chiqarilgan. Bu bilan Rodjers L.N.Tolstoyga yaqinlashadi. Biroq farq ham mavjud: Tolstoy bolalar jamoasi haqida gapirgan bo'lsa, Rodjers aniq shaxs haqida gap yuritadi. Biroq har ikkala vaziyatda ham tarbiyalanuvchilar «ichki ishlariga» va «tabiiy pishib yetilish» jarayoniga aralashmaslik g'oyasi ilgari suriladi. Rodjers maslahat beradiki, «agar o'quvchi yomon baholardan va dars materialini o'zlashtira olmayotganidan shikoyat qilsa, o'qituvchi o'quv ishlarining to'g'ri usullariga tegishli bo'lgan maslahatlarni qo'llamasligi kerak. Buning o'rniga o'qituvchi o'quvchini o'z tuyg'ularini, o'zining maktabga, o'z-o'ziga, boshqa odamlarga bo'lgan munosabatini ifodalashga rag'batlantirishi lozim. O'z tuyg'ularini to'liq ifodalagan va o'z hayotining bu tomonlariga o'zi tushunib yetgan o'quvchi o'z oldiga yangi maqsadlarni qo'yishi va ularga yetishish yo'llarini belgilab olishi kerak».

INTEGRATIV - PEDAGOGIK FAOLIYATNING ELEMENTLARI

«Integrativ faoliyat» tushunchasi qator holatlar bilan bog'liqdir. Birinchidan, «boshqariladigan» pedagogik integratsiyaning «betartib» (boshqarilmaydigan) integratsiyadan ajralish zaruriyati. Zamonaviy pedagogikaning rivojlanish qonuniyati bo'lmish bu zaruriyat bugungi kunda maxsus tashkil qilingan integratsion ish sohasidan tashqarida ham amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan holda amalga oshirilayotgan integrativ faoliyat ham o'zining mavjudligidan darak bera boshladi. Ikkinchidan, integratsiyani faoliyat sifatida baholash uning texnologik o'lchamlarini ham batafsilroq tahlil qilish imkonini beradi.

Uchinchidan, pedagogikada allaqachon «integrativ ish» (V.I.Zagvyazinskiy), «integrativ faoliyat» (D.D.Semyonov), «integrativ-pedagogik tafakkur» kabi tushunchalarni qo'llash holatlari mavjud. Integrativ-pedagogik faoliyat (IPF) – bu pedagogik faoliyatning o'ziga xos turi bo'lib, uning davomida ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti sohasidagi u yoki bu vazifalar dolzarb tus oladi. Amaliyot darajasida IPFning ikki xil ko'rinishini ajratish mumkin: shakllantiruvchi va shakllanuvchi faoliyat turlari. Shakllantiruvchi faoliyat – bu ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan va o'quvchilarda integrativ harakatchanlik xislatlarini va xususiyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Shakllanuvchi IPF esa shakllantiruvchi faoliyatning mahsulidir. Shakllantiruvchi va shakllanuvchi faoliyat tuzilmalarining o'zaro mosligi omilini hisobga olgan holda taxmin qilish mumkinki, birinchiga xos bo'lgan tavsif ikkinchiga o'tkazilishi yoki aksincha bo'lishi mumkin.

Birinci faoliyatning tarkibini inversionlik, polimodallik, polivalentlik tashkil etadi. «Inversion obyektlar – bu an'analar birlashadigan va boyiydigan nuqtalardir» (M.A.Rozov), degan formulaga tayangan holda IPF inversionligi tushunchasi ostida biz uning muayyan tizim «chorraha»sida turib o'zida shu tizim haqidagi ma'lumotlarni mujassam etishni tushunamiz.

INTEGRATIV FAOLIYATNING PEDAGOGIK TUZILMASI

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, faoliyat tuzilmasiga turlicha yondashuvlar mavjud ekan. Shulardan ikkitasiga: faoliyatning umumiy tuzilmasiga va invariant tuzilmalariga to'xtalib o'tamiz.

Integrativ pedagogik faoliyatning umumiy tuzilmasi o'z ichiga subyektlarni, predmetlarni, maqsad, jarayon, vosita, mahsulot va natijalarni qamrab oladi.

Integrativ pedagogik faoliyatning subyekt rolini ayrim shaxslar (o'quvchilar, pedagoglar va b.), guruh (jamo), masalan, o'quvchilar va pedagoglar guruhi, shaxssiz subyektlar: maktab, kollej, litsey, institut, universitetlar o'ynashi mumkin.

Integrativ pedagogik faoliyatning predmeti – ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti sohasida integratsion jarayonlarni tashkil etish, o'tkazish, boshqarish.

Integrativ pedagogik faoliyatning maqsadi – shaxsga xos barcha sohalarida: ma'naviy, kognitiv, affektiv (hissiy-qiyimatli), psixomotorik sohalarida uyuki bu sifat jihatidan yangi integrativ hosilalarni shakllantirish. Bular tomonidan tavsiya qilingan asosiy o'quv maqsadlari ham bu yangi hosilalar rolini bajarishga qodir.

Integrativ pedagogik faoliyatning maqsadi maxsus tashkil qilingan o'quv jarayoni davomida amalga oshiriladi. Integrativ-pedagogik maqsadga erishishning nazariy metodologik va axboriy ta'minoti, faoliyatga mos keladigan texnologik dastakni tanlash, maqsadlarni muvofiqlashtirish va zarur vaziyatlarda ularni to'g'rilash (korrektirovkalash), IPFni nazorat qilish va yakuniy xulosalar chiqarish, uning maqsad va natijalarini solishtirish kabilar bu jarayonning tarkibiy qismlari bo'lib hisoblanadi.

Integrativ pedagogik faoliyatning vositalari IPF texnologik infrastrukturasining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular maqsadga erishish hamda vazifalarni bajarish uchun xizmat qiladi. Masalan, falsafiy, umumilmiy va pedagogik kategoriyalarning o'zi ilmiy pedagogik integratsiya vositalari bo'lib maydonga chiqishi mumkin.

Integrativ pedagogik faoliyatning mahsuloti – shu faoliyat davomida qo'lga kiritilgan hodisalar, jarayonlar, narsalar majmuyidir. Bu pedagogik va g'ayriilmiy bilimlarni (falsafa va ta'lim tarixi misolida) sintez qilish yo'li bilan hosil qilingan pedagogik fanlar; integrativ-pedagogik konsepsiya (masalan, umumiy kasbiy ta'lim integratsiyasi); integrativ pedagogik jarayon (masalan, G'arbdagi integratsiyalashgan ta'lim muassasalari deb ataladigan muassasalarida amalga oshiriladigan jarayon); pedagogik jarayonning integrativ qismlari (masalan, integrativ kun, integrativ dars, boshlang'ich kasbiy ta'lim mazmunini integratsiyalash); integrativ-pedagogik vaziyatlardir.

Integrativ pedagogik faoliyatning qayta o'zgartirish xususiyati – integrativ-pedagogik vazifalarni texnik-texnologik jihatdan amalga oshirish. Quyidagilar integrativ-pedagogik qayta o'zgartirishning obyektlari bo'lib xizmat qilishi mumkin:

- a) pedagogik fanning to'liq o'zi yoki uning ayrim sohalari;
- b) pedagogik jarayonning to'liq o'zi yoki uning ayrim qismlari;
- d) pedagogik vaziyatlar. Insonning yaxlitlik, universallik va mukammallik darajasining oshishiga olib keladigan qayta o'zgarish jarayonlari shunday qayta o'zgarishning mutlaq va eng muhim predmeti bo'lib hisoblanadi.

Integrativ pedagogik faoliyatning kommunikativ tomoni birinchi navbatda subyektlarning o'zaro muloqoti va ta'siri bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, kommunikatsiya integrativ-pedagogik vazifalarni amalga oshirish vositasi sifatida maydonga chiqadi. Xususan, bu pedagogikada integratsion jarayonlar rivojining ijtimoiy-pedagogik yo'nalishiga tegishlidir. Yana shuni ham aytish kerakki, kommunikativ vositalar (integratsiyaning kommunikativ vositalari) – bu ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirish davomida kommunikativ muhitni yaratish yo'l, usul va shakllari majmuyidir.

Bular quyidagilarni ta'minlash uchun xizmat qiladi: a) shaxslararo (o'quvchilar bilan pedagoglar, o'quvchilar bilan ota-onalar, pedagoglar bilan ota-onalar, o'quvchilar bilan o'quvchilar, pedagog va pedagog o'rtasidagi) integratsiyani; shaxs ichki integratsiyasi – insonning o'z-o'zi bilan integratsiyasi; b) ijtimoiy integratsiya – shaxs va jamoa integratsiyasi, shaxs va u yashaydigan joy integratsiyasi, shaxs va madaniyat integratsiyasi, shu jumladan, boshqa mentalitet madaniyati integratsiyasi va h.

Bu o'rinda ijtimoiy psixologiya va psixotexnikaning u yoki bu elementlari, ayrim holatlarda esa psixoterapiya va psixologik ta'sirning u yoki bu elementlari, chet elning «tushunadigan», «hamkorlik qiladigan» pedagogikasi vakillari (A.Maslou, K.Rodjers, Sh. Amonashvili, A.Benkin, V.Shatalov) faoliyatidan ham vosita sifatida foydalanish mumkin.

«Yosh pedagogikasi asoslari» kursida namoyish qilingan vaziyat va usullarni kommunikativ integratsiyaning muayyan vositalari sifatida tilga olish mumkin. Vaziyatlarga «Erishilgan quvonch», «Kutilmagan quvonch», «Umumiy quvonch», «Oilaviy quvonch» kabilar kirska, «Zinamazin», «Imkoniyat beraman», «Orqamdan ergash», «Rollar almashuvi», «Yuqtirish» kabilar esa usullarga kiradi.

Xuddi shu kabi, integrativ-pedagogik faoliyat integrativ-pedagogik amallarda mavjud bo'ladi. Bunda integrativ-pedagogik amallar deganda IPFni amalga oshirish davomida erishiladigan integrativ mahsulot haqida tasavvurga bo'ysunuvchi jarayon tushuniladi.

Shunday qilib, integrativ-pedagogik faoliyat pedagogik jihatdan polimodal, polivalent tuzilmalar majmuyining zaruriy, to'la huquqli va to'la qiymatli turi sifatida hamda integrativ-pedagogik amallarning yig'indisi sifatida maydonga chiqadi.

TA'LIM JARAYONINI INTEGRATSIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI

Didaktik olimlarning tekshiruvlarida uslubning amaliy faoliyat bilan bo'lgan genetik tabiati ajratib ko'rsatiladi.

N.N.Skatkin, I.Y.Lerner, Y.K.Aleksyuk, Babanskiylarning tekshiruvlarida ta'lim uslublariga taalluqdi ikkilamchi tur belgilarining ta'rifi berilgan. Ular uslub – ifoda, mazmun va ta'lim usuli ekanligini isbotlab berishgan.

Gegel falsafadagi uslubni mazmun harakatining shakli sifatida ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida turli xil mantiqiy tizimlar orqali o'qituvchi va u bilan birgalikda o'quvchilar o'z bilim, qobiliyat va ko'nikmalarini deduksiya, induksiya, sintez, umumlashtirish, aniqlashtirish, taqqoslash shaklida ifodalaydilar.

Barcha mantiqiy jarayonlar uslubning mazmun bilan uzviy bogʻlangan ichki tomonini tashkil qiladi. Boshlangʻich sinflarda oʻquv jarayoni foydalanilayotgan usul, uslub va shakllarining turli-tumanligi bilan ajralib turadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangi oʻquv rejaları va dasturlariga oʻtish davrida jamiyat va atrof-muhit oʻrtasidagi aloqalarni uygʻunlashtirish, atrof-muhitga jiddiy munosabatni oʻrnatish va shakllantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Atrof-muhitga jiddiy munosabatlar poydevori boshlangʻich sinflarda oʻrgatiladi. Shuning uchun iqtisodiy taʼlimning natijasi maktab taʼlimining birinchi bosqichiga bogʻliq. Yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar kichik yoshdagi maktab oʻquvchilarining bilish faoliyatlari cheklanganligi haqida ilgari tushunchalarni koʻrib chiqishga imkon beradi. Bu boshlangʻich iqtisodiy taʼlimning barcha tarkibiy qismlarini oʻzgartirish va yangilashga asos yaratadi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining yosh xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy masalasidir.

XIX–XX asrlar oraligʻida pedagogikada kichik maktab oʻquvchilarining tabiiy muhit bilan tanishtirishning integratsiyalangan kursini yaratish fikri paydo boʻlgan. Bu fikr A.Y.Gerd, D.N.Kaygorodov, A.P.Pavlov nomlari bilan bogʻliq boʻlib, ular boshlangʻich maktabga atrof-dagi jonli va jonsiz dunyo haqidagi boʻlinmagan kursni kirgizishni talab qilishdi.

Integratsiyalashgan taʼlim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning (Y.Komenskiy, D.Lokk, I.Gerbert, M.Pestalotsti, K.Ushinskiy va boshqalar), didaktiklarning (I.D.Zverev, M.A.Danilov, V.N.Maksimova, S.P.Baranova, N.M.Katkina va boshqalar), psixolog olimlarning (E.N.Kabanova, N.Pishkalo, Meller, N.F.Talizina, Y.A.Samarina, G.I.Vergeles), medist olimlarning (M.R.Lvov, V.G.Goretskiy, N.N.Svetlovskaya, Y.M.Kolyagin, G.N.Pristupova, L.V.Levenberg) ishlarida koʻrib chiqilgan.

Boshlangʻich taʼlim dars jarayonida bir qator ishlar fanlararo aloqalarga bagʻishlangan. Bu fanlarni integratsiyalashda olimlardan T.G.Rizayeva, G.N.Akvileva, D.I.Troytap, G.V.Baltyukova, N.Y.Velenkin, N.M.Drujnina, T.S.Nazarova, I.K.Blinova, R.G.Matyushova tomonidan katta ishlar olib borilgan.

Ushbu muammo oʻzbek olimlaridan R.Mavlonova, Q.Abdullayeva, N.U.Bikbayeva, A.G.Grigoryans, E.I.Nikolayeva, X.K.Qayumovlarning ishlarida koʻrib chiqilgan.

Boshlangʻich maktab fanlarining integratsion aloqalari kam ishlab chiqilgan boʻlib, qarama-qarshi ifodalangan. Bu aloqalarning mohiyati haqida olimlar orasida qarama-qarshiliklar koʻp.

Integratsiya atama va uslubiy nuqtayi nazardan hodisa sifatida nima ekanligini ko'rib chiqaylik.

«Integratsiya» so'zi lotincha *integratio* – tiklash, to'ldirish, «integer» – butun so'zidan kelib chiqqan. Bu borada ikki tushunchaga egamiz:

1. Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Differenziatsiya fransuzcha (*diffe'rentio*fon, lotincha *differentia* – farq, har xillik), ya'ni butunni bo'laklarga bo'lish, ajratish. Ta'lim mazmunini integratsiyalash – dunyo an'anasi (g'oya, fikr, intilish). Integrativ yondashish turli darajadagi tizimli aloqalarning obyektiv yaxlitligini aks ettiradi (tabiat – jamiyat – inson). Integratsiya ilgari bo'lingan qismlarni bir butunga birlashtirish bilan bog'liq. U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasini oshirishga olib keladi.

Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog'liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarning ishlashi va o'rganish obyektining yaxlitligi tartibga solinadi.

Bu umumiy qoidalarni qanday qilib maktab ta'limida qo'llash mumkin? Zamonaviy didaktik va metodikada ta'kidlanishicha, o'quvchilarni o'qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvaffaqiyatlari ularda dunyo birligi haqidagi tushunchaning shakllanganligi, o'z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo'lga solish zaruriyatini tushunishlari, tabiatshunoslik kursida fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarni yecha olishlari bilan bog'liq. Ta'limdagi integratsiya o'quv fanlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondashish orqali ko'rib chiqiladi.

Integratsiyaning turli darajalari ajratiladi: boshlang'ich, tabiat haqidagi elementlar, bilimlarni birlashtirish; oraliq – fanlar bo'limlarini bo'lish integratsiyasi; yakuniy – tabiatshunoslikni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan ta'limning oxirgi bosqichi integratsiyasi. Shu bilan birga, tabiiy-ilmiy ta'limini to'liqroq va kengroq integratsiyalash imkoniyati ham inkor etilmaydi.

Maktab ta'limini integratsiyalash jarayonining psixologik asosi sifatida psixolog Y.A.Samarinning assotsiativ tafakkur to'g'risidagi fikrlari olinishi mumkin. Bu fikrlarning mazmuni shundaki, har qanday bilim bu o'xshatish, bilimlar tizimi esa o'xshatishlar tizimidir. Y.A.Samarin o'xshatishlarning quyidagi turlarini ajratadi:

- lokal (mahalliy, ma'lum bir joy, narsa bilan chegaralangan);
- biror tizimga tegishli bo'lgan;

- tizim ichidagi;
- tizimlar orasidagi;
- aqliy faoliyat darajalarini o'xshatishlarining mos keladigan darajasiga birlashtirish xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Tabiat yoki predmet haqidagi eng oddiy bilimlarni hosil qiluvchi bog'liqlikning eng soddasi ma'lum bir joy yoki tushuncha bilan chegaralangan lokal tasavvurdir. Bu bog'liqlik boshqa bilimlardan nisbatan ajralgan, shuning uchun eng oddiy aqliy faoliyatni ta'minlaydi. Bu kichik maktab yoshiga xos. Biror bir tizimga tegishli bo'lgan tasavvurlar eng soddagina tizimli tasavvurlardir. Ular biror bir mavzu, predmet yoki hodisani o'rganish asosida hosil bo'ladi. Biror bir predmetni bilish, yangi dalil va tushunchalarning tanlanishi ularni bilimlar bilan taqqoslanishi orqali amalga oshiriladi. Bilimlarni eng oddiy umumlashtirish sodir bo'ladi, lekin olingan bilim hamma unga yaqin bo'lgan bilimlar bilan bog'lansa ayni muddao bo'lar edi.

Bunda o'quvchilarning tahlil qilish va umumlashtirish faoliyatlari vujudga keladi. Tizim ichidagi tasavvurlar o'quvchilarning butun bir fanlar tizimining bilishini ta'minlaydi (fizikaviy, kimyoviy, biologik bilimlar tizimi), o'rganilayotgan fan doirasida bilimlardan keng foydalanish kuzatiladi. Tizim ichidagi tasavvurlar, vaqt, muhit, son bog'lanishlarni aks ettiradi. Predmetlararo tasavvurlar aqliy faoliyatning eng yuqori pog'onasi hisoblanadi. Ular bilimlarning turli tizimlarini birlashtiradi, hodisa yoki jarayonning xilma-xilligini bilishga imkoniyat beradi. Shu bilimlar asosida umumiy tushunchalar kelib chiqadi. Tizimlararo tasavvurlarning shakllanishi, ularni bilimlardan foydalanishga, ularni bir-biriga bo'ysundirishga, bilimlar chegarasida bo'shliqlikni aniqlashga imkon beradi.

Bayon qilingan psixologik dalillar boshlang'ich, to'liqsiz o'rta va o'rta maktab ta'limini integratsiyalashning asosiy xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi. S.P.Baranov, L.R.Bolotin, V.A.Slasteninning «Pedagogika» kitobida darslarda qo'llaniladigan fanlararo bog'lanish ko'rsatiladi, lekin integratsiyalashgan ta'lim muammolari aks etmagan.

«Boshlang'ich ta'lim» jurnallarida maktab ta'limini integratsiyalash muammosiga katta ahamiyat beriladi. L.N.Baxareva o'zining «Boshlang'ich maktab o'quv mashg'ulotlarini o'lkashunoslik asosida integratsiyalash» maqolasida «Integratsiya – differensiya jarayonlari bilan birgalikda amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish va bog'lash jarayoni bo'lib, yangi, butun, yaxlit bo'limlar yaratishga yordam beruvchi, fanlararo aloqalarni amalga oshiruvchi yuqori ko'rinishdir», – deb ta'kidlaydi.

O'quv jarayoni integratsiya predmetlar tizimini inkor etmaydi, integratsiya tizimini takomillashtiradi, kamchiliklarini bartaraf etadi,

predmetlar orasidagi aloqalar va bog'liqliklarni chuqurlashtiradi, bunday yondashuvlar differensiya va integratsiya orasidagi munosabatlarni tushunishga tayanadi.

Pedagogikaning maqsadi bir xil maqsad-vazifalarga ega bo'lgan turli fanlarning element va qismlarini bir butunga birlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, u integratsiyani amalga oshirishda o'qituvchilarga yordam berishdir. Olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida, keyinchalik esa bitiruvchilarida u yoki bu fanlarni o'rganib, shu bilim, ko'nikmalarni boshqa fanlarni o'rganishda qo'llashga qiynalib, ularga mustaqil fikrlash, olingan bilimlarga o'shxash yoki yangi vaziyatlarga ko'chira bilish ko'nikmalari yetishmayapti.

Bularning hammasi boshlang'ich sinflardagi turli fanlar bo'yicha mashg'ulotlarning o'zaro kelishmovchiligi tufayli sodir bo'lmoqda. Bu holatda integratsiya bir predmet bo'yicha bilimlarni ikkinchisiga ko'chirish va faoliyatning almashinishi emas, balki zamonaviy fanlar integratsiyasi yo'nalishlarini aks ettiruvchi yangi didaktik ekvivalent (mos bo'lgan, o'xshash, keng keladigan narsa)larni yaratish jarayonidir. Psixolog E.N.Kabanova-Millerning aytishicha, «O'qituvchiga hali uchramagan vazifa asosida bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni mustaqil ko'chirilishi aqliy rivojlanishning muhim ko'rsatkichidir». U o'zining «Boshlang'ich sinflarda ta'limni integratsiyalash tajribasi» ishida maktab ta'limini integratsiyalashning muhimligiga e'tiborini qaratsa, L.P.Elenko integratsiya darsni samarali qilish vositasi, predmetlar aloqalarini yangi pog'onalarga ko'tarish shakli, deb hisoblaydi.

Integratsiya – o'qituvchilarning turli fanlar bo'yicha kuzatishlari va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi yangi dalillarni topib berish manbayidir. Ular faoliyatning turli shakllari almashib turishi orqali o'quvchilar charchashi va asabiylashishining oldini oladi.

INTEGRATSIYANING HOZIRGI ZAMON MUAMMOLARI

Boshlang'ich maktab ta'lim-tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Boshlang'ich ta'limni integratsiyalash masalasiga keyingi paytda bir qancha yondashishlar bo'ldi: darsni ikki fan o'qituvchisi olib borishi yoki ikki fanni bir darsga birlashtirib, uni bir o'qituvchi tomonidan o'tilishidan to integratsiyalangan kurslar tashkil etish, boshlang'ich ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirishgacha. Bunga maktab ham, didaktika va metodika ham tayyor emas.

Hozirgi kunda asosini tabiatshunoslik bo'yicha bilimlar tashkil etuvchi integratsiyalangan kurs yaratish muammosi dolzarb bo'lib turibdi. Bular

boshqa turdagi bilimlarni jipslashtiruvchi asosiy vazifani o'z zimmasiga oladi. Bunday yondashish anchadan beri ma'lum va chet el maktablari tajribasida hal etilgan. Bunda so'z faqat sinflarda emas, balki umumiy ta'limning o'rta va tugallovchi bo'g'inlarida ham bir qator fanlarning mazmunini integratsiyalash ustida bormoqda. Bu integratsiyalangan fanga tabiat va jamiyatning birligini tushunish uchun zarur bo'lgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy-estetik g'oya va tushunchalarni kiritish ko'zda tutilgan.

Keyingi paytda maktab ta'limini integratsiyalash to'g'risida ko'p so'z yuritilmoqda. Olimlar va amaliyotchi o'qituvchilar bolalarda qanday qilib dunyo to'g'risida yaxlit tushuncha hosil qilish va turli fanlar bo'yicha bilimlarni yaqinlashtirish uchun bir butun dasturni tuzish to'g'risida bosh qotirishyapti. Bir-biriga yaqin bo'lgan fanlarni birlashtiruvchi kurslar tashkil etish harakatlari bo'lmoqda: Masalan, matematika va konstruksiyalash, tasviriy san'at va badiiy mehnat. Bu kurslarning samaradorligini xorijlik pedagoglarning ko'p yillik ishlari natijalari bo'yicha baholash mumkin. Zero, integratsiyalangan kurslar chet el maktablari uchun odatiy holga aylangan.

Chet el tajribasi bilan tanishish shuni ko'rsatdiki, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarni rivojlantirish uchun asos bo'luvchi integratsiyalangan fanlar ko'pgina mamlakatlarning o'quv dasturlariga kiritilgan. Bu ekologik yo'nalishga ega bo'lgan integratsiyalangan fanlar jahon hamjamiyatida o'quvchilarda atrof-muhitga javobgarlikni shakllantirishning asosiy vositasi ekanligi to'g'risida xabar beradi.

Hozirgi kunda integratsiyaning bir necha usullari qo'llaniladi. Birinchisi, bir nechta fanlarni bir fanga birlashtirish. Shu masaladagi 1988-yilda chop etilgan xalqaro pedagogik tajriba yakunlariga bag'ishlangan tadqiqot – foydali manba ko'pgina xorijiy mamlakatlar boshlang'ich maktablarining o'ziga xos xususiyati integratsiyalangan kurslar bo'yicha ta'lim bo'lib qoldi. Kursning maqsadi bolani dunyo bilan suhbatga tortish, inson tabiat, jamiyat, fan, san'at bilan suhbatlashishga faqat odamlar suhbatlashadigan til bilangina emas, hayvonlar, o'simliklar tili bilan, rassomlar, musiqachilar, olimlar foydalanadigan til bilan tanishtirishdir.

Kichik maktab o'quvchisiga fikr doirasi keng bo'lgan muloqot san'atining boshlang'ich savodini egallashda yordam berish muhimdir. Bu savod o'zida odamlar bilan muloqotdan tortib (tengdoshlar, katta yoshdagilar, kichik yoshdagilar) o'z-o'zi bilan muloqotdan to atrof-muhitdagi hodisalar bilan muloqotni qamrab oldi.

Kursning maqsadi – o'zi ishlayotgan olam haqida, narsa va hodisalar orasidagi bog'liqlik, o'zaro yordam xususida va eng asosiysi, insonning ichki (ma'naviy) va ijtimoiy dunyosi, olamda hukm suruvchi qonunlar (tabiiy, ilmiy, tarixiy, axloqiy) haqida keng tushuncha berish. Asosiy urg'u faqat

ma'lum bilimlarni egallashga emas, balki tasvirli fikrlashni rivojlantirishga beriladi. Olamning umumiy ko'rinishi tovushlar, tasvirlar, ranglar orqali tanishtiriladi, bola esa ham dunyoni, ham o'zini o'rganuvchi, tekshiruvchi o'ringa qo'yadi. Bunda kurs ta'limi kichik maktab o'quvchilarining parallel ravishda asosiy fanlarni o'rganishlari hamda o'rta maktab ta'limida qulay sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Kursning tuzilishi qanday? Kursning integrativligi uning tuzilishiga xos xususiyatlarni belgilab beradi. Yil uchun umumiy bo'lgan bir mavzu har chorakning asosiy mavzusida o'z rivojini topadi. Shunday qilib, kurs asosiga qo'yilgan g'oyalar (fikrlarning) ning gorizontalar harakati amalga oshiriladi. Xuddi shu yo'l bilan vertikal harakat ham amalga oshiriladi (sinfdan sinfga), bunda har bir mavzu bolaning o'sishiga qarab murakkablashib boradi.

Integrativlik insonning olam bilan o'zaro aloqalarida aks etuvchi mavzularga kiritilgan: bola idrokida noma'lum bo'lgan uzoq olam bilan (kosmos, yulduzlar, yer kurrasi, katta bo'shliqlar va vaqt qadri), yaqin olam bilan (mikroolam, uy oldidagi hayvonlar va o'simlik dunyosi. ona-Vatan tabiati va boshqa mamlakatlar tabiati); insonlar olami bilan (turli mamlakatlar va madaniyatlar, sivilizatsiya markazlari, insonning inson va jamiyat bilan munosabatlari, insonning ichki dunyosi); madaniy dunyosi bilan (xalq ijodi, rassom va olimlar ijodi, ma'naviy qadriyatlarni saqlovchi odamlarning ishlari).

Shu olamlar ichra sayohatning mavjudlik qonuniyatlari, tillarning o'ziga xos xususiyatlarini ochish – kurs tizimining asosiy mantiqidir. Kurs oddiylikdan murakkablikka, bilishdan ilmga, tartibsizlikdan uyg'unlikka va ijodga bo'lgan harakatni taklif qiladi. Bola dunyo yaralishining «g'ishtchalari» bilan tanishadi, olamning boshlanishiga, insonning yerda paydo bo'lishiga murojaat qiladi. So'zlar, sonlar siri, yashil barg, qadimiy afsonalar jumboqlarini ochish yuzasidan fikrlaydi. O'quvchi makon va zamon bo'ylab sayohatga o'tlanadi. Shunday qilib, bola har kuni ochishi kerak bo'lgan olamning go'zalligi va turli-tumanligini his qiladi.

Murakkab dunyoqarashlar, ilmiy, badiiy g'oyalar bola tushunishi uchun qulay, tasvirli mavzularda o'z aksini topgan, ular yil mundarijasini tuzishga imkon beradi. Bir tartibga solingan tizim shu kursning o'ziga xos xususiyatidir. Bunday o'yinlarga yondashish 6–10 yoshdan boshlanadi. Bu o'yinlar murakkab bilim o'rttirishga, badiiy, axloqiy masalalarni hal qilishga yordam beradi.

Yil va chorak mundarijasiga turli ertak qahramonlari («Zumrad va Qimmat», «To'g'ri va egri», «Bo'ri bilan tulki», «Tulki bilan turna», «Kichik shahzoda», «Karlson», «Dyumovochka» va boshqalar)ning kiritilishi ham shu maqsadga xizmat qiladi. Ular mavzudan mavzuga yetaklab, yangi narsalarni bilib olishga yordam beradi.

Kursda shaxsga moslangan yoʻnalishga ega faqatgina sinf yoki guruhga emas, har bir bolaga ahamiyat beriladigan qilib ishni tashkil etish nazarda tutiladi. Bunda uning shaxsiy fazilatlarini, qobiliyatlari alohida koʻrsatiladi, qiziqishlari hisobga olinadi. Shu maqsadda «Oʻz yulduzingni yoq», «Guldastada sening guling», «Sen sevgan kitob» kabi oʻyinlardan foydalanish mumkin. Oʻyin davomida diqqat-eʼtibor birgina bolaga qaratiladi (masalan, tugʻilgan kun munosabati bilan osmonda yangi yoritilgan yulduz uning nomi bilan ataladi yoki katta guldasta bayram egasiga yoqadigan gul bilan boyiydi). Sevimli kitob esa sinf kutubxonasini toʻldirish bilan birga egasining imzosiga ega boʻladi.

Kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning qiziqish va qobiliyatlariga moslashish ularning badiiy faolligini rivojlantirishni taqozo qiladi. Bilim olish, badiiy-hayotiy masalalarni hal qilish oʻziga xoslikni, uddaburonlikni, ephillikni ragʻbatlantirishni nazarda tutyapti. Shu munosabat bilan bolalarning sheʼr va hikoyalar yozish, yangi raqs oʻylab topish, shirin taom pishirish, biron asbob yoki oʻsimliklardan shakllar yaratish kabi mustaqil ijodiyotning turli yoʻllari bilan ragʻbatlantirib borish taqozo etiladi.

Emotsional tomonlarni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Mashgʻulotlar bolalarda koʻrish va eshitish qobiliyatlarini, materiallar sifatini (fakturasini) ushlab koʻrib, ajrata bilish qobiliyatini, sezish tuygʻularini (hid va taʼmni ajrata olish qobiliyatlarini) rivojlantirishga yordam beradi. «Ovchilar», «Hayvonlar», «Izquvarlar» oʻyinini oʻynash bolalarga faqat umumiy bilimlarga ega boʻlish, masalalarni mantiqan hal eta bilishnigina emas, insonga berilgan barcha his-tuygʻular ham muhim ekanligini koʻrsatib beradi. Ularni rivojlantirish oʻta nozik tuygʻularning shakllanish yoʻlidir. Bunga yorqin tasvirlarga, sanʼat asarlari, tabiat bilan zavqlanishga murojaat qilish orqali erishish mumkin.

Bolalarda salbiy, xunuk, yomon narsalarga ham emotsional munosabatni rivojlantirish lozim. Bunga ertaklar oʻqish, turli sahna koʻrinishlari qoʻyish yordam beradi. Bolaning his-tuygʻulari uning jismoniy rivojlanishi bilan bogʻliq harakat qilishga, oʻz holatini badan harakatlari, imo-ishoralari, raqs orqali koʻrsatib berishga imkon beruvchi mashqlarni kiritish lozim.

Kursni tashkil qilish va ish shakllari haftasiga ikki soatga moʻljallangan. Hafta oxirida ikki soatlik dars oʻqish maqsadga muvofiq. Bunda bolalar, bir tomondan, asosiy darslardan ancha dam olishadi, ikkinchi tomondan, keyingi hafta darslariga tayyorlanishadi. Bunday ikki soatlik darsni «Ijod soati», «Xayol (orzu) darsi» deb nomlash mumkin.

Dars oʻtishdagi asosiy shart – sinfdagi zarur, mos muhitni yaratish: polga gilam solish, partalar oʻrniga qulay boʻlgan stol va stullar bilan oʻrnini almashtirish. Mashgʻulot jarayonida bolalar oʻz yashash muhitlarini

yaratishadi. Yil va chorak mavzusida «Devordagi suratlar», «Hayvonot va o'simliklar dunyosi» paydo bo'ladi. Bularni o'quvchilarning o'zlariga o'ylab topishadi. Buning uchun turli badiiy va texnik vositalar, ma'lumot beruvchi nashrlar, ensiklopediyalar, xaritalardan foydalanish mumkin.

Ko'pincha vaqtni sinfdan va maktabdan tashqarida o'tkazish ko'zda tutiladi. Muzey va kutubxonalarda, xiyobon yoki ko'chalarda o'tiladigan darslar odatiy bo'lib qoladi.

Integratsiyalangan kurs ustidagi ishlar davom etadi. Tanlangan yo'l juda qiyin va murakkab muammolarni hal qilish lozim.

Bolgariyalik olimlar tabiiy-ilmiiy bilimlarni o'z ichiga olgan, 10–12 yoshli bolalarga mo'ljallangan integratsiyalangan kurs yaratishdi. Shunday qilib, o'qish, yozish va og'zaki nutq «til san'ati»ga, tarix, geografiya, fuqaroshunoslik, jamiyatshunoslik, fizika, kimyo, biolo-giya, astronomiya, tabiatshunoslik va shu kabilarga birlashtirildi.

Integratsiyaning bunday usulidan to'liqsiz va to'liq o'rta maktablarda qo'llaniladi. AQSHdagi o'rta maktablarning yuqori sinflarida fizika, kimyo, geografiya, geologiya, kristallografiya, tuproqshunoslik va shu kabilarni o'z ichiga oluvchi «Yerni o'rganish» fani kiritilgan. Chexiya, Slovakiyada ham shunday umumlashtiruvchi integratsiyalangan «Fuqaro tarbiyasi» deb nomlangan kurs yuqori sinflarda kiritilgan.

Shunday qilib, bir qator mamlakatlar tajribalari ko'rsatishicha, integratsiyalangan kurslar qulay shakl bo'lib qoldi. Maktabda o'qitiladigan fanlarni bir butun tizimli ravishda o'qitish imkoniyati tug'ilganga o'xshaydi. Lekin shunday savol tug'iladi: bu kursni qanday o'qituvchi o'qitishi mumkin? Bunday kurslar yaratilishining o'zi yuqori malakali jamoani talab qiladi. Zero, uni o'qitish uchun yuqori malakagina emas, balki keng bilimdonlik kerak. Bunday o'qituvchini kim tayyorlab beradi?

Kim shunday murakkab ko'p predmetli o'quv kursini olib boruvchi o'qituvchini moddiy va ma'naviy jihatdan qiziqтира oladi? Bu savollar hal qilinmas ekan, integratsiyaning bu usuli ko'zda tutilgan natijalarni bermaydi.

Boshlang'ich maktabda integratsiyani amalga oshiruvchi bo'g'in vazifasini o'qituvchining o'zi bajaradi. U bolalarni arifmetikaga, yozishga, tabiiy ko'pgina boshlang'ich tushunchalar va yana ko'pgina narsalarga o'rgatadi. O'z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang'ich sinflarda bir o'qituvchining dars berishini integratsiyaning bir usuli, deb hisoblasak ham bo'ladi.

Integratsiyani amalga oshirishning usullari yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin. Muammoning mohiyati shundaki, usullarning biridan yuz o'girib, ikkinchisida barcha darajada o'qituvchilarning (psixologik va fiziologik) yosh xususiyatlarini hisobga oladigan integratsion choralar

tuzishni kiritishdir. Masalaning bunday qo'yilishi integratsiyaning turli ta'lim pog'onalarida turli xususiyatlarga egaligidir. Boshlang'ich maktabda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko'rish maqsadga muvofiq.

Ta'limning keyingi pog'onalarida u asosiy fanlarning chegaralarini birlashtirishga harakat qiladi. Boshlang'ich ta'lim-tarbiyani integratsiyalashda ijobiy va salbiy omillar mavjudligini hisobga olish kerak. Bu omillar integratsiyaning usullarini belgilab beradi.

Y.M.Kolegin va O.L.Aleksinko integratsiyaning salbiy omillarini quyidagicha ko'rsatib berishadi:

· o'quv predmetlarining chegaralangan soni – olinayotgan katta hajmdagi bilimlarning mazmuni ko'rinishini, qismlarining o'zaro bog'liqligini aks ettirish bilan to'ldirish mumkin.

· juda muhim bo'lgan o'qish, yozish va sanoq ko'nikmalarini shakllantirish zarurati.

Bu narsalar xuddi fanlarga bo'linib o'qitishni talab qiladiganga o'xshaydi. Lekin o'qish va matematikaga o'qitishning an'anaviy tajribasi ham keng integratsion imkoniyatlar haqida dalolat beradi. Bunda o'qish fan sifatida o'z ichiga faqat badiiy matnlarni emas, tarix, tabiatshunoslik bo'yicha materiallarni ham oladi. Matematika arifmetika, algebra va geometrik materiallarini o'z ichiga oladi. Bunday integratsiya muhim ko'nikmalar hosil qilishga xalaqit bermaslik, aksincha, ularni shakllantirishga kafolat beradi.

Robert Karlosning aytishicha, boshlang'ich maktab faqat o'qish, yozish va sanashni o'rgatibgina qolmasdan, bundan ham muhimroq va kattaroq masalani amalga oshirishi kerak. Chunki har bir bola shakllantirish davrida uning intellektual faolligini rag'batlantirish, tabiiy qobiliyati singari uning keyingi muvaffaqiyatlari uchun juda muhimdir.

Integratsiyalangan kurslarni shu yoshdagi bolalarga tushunarli va qiziq bo'lishi uchun bayon qilishning qiyinligini bartaraf etishning yo'llari amaliyotda tekshirilgan eng ma'qul uslublarni ishlab chiqishda hamda o'qituvchilar tayyorlashning maxsus tizimidadir.

BOSHLANG'ICH MAKTABNI INTEGRATSIYA QILISH

Hozirgi kunda boshlang'ich maktab ta'limini integratsiya qilish haqida ko'p gapirilyapti. Bu tushunarli – kichik maktab o'quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qiladi. Uning uchun tabiatshunoslik, rus tili, musiqa va boshqa o'quv fanlari nomi emas, balki atrofdagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligi qiziqarlidir. Bolalarni tabiat

va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog‘liqligini ko‘rishga o‘rgatish kerakligini o‘qituvchi sezadi, biladi. Shunday ekan ta‘lim integratsiyasi hozirgi zamon talabiga javob bo‘ladimi? Bu masala qanday yechilishi kerak, uning mohiyati nimada?

Ta‘limni integratsiyalash fikri xalq ta‘limida tabaqalashtirish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshlandi. Agar kichik maktab ta‘limini tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida qiziqishlarni faol shakllantirishni taqozo etsa, integratsiyaning asosi qilib turli fanlarni o‘rganish obyektlari bo‘lgan ba‘zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish mumkin.

Ta‘limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang‘ich maktab-dayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo‘yish va ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o‘quvchisi predmet yoki voqea-hodisalarni bir necha tomondan ko‘rish muhimdir: mantiqiy va emotsional tomondan, badiiy asarda va ilmiy-ommabop maqolada, biolog, so‘z ustasi, rassom, musiqachi nuqtayi nazaridan va boshqalar.

Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushinishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarni o‘rnatish ta‘limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunga turli darslar tushunchalariga ko‘p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshda tushunarli bo‘lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan tuzilish va o‘tkazish tartibiga ega bo‘lgan, tarkibiga shu o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin.

Lekin integratsiyalangan darsga boshqa fanlar, boshqa o‘quv predmetlari bilan bog‘liq tushunchalar tahlil qilinishining natijalari kiritiladi. Masalan, «qish», «sovuq», «bo‘ron» kabi tushunchalar o‘qish, rus tili, tabiatshunoslik, musiqa, tasviriy san‘at darslarida ko‘rib chiqiladi. Tushunchalarning tahlil qilinishi boshqa o‘quv darslarida o‘zlashtirilgan bilimlarga murojaat qilinadigan darslar integratsiyalangan hisoblanadi. Dars ijodiy, erkin bo‘lishi bilan birga, yaxlit, mantiqan ketma-ket, o‘ziga xos o‘tish metodikasiga ega bo‘ladi.

Umumiy ta‘limning poydevorini qo‘yadigan boshlang‘ich maktabdagi ko‘p tushunchalar tabiatshunoslik, rus tili, musiqa, tasviriy san‘at va boshqalar uchun umumiydir.

Hozirgi kunda bir qator o‘quv predmetlari uchun umumiy bo‘lgan tushunchalar orasidagi aloqalarni o‘rnatish, psixologik va metodik asos

bo'lgan integratsiyalangan darslar tizimini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish lozim. Shu bilan birga predmetlararo aloqalar dars tarkibi darajasida o'rgatilishi va zarur o'qitish vositalari bilan ta'minlanishi kerak.

Tekshirish davomida o'quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida faol aqliy faoliyatga yordam beruvchi omillar: integratsiyalash uchun fanlarning ma'qul birlashishi, o'qituvchi va o'quvchi harakatlarining mos kelishi, bolalarning yosh imkoniyatlarini hisobga olgan holda mazmun, metod, usullarni tanlashdan iborat.

Integratsion pedagogika o'quv fanlaridan biri bo'lib, fanlararo bilimlar (integrativ bilimlar)ni chuqurlashtirish va oshirish, ularni shakllantirish uchun o'rganiladi. U har xil turlar, usullar, uslublar, fanlararo integratsiya obyektlari asosida tuzilgan.

Integratsion pedagogikaning sinflarga bo'linishini turli asoslarda qilish mumkin: maqsad va muammolar asosida; maktab tabiiy-ilmiiy tizimidagi vazifalari asosida; qo'shiluvchi fan tarmoqlari asosida; integratsiya usullari va yo'llari asosida; o'quv rejasidagi o'rni asosida; kursni o'rganishga sarflangan vaqt asosida; o'quvchilar uchun qiyinlik darajasi asosida va h. k. Shuni e'tiborga olish kerakki, bu kurslarning mualliflari, odatda, o'z oldilariga bir necha maqsad va muammolarni yechish masalasini qo'yishadi, shu sababli kurslar ko'p maqsadli, turli vazifali bo'ladi.

Ko'p miqdordagi dasturlar va ularni tatbiq etishga urinishlarni ko'rib chiqib, biz bu kurslar qurilishining asosiy yo'nalishlarini ajratishimiz va ularni mohiyatiga qarab sinflarga bo'lishimiz mumkin.

Integrativ ta'limning sinflarga bo'linishi.

Ularni universal yoki bir necha asosiy tizim kurslarini almashtiruvchi umumiy, deb ham atash mumkin. Masalan, o'qish, tabiat, rasm darslarini bitta umumiy darsga birlashtirish.

Odatda, bunday kurslarning mualliflari tabiiy fanlar materiallarini birlashtirib, ularni bir ma'lum tizimga keltirishadi va o'z kurslarini integrativ yoki kompleks (umumiy), deb ataydilar. Ko'rinib turibdiki, boshlang'ich ta'lim tizimidagi tabiiy fanlar materiallarini berishda to'g'ri ketma-ketlikka faqat darslar tuzilishini saqlab qolibgina erishish mumkin. Ba'zi e'tiborli olimlar ta'kidlaydilar, bu an'anaviy maktablarda ham tabiiy fanlarni ketma-ket o'rganish yo'li bilan ham hal qilinmoqda. Bir qator olimlar boshlang'ich ta'limda ham darslarga ajratib o'qitish an'analari tarqalgan, deb hisoblashadi.

Tabiiy fanlarni o'qitishning tizim bo'yicha davom ettirishni bekor qilish va soddalashtirish uchun ko'pgina mualliflar gumanitar sinflar uchun umumlashtirilgan kurslar (darslar) taklif qilishadi. Bularga umumiy

tushunchalar beruvchi, bolalarda tabiiy fanlarni o'rganishga qiziqish uyg'otish vazifasini bajaruvchi, tabiat haqida qiziqarli ko'rinishda hikoya qiluvchi boshlang'ich tabiiy fanlar kurslari (masalan, boshlang'ich sinflardagi «Tabiatshunoslik») kiradi.

Chegaradosh fanlar asosida tuzilgan kurslar.

Keng integratsiya jarayoni oldingi ilmiy yo'nalishlarni bog'lovchi yangi tabiiy fanlar va ilmiy yo'nalishlar hosil bo'lishiga olib keldi.

Boshlang'ich sinflarda ekologik ta'limni kuzatib, o'qish, tabiatshunoslik, mehnat (tabiiy materiallar bilan ishlash), rasm fanlariga ekologik mavzular kiritilgani ko'rinadi. Bir-biriga yaqin chegaradosh fanlarning qatoriga molekular biologiya, biofizika, geofizika, biokimyó, astrofizika, astrokimyo kiradi. Bu fanlar asosida maktab integrativ tabiiy fanlari tuziladi.

Asosiy fanlar asosida tuzilgan kurslar.

Bu kurslar zamonaviy bilimlarning har bir bo'limini qamrab oluvchi asosiy fanlar asosida tuziladi. Ular qatoriga pedagogika, pedagogik texnologiya, pedagogik psixologiya, inson yoshi psixologiyasi, fan rivojlanishi jarayonini o'rganuvchi pedagogik psixologiya, fanning insonning boshqa hayot jarayonlariga bog'liqligini o'rganuvchi; kibernetika – boshqarish, aloqa va informatsiyani qayta ishlash; informatsiyaning tuzilishi va xususiyatlarini, uning shaxs shakllanishidagi o'rnini o'rganuvchi informatika.

Inson hayotining turli jarayonlarida ilmiy yo'nalish bo'lgan tizimlarning aloqalarini o'rganuvchi sinergetikaning qo'llanilishi. Bu sinfdagi integrativ kurslarning mazmuni shu fanlar ma'nosi va strukturasi asosida tuziladi.

Umumiy ilmiy tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar asosidagi kurslar.

Bu asosda integrativ kurslar yaratish haqidagi fikrlar yaxshi natijalar berdi. Mualliflar orasida yuqori darajadagi umumiylikni bildiruvchi tushunchalar: «materiya», «harakat», «modda», «maydon», «energiya» va boshqalar ko'p ishlatildi. Qonunlar orasida sermahsuli – tabiatni saqlash qonuni odamlarning mehnat faoliyati tufayli rivojlanishi, tabiatga tuyg'u bilan qarash bo'ldi.

Nazariyalar orasida integrativ kurs yaratish uchun asos bo'lib asosiy tabiiy-ilmiy nazariyalar xizmat qiladi. Shunisi e'tiborga loyiqki, bu asosda integrativ kurslar yaratishga urinishlar ko'p bo'lgan bo'lsa ham, ular qovishmaganligi va ma'lum ketma-ketlikka, didaktik maqsadga ega emasligi bilan ajralib turadi. Fan evolutsiyasi bilan bog'liq muammolarni, tabiatni

ilmiy nuqtayi nazardan o'rganish uslublarini, olamning ilmiy ko'rinishini o'rganish asosidagi kurslar – yuqoridagi barcha mavzular integrativ mazmunga ega va tatbiq etishga katta imkoniyatlari bor, afsuski, bunday kurslar maktab faoliyatida qo'llaniluvchi material va o'qitish uslubining murakkabligi tufayli hali keng tarqalgani yo'q.

Kompleks obyektlar asosida.

Integrativ kurs yaratishga asos bo'lgan kompleks obyektlarga Yer, biosfera, odam va uning yashash muhiti misol bo'la oladi. Bu kurslarning bir xil mavzularida bir obyekt turli fan nuqtayi nazaridan ko'riladi.

Shu xildagi integratsiya o'tgan asrning yigirmanchi yillarida maorif tizimida qo'llanilgan. Keyinchalik u bekor qilingan, lekin bizning davrimizda, aytish mumkinki, qaytadan tug'ildi. Bizning nazarimizda, ma'lum hajmda u tabiiy fanlar ta'limiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Turli muammolar asosida.

Integrativ kurslarni turli lokal (mahalliy) va global (umumjahon) muammolar asosida tatbiq etishga urinishlar ko'p uchraydi. Bunda tabiiy, ilmiy bilimlarning muammolar asosida birlashtirilishi qo'llaniladi. Bu sinfdagi integrativ kurslar (asosan, ekologiya bilan bog'liq kurslar) maktablar ish faoliyatida keng tarqalgan.

Muammolar bo'yicha tuzilgan integrativ kurslar rivojlanishiga global ta'limning rivojlanishi ham turtki bo'ldi. Bu yo'nalishning tarafdorlari zamonaviy shaxsning rivojlanishiga bugungi kunda mamlakatlarning va millatlarning ekonomika, fan, siyosat, ma'naviyatining uzviy bog'liqligidan kelib chiquvchi globallik omili kuchli ta'sir ko'rsatadi, degan tasdiqlashni asos qilib olishgan.

Faoliyat asosida.

Tabiiy fanlar asosini o'rganishda o'quvchilar kitob bilan ishlash, kuzatishlar olib borish, tajribalar o'tkazish, olingan bilimlarni bir tizimga solish kabi turli o'quv-ta'lim ish faoliyati bilan to'qnashadi. O'quvchilarni faoliyatning bir turi bilan tanishtiruvchi bir butun kurs yaratish maqsadga muvofiqdek ko'rinadi. U o'qitish jarayonining har bir vaqtida foydali bo'lishi mumkin va kichik hajmda ham tabiiy fanlarni o'qitishda, o'quvchilarning ortiqcha kuch sarf qilishlari muammosini hal qilishda, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

Bu sinfdagi integrativ kurslarni yaratish va ularni o'quv jarayoniga tatbiq qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy fanlarni o'zlashtirishni tekshirishlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek o'quvchilari

chet ellik tengdoshlarga nisbatan ko'p ma'lumot o'zlashtirishsa ham, uni tatbiq qilishda sezilarli darajada orqada qolishadi.

Ko'pchilik bunga sabab asosiy ko'nikmalarning moslashtirilmaganida deb biladi. Balki, uzoq vaqt davomida an'anaviy maktabda integrativ darslarga e'tibor berilmaganidadir?

Bu yerda bugungi kungacha yaratilgan integrativ kurslarning asosiy sinflari sanab o'tildi. Lekin o'quv fanlarini integratsiyasi jarayonida qator kamchiliklar ham bo'lishi mumkin.

Birinchidan. Aytib o'tilgan tabiiy integrativ kurslarni tuzish yo'llari ko'pincha bir-birini takrorlaydi va birga qo'llaniladi, bu bilan yangi asoslar yaratilib, ularni tartibga keltirish, ilmiy asos yaratish qiyinlashadi.

Ikkinchidan. Integrativ kurslar fanlararo aloqaning o'rnini bosa olmaydi. Bizning fikrimizcha, ular bu aloqaning tashkil etuvchilaridan biri.

Uchinchidan. Tabiiy ilmiy ta'limning qulay tuzilishi shundaki, integrativ kurslar o'quv rejasining o'zgaruvchan qismiga kirib, uning regional tashkil etuvchisi hisoblanadi.

To'rtinchidan. To'liq o'quv-metodik qo'llanmalarning yo'qligi integrativ kurslarning o'quv jarayoniga tatbiq etilishida qiyinchiliklar tug'diradi. Ularning mualliflari dastur tuzib, umumiy metodik ko'rsatmalar tuzishgandan so'ng to'xtab qolishadi.

Beshinchidan. Integrativ kurslar uchun o'qituvchilarni rejali va maqsadga muvofiq tayyorlash tizimi hali takomillashgani yo'q.

INTEGRATSIYA – FANNI O'QITISHDA TA'LIM FALSAFASI

So'nggi o'n yilliklar ichida ta'lim falsafasi shunday ilmiy yo'nalishga aylandiki, u insonning ta'lim olish jarayonida yaxlit intellektual rivojlanishi borasidagi savolga javob taklif etmoqda. Ta'lim olayotgan yosh insonning rivojlanish sharoitidagi qarama-qarshilikni amaliyotdagi pedagoglar aniqlashgan.

Fan o'qitishdagi integratsiya bo'yicha ularning taklifi tashqi birikish xarakteriga ega, aslida esa fanlarni integratsiyalashni chuqur metodologiya asosida o'tkazish zarur.

Yangi rivojlanayotgan fan mazmunida turli falsafiy oqimlarda paydo bo'lgan g'oya va metodlar birlashuvi ehtimoli bor. Ta'lim falsafasi tomonidan nafaqat tabiiy moslashuv, balki kontinental moslashuv ham o'zlashtirilmogda.

Olimlardan T.Kun va V.S.Styopin bu boradagi ishlari natijasida falsafa, tabiat va madaniyat haqidagi fanlarni birlashtirdi. Shunday qilib, fizika modellariga zamonaviy inson ongi murojaat etuvchi ilg'or fanga aylandi.

XX asr o'rtalarida ilg'or fanlar orasida kibernetika yuqori o'rin egalladi. Kibernetikada o'zlashtirilgan prinsiplar o'z qo'llanishini anorganik olamdagi hodisalarni tushuntirishda biologiya, texnikadan topdi.

Noklassik fizikadagi N. Bornning qo'shimchalilik prinsipi avval olimlar tomonidan umumiy tabiat qonuniyatlarini ifodalovchi falsafiy prinsip, deb aniqlangan edi. Bu esa kelgusida boshqa fanlar rivojlanishiga asos soldi. Qonuniyatlar majmuasi shakllanish vaqtiga kelib, fan ko'p qirrali bo'la boshlaydi. inson tasviri ko'proq gavdalanadi. Integratsiya jarayonini kuchaytirishga, insoniyat tajribasini tartiblashtiruvchi madaniyat toifalarini izlashga zaruriyat tug'iladi. Zamonaviy falsafa taqdim etgan integratsiyaning poydevor tarkibiy elementlariga dunyoqarash omillari kiradi. Ular ma'noni anglash, tushunish va insonning dunyoni ko'rish usulini belgilaydi.

Yosh insonning ijtimoiylashuviga maorif tizimi yordamida ushbu madaniyat turiga kiritish unda dunyoqarash universalialarni o'zlashtirishga sharoit yaratilganda erishish mumkin. Individni madaniyatga kiritish, shaxsni shakllantirish dunyo manzarasini to'ltq o'zlashtirishni taqozo etadi. Ushbu omillar asosidagi matritsalar turli aniq faoliyat, bilim, ideal shaklga asos bo'ladi.

Dunyoqarash universalialar tizimi dunyoni umumiy ta'riflovchi toifalarni o'z ichiga oladi. Ular tabiat, ijtimoiy obyektlarga, jonli va jonsiz tabiatga, inson va uning jamiyatdagi hayotiga, ma'naviyatiga, ongiga kiradi. Universal toifalar universal qo'llanish imkoniga ega. Bu toifalar: kenglik, vaqt, harakat, miqdor, sifat, sabab, tasodif, shaxs, inson, jamiyat, men, ong, go'zallik, ishonch, adolat. erkinlik va h.k.

Bo'limlarga bo'lingan ta'lim mazmunida universalialar uning barcha qonuniyatlarini qamrab olishi lozim. Univesaliyalarning integratsion ahamiyati madaniyatning barcha yo'nalishlarida namoyon bo'ladi. Ularning o'zlashtirilishi istalgan fanni o'rganishda o'zini ko'rsatadi. Ular yordamida madaniyat, ijtimoiy tajriba insondan insonga, bir avloddan ikkinchisiga o'tadi. Madaniyat universalialari ushbu modelda inson ongining tuzilishi elementi shaklida aks etadi.

Madaniyat universalialari mazmuni individ tomonidan uning ta'lim olish jarayonida, shaxsiy shakllanishida, tarbiyasida va jamiyatdagi hayotida o'zlashtirilishi lozim. Ular uning ichki intellektual salohiyati va tashqi olamdagi xatti-harakatining qurilish materiali bo'lib xizmat qiladi. Ong dunyosi va amaliy dunyo bog'liqligi falsafaning rivojlanish darajasiga qarab metaforik fikrlashida aks etadi.

Madaniyat universalialarini falsafiy o'zlashtirish bosh shaklidagi yo'li turli ijtimoiy-madaniy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Ta'lim falsafasi dunyoni ma'naviy o'zlashtiradi. Adabiyot, madaniyat faoliyat yo'nalishlari

kabi ma'naviy ishlab chiqarish va universalialarni aniqlab berishdek murakkab jarayonlarni amalga oshirildi. Farq shundaki, ta'lim falsafasida bu hodisa professional darajada, metodologik jihozlangan tartibda ro'y beradi. Kundalik fikrlash, ma'naviy anglash falsafiy madaniyat universalialarining birlamchi shaklida paydo bo'ladi. Tahliliy ishlar mobaynida universal toifalar mazmuni murakkablashadi. Bu asosda yetarli murakkab va o'ziga xos falsafiy g'oya komplekslari rivojlanadi.

Bola anglash dunyosi orqali falsafa maydonida turib qoidalar obyektga aylanadi.

Tabiat, jamiyat, inson o'zining real dunyosi ma'naviy tahlili uchun ideal obyektlar bilan ishlash zaruriyati shunga olib keladiki, bu obyekt fikrlash metodlariga bog'liq bo'ladi. Universal (ko'p xossal) toifalar anglash jarayonida moddiy ta'sirlanishga uchraydi. Natijada paydo bo'lgan toifa turi faqatgina ta'siri universal toifalarni aniqlashga olib kelgan haqiqatnigina aks etmay, balki fikrlashning ideal yo'nalishini ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda pedagogik amaliyotda fanlararo bog'lanish asosida ta'lim jarayoni integratsiya yo'llarida izlanishlar davom etmoqda. Olib borilayotgan ishning foydaliligini tan olgan holda uning xarakterini belgilab o'tamiz. Bunday tarbiyaviy ish katta samaraga ega. Mazmun va ta'lim maqsadi integratsiyasi bo'yicha masalani faqat ta'lim falsafasi asosida yechish mumkin. Metodologik apparat asosidagi ta'lim falsafasi boshida fanning ideal shakllari, universal toifalar turishi kerak.

Integratsiya rusum ham, navbatdagi kompaniya ham emas. U shunday an'analar aksiki, ular bugun inson faoliyatining barcha sohalarini ta'riflab beradi. Bu faoliyat kengliklari o'zgardi. davrning dolzarb muammolari tug'ildi.

Zamonaviy tabiatshunoslik odamzod faoliyatining barcha turlarini o'z ichiga olgan bu fanlarning metodologiyasini yangiliklar bilan bog'lash kerak.

Fanni anglash jarayonida ijtimoiy-insonparvarlik, tabiiy-ilmiy, texnik bilim metodologiyalari o'zaro bog'lanishda ko'rinadi. Aynan integratsiya asosida tabiiy fanlar bioolam ko'rsatmalaridagi, inson faoliyatini o'rganishdagi, davrning dolzarb muammolarini yechishda ko'rinadi.

Xullas, bu tafovut munosabatlar o'zgarishida va barcha maktab talablarining umummadaniy bilimlarida namoyon bo'ladi. Integratsiya tabiiy-ilmiy ta'lim mazmuni insonparvarlashuvining asosiy mexanizmi bo'lib chiqadi. Hozirgi kunda tabiiy-ilmiy ta'lim ahamiyatini baholab xulosalash mumkinki, u tabiiy-ilmiy haqqoniylik va insonparvar ideallar birga bo'lishiga da'vat etadi. Integratsion yondashuv qo'llanishi tabiatshunoslik va tevarak-atrof bilan tanishuv kursida ko'rsatilgan.

INTEGRATSIYALANGAN DARSLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Integrativ dars ancha yaxshi ishlab chiqilgan shakllardan hisoblanadi.

Integrativ darsning asosiy tavsifiy xususiyatlari quyidagilar: o'rganilayotgan materialning, nazariy va ishlab chiqarish ta'limining sintezi; umumta'lim fanlarining o'zaro sintezi; ikki yoki undan ortiq pedagog faoliyatining sintezi va b.; uning pedagogik imkoniyatlari aniqlangan; bilimlarning ularni amalda qo'llash ko'nikmalari bilan birgalikda shakllanishi; ko'nikmalarning kommunikativligi, o'qishga bo'lgan qiziqishning ortishi, qo'rquvning, o'ziga ishonchsizlikning yo'qolishi.

O'z mazmuni hamda vazifalariga ko'ra integrativ kun integrativ darsga yaqin turadi. Adabiyotlarni tahlil qilish va tajribalarni o'rganish asosida o'quv kuni integratsiyasining uchta modelini ajratish mumkin. Birinchi modelning mohiyati shundan iboratki, bir kunning o'zida umumiy kompleks muammoni hal qilish orqali birlashgan, darslararo aloqalari mavjud bo'lgan bir necha dars o'tkaziladi. O'quv kunining bunday tashkil qilinishi o'quvchilar bilimining sintezlanishiga, turli fan o'qituvchilari harakatining o'quvchilar bilimini shakllantirishdagi birlashuviga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchilarning darslarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida hamkorlik qilishlari natijasida ta'minlanadi. Integrallashgan dars modelining o'ziga xos xususiyati shundaki, o'qish davomida nazariya va amaliyot birga qo'shib o'qitiladi. Bunda birinchi navbatda 6 soatlik bitta mashg'ulot davomida maxsus texnologiya va ishlab chiqarish ta'limining birgalikda qo'shib olib borilishi haqida so'z yuritilmoqda. Bunday ta'lim shaklining boshqacha nomi Binar darsdir. O'quv jarayoni integratsiyasining uchinchi modeli «sho'ng'ish» («konsentratsiya») deb ataladi. Bunga ko'ra, bir o'quv kunida bittadan uchtagacha fan o'qitiladi. Bu esa bitta fan bo'yicha qatorasiga bir necha dars o'tilishi hisobiga erishiladi.

Mutaxassislar tomonidan integrativ darsdan foydalanishning quyidagi ijobiy natijalari ajratiladi:

1. O'quvchilarning o'rganilayotgan materialning nisbatan tugallangan yaxlit qismi chuqur va mustahkam o'zlashtirishlari ta'minlanadi.

2. O'quvchilarni faoliyatning turli-tuman ko'rinish va shakllariga jalb qilish, faoliyatni tashkil etishning frontal, guruh va individual shakllarini maqbul tarzda birga qo'shib olib borish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

3. Pedagog va o'quvchilarning birgalikda ijod qilishlariga keng imkoniyatlar yaratiladi, o'quv jarayonida hamkorlik, o'zaro yordam, ta'limning insonparvarlashuvi namoyon bo'ladi.

4. Pedagog ta'limni tashkil etishning, komplekslashtirishning turli-tuman shakllaridan, ularni o'quv kuni doirasida, o'quv jarayonida o'quvchilar faolligini ta'minlaydigan va qo'llab-quvvatlab turadigan shakllarga (masalan, guruhlarda dars-suhbat-ma'ruza-mustaqil ish) integratsiya qilish imkoniga ega bo'ladi.

5. O'quvchilarni majburlab o'qitish yo'qoladi.

6. Ta'limni haqiqiy differentsiyalash, o'quvchilarning yosh, aqliy, jismoniy xususiyatlarini hisobga olish uchun shart-sharoitlar yuzaga keladi.

7. O'quv kunining kaleydoskopga o'xshagan xususiyati yo'qoladi, buning natijasida esa o'quvchilar va pedagoglar uchun darslarga tayyorgarlik ko'rish miqdori kamayadi.

Integrativ seminar quyidagilar mavjud bo'lgan taqdirdagina amalga oshirilishi mumkin:

a) ikkita yoki undan ortiq fanlar bo'yicha materiallarning sintezi;

b) unda turli bilim sohalari mutaxassislarining ishtirok qilishi;

d) o'quvchilardan (talabalardan) turli, ba'zan tashqi jihatdan bir-birini inkor qiladigan hodisalar (jarayonlar, ta'limotlar, konsepsiyalar, pozitsiyalar va b.) o'rtasidagi umumiy nuqtalarni topishni talab qiladigan munozara predmetlarini tanlash.

Ko'rsatilgan shart-sharoitlar jamlangan yoki alohida ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, pedagogika va psixologiya bo'yicha; pedagogika, psixologiya va fiziologiya bo'yicha; fizika va kimyo bo'yicha; filosofiya, fizika va biologiya bo'yicha seminarlarning o'tkazilishi birinchi shartning bajarilishiga misol bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bunday seminarlar turli bilim sohalari bo'yicha ma'lumotlar aks etgan integrativ fanlarni o'qitish jarayonida amalga oshirilishi mumkin. Xususan, bu psixopedagogika, ta'lim falsafasi va tarixi, psixologlar uchun pedagogika bo'yicha biz ishlab chiqqan kurslarga tegishlidir.

Turli ilmiy sohalar bo'yicha mutaxassislar ishtirokida ham seminarlar o'tkazish mumkin. Masalan, kasbiy ta'lim metodikasi bo'yicha seminarlarda ba'zi vaziyatlarda metodika o'qituvchisidan tashqari umumiy pedagogika kafedrası vakilining bo'lishiga ham yo'l qo'yilishi mumkin. Bu metodika va umumiy pedagogika bo'yicha bilimlarning chuqurroq sintezlashuviga, bu esa, o'z navbatida, yaxlit pedagogik tafakkurning shakllanishiga yordam beradi.

Pedagogikada (F.Xamatnurov) darsni munozara shaklida tashkil etish va o'tkazish dastlabki qoidalari ishlab chiqilgan. O'quv munozarasi – bu o'quv materialining pedagog tomonidan tayyorlangan, tashkil etilgan va o'tkazilgan jamoaviy muhokamasidir. Bunda material muhokama jarayonida turli tomondan tahlil qilinadi. Munozara markazida muayyan muammoni turlicha talqin qilishni va hal qilish yo'llarini tushunishning bo'lishini

taqozo qiladigan munozarali muammoviy vaziyat turadi. Integrativ seminar-disputning o'ziga xos xususiyati ko'rilayotgan hodisalardagi umumiy nuqtalarini topishni talab qiladi. Boshqacha aytganda, bu hodisalarning farqli tomonlariga emas, balki o'xshash tomonlariga urg'u beriladi. Shunisi borki, mazkur o'xshashliklarni topish uncha oson emas. Aloqani, o'zaro qiyin munosabatga kirishadigan narsalar o'rtasidagi birlikni ko'rish – seminar ishtirokchisining asosiy vazifasidir. Ayniqsa, bo'lg'usi pedagog uchun bu juda muhimdir, chunki antinomlik (bir-birini inkor qiladigan narsalar o'rtasidagi aloqalarni ko'ra bilish qobiliyati) u tayyorgarlik ko'rayotgan faoliyatning zaruriy belgisidir. Bu faoliyatdan bekorga inkor qiluvchi odamga foyda yo'qdir. Boshqa bilim sohalari yoki faoliyat turi kabi pedagogikaning madaniy maydoni yaxlit va bo'linmasdir.

Integrativ ma'ruza yuqorida sanab o'tilgan har uchala shartga javob beradi. Bu shartlarning borligi integrativ seminarining mavjudligidan dalolat beradi. Bizning davrimizda bunday yondashuv ma'ruzalarning dialog tusini olayotgani ham buni tasdiqlaydi, bu esa ma'ruzalarning seminar mashg'ulotlariga o'ta darajada yaqinlashuviga yordam beradi. Integrativ ma'ruza sifatida psixologiya o'qitish tajribasini misol qilib keltirish mumkin (Z.F.Zeer, O.N.Shaxmatova va b.).

Integrativ topshiriqlar (masalalar, mashqlar) integrativ so'roqlarga o'xshash ko'rsatkichlarga ega bo'lib, ulardan faqat ancha keng bayon qilish shakli va ularni yechishda nafaqat bilimlardan, balki ko'nikma va malakalardan foydalanish imkoni mavjudligi bilan farqlanadi.

Tadqiqotchilar ular jumlasiga induktiv, qisman induktiv va deduktiv xarakterdagi kompleks bilish topshiriqlarini, «muayyan texnik obyekt uchun o'lchamlar va tavsiflarning eng maqbul miqdorlarini aniqlash» toifasidagi kompleks topshiriqlarni, murakkab amallarning bir qancha komplekslarini qayta ishlash uchun mashqlarni kiritishadi.

Integrativ vaziyatning yuragi muammoli vaziyatdir. Bunda insonda obyektiv vaziyatda (topshiriqdagi vaziyatda) yangi dalilni mavjud bilimlar yordamida tushuntira olmaydigan yoki ma'lum amallarni oldingi, tanish usullar yordamida bajara olmaydigan va yangi usulni topishga majbur bo'ladigan aqliy qiyinchilikka xos ruhiy holat yuzaga keladi (M.I.Maxmutov). Umuman olganda, har qanday muammoli vaziyat integrativdir. Bu muammoli vaziyatning integrativ tabiati bilan izohlanadi. Har qanday vaziyat o'z yechimini talab qiladigan qarama-qarshiliklar mahsulidir, bu esa sinetik faoliyatning zaruriy minimumisiz amalga oshmaydi. Shuning uchun integrativ vaziyatlarning zaminini asosan muammoli vaziyatlarga xos shartlar tashkil etadi. Bu shartlar quyidagilardir: a) o'quvchilarning oldin olingan bilimlarni yangi sharoitlarda qo'llash zaruriyati bilan to'qnash

kelishlari; b) tanlangan usulni amalga oshirishdagi qarama-qarshiliklarning mavjudligi.

Avvalo, qaysi darslar integratsiyalash uchun mos kelishini aniqlab olish kerak. Bunday darslarning asosi – turli fanlar asosiy mavzulari mazmunining yaqinligi va mantiqiy aloqalari.

Integratsiyalangan darslar. Boshidan integratsiyalangan dars – bu sinfdan tashqari o‘qish. Bu yerda yaxlit jarayon kechadi:

a) kitob o‘qish – bu o‘qish darslarida olgan ko‘nikmalarini takomillashtirish;

b) matn ustida ishlash;

d) suhbatdoshlar doirasini tanlash.

Integratsiyalangan matematika darsida – arifmetik materialni o‘zlashtirishga imkon beruvchi arifmetika, algebra va geometriya elementlari, shu bilan birga algebra va geometriya, mehnat ta’limi asoslarini o‘rgatishga tayyorgarlik. Boshidan integratsiyalangan kurs – tabiatshunoslik (tabiatshunoslik asoslari, geografiya). Boshidan integratsiyalangan yuqoridagi kurslardan tashqari quyidagi fanlar birikishi mumkin: o‘qish – rus tili, o‘qish – tabiatshunoslik, o‘qish – tasviriy san’at, o‘qish – musiqa, tabiatshunoslik – matematika, tabiatshunoslik – mehnat ta’limi, matematika – mehnat ta’limi, matematika – jismoniy tarbiya.

Didaktik tizimda predmetlararo asosda integratsiyalash o‘qituvchi (ta’lim berish) va o‘quvchi (ta’lim olish) harakatlarining mos kelishini ko‘zda tutadi. Har ikkala faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, sabablar, mazmun, vositalar, natijalar, nazorat. Biroq, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatlarining mazmunida farq bor.

1. Maqsadli bosqichda o‘qituvchi umumiy maqsadni qo‘yadi. O‘quvchilar o‘qituvchi boshchiligida predmetlararo bog‘liqliklarni tushunib yetishlari, turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishlari, bunda ular o‘z e’tiborlarini faqat umumiy bilimlarni o‘zlashtirishga emas, balki ko‘chirish, tahlil qilish, shaxsning belgilari, qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratishlari kerak.

2. Isbotlash bosqichida o‘qituvchi o‘quvchilarning dunyoqarashini o‘stiruvchi bilimlarga, turli predmetlar tushunchalarini umumlashtirishga rag‘batlantiradi. O‘quvchilar o‘z irodalari, dunyoqarashini kengaytiruvchi bilimlarga qiziqishga yo‘naltiriladi.

3. Faoliyatning mazmun bosqichida o‘qituvchi yangi o‘quv materialini kiritadi, shu bilan birga integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmuyi darajasidagi boshqa predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalb qiladi. O‘quvchilar umumpredmetli tushuncha, muammolarni umumiy bilimlar darajasida o‘zlashtiradi.

4. Vositalar tanlash bosqichida o'qituvchi turli predmetlar bilimlarini umumlashtirishga yordam beruvchi ko'rgazmali vositalarni – darsliklar, jadvallar, sxemalar, savolnomalar, amaliy vazifalar. O'quvchilar ko'chirish, umumlashtirish, birlashtirish xarakterlarini, integratsion masalalarni hal qilishda ko'rgazmali vositalar yordamida bajaradilar.

5. Keyingi bosqich – natija. O'qituvchi ta'lim berish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadida integratsiyani amalga oshirish uchun pedagogik bilimlarni qo'llaydi.

6. Nazorat qilish bosqichida o'qituvchi bir-biri bilan bog'langan predmetlarga o'quvchilarning tayyorligini baholaydi, nazorat qiladi, o'zlashtirish sifatida baholaydi. O'quvchilar o'z bilimlarini baholashni, turli predmetlar bo'yicha o'z-o'zini ham, ularni birlashtirish ko'nikmalarini ham nazorat qilishadi.

Tekshiruvlar ko'rsatishicha, integral yondashuvni amalga oshirishga yordam beruvchi usul va vositalarga:

1. Evristik suhbatlar.
2. Umumiy suhbatlar.
3. Ekskursiyalar.
4. Ona tili, tabiatshunoslik darslarida kuzatishlar, badiiy asarlar materiallari asosida nutq o'stirish uchun yozilgan ijodiy ishlar.
5. Ta'limning ko'rgazmali metodlari.
6. Mustaqil ishlar.
7. O'qish, matematika darslarida og'zaki rasm chizish.
8. Imo-ishorali ko'rinishlar (pantomimalar).
9. Tabiatshunoslik darslarida tabiat tasvirlarini ifodali o'qish.
10. Ona tili darslarida tabiatshunoslikka oid diktantlar, matnlar yozish (shu sinfga tegishli orfogrammalarini takrorlagan holda).
11. O'lkashunoslik asosida matematik masalalarni hal qilish, yechish va boshqalar kiradi.

Ta'limni tabaqalashtirish rad etilmaydigan, uni to'ldiradigan integratsiya tizimini kiritish yaxlit dunyoqarashga, o'zidagi bor bilimlarni mustaqil tartibga solish va turli muammolarni hal qilishga, noan'anaviy yondashish qobiliyatiga ega bo'lgan bilimdon yoshlarni tarbiyalashga, an'anaviy predmetlarga bo'lib o'qitishga nisbatan ko'proq yordam beradi.

Ta'limni integratsiya qilish mohiyati nimadan iborat? Ta'limga bog'liq «integratsiya» tushunchasi ikki ma'noga ega:

1. O'quvchida atrofidagi olam to'g'risida yaxshi tasavvur hosil qilish (bu yerda integratsiya – ta'lim maqsadi sifatida ko'riladi).
2. Predmetli bilimlarni yaqinlashtirish uchun umumiy platformani topish (bu yerda integratsiya – ta'lim vositasi).

Integratsiya ta'lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog'liqligini ko'rsatuvchi bilimlarni berish emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog'liq yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o'rgatishi kerak. Bu maqsadni boshlang'ich maktab amalga oshirishi lozim.

Integratsiya – predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi. Birinchi navbatda tabaqalashtirilgan bilimlar orasida bilmagan joylarni to'ldirish, ular orasidagi aloqalarni o'rnatish lozim.

U ta'lim oluvchining bilimini oshirishga, ta'limdagi tor ixtisoslashtirishni yangilashga yo'naltirilgan. Shu bilan birga integratsiya ta'limining klassik o'quv predmetlari o'rnini egallash kerak emas, u faqat olinayotgan bilimlarni yaxlit bir tizimga birlashtirishi kerak, xolos. Muammoning qiyin tomoni integratsiyani ta'lim boshidan oxirigacha dinamik rivojlantirishdadir. Agar boshida «hamma narsa to'g'risida o'zgina bilish» lozim bo'lgan bo'lsa, keyinchalik tarqoq bilim va ko'nikmalarni birlashtirish, oxiriga kelib «o'zgina narsa to'g'risida hammasini bilish» kerak bo'ladi, ya'ni bu yangi integratsiya darajasidagi ixtisoslashtirishdir.

Savol va topshiriqlar

1. Ta'lim jarayonini integratsiyalashning nazariy asoslari.
2. Integratsiyaning talqin an'analari va ularni pedagogik jihatdan tashkil qilish.
3. Olimlarning integratsiya haqidagi mazmunlari va tavsiflari.
4. Integratsiyaning mazmun va maqsadlarini ochib bering.
5. Integratsion pedagogika kurslari haqida tushuncha bering.
6. Integratsiyaning hozirgi zamon muammolari deganda nimani tushunasiz?
7. Integratsiyaning maqsadi, tuzilishi nimalardan iborat?
8. Integratsiyalangan darslarga misollar keltiring?

XI BOB. PEDAGOGIKA TIZIMINI MUVOFIQLASHTIRISH

Umumiy pedagogika tizimga mansub bo'lgan doimiy umumiy innovatsiya, uning o'quv-tarbiya jarayonini muvofiqlashtirish – ko'p sonli imkoniyatlardan eng qulayini to'plab olish jarayoni. Shunday murakkab, empatik, ko'p qirrali, iyerarxik pedagogika tizimida ishlash mumkin. Muqobillar, shuningdek, oqim va o'quv-ta'lim faoliyatini tashkil etishning maqsadli yo'llari mavjud. Lekin ulardan bittasigina aniq vaziyat uchun mos kelishi mumkin. Uni qidirib topish muvofiqlashtirishning asosiy vazifasidir.

Bu vazifa mumkin bo'lgan muqobillarni taqqoslash va boshqa mavjud imkoniyatlarni baholash yo'li bilan hal etiladi. Muvofiqlashtirish deganda pedagogika tizimi qaysi maqsadlar uchun tashkil etilgan bo'lsa, o'sha maqsadlarga mos munosiblik darajasini aniqlash mumkin. Bir sharoit uchun

erishilgan muvofiqlik hech qachon boshqa sharoitlarga mos kelmaydi. Shuning uchun muvofiqlashtirish tushunchasi aniqlikni talab qiladi.

Muvofiqlashtirish umumiy bo'lishi mumkin emas, u faqatgina belgilab olingan masofaga nisbatan yuzaga kelishi lozim. Shu bilan birga pedagogika tizimini qaysi maqsadda muvofiqlashtirish, qay bir ko'rsatmalar qo'yilgan maqsad bilan muvofiqligi mos bo'lishiga erishish kerakligini aniq tasavvur etish zarur.

Muvofiqlashtirishning nazariy va amaliy yo'nalishlarini ajrata bilish zarur. Muvofiqlashtirish tushunchasining sinonimi nazariy asosda muqobillarni hisoblash, chamalab ko'rish, taqqoslash va solishtirishdir. Muvofiqlashtirish amaliy yo'nalishda yangilik kiritish, qayta tashkil etish, qayta qurish, qo'yilgan masalalar yechilishini eng qulay holga keltirishdir.

Muvofiqlashtirish masalalarini yechish asosiy o'lchov – mezonlarini tanlashdan boshlanadi. Muvofiqlashtirish mezon – bu rivojlanish mumkin bo'lgan muqobillariga baho berish va ulardan eng yaxshisini tanlab olishni amalga oshirish uchun mos bo'lgan belgidir.

Mezon – o'lchov birligi ko'rsatkichdan iborat mantiqni talab etishiga qaramay, pedagogikada u har doim kompleks bo'lib chiqadi, chunki pedagogika tizimida o'tib boruvchi jarayonlar, sabab va oqimlarni ajratishning iloji bo'lmaydi.

Oldin ko'rsatib o'tilganidek, kerakli natijalarga o'qituvchi va o'quvchilarni haddan tashqari ish bilan band etish yo'llari bilan erishish mumkin. Qo'shimcha yuk ish qobiliyati pasayishiga, yomonlashuviga olib keladi. Muvofiqlashtirishning o'lchov mezonlari kerak. Faqat shundagina o'zi uchun mumkin bo'lgan chegarada ish olib boruvchi o'qituvchi va o'quvchilar ortiqcha yuksiz o'quv-ta'lim jarayonini qulay, deb hisoblash mumkin.

Eslatib o'tish kerakki, ilgari qoidalar bo'yicha ularni hali hech kim bekor qilgani yo'q, birinchi sinfda bola uy vazifalarini bajarish uchun 1 soat, ikkinchi sinfda 1,5 soat, uchinchi-to'rtinchi sinflarda 2 soat, beshinchi-oltinchi sinflarda 2,5 soat, yettinchi sinfda 3 soat, sakkizinchi-to'qqizinchi sinflarda 4 soat sarflashi kerak. Shunday qilib, o'quv-tarbiya jarayonini muvofiqlashtirishning asosiy mezon-o'lchovi sifatida ikki ko'rsatkich bir-biri bilan bog'liq holda qo'llaniladi:

1. Ta'lim-tarbiya va o'quvchilarning bilimini rivojlantirishda iloji boricha yuqori natijalarga erishish.

2. Har bir yoshdagi o'quvchilar va o'qituvchilar sinfi uy ishlarini bajarishlari uchun sarflanadigan vaqtlarga rioya qilish.

Muvofiqlashtirish metodik asos bo'lib, pedagogik jarayonning hamma komponentlarini, o'zaro qonuniy aloqalarini birgalikda boshqarish,

umumiy nazariyaga tayanib o'rganishni talab qiluvchi tizimli yondashish hisoblanadi. Falsafiy kategoriyalar bo'yicha muvofiqlashtirish «chegara», «o'lbahor»ga asoslanadi. U pedagogika tizimini u yoki bu tashkil etuvchilarini giperbolizatsiyalashtirish, faoliyat sur'atini, o'qitish murakkabligini ko'tarib yoki pasaytirib yuborishga qarshi chiqadi, aynan ularni ko'rishga muvofiq chegara tanlashni talab etadi.

Pedagogika tizimini muvofiqlashtirishning asosiy metodologik talablari quyidagilardan iborat:

- Muvofiqlashtirishni boshqarish tartibi butun tizimni birdek qamrab olishi.

- Qulay muqobilni tanlab olishda o'quv-tarbiya jarayoni qonuniyatlarining hamma tizimiga tayanish.


- Tizim tashkil etuvchilarning hammasini muvofiqlashtirish imkoniyatlarini muntazam qayd etib borish.

Muvofiqlashtirishga yana-da yuqoriroq masalalar va ularni yechishda takomillashgan texnologiyani qo'llab boruvchi doimiy harakatlanuvchi innovatsion jarayon sifatida qaraladi.

Shunga e'tibor berish kerakki, bir tomondan muvofiqlashtirish pedagogik jarayonning mavjud sharoitga moslashuvini nazarda tutsa, boshqa tomondan o'zi yangi sharoit yaratib, unga pedagogik jarayon moslashishini talab qiladi. Bu yerda hech qanday qarama-qarshilik yo'q, chunki bu ikki jarayon bir-biri bilan bog'liq holda davom etadi. Agar biz bugun sharoitga moslashedik, bu bizga bog'liq bo'lmagan vaziyat bilan bog'liqdir. Lekin pedagog har doim ularni muvaffaqiyatli borishi uchun muvofiqlashtirishga intiladi.

Amalda muvofiqlashtirish sinf va umuman, maktab o'quvchilari erishgan bilimlarni, shuningdek, tarbiyasining rivojlanganlik darajasini belgilangan ko'rsatkichlar bilan baholashdan boshlanadi. Odatda, uni aniq, to'g'ri baholash darajasi pastroq bo'ladi. Biroz vaqtdan keyin natijalar o'sishining mumkinlik darajasi loyihalashtiriladi. So'ngra ko'zlangan o'zgarishni ta'minlashga qaratilgan o'quv-tarbiya choralari tizimi qo'llaniladi. Bu ishlar yakunida erishilgan natijalar va jarayonlar solishtiriladi, o'quvchi va o'qituvchi uy vazifasi va sinfdan tashqari ish olib borishga ketkazgan kuchlarining muvofiqlashtirish darajasi haqida xulosa chiqariladi.

Muvofiqlashtirish o'quv-tarbiya jarayoni qonuniyatlari va asoslaridan tabiiy kelib chiquvchi uslublar tizimi orqali amalga oshiriladi.



Maktab, pedagog va o'quvchilar faoliyatining quyidagi darajalari ma'lum: yetarli emas, jiddiy (og'ir, mushkul,) yomon ahvol, tushunarli.

Oxirgisini ta'minlash uchun o'quv-tarbiya jarayonini muvofiqlashtirishning quyidagi uslublari qo'llaniladi:

Umumiy talab sifatida kompleks yondashish, rejalashtirish, amaliy faoliyat choralari tatbiq etish.

1. Pedagogika tizimi xususiyatlarini hisobga olgan holda masalalarni aniqlab olish.

2. Predmetlararo yo'nalishlarni bir-biriga muvofiqlashtirishda asosiy-larini aniqlash yordamida o'quv-ta'lim jarayoni mazmunining qulay variantini tanlash, ratsional mazmun tuzilishini qurish.

3. Qo'yilgan masalalarni o'z vaqtida muvaffaqiyatli bajarish imkonini beruvchi o'quv-tarbiya jarayoni, uslub va shakllarini tanlash.

4. Yaxshi tayyorlangan, bo'sh o'zlashtirilgan va boshqa hamma ta'lim oluvchilarga differensial va individual yondashishni amalga oshirish.

5. O'quv-tarbiya faoliyatida boshqarish va o'zini boshqarishning ratsional birga olib borilishi, uning borishini tezkor to'g'rilash va tuzatish.

6. O'quv-tarbiya jarayoni natijalari va ularga sarflangan harakatlar nisbati tahlil qilinadi.

Agar o'quv-tarbiya jarayonini qulaylashtirish bo'yicha asosiy pedagogik harakatlarni qisqacha yakun qilib olsak, unda quyidagilarga ega bo'lamiz:

- masalalarni aniqlash va umumlashtirish;
- generalizatsiya;

- predmetlar va yo'nalishlararo muvofiqlik;
- ularni solishtirib, baholash asosida muqobillarini tanlab olish;
- gumanizatsiya (insonparvarlashtirish);
- muhim sharoitlar yaratish;
- boshqarish va o'zini o'zi boshqarishni birgalikda olib borish;
- jarayonni o'z vaqtida tuzatib, tartibga solib turish;
- uning natijalarini belgilangan ko'rsatkichlar bo'yicha baholash;
- yana-da murakkab muammolarga o'tish;
- innovatsion jarayonning muntazamligi va asta-sekinligi.

Har qanday vositaning yangiligi shaxsiy kabi vaqt tushunchasida nisbiy turadi. Biror o'qituvchi uchun yangi bo'lgan narsa ikkinchi o'qituvchi uchun yangi bo'lmaydi. Yangilik har doim aniq tarixiy ifodaga ega bo'ladi. Aniq vaqtda yaratilib, aniq tarixiy bosqichda masalalarni yechib, yangilik qisqa vaqt ichida ko'pchilik mulki, odatiy ko'pchilik umumiy tajribasi bo'lib qolishi yoki eskirib, keyingi vaqt yangilish, rivojlanishga to'siq bo'lib qolishi mumkin. Masalan, Y.A.Komenskiyning jamoa bo'lib dars o'tish ta'lim tizimi.

Xususiy yangilik – nisbatan yangilik turlaridan biri. Xususiy yangilik mahsulot elementlaridan biri kundalik zamonaviylashtirilishi tartibida yangidan ishni boshlashni anglatadi. Jism qandaydir bir jihatdan yangilanadi. Xususiy yangiliklar to'planib borishi uning to'la o'zgarishga olib kelishi mumkin.

Shartli yangilik ilgari bo'lgan elementlarning g'ayrioddiy birlashuvi natijasida hosil bo'ladi. Bu o'z-o'zidan yangilik emas, lekin bu qo'llanishida murakkab va ilg'or qayta tuzilishga olib keladi.

Bundan tashqari, subyektiv yangilik ko'rsatiladi, bunda ushbu subyekt uchun obyekt yangi bo'ladi. Har bir davrning ta'lim-tarbiya sohasida o'zining yangi ko'satkichlari bo'ladi. Ushbu davr uchun yangi ko'rsatkich boshqa davr uchun yangi bo'lmasligi mumkin.

Yangilikning muhim tomoni, u ushbu obyektning ilgarigisidan nimasi bilan farq qilishini ko'rsatib beradi. Masalan, taklif etilayotgan o'qitish metodikasi ilgarigi ma'lumotlariga ko'ra, quyidagi qismlarga ajratiladi: ma'lum bo'lganini boshqa ko'rinishda ko'rish (keltirish), ya'ni amalda yangilik yo'q bo'lib – rasman yangilik:

1. Ilgari ma'lum bo'lgan yangilik sezilmas o'zgarishlar bilan qaytarilishi.
2. Ilgari ma'lum bo'lganga aniqlik kiritish.
3. Ilgari ma'lum bo'lganni muhim elementlar bilan to'ldirish.
4. Sifatli yangi obyekt yaratish.

Yangilik – bu ayni vosita, innovatsiya esa jarayon, u ma'lum bosqichlar bo'yicha rivojlanadi. Innovatikada bu yangiliklar kiritishning hayot sikli tushunchasida aksini topadi.

Birinchi qism – pedagogikada yangilik yaratish qismi bo‘lib, bu yerda pedagogikada yangi pedagogik yangiliklarni klassifikatsiyalash, yangilik yaratish shartlari, yangilik mezoni, yangilikni o‘zlashtirish va foydalanishga tayyorlash o‘lchovi, odatlar va novatorlik pedagogik bosqichlari yangilik ijodkorlari kabi kategoriyalari ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga pedagogikada yangilik kategoriya chegarasi nazariyasini ishlab chiqish katta ahamiyatga ega. Bu tushunchalarni pedagogik neologiya o‘rganadi.

Ikkinchi qism – yangilikni baholash, o‘zlashtirish va tushunish bloki: yangilikni o‘zlashtirish jarayoni turlari va baholash, pedagogik hamkorlik, pedagogikada kosenvator va novatorlar, innovatsion muhit, pedagogik birlashmani yangilikni baholash va qabul qilishga tayyorlash. Bu tushunchalarni pedagogik aksialogiya o‘rganadi.

Uchinchi qism – yangilikdan foydalanish va qo‘llash bloki. Ushbu blokda tatbiq etish, yangilikni qo‘llash va foydalanish turlari va qonuniyatlari o‘rganiladi. Bu tushunchalar bloki pedagogik praksianalogiya deb nomlanuvchi tatbiq etishni o‘rgatish bilan bog‘liq. Pedagogik innovatsiyalar qayta takrorlanish sikli, qonuni, mazmuni yangi sharoitda yangilikning qayta tiklanishidan iborat. Pedagogika va ta‘lim tizimi uchun bu o‘ziga xos xususiyat, shu sababli yangilik nazariyasi va amaliyoti ko‘pgina qarama-qarshiliklar keltirib chiqaradi, chunki pedagoglar birlashmasi ilgari bo‘lgani kabi yondashib, bu yangilikni takrorlashi eski emas. Yoki eskisining yangidan qayta tiklanishi ekani sezilmaydi.

Ta‘lim sohasida pedagogik adabiyotlarda innovatsion jarayonlarning ikki turi ko‘rsatiladi.

1-tur. Innovatsiya ko‘p jihatdan tabiiy, o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladi. Yuzaga keltiruvchi talablarga aniq bog‘lanmay yoki innovatsion jarayonni amalga oshirish yo‘l va vositalarini butun sharoitlar tizimini to‘la tushunmagan holda sodir bo‘ladi. Bu turdagi innovatsiya har doim ham ilmiy asoslash to‘laligi bilan bog‘liq bo‘lishi, vaziyat tartiblari ta‘siri bilan imperik asosda sodir bo‘ladi. Bu turdagi innovatsion jarayonga o‘qituvchi innovator, tarbiyachi ota-onalar faoliyatini kiritish mumkin.

2-tur. Yangiliklar kiritish ikkinchi turi ta‘lim tizimida ongli ravishda maqsadni ko‘zlab, fanlararo faoliyatda ilmiy tarqala oladigan mahsulot bo‘lgan innovatsiya.

Innovatsion jarayonlar pedagogikada jadallashishi faqatgina ijtimoiy buyurtma va nazorat, tekshirishlar hamda novatorlik tajribasida ularni amalga oshira oladigan vositalar mavjudligi bilan bog‘liq bo‘lmay, pedagogik uyushmasi ongi doirasidagi muhim o‘zgarishlarga ham bog‘liqdir.

Tizimda yangilikni kiritishga pedagoglarning psixologik tayyorligi juda muhim shartdir. Ayniqsa, shuni hozirgi maktablarimiz innovatsion

jarayonning boshlang'ich radikal bosqichi davridan o'tayotgan, butun jamiyat hayotidagi qayta qurish bilan yuzaga kelgan, uni bizning pedagogikamiz merosini qaytarish davrida tushunish muhimdir.

Aniq yangiliklarni kiritish va o'rganish bilan bog'liq ishlab chiqish zarurligini tushunib, ilmiy qiziqishlar innovatsion jarayonlar borishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishga qaratildi.

Shu tarzda innovatsiya pedagogik jarayon komponentlari, umuman, pedagogik uyushma faoliyati va umumiy tuzilishga ta'sir etuvchi katta tizim samaraga egadir.

Har qanday oddiy yangiliklardan farqli pedagogik innovatsiya bolalar tarbiyasi shaxsiy va ijodiy jarayonini taklif etadi. Ular butun ta'lim sohasi va turli vazifalarni bajaruvchi ekspert konsultant, loyihalashtiruvchi yangilik kiritish maktabi pedagogi ishlarini bajaruvchi o'qituvchini tayyorlashni o'z ichiga qamrab oladi.

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INTEGRATSIYANING MAVJUDLIGI

Umumta'lim maktablarida barcha fanlarning o'qitilishi bugungi kun o'smirlarining ijobiy munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi.

O'smir yoshdagi o'quvchilarning shaxsi va ularning kamoloti muammosi taraqqiy etayotgan va o'z taraqqiyotida yuksak cho'qqiga intilayotgan jamiyat uchun dolzarb masaladir. Har bir o'quv fanining o'rganilishi, ta'lim samarasi yuksak bo'lishi, bolalar erkin fikrlashni o'rganishi naqadar dolzarb ekanligi hech kimda shubha uyg'otmaydi. Erkin fikrlay oladigan kishigina jamiyatda o'z mavqeyini to'la idrok qila oladi.

Bilimdonlikning muhim qismi bo'lgan insoniy demokratik munosabatlar tizimidagi teranlik shaxs taqdiri va salohiyatini belgilovchi muhim omildir. Pedagogika va ijtimoiy psixologiya har bir o'smir shaxsning hayotning barcha jabhalarida o'zini erkin sezish va fikrlarini to'la-to'kis bayon etishiga o'rgatuvchi usul sifatida xizmat qiladi.

Bugungi kunda o'smirlarning shaxslararo va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlari ma'lum bir darajada ularning shaxsidagi psixologik holatlarni o'zgartirish va ijobiy munosabatlarni shakllantirishda yordam beradi.

Maktab ta'limining san'at yo'nalishi mazmuni bolalarning ta'lim-tarbiya olishida odamiylik sifatleri qunt bilan singdirib borilsa, ular yetuk va barkamol, sog'lom, mustaqil fikrlovchi shaxs bo'lib yetishadi.

Har bir yosh davrning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy ta'sir o'tkazish bolada o'z vaqtida o'zini anglashni vujudga keltiradi. Bolada o'zini anglash tuyg'usi qancha erta uyg'onsa,

shaxsiy nuqtayi nazar, o'z huquqini his etish, o'zining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini baholash shunchalik tez paydo bo'ladi.

Hozirgi vaqtda hamma fanlar, shu jumladan, politexnik sikl har tomonlama talqin qilinarkan, shu fanlarni chuqur o'rganish va uning ijtimoiy hayotini yaxshilash dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan masalalardan biridir.

O'zbekistondagi shu sohadagi qarashlar, psixologik olimlarning olib borayotgan va rejalashtirilgan ilmiy-amaliy yo'nalishdagi barcha tadqiqotlarning qimmatli ahamiyati juda kattadir. Shu bilan birga barcha yosh avlod ta'lim-tarbiyasining buguni va ertangi kun talablari uchun zarurdir.

Sharq mutafakkirlarining ilg'or g'oyalari – yosh avlodni aqliy va jismoniy jihatdan yetuk, ma'rifatli, bilim va hunarlarni egallagan, odob-axloq qoidalarini o'zida mujassamlagan, go'zal didli hamda zavqli qilib yetishtirishdir. Bu avloddan avlodga og'zaki ijod va yozma adabiyotlar vositasida ommalashadi.

Yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llanilgan usul-vositalar, tadbir va shakllar, o'ziga xos urf-odat va an'analar, tarbiya haqidagi g'oyalar va hayotiy tajriba xalq pedagogikasida mujassamlangandir.

Ma'lumki, har bir xalq boshqa xalqlar bilan bog'liq holda yaratilgan. Shu sababli ham ularning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti, urf-odatlari, an'analarida o'xshashlik mavjud. Bu o'xshashlik ularning mehnat va nafosat, aqliy va axloqiy tarbiya usullarida yorqin ko'rinadi. Ular turli xil kasb egalari bo'la olishadi. Bular quyidagi kasblardir: mexanizator, ta'mirlovchi-payvandchi, chorvador, dehqon. O'quvchilarni hozirgi zamon kasb-hunariga o'rgatish mehnatkash inson psixologiyasini rivojlantiradi. Umumta'lim maktabining vazifasi mana shulardan iborat. Ijtimoiy hayotimizdagi inqilobiy o'zgarishlar, mustaqillik, huquqiy davlat tizimiga intilish – insonparvar psixologiya qonuniyatlari va ilmiy materiallarni o'rganish monitoringidan turmushda foydalanishga quyidagicha baho beradi:

- talabalarni individuallik qiyofasida shakllantirish;
- ta'lim-tarbiyani, odamiylik sifatlarini qunt bilan singdira borish;
- tarbiyaviy jarayonning natijasi;
- keng bilim saviyasiga ega bo'lish, turli bilimlardan xabardor bo'lishi;
- yosh pedagogik-psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigiyenasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;
- o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi, sohasi bo'yicha jahon fanida erishilgan yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;
- ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;
- o'z ishiga ijodiy yondashishi;

· pedagogik texnika (mantiq, nutq, ta'limining ifodali vositalari) va pedagogik taktikaga ega bo'lish;

· o'qituvchi o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi barobarida har bir o'qituvchi psixologik jihatdan ana shu talablar monitoringiga eng yuqori darajada mos keladigan bo'lishiga intilishi lozim.

Zamonaviy o'qituvchi o'quvchilar o'rtasida o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'ya olish, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarur. Jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bilan bir qatorda o'qituvchi o'z faoliyatida tevarak-atrofidagi kishilar, maktab ma'muriyati, hamkasblari, o'quvchilar va ularning ota-onalari undan nimalarni kutishini ham esdan chiqarmasligi lozim.

Psixologik xususiyatlarning turlari.

Hozirga qadar yosh psixologiyasi sohalari – chaqaloqlik, ilk bolalik, maktabgacha davr, kichik maktab, o'spirinlik, yoshlik, yetuklik, keksalik davri bo'yicha bebaho ilmiy-amaliy ma'lumotlar to'plangan. Endi asosiy vazifa ana shu ma'lumotlarni ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qo'llashdan iborat. Odamga chaqaloqligidan keksalik davrigacha uning ichki imkoniyati, mayli, iqtidori, aql-zakovati, qiziqish, irodasi, his-tuyg'usi, diqqati va bilim jarayonlarining xususiyatiga ko'ra, individual munosabatda bo'lishi, bunga pedagogik-psixologik ta'limning talablariga integratsion moslashuv xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ish olib borish maqsadga muvofiqdir.

PSIXOLOGIYA VA TA'LIM SAMARASI

Davr hamma zamonlarda ham ta'limning yuqori darajada bo'lishini taqozo qilgan. Barcha rivojlangan mamlakatlarda xalq ta'limi tizimining muvaffaqiyati ushbu sohada psixologik xizmatni har tomonlama to'g'ri va samarali tarzda tatbiq etish bilan bevosita bog'liq ekanligi e'tiborni tortmoqda.

Tegishli adabiyotlar tahlili va kuzatishlarimiz natijasi shundan dalolat bermoqdaki, maktabga psixologik xizmat tizimining ilmiy va amaliy vazifalari turli mamlakatlarda turlicha joriy etilmoqda. Bizning umumta'lim maktablarimizda psixologik xizmat tizimi o'ziga xos usulda joriy etilgan va dastlabki ekspremental tadqiqotlar olib borilmoqda.

Maktabda ta'lim olayotgan har bir bola iqtidorini, individual imkoniyatlarini va boshqa qator shaxsiy sifatlarini batafsil o'rganmay, tahlil qilmay turib mazkur o'quvchi kelajagini pedagogik jihatdan to'g'ri baholab bo'lmaydi. O'quvchilarning faolligini ta'minlashda bugungi kunda

psixologik xizmat tizimi tomonidan bartaraf qilinishi lozim bo'lgan qator muammolar mavjud.

Bolalarni ruhiy intellektual tayyorgarligi asosida maktabga qabul qilish shunday masalalardan biridir. Keyingi paytda olti, yetti yoshga kirgan barcha bolalarni yoppasiga maktabga qabul qilish an'anaga aylangan. Psixologlar esa hech qachon ishini bunday tartibda hal etishga yo'l qo'ymagan bo'lar edilar. Sababi, har bir bola ham aqliy, ham jismoniy jihatdan o'ziga xos individual imkoniyatlarga ega: ba'zi bolalar olti, yetti, hatto sakkiz yoshga to'lsalar-da, ta'limni boshqa tengdoshlari qatori o'zlashtirishga tayyor bo'lmaganlar. Biz esa ularni maktab rejasiga, ba'zan esa ota-onasining xohishiga qarab maktabga qabul qilaveramiz. Mashg'ulotlarga esa bolalarni majburan olib boramiz. Natijada bola ruhiy jihatdan turli kasalliklarga yo'liqishi mumkin. Bu esa bolaning aqliy va intellektual jihatdan tabiiy rivojlanishi ildiziga ataylab bolta urish demakdir. Bunday holatlarga zudlik bilan barham berish, ya'ni har bir maktab ta'limiga ilk bor qadam qo'ygan bolani maxsus va mukammal ishlab chiqilgan psixologik testdan o'tkazish va uning natijalari asosidagina maktabga qabul qilish haqida mas'uliyat bilan o'ylashimizga to'g'ri keladi.

Boshlang'ich ta'limda kuni uzaytirilgan guruhlarini to'g'ri tashkil etish muammosi ham g'oyat muhimdir. Ko'pgina maktablarda aksariyat 1–2-sinf o'quvchilari darsdan so'ng 4 yoki 5 soatlab maktabda, kuni uzaytirilgan guruhlarda qolib o'qishlari kerak. Bu holda biz 6–7 yoshli bolani 7–8 soatlab maktabda ushlab turamiz. Xo'sh, bola buni xohlaydimi? Albatta yo'q. Chunki, hatto biz kattalar ham muntazam bir joyda 7–8 soatlab qolib o'qish yoki ishlash imkoniyatiga ega emasmiz. Axir, bolaning imkoniyatlari hali ko'proq o'yinga va uxlashga moslangan-ku. 7–8 soatlab bir joyda bo'lish jarayonida bola zerikadi, ruhiy jihatdan toliqadi, nihoyat, maktabdan beziydi, hatto unda yuksak darajada rivoj topish mumkin bo'lgan o'quv qiziqishlari so'nishi mumkin. Eng achinarlisi, bunday hollarda u uyga borib, hatto ovqatni ham yemay uxlab qoladi. Shunday ekan, kuni uzaytirilgan guruhlar tizimini shakl va mazmunan psixologik talablar asosida qayta ishlash vaqti keldi.

Maktabda baholash ham psixologik mezonlar asosida amalga oshirilishi kerak. Psixologik-pedagogik adabiyotlardan ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun eng birinchi maqsad – bu, yaxshi baho olish va shu baho orqali o'z «men»ligini ilk bor his etish, ota-onasi va kattalar hurmatiga sazovor bo'lishdir. Shuning uchun o'quvchilar yaxshi baho olishga intiladilar. Lekin ko'p hollarda baholash mezonining buzilishi o'quvchi ruhiyatiga, ayni paytda, shaxs sifatidagi taraqqiyotiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida baho-lashning psixologik

mezonlari chuqurroq o'ylab ko'rilishi kerak. Bola shaxsini to'g'ri tushunish va uning harakatlarini tahlil qila olish zarur. «Har bir shaxs qaytarilmas temperamentdir», – degan edi fiziolog olim I.P.Pavlov. Qolaversa, har bir shaxsning o'zigagina xos imkoniyatlari mavjudligi va unga hamisha jiddiy e'tibor berish zarurligi haqida O'rta Osiyoning buyuk mutafakkirlari Abu Ali ibn Sino, al-Forobiy va Abu Rayhon Beruniy ham o'z zamonlarida alohida qayd etib o'tganlar. Chunonchi, o'qituvchi bola shaxsini tarbiyalash uchun dastav-val uning «Betakror olamiga» kira olishi va shunga mos keluvchi tarbiyaviy tadbirlar rejasini tuzmog'i va qo'llamog'i lozim.

Taniqli ruhshunos olim L.S.Vigotskiy taraqqiyotidan ilgarilab ketgan ta'limgina samarali bo'lishini qayta-qayta ta'kidlagan edi. Bugun bola kattalar yordamida amalga oshirilayotgan ishni ertaga o'zi bajarishi kerak. Bunga bolani har tomonlama rivojlantiradigan, uni fikrlashga o'rgatadigan, qobiliyatini asta-sekin o'sib borishiga imkoniyat yaratadigan, tafakkurning yangidan-yangi qirralarini ochadigan pedagogik usullar va maxsus psixologik xizmat tizimi mavjud bo'lgan taqdirdagina erishish mumkin.

Yuqoridagi muammolarni hal qilish jarayonida maktab psixologlari quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari lozim:

1. Har bir o'quvchida namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan stress (hissiy zo'riqish) holatlariga o'tishini aniqlash (psixodiagnostik ishlar).

2. O'quv faoliyatini tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish jarayonida o'quv faolligi va samaradorligiga salbiy ta'sir etish mumkin bo'lgan holatlarini oldindan ko'ra bilish va ularni bartaraf etish uchun muntazam ravishda tegishli tadbirlar o'tkazish (psixoprofilaktik ishlar).

3. O'quvchilarning fanlarni o'zlashtira olmaslik sabablarini aniqlash va shu asosda ular bilan alohida mustaqil ishlar olib borish, ulardagi imkoniyatlarni keng miqyosda o'rganish va rivojlantirish orqali o'quvchi shaxsidagi faollikni oshirish yo'llarini izlash (rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlar).

4. Har bir o'quvchining o'zigagina xos iqtidori, qiziqishlari, maqsadlari, o'qish imkoniyatlari haqida shu o'quvchining o'ziga, sinf rahbariga va otanasiga o'z vaqtida tegishli ma'lumotlar bera olish (psixologik maslahat ishlari).

5. Psixologik xizmat nizomiga amal qilgan holda har bir o'quvchi uchun «Shaxs psixologik varaqasi» ni to'ldirish. Har bir sinfdagi o'quvchilar guruhi, rasmiy va norasmiy kichik guruhlar, sardorlar va ayrim «ajralib qolgan» o'quvchilar bilan individual-psixologik ishlar olib borish rejalarini tuzish. O'quvchilarni maktabga qabul qilishda faol ishtirok etish va ularni kasbga yo'llash bilan bog'liq tadbirlar ko'lamini belgilash (umumiy faoliyat tadbirlari).

Qisqasi, har bir o'quvchi uchun psixologik muhofaza imkoniyatlarini yaratish va shu asosda o'quv faoliyati samaradorligini ta'minlash zarur bo'ladi. Maktab o'quvchilariga xos psixologik qonuniyatlarga to'liq rioya qilish ta'limni tashkil etishda katta ahamiyatga ega. Shuningdek, bolalarga bilimlari va huquqlari doirasida boshlang'ich ta'lim tizimida olib borilayotgan darslarni psixologik jihatdan tahlil qilish va tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish ta'limdagi yutuqlar omili bo'ladi. Bu jarayonda, ayniqsa, aqliy va nutqiy taraqqiyotida nuqsoni bo'lgan ayrim o'quvchilar faoliyatiga alohida e'tiborni qaratish kerak bo'ladi. O'ylaymizki, maktab psixologlari tomonidan yuqorida qayd etilgan muammolarning bartaraf etilishi va vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi O'zbekistonda boshlang'ich ta'lim tizimi istiqbollari yana-da yuksakroq saviyaga ko'tarishga xizmat qiladi.

INTEGRATSIYA – TA'LIM JARAYONINI QULAYLASHTIRISHNING MUHIM PRINSIPI

Davlat ta'lim standartlari qabul qilingach, ta'lim mazmuni qisman yangilandi. Davlat ta'lim standarti talablari asosida yangi o'quv dasturlari va darsliklar ishlab chiqildi. Lekin, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'quv rejasida o'quv predmetlarning soni ortib ketgan. Chunonchi: 1992-yilga qadar o'quv rejasida fanlarning soni 18 tani tashkil etgan bo'lsa, 1992-yildan 1997-yilgacha bo'lgan davr ichida ularning miqdori 21 tani, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilingach 24 taga yetkazildi. Bugungi kunda esa o'quv rejasida 27 ta o'quv fani mavjud. Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi. O'quv fanlari miqdorini ko'paytirish orqali o'quvchining bilim darajasini oshirishga erishilyaptimi? Yo'q albatta! Chunki:

1) o'quv fanlari ko'paygan sari o'quvchilarga taqdim etiladigan bilimlar maydalashib bormoqda;

2) o'quv darsliklarida takror materiallarning miqdori ortmoqda;

3) o'quvchining ijtimoiy tajribasiga kirmay qolayotgan bilim va tushunchalar ko'paymoqda;

4) DTS lari bilan o'quv dasturlari orasida nomuvofiqlik vujudga kelmoqda. Chunonchi, hukumat tomonidan qabul qilingan boshlang'ich ta'lim Davlat ta'lim standartida 4 ta ta'lim sohasi, ya'ni «Ona tili», «Matematika», «Tabiat», «Inson va jamiyat» ta'lim sohalari berilgan holda bugungi kunda o'quv rejasida 10 ta o'quv predmeti mavjud. Bu sohada jahon tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Singapur ta'lim tizimida boshlang'ich sinflar uchun bor-yo'g'i 4 ta o'quv predmeti mavjud ekan. Ular: «Ona tili», «Matematika», «Estetika» hamda «Jismoniy tarbiya».

Ma'lumki, ta'lim jarayonida muayyan o'quv fani, «Ona tili», «Tarix», «Adabiyot» kabilarga oid bilimlar bilan bir qatorda xalqning ijtimoiy tajribasi, til boyligi, ma'naviy, madaniy qadriyatlari, axloqiy me'yorlari bilim va tushunchalar shaklida o'rgatilishi lozim. Amaldagi ta'lim jarayonini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, u yoki bu o'quv fani mazmunida o'quvchining ijtimoiy tajribasiga kirmay qolgan bilim va tushunchalar mavjud. Buning asosiy sababi o'quv fanining mazmunini o'ta murakkab yoki haddan tashqari sodda ekanligidadir. Agar o'quv materialini o'ta murakkab bo'lsa, o'quvchi uni to'liq o'zlashtirishga qiynaladi. Agar sodda va takror holda ifodalangan bo'lsa bunday o'quv materialini o'zlashtirishga ehtiyoj sezmaydi, undan bezadi.

Bugungi kunga kelib jahondagi mamlakatlarning 70 foizi ta'lim tizimida integrativ xarakterdagi o'quv dasturlari va darsliklardan foydalanib kelmoqda. Har bir mamlakat ayni shu davlatning ta'lim tizimiga qo'yilgan buyurtmaning tabiatidan kelib chiqqan holda integratsiyaning turli darajalarini ishlab chiqqan va joriy qilib kelmoqda. Chunonchi, Buyuk Britaniya ta'lim tizimida asosan integrativ fanlar joriy qilingan bo'lsa, Koreya va Shveysariyada integratsiyalashgan fanlar yoki alohida o'quv predmetlari, Avstraliyada integratsiyalashirilgan fanlar, Yaponiya, Shimoliy Irlandiya, Uels, Gong-Kong va Germaniyada ham alohida fanlar, Vengriyada madaniyat yo'nalishidagi o'quv predmetlari, inson va tabiat, integrativ fanlar, Niderlandiyada alohida o'quv predmetlari, Irlandiyada fan va texnika kabi bloklarda barcha o'quv fanlari mujassamlashtirilgan holda o'qitiladi. Bizda bu sohada dastlabki qadamlar qo'yilmoqda. Jumladan, boshlang'ich ta'lim Davlat ta'lim standartlarida «Ona tili», «O'qish», «Matematika», «Tabiat» hamda «Inson va jamiyat» ta'lim sohalarini belgilab berilgan.

«Inson va jamiyat» ta'lim sohasi o'zida bir qator o'quv predmetlariga oid tushunchalarni mujassamlashtirgan. Chunonchi, axloq, nafosat tarbiyasi, iqtisodiy bilimlarga oid tushunchalar, jismoniy tarbiya, badiiy ta'lim, huquqiy bilimlar va h. k. Ta'lim jarayonini integrativ dasturlar va darsliklar asosida tashkil etish orqali o'quv-bilish jarayoni natijasida samaradorlikka erishish nazarda tutilar ekan, bunda integratsiyaning turli darajalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan:

1. Mavzularni ketma-ket taqdim etish asosidagi integratsiya: bunda o'quv materiallarini bayon qilishda konsentrizm prinsipiga amal qilinadi, ya'ni oldingi o'quv materialini keyingisini to'ldiradi. Lekin hech qachon bir-birini takrorlamaydi. Bunday integrativ natijasida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda ijodiy faoliyatlari muntazam ravishda rivojlanib, boyib boradi.

2. O'quv dasturlarida o'zaro uyg'unlashgan nuqtalarni vujudga keltirishga asoslangan integratsiya: bunda ham takror tarzda beriladigan taftalogiya asosidagi o'quv materiallarining oldini olish uchun dasturlarda mavzulararo uyg'unlikni ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Masalan, I-sinfda qish fasli haqida «Atrofimizdagi olam», «O'qish», «Ona tili» darsliklarida turli xildagi, ammo mohiyati va ma'lumot berish darajasi bir xil bo'lgan matnlar o'rniga faqat «O'qish» kitobining o'zida qishning barcha xususiyatlarini ochib bera oladigan badiiy matn va rasmlarni berish maqsadga muvofiqdir. Buning afzalligi shundaki, o'quvchining vaqti va kuchi tejaladi, darsliklarning hajmi ixchamlashadi va tannarxi arzonlashadi.

3. Modullashgan integratsiya: bunday integratsiya doirasida turdosh o'quv fanlariga oid bilim va tushunchalar bir tizimga solingan holda, uzviy tarzda o'quvchilarga taqdim etiladi. Chunonchi, aniq fanlar blokida «Matematika», «Algebra», «Geometriya» va «Chizmachilik»ka oid bilim va tushunchalar muayyan bir tizimga solinadi va ayni bir mavzu mazkur tizim doirasida o'quvchiga bir marta, ammo uzviy tarzda taqdim etiladi.

4. Integrativ dasturlar: ushbu turdagi dasturlar bir necha o'quv predmeti yoki o'quv fanlariga oid mavzularni uyg'unlashgan holda taqdim etishni nazarda tutadi. Bugungi kunga kelib o'quv rejasida o'quv predmetlarining soni maksimum ko'payib ketganligini hisobga oladigan bo'lsak, bunday turdagi dasturlar yaratishga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Dastur va darsliklarni o'rganish, tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflardagi yo'l-harakati qoidalari, odobnoma, konstitutsiya saboqlari, salomatlik darsliklariga oid tushunchalarni yagona holda «Ona tili», «O'qish» dasturlariga uyg'unlashtirish lozim. Bunday tadbirni amalga oshirish ayni bir vaqtning o'zida ham pedagogik, ham iqtisodiy nuqtayi nazardan samaralidir.

5. Mavzulararo integratsiya: bunda ayni bir kurs doirasida beriladigan o'quv materiallari boshqa bir kurs doirasidagi mohiyatan yaqin bo'lgan o'quv materiallari bilan uyg'unlashtiriladi. Masalan, matematik muloqot madaniyatini shakllantirishga oid mashqlarni «Ona tili» darsliklarida, iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan masalalar, mashqlar va matnlarni «Matematika» va «Ona tili», «O'qish» darsliklarida berish mumkin.

Amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan integratsiya darajasi ayni bir o'quv fani mazmunida chuqur, har tomonlama aloqadan boshlanib, o'quv fanlararo bog'lanish, uyg'unlashtirish darajasida ta'minlanishi kerak.

1. Ona tili va o'qish o'quv fanlari mazmunida umumiy komponentlar, nutq o'stirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini, axloq va nafosat, muloqot madaniyati me'yorlarini, tabiat, jamiyatga oid tushunchalarni

matnlar, she'rlar, maqollar, mashqlar, hikoyalar orqali yetkazish nazarda tutilganda «Odobnoma», «Atrofimizdagi olam», «Iqtisodiy bilim asoslari», «Konstitutsiya saboqlari» kabi darslik va o'quv qo'llanmalarga ehtiyoj qolmaydi.

2. 5–9-sinflarda ham «Ona tili», «Adabiyot», «Tarix», «Davlat va huquq asoslari» kabi o'quv fanlari mazmuniga Vatan tuyg'usi, milliy istiqbol g'oyasi va ma'naviyat asoslari, Konstitutsiya saboqlari, Hadis ilmi saboqlari kabilarni uyg'unlashtirish, qulaylashtirish nuqtayi nazaridan samaralidir. 5–9-sinflarda o'quv fanlarini integratsiyalash natijasida o'quv rejasiga quyidagi ijtimoiy-gumanitar fanlarni kiritish mumkin: «Ona tili», «Adabiyot», «Tarix», «Davlat huquq asoslari», aniq fanlar – «Matematika», «Informatika», tabiiy fanlar: «Fizika», «Kimyo», «Biologiya», «Geografiya» va h.k. Bunda birinchi navbatda o'quv materialining mazmuni jihatdan muhim ahamiyatga ega. Bunday maqsadga erishish uchun: ta'lim mazmunida o'quv fanlarini integratsiyalashning ilmiy va pedagogik asoslarini ishlab chiqish; ta'lim jarayonini liberallashtirish talablaridan kelib chiqqan holda o'quv rejasini takomillashtirish; integral mazmundagi o'quv dasturlari va dasturlarining yangi avlodini yaratish; ta'lim mazmuni integratsiyasini ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Ilg'or g'oya, prinsip va vazifalar.

Bu kursning konsepsiyasi ishlanmasida bizning zamonda tabiat – inson tizimida o'quvchilar tushunchasi asoslangan bo'lishi kerak. Ma'naviy, ekologik tushuncha bo'lmog'i lozim, faqatgina tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, inson kelajagi xavfsizligini ta'minlashini tushuntirmoq lozim. Bunday yondashuvning ilg'or g'oyalariga birdamlik, maqsadga yo'naltirilganlik, inson va tabiat uzviyligi, inson – tabiat tizimining samoviy belgilanganligini anglash kiradi.

Prinsiplar – bu, birinchidan, gumanitarlash, u tabiiy-ilmiy gumanitar bilimlarni «tabiat – inson» tizimida integrallash, ikkinchidan, tabiatdagi mavjud aloqalarni o'quvchilar anglashi orqali shaxsning shakllanishi, uchinchidan, tabiat haqidagi aniq bilimlarga tegishli o'quvchilar fikrlash yo'nalishi usuli shakllanish ustivorligi, to'rtinchidan, kelgusi didaktik moslashuv ilmiy izlanishga mos kelgan turli sohalardan materialni tanlashdir.

Vazifalarga quyidagilar kiradi: o'quvchilarda tizimli fikrlashning oriyentir asosini shakllantirish, tabiat birlamchiligi haqidagi qonunlar, hodisalarga oid bilimlarni shakllantirish, tabiatshunoslik qonuniyatlari, kuzatish qobiliyatlarini shakllantirish, bilimlar tizimini ishlab chiqish. aqliy mustaqillik muammolarini bilish va ularni yechish yo'llarini topish qobiliyatini rivojlantirish. Vazifalarga, shuningdek, tabiatni estetik qabul

qilish, insonparvar ma'naviy ideallarga ekologik fikrlash va tabiatni asrash munosabatini asos qilish kiradi.

Didaktik aspektdagi bunday yondashuvning asosiy farqlari quyidagilar: mantiqdagi tushunchalardan voz kechish; deduksiyani vaqtdan oldin ishlatish, tushunchalar shakllanishining klassik tizimidan integratsion umumlashtirishning umumiy tushunchalarini ishlatish darajasiga o'tish; tarixiy yondashuv bilimlarini minimallashtirish tabiat obyektlarini o'rganishda aniq dalillarni o'zlashtirishga emas, u bilan bog'liqligini anglash.

Kuzatish va xulosalar.

Pedagogik izlanishlar shuni ko'rsatadiki, integratsion asosda fanlarni o'rgangan o'quvchilar predmetli o'rgatishning chiziqli kurslarini qisqa muddatda o'zlashtirishmoqda. Tez o'qitish maqsad qilib olinmaganiga qaramasdan, undagi tabiat, mehnat, rasm, o'qish sohasidagi elementlar bu fanlarni tez o'rganishda umidli asos bo'lib xizmat qilyapti.

Pozitiv natijalar deb, dunyo haqidagi ilmiy tasavvurlarning zamonaviy darajasiga to'g'ri baho berish; o'quvchi oldida olamning ko'p o'lchovli dunyo manzarasining dinamikada, turli bog'lanishlarda yaratish, aylantirish; ko'rish gorizontlarini kengaytirish, o'zi uchun dunyoni qaytadan kashf etish, o'quvchi bilan muloqotdagi yangi metodik shakllarni izlash; turli mutaxassislar faoliyatlari muammolarini hal etishda birlashtirish, o'quv faoliyatida toliqishning oldini olish, yangi sifatli pedagogik natija olish, ta'limning yangi falsafasi bo'lishi, pedagogik jarayonining integrativ borlig'ini aks etishga aytiladi.

Integratsiyaga qarshi muammolarni yaratish mumkin. Ayrim olimlar integratsiyani mexanik birikishga xavf tug'diradi, deb hisoblashmoqda. Ta'lim muassasalari rahbarlari ko'pincha integratsion kursning maqsad va vazifalarini aniqlashda, kerakli o'quv dasturini tanlashda, o'qituvchilar malakasini oshirishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Shunday qilib, integratsiya ta'lim rivojlanishiga zamin yaratgan holda, har bir maktabda dolzarb muammo ham bo'lib kelmoqda. Bu integrativ yondashuv mohiyatini tushunmaslikdan kelib chiqyapti. Ta'lim tizimi tashkilotchilari zimmasiga bu masalani to'g'ri yechishda katta mas'uliyat tushayotir. Ta'lim mazmunining insoniyalashtirishda asosiy mexanizm deb, integratsiyani anglash qadriyatni, ya'ni zamonaviy maktabning rivojlanishida ilg'or an'analar ahamiyatini aniqlashga imkon beradi.

Integratsiyaning u yoki bu darajasini ta'lim jarayonida qo'llash natijasida o'quvchining vaqti va kuchi tejaladi, uning bilish imkoniyatlari kengayadi. Ota-onalarning hamda davlatning o'qish jarayoniga sarflaydigan mablag'ini

iqtisod qilish imkoniyati vujudga keladi; mavzulararo integratsiya asosida o'quv-bilish jarayoni natijalarini istiqbolli qilish mexanizmlari yaratiladi; integratsiyalashtirilgan ta'lim jarayonini boshqaradigan o'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirishni yo'lga qo'yish uchun huquqiy metodik imkoniyatlar yaratiladi; integral dasturlar asosida o'quv-biluv jarayonining iqtisodiy jihatdan samaradorlik darajasi aniqlanadi; o'quv-biluv jarayonini integral dasturlar asosida tashkil etish sohasidagi xalqaro tajribalardan keng foydalanish uchun qulay imkoniyatlar tug'iladi.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK BILIMLARINI INTEGRATSIYALASH JARAYONI

Bo'lajak o'qituvchilarning amaliyotga tayyorligi qanchalik chuqur va ko'p qirrali bo'lsa, shu vaqtning o'zida psixologik-pedagogik integratsiya yo'nalishini to'g'ri tanlash lozim. O'ylaymizki, uchta har xil, lekin bir-biri bilan bog'liq bo'lgan komponentlarni: metodologik, texnologik va shaxsiy integratsiya psixologik-pedagogik bilimlarni o'rganish uchun ancha oson, tez va produktiv bo'ladi.

Birinchidan, nazariy bilimlarga ega bo'lish va metodologik refleksiya tajribasini oshirish orqali faollashadi. Ikkinchidan, metodik va texnologik darajadagi psixologik-pedagogik bilimlarni o'z ichiga oladi. Uchinchidan, vazifaga pedagogning shaxsiy rivojlanishi, o'zligini shakllantirish kiradi. Yuqoridagi komponentlar o'z ishlarida quyidagi talablarga javob berishi kerak:

– bilim olish bo'lajak o'qituvchining kerakli xususiyatlarini va ish turlarini shakllantirishga qarab olinishi kerak;

– psixologik-pedagogik fanlar strukturasi jarayoniga ko'ra bilimga ega bo'lish sharoitlarini yaratib berishi kerak;

– bo'lajak o'qituvchining imkoniyat, xususiyat, shakl va metodlarning birligini, qulay tanlov sharoitlarini yaratib berishi kerak, shuningdek, o'quvchilarni egallagan tushunchalarini o'quv jarayonida uzluksiz foydalanishi va rivojlanish sharoitlarini yaratib berish kerak. Natijada «Bolalik» pedagogika asosidagi ish bo'yicha psixologiya integratsiya kursi ishlab chiqilgan. Bularning ichida quyidagi ma'noli qarorlar yotadi: ish bo'yicha bolalikning turli davrlardagi tarbiya va bilim olishning texnologiyasi, bolalikning turli davrlarida shaxsni shakllantirishi va rivojlanishining psixologik-pedagogik tashxisi, shaxsiy-o'zlashtirish texnologiyalari. Agar psixologik-pedagogik bilimlar integratsiyasini o'z-o'zidan yaralgan, izolatsiyalangan holat emas, balki psixologik-pedagogik sikl fanlarini didaktik sintezi sifatida qaralsa, bu holatda savol tug'ilyapti,

bu xususiyatni, holatni o'lash mumkinmi? Bo'lajak o'qituvchining shakllanishiga salbiy yoki ijobiy ta'sirni bilishga texnologiyaning samaradorligini qay darajada aniqlash mumkin? Bu holatda vujudga kelgan bilimga baho berish aniqlash tizimi mukammal deb hisoblamaydilar va bu pedagogik monitoringga murojaat etishga majbur qiladi. Psixologik monitoring psixologik-pedagogik integratsiyani har tomonlama kuzatishga imkon beradi.

Pedagogik monitoring yordamida psixologik-pedagogik integratsiya jarayonini baholash uchun umumiy pedagogik baholash tizimlaridan (uzoq davom etuvchi metodi, bilimlar metodi, tekshirishning turli xillari va h.k.), shuningdek, tekshirilayotgan jarayon holatining metod va shakllari (informatsiyani kodlashtirish va dekodlashtirish, ishni testlar va ishni tekshiruv ishlari, terminalogik kesishuvlar, intellektual kartalar bilan ishlash, anketalash va h. k) dan foydalaniladi.

Asosiy ishlab chiqarilgan bilim monitoringi prinsiplari:

1. Uzlüksizlik prinsipi. Bu monitoring butun dinamik rivojlanuvchi tizim sifatiga qarash degani. Bu tizim nafaqat sonli xarakter, balki sifatli xarakterdagi struktur-funksional o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Monitoring bir sifatdan ikkinchisiga o'tish vaziyatlarini, bilim va jarayon an'alarini korreksiya qilish va to'g'rilash yoki bo'shashtirish holatlarini belgilashi lozim.

2. Ilmiy prinsip. Bu kuzatishning asoslangan xarakteristikasiga tayangan holda kuzatish degani. Bu holatga maishiy turmush tomonidan yondashish man etiladi.

3. Tarbiya yo'nalishining prinsiplari. Pedagogik monitoring butun maqsad hisoblanmaydi, balki bilim jarayonlarini chuqur o'rganishga va pedagogik boshqaruvni ishonchli uskunasi sifatida qo'llaniladi. Shaxsning har qanday darajadagi kamsitadigan texnologiyalarini pedagogik monitoring metodlarida, prinsiplarida qo'llash man etiladi.

4. Tashxis – ma'lumot yo'nalishi prinsiplari. Kuzatuv jarayonida olingan axborot bilim jarayoni oldindan ishlab chiqarilgan ko'rsatkich va kriteriyalariga to'g'ri kelishi kerak.

5. Pragnostik (ma'lumot beruvchi, monitoring) prinsiplar. Pedagogik monitoringning ma'nosi pedagogik jarayoni noma'lum bir vaqtda yoki ma'lum vaqtda, belgilangan darajada holatini ko'rishi uchun emas, balki an'alar haqida bir to'xtamga kelishish uchun, bilim olish jarayoni u yoki bu tomonining rivojlanishini ko'rishi uchun, xohlamaydigan holatlarini transformatsiyasi, blokirovkasi yoki to'xtashi, pedagogik bilimning ijobiy tomonlarini qo'llab-quvvatlashni oldindan ko'ra olish qobiliyatlarini oshirish uchun foydalaniladi.

Shartli prinsiplar qatoridan o'chirmasdan turib biz psixologik-pedagogik integratsiya spetsifik prinsiplarini ishlab chiqdik. Ularning ma'nosi tekshiruvni tashkil qilishdangina iborat emas, balki protsessual-texnologik jarayonlar bilan bog'liq:

1. Natija olish va regularlik prinsiplari. Regulativ vazifasini bajarishi uchun qulay realizatsiya tizimi. Bu bo'lajak o'qituvchining shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Kuzatuvning baza komponenti quyidagicha bo'ladi:

- har xil rivojlanishning perspektivasini aniqlashni bilish;
- variantli holatlarda qulay qarorni tanlashni bilish;
- o'z-o'zini korreksiya qilishi uchun har xil metodlardan foydalanishni bilish;
- bilim olish holatini kuchaytirish uchun xotira, qabul qilish, iroda, nutq, fikrlash qirralarini ishlata bilish;
- istak, odat, qiziqishga bog'liq holda natijani oldindan bilish.

2. Bilim berishi metodlarini ilg'orlashtirish va o'quv materiallarini, chizmalarini qayta ishlash uchun didaktik kelishuv prinsipi belgilangan. Bu prinsip integratsiya bilimlarini bosqichma-bosqich shakllanishi metodlarini qulay va to'g'ri yo'nalgan birligi, ilmning rivojlanishini perspektalarini hisobga olgan holda o'quv prinsiplarini dinamikasi va dialektikasini to'g'ri yo'naltirishga, pedagogik birlikka amal qilishni o'z ichiga oladi. Demak, bu prinsipni uskunaviyligi, bilim kengashlarini tizimlilik va diskreminatligini boshqarish yo'li bilan integrativ xarakterni xususiy etadi.

3. Tizim integragal yondashuv prinsiplari jarayoni nafaqat qator elementar yig'indisini tomonlar xususiyati sifatida, balki sifatli yangiliklar birligi sifatida qarashni o'z ichiga oladi. Spetsifik informatsiyani qayta ishlab chiqarish o'z ichiga fikrlash, taqqoslash, nisbiylik, effektiv prinsiplarini oladi. Shuning uchun pedagogning fikrlashishi ijodiy izlanishlar ko'rinishida bo'lishi kerak. O'rganilayotgan obyektning obyektiv ko'rinishini beruvchi diagnostik muolajalarini izlash kerak.

4. Butunlik prinsipi o'rganilayotgan bilimning kamida uchta yo'naltirilgan vektorlik jarayonlarini o'z ichiga oluvchi jarayonni nazarda tutadi. Vektorlilik, ya'ni kuzatishga belgilangan holatni, yo'nalayotganligini ajratib olishidir. Monitoring vaqtida vektorlik jarayoni bir qancha ko'rinishga ega bo'ladi, ular ichida:

- o'quvchilarni individual imkoniyat darajasining shakllanishiga qarab bilim berish va o'qitish maqsadlari;
- informativ bloklarni metodik uzatish;
- bilim jarayonining oxirgi natijalari;
- o'qituvchining yetuk pedagogik tayyorligining integrativ qirralari.

Psixologik-pedagogik jarayon monitoringini aniq obyektini tanlashda biz monitoringni pedagogik va boshqaruv komponenti informatsion tizimlarni elementi degan xulosaga kelimiz. Bundan kelib chiqqan holda pedagogik monitoring jarayonli bo'shliqni o'z vaqtida aniqlab shakllangan bilim bilan o'z vaqtida berilgan jarayonni korrektirovka yo'li bilan to'ldirish imkoniyatini beradi.

Psixologik-pedagogik integratsion jarayon samaradorligi va tizimli, integrallashgan bilimning shakllanishi uchun quyidagi kuzatishlarda berilgan yo'nalishlar bo'yicha tashkillashtirish kerak:

– talabalarning bilimlarni o'zlashtirishga psixologik tayyorligini o'rganish;

– bilim olishga tayyorgarlik darajasini aniqlash;

– dalillar, holatlar, qonunlar haqidagi bilim doirasini aniqlash;

– pedagogik jarayon, o'qituvchilik mehnatiga motivatsion va emotsional munosabatini aniqlash. Talabaning kasb tanlashida bu indikator juda katta ahamiyatga ega. Bu indikator orqali bo'lajak o'qituvchini o'qitish va bilim berish jarayoniga munosabatini aniqlash mumkin. Psixologik-pedagogik o'qitishning integratsion protsessini texnologik ta'minlanuvini, tahlilni, o'qituvchini bilim berish metodlarini, usullari va shakllarini to'liq aks ettirishga yordam beradi.

Pedagogning professional komponentlik xarakteristikasi. Bu yo'nalishdagi axborot yetuk bilimdonlik darajasini aniqlashda, psixologik-pedagogik bilimlarning integratsiya jarayonini tashkillashtirishda o'qituvchining ilmiy yondashishiga, integratsiya bilimlarini mukammal bilishga yordam beradi, professional refleksiyaga va korrekativ harakatlarga qobiliyat-liligi o'z vaqtida yordam beradi.

O'qituvchining etalon modeliga mo'ljal olish. Bu model quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

1. Kerakli motivatsion sferani, pedagogik ideal va professional pozitsiyani o'z ichiga oluvchi pedagogik yo'nalishlar.

2. Professional kompetentlik o'zining shaxsiy o'qitish tajribasidan olingan bilimdonlik, odatlar, ko'nikmalar, pedagogika nazariyasi va tarixi, pedagogik jarayonlarning texnologiyalarini o'z ichiga oladi.

3. Shaxsiy sifatlar individual-psixologik sifatlarini o'z ichiga oladi (o'ziga baho berish, odatlar darajasi, to'g'ri yo'nalganligi):

– interaktiv sifatlar (muloqotda bo'lishi, emotsional ekspressiya), pedagogik takt, ijtimoiy persepsiya, muloqotga haqqoniy qiziqish;

– status – pozitsion sifatlar (ifoda, intizom, egiluvchan xususiyatlar, o'quvchining pozitsiyasini qabul qilishga tayyorlik, ta'sir etish yo'llarini o'zgartirishga tayyor bo'lish);

– professional-ilmiiy sifatlar (yuqori professionalizm, o‘qitish jarayonini baholashda haqqoniy obyektiv bo‘lish);

– didaktiv sifatlar (emotsional yordam beruvchanlik, mehr-oqibat, emotsional ko‘rinishlarni o‘z vaqtida boshqara olish).

4. Psixologik sifatlar – temperament, jins va yosh sifatleri, harakatchanlik va nerv tizimi mustahkamligi, emotsional mustahkamlik, fantaziya va xayolni yuqori darajaliligi, intellektual rivojlanishni qabul qilish, fikrlash bo‘yicha darajasi va h. k.

Bu sifatlarda quyidagi ko‘rsatkichlar kuzatiladi:

– bilimlarni mustahkamlash;

– tajriba va bilimdonlik masalalarini yechishda bilimlarning faolligi;

– pedagogik vaziyatlarda bilimlarni qo‘llash;

– bilimlarning miqdori;

– pedagogik vaziyatlarda bilimlarning mustahkamligi va qo‘llanilishi;

– professional motivatsiya strukturasi;

– intellektual rivojlanish dinamikasi;

– o‘qish jarayonidan qoniqish, bilim olishning shaxsiy ma‘nosi.

Hamma narsa o‘rganilayotgan kasb xususiyatlarini, o‘qiyotganlarning xohishi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda ko‘rilishi kerak.

«PEDAGOGIKA» VA «UMUMIY PSIXOLOGIYA» FANLARINI INTEGRALLASH

«Pedagogika» – lotincha so‘z bo‘lib, «peda» – bola, «logika» esa yetaklash, ya‘ni bola yetaklash degan ma‘noni bildiradi. Umumiy qilib aytganda, tarbiya haqidagi fandır. Tarbiya bu ijtimoiy hayotning zaruriy hodisasi hisoblanadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, pedagogika fani o‘z kelayotgan yosh avlodni yetuk inson qilib tarbiyalash uchun ta‘lim-tarbiyaning mazmuni, umumiy qonuniyatlar va amalga oshirish yo‘llarini o‘rgatuvchi fan hisoblanadi. Pedagogikaning tarbiya sohasidagi obyekti o‘z kelayotgan yosh avlod bo‘lganligi uchun pedagogika insonni o‘rganuvchi fanlar bilan ham bog‘lanadi. Bular: umumiy anatomiya va odam fiziologiyasi, ayniqsa bolalarning anatomiyasi va fiziologiyasi, pedagoglarning yosh anatomiyasi va fiziologiyasi pedagogikaga yaqin bo‘lgan fanlardir. Pedagogika umumiy psixologiya, bolalar psixologiyasi, pedagogik va ijtimoiy psixologiya bilan chambarchas bog‘langandir. Shuningdek, pedagogika umumiy va maktab gigiyenasi, psixogiyena sohasidagi ilmiy ma‘lumotlarga tayanadi. Pedagogika ijtimoiy fanlarga ham yaqindir. U falsafa, ekonomika, sotsiologiya, etika, estetika kabi fanlarning ma‘lumotlaridan keng foydalanadi. Demak, pedagogika va umumiy psixologiya

boshqa fanlarga qaraganda ko‘proq bir-birlari bilan bog‘langan. Misol uchun «Pedagogika» darsligidagi III bob «Bola shaxsining rivojlanishi, tarbiyasi va kamoloti» mavzusida quyidagilar bayon qilingan. O‘tib va rivojlanib ke-layotgan inson tarbiya obyekti hisoblanadi. Insonning hayoti davomida rivojlanish jarayoni davom etadi. Inson turli o‘zgarishlarni, jismoniy-psixik, miqdor va sifat o‘zgarishlarni o‘z hayoti davomida kechirib boradi. Odamzodda bo‘ladigan jismoniy o‘zgarishlarga uning bo‘yining o‘sishi, vaznining og‘irlashib borishi, suyak va mushak tizimlari, ichki organlari, shu bilan birga asab tizimlarining o‘zgarishi kiradi.

Irsiyat – bu genetik dasturda berilgan sifatlar va xususiyatlarning otanalardan bolalarga o‘tishidir.

Muhit deganda kishiga ta’sir etadigan tashqi voqealarning yig‘indisini tushunamiz. Bunga tabiiy muhit (geografik), ijtimoiy muhit, oila muhiti va boshqalar kiradi. Ular bolalarning rivojlanishiga alohida ta’sir etadi.

Tarbiya – biror maqsadga qaratilgan jarayon, u doimo muayyan dasturga ega bo‘ladi va buning uchun maxsus vakolatga ega bo‘lgan kishilar tomonidan amalga oshiriladi. Hammamizga yaxshi ma’lumki, bolaning layoqatini rivojlantirish, qobiliyatli bolaga aylantirish va hayotga mos qilib o‘stirish uchun ko‘p mehnat qilish kerak. Maxsus muassasalarda tarbiyachining rahbarligida amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni yetakchi hisoblanadi. Chunki, tarbiya bu muhit ta’siri bera olmagan fazilatlarini o‘zlashtirib, bilim, ma’lumot egallashiga zamindir. Tarbiya tufayli tug‘ma kamchiliklarni ham o‘zgartirish mumkin. Masalan, ko‘rlar, gunglar ham o‘qitilib sog‘lom kishilar qatoriga tayyorlanadi. O‘qituvchi-tarbiyachilar o‘quvchilarning barcha yosh davrlari jismoniy va ruhiy taraqqiyotlaridagi o‘zgarishlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida yetarli ma’lumotga ega bo‘lishlari lozimdir. Bu ma’lumotlar o‘qituvchining ba’zi masalalarini ijobiy hal qilish uchun, o‘quvchilarga pedagogik ta’sir o‘tkazish rejasining tuzilishi uchun zarurdir. Endi «Umumiy psixologiya» darsligi bilan solishtirib ko‘ramiz.

«Psix» – jon, ruh, «logos» – fan, ya’ni psixologiya ruh haqidagi fandir. U kishining ichki ruhiy dunyosini o‘rganuvchi fandir. Psixologiya fani taraqqiyotiga eramizdan avval yashagan Aristotel asos solgan. Hayot sezgidan boshlanadi. Biz tashqi voqealarni, hodisalarni sezgilar orqali qabul qilamiz, faqat sezib qolmay, ularni butun holida idrok etamiz. Narsa va hodisalar haqida fikr yuritamiz, gapiramiz, bu esa tafakkur va nutq jarayonlariga bog‘liq. Ko‘rgan, bilganlarni eslaymiz – bu xotira. Insondagi bilish jarayonlariga sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur, xotira, xayol, nutq, his -tuyg‘u va iroda kabi psixik jarayonlar kiradi. Ana shu jarayonlarning faollashishi yoki susayishi psixik holatlar deyiladi. Ularga quvnoqlik, xursand bo‘lish, g‘azablanish, uyalish, nafratlanish, parishonlik va qo‘rqib

ketish kiradi. Insonning psixik xususiyatlariga xarakter, qobiliyat va temperament kiradi. Psixologiya fani yuqorida sanalgan psixik jarayonlari, psixik holatlar va psixik xususiyatlarni o'rgatadi. U quyidagi tarmoqlarni o'z ichiga oladi:

1. Umumiy psixologiya.
2. Bolalar psixologiyasi (bu kichik maktab yoshdagi, o'rta, katta maktab yoshidagi o'quvchilar bilan shug'ullanadi).
3. Ta'lim psixologiyasi asarlari.
4. Pedagogika psixologiyasi.
5. Tibbiyot psixologiyasi.
6. Kosmos psixologiyasi.
7. Sud psixologiyasi.
8. Savdo psixologiyasi.
9. Harbiy psixologiya.
10. Maxsus psixologiya.
11. Sport psixologiyasi.

Yuqorida aytib o'tilganlarning barchasi hozirgi zamon psixologiya-sining bir qancha fanlar bilan chambarchas bog'liqligidan dalolat beradi. U filofosiya fanlari, tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar o'rtasida joylashgan va katta, oraliq mavqeyiga ega bo'lgan fandır. «Umumiy psixologiya» dasturidagi «Shaxs», ya'ni «Psixologiyada shaxs tushunchasi» mavzusini ko'rib chiqamiz, umumiy maqsadni ko'zlash, ya'ni ehtiyojlar, qiziqishlar, qobiliyatlar, asosiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan maqsadlar, intilishlar, motivlar har bir kishi shaxsini xarakterlab beradi. Ana shu ko'zlangan maqsad kishini faol bo'lishga, atrofdagi muhitga muayyan munosabatni bildirishga undaydi. Shaxsning ko'zlangan maqsadi ehtiyojlar, ya'ni odam biror bir narsaga zaruriyat sezishi ta'sirida tarkib topadi. Ehtiyojlar kishi organizmining ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, harakat qilishi, dam olish va boshqalarga bo'lgan talabini bajarishi zarur. Shu talablar bilan bog'liq biologik ehtiyojlar va ijtimoiy ehtiyojlar bo'ladi. Ehtiyojlar hishayajon bilan mahkam bog'lan-gandır.

Qiziqishlar va mayllar.

Qiziqish deganda kishining nimagadir e'tibor berishiga, qandaydir predmet va hodisalarni bilishga intilishi tushuniladi. Qandaydir faoliyatga intilishi «mayl» deyiladi. Qiziqish va mayllar kishining emotsional hayoti bilan mahkam bog'liqdir.

Qiziqishlarning mazmuni kishining biror yo'lni tutganligini, u hayotda o'z oldiga qo'ygan maqsadini bildiradi. Qiziqishlar chuqurligi kishining umumiy rivojlanishi va mayl bilan bog'liqdir. Qiziqishlar bevosita va bilvosita ham bo'ladi.

Bevosita qiziqish o'zidan-o'zi biror narsa va hodisalarni bilishga qiziqadi.

Bilvosita qiziqish esa ma'lum bir narsaga qiziqqanda shunga bog'liq bo'lgan ikkinchi bir narsaga qiziqishlar tufayli majburiy bir holda yuzaga keladi.

Ehtiyojlarni rivojlantirish, tanlash va tarbiyalash, ularni hozirgi jamiyat kishisiga xos bo'lgan ma'naviy yuksaklik darajasiga olib chiqish shaxsni shakllantirishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu o'rinda shaxs psixologiyasi shaxsni tarbiyalash pedagogikasi axloqiy tarbiya metodikasi bilan o'rin almashadi. Ularning vazifasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishi, ma'naviy ongini shakllantirish, ongni, intizomni, vatanparvarlik va baynalminalikni tarbiyalash vositalari va yo'llarini aniqlashdan iboratdir. Bu kelajak vazifalarni ro'yobga chiqarishini shaxsning takomillashuvini ta'minlaydi.

«Pedagogika» darsligidagi «Bolalarning yosh davrlari xususiyatlari tavsifi» mavzusida quyidagilar bayon qilingan. Bolani uch yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan davrini maktabgacha davri deb ataymiz. Bu davrda paydo bo'lgan taassurotlar izi umrbod saqlanib qoladi. Bunda bolaning aqliy va jismoniy jihatdan tez o'sishi, olamni bilish, atrof-muhitga o'z munosabatini bildirish istagi kuchayib borayotgan davridir. Shuning uchun ota-onalar va tarbiyachilar bolalarni to'g'ri o'sishlari, aqliy, axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalashga jiddiy e'tibor berishlari lozim.

Uch-to'rt yoshlarda bolalar, odatda, nutqning rivojlanishida katta muvaffaqiyatlarga erishadilar. Bu davrda bolaning so'z boyligini asta-sekinlik bilan oshirib borishi, ayni vaqtda uning sezgi va tasavvurlarini kengaytirish tarbiyachilarning diqqat markazida bo'ladi. To'rt yoshli bolada eng oddiy axloq me'yorlari va xarakter xususiyatlari: yaxshilik, itoat qilish, og'ir vaznlik, rostgo'ylik va hokazolar ongli ravishda shakllanishi mumkin. Xususiy mulkchilik psixologiyasidagi ko'rinishda: «Bu mening o'yinchog'im», «bermayman», «tegma», «ber», «men sen bilan o'ynamay-man» va hokazo-larning oldini olish kerak. 5–6 yoshli bolaga asosiy axloqiy tushunchalar: yaxshi va yomonni tushuntirish mumkin. Tushuntirish mashq qilish bilan birga olib borish hamda uni rag'batlantirish va jazolash bilan mustahkamlanishi kerak.

Tarbiyachilar tomonidan taqlid qilish uchun namunalar yaratilgan va foydali axloq me'yorlarini egallash sabablari ta'minlangan bo'lishi kerak. Bu yoshdagi bolalarni tarbiyalashdagi qiyinchiliklar, bu o'jarliklar va kattalar irodasiga besabab qarshiliklar ko'rsatishi bilan bog'langan. O'jarliklarining sababi ko'pincha bolalarning atrofidagi katta kishilar xatti-harakati, gapi bilan ishining bir emasligi, serjahlligi, farzandlariga kerakligicha

e'tibor bermaslik yoki umuman e'tiborsizlik bilan bog'langan bo'ladi. Bu yoshdagi qaysar bola diqqatini boshqa narsaga qaratish, chalg'itish, o'jarlik ko'rinishlariga ataylab e'tiborsizlik kabi usullar bilan yo'qotiladi. So'z va qarash bilan tanbeh berishdan muvaffaqiyatli foydalaniladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan maxsus mashg'ulotlar asosiy psixik vazifalar: diqqat, kuzatuvchanlik, xotira, tafakkur, nutq kabilarni rivojlantirish mumkin. Bolaning maktabda o'qishga tayyorgarligi ana shu usul bilan ta'minlanadi. Maktabgacha yoshdagi bola ko'proq o'ziga e'tibor berishingizni xohlaydi. Men buni bolada sinab ko'rganimda haqiqatan ham bunday bolalar o'zlarini hammadan ustun qo'yar ekanlar. Tanbeh bersangiz siz bilan anchagacha gaplashmay arazlab yurishar ekan. Xuddi shu mavzuni, ya'ni «Psixologiya» darsligidagi «Maktabgacha yoshdagi bolalar o'sishining umumiy shart-sharoitlari» mavzusida ko'rib chiqamiz: 3 yoshli bolalarga to'g'ri tarbiya berish, ta'sir o'tkazish, ularning harakatlarini maqsadga muvofiq yo'naltirish orqali ularda mustaqil holda ovqatlanish, kiyinish, yuvinish, o'z o'rnini yig'ishtirish ko'nikmalarini tarkib toptirishiga, ayrim topshiriq va vazifalarini puxta bajarish malakasini shakllantirishga erishish mumkin. Maktabgacha yosh davrda namoyon bo'ladigan tarbiya jarayonidagi ayrim qiyinchiliklarning tashqi va ichki alomatlari (belgilari) ham psixologik tadqiqotlarda va ilmiy-psixologik adabiyotlarda ko'p marta ta'kidlangan bo'lib, birinchi navbatda o'jarlik, qaysarlik, injiqlik, go'yo kattalarning bolalar nazarida obro'sizlanishi va qadsizlanishi kabi illatlar bilan bog'liqdir. Bir qancha ilmiy-psixologik manbalarda aytilishicha, bu yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari va irodasida muhim o'zgarishlar sodir bo'ladi va bularning hammasi boladagi xudbinlik, o'ziga bino qo'yish, urishish, qaysarlik, rashk kabilarda aks etadi. O'jarlik, qaysarlik, kattalarga itoatsizlikning paydo bo'lishi – bolaning kattalarga qaramlikdan qutulishiga urinishi va maktabgacha yosh davridan kichik maktab yosh davriga o'tish, mazkur yosh davridagi o'zgarishlar «men o'zim»ni anglashi mahsulida namoyon bo'ladi. Yosh davridagi bolalarning kattalar bilan munosabatga kirishuvining eng muhim xususiyatlaridan biri – ularning xohish-istaklarini boshqarish imkoniyati mavjudligidir. Ularning kattalarni ezgu niyatiga bo'ysundirish, ota-onalar va tarbiyachilar mayliga ko'niktirish mumkinligidir. Ularni boshqa yosh davrlaridagi bolalardan farqi ularga nisbatan xotirjam, barqarorroq his-tuyg'ular mavjudligi, ularning samarali holatlardan uzoqroqlik, nizolarga kam berilishidir. Bunday bolalarda jazavali holat yuz berishi mumkin, lekin u vaqtinchalik bo'lib, yaqqol harakat bilan emas, balki tasavvur tasvirlari dinamikasi bilan bog'liq holda sodir bo'ladi. Shunday qilib, «Pedagogika» darsligining «Bolalarning yosh davrlari xususiyatlari tavsifi» hamda «Psixologiya» darsligining

«Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘shining umumiy shart-sharoitlari» mavzularida o‘xshashliklarni yoritib berdi. Demak, maktabgacha davrdagi bolalar tafakkurini, nutqi rivojlanishini, ongining o‘shini, har xil o‘yinlarni namunali bajarishini psixologik yo‘l bilan aniqlasak, ularning tarbiyasini, intizomini tartib bilan aniqlaymiz. Shundagina kelajagimiz ravnaqi bo‘lgan bolalarimiz barkamol avlod bo‘lib yetishadilar.

BOSHLANG‘ICH SINFDAN INTEGRATSIYALASHGAN TA‘LIMNAN FOYDALANISH

1. Maktab umumta‘lim kurslari integrativligining mohiyati.
2. Integratsiya – o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashga yangicha yondashuv.
3. Boshlang‘ich sinflarda integratsiyalangan ta‘limni amalga oshirish metodikasi.

Integratsiya bir o‘quv predmetida chegaradosh fanlarni, yirik g‘oyalarni, omillar, xulosalarni cheklab birlashtirishdir. Masalan, tarix kursining integrativligi arxeologiya, etnografiya, san‘atshunoslikka tegishli dalil va nazariy xulosalarni o‘z ichiga oladi.

Umumiy o‘rta ta‘lim mazmunini shakllantirish barcha maktab predmetlarini o‘qitishni insoniyatshunoslik, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini kuchaytirishni ta‘minlashga qaratilgan. Jamiyatshunoslik, tarix, o‘qish, sinfdan tashqari o‘qish, musiqa, tasviriy san‘at jamiyatimizning chuqur insonparvarlik tabiatini yorqin aks ettirishga qaratilgan. O‘quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda tabiiy-matematik fanlar sikli muhim rol o‘ynaydi.

Umumiy ta‘lim mazmuni o‘quvchilarni har tomonlama ruhiy rivojlanishga, ularda turli xil tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan. Har bir o‘quv predmetini o‘rganish bolaning mavzuni anglash jarayonini, uni eslab qolishni, ta‘sirchanlikni faollashtiruvchi, tafakkurni, nutq va tasavvurni rivojlantiruvchi ruhiy diqqatni yaratishga imkon beradi. Ayniqsa, bilish jarayonida bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tafakkurning turlarini rivojlantirish juda muhimdir.

Tajribaga asoslangan tafakkur umumlashtirish va xulosalar uchun tirik mushohada, dastlabki ma‘lumotlarni yig‘ish vazifasini bajaradi. U bolalarni real voqealarni, hodisalarni o‘qishga, ularni qayd qilish va yig‘ishga o‘rgatadi. Abstrakt tafakkur ajratib olingan voqea, hodisalarda ularning mohiyatini ko‘ra bilishga, aniqlashga imkon beradi.

O‘quv predmeti mazmunini tuzish pedagog amaliyoti shu fanning asosiy kategoriya, tushunchalarining rivojlanish mantiqini hisobga oladi. Shu bilan birga, o‘qituvchi va psixologlar o‘quvchilar tomonidan mavzuni

o'zlashtirishning yosh xususiyatlarini hisobga oladilar. San'at sohasidagi umumiy o'rta ta'lim mazmuni g'oyaviy tomoni va to'kis badiiy shakli birligini hosil qiluvchi asarlarni o'z ichiga oladi. Badiiy jihatdan bo'sh, g'oyaviy jihatdan haqiqatga to'g'ri kelmaydigan asarlar bolalarning ruhiyatiga ta'sir qila olmaydi, tasavvur va tafakkurni rivojlantirmaydi, go'zallik va badbashaalik to'g'risidagi tasavvurni shakllantira olmaydi. Bolalar bilan ishlashda san'at asarlarining chin badiiyligini hisobga olish, shakl va mazmunning birligi, ma'naviyat va haqqchilik prinsiplarini amalga oshirish muhimdir.

Bola shaxsini har tomonlama madaniy rivojlantirish, insoniyat yaratgan barcha madaniy boyliklarni bilish «O'z xotirangni boyitsanggina madaniyatli bo'lasan» degan fikrga asoslangan. Ayniqsa, tasavvurni uyg'otuvchi, ruhiy kechinmalarni faollashtiruvchi, shu bilan birga fikrlarni uyg'otuvchi asarlar juda tarbiyaviydir. Bunday umumlashtirish bolani bilish va ruhiy rivojlanishning yangi pog'onasiga ko'taradi. Shu asosda shakl mantiqiy tafakkur, turli voqea-hodisalar o'rtasida aloqalar va bog'liqliklarni ko'ra bilish, o'rgana olish ko'nikmalari mustahkamlanadi va rivojlanadi. O'quvchi qarama-qarshiliklarni topa bilish, ularning rivojlanish yo'nalishlarini to'g'ri tushunish va ularni o'z vaqtida yechish yo'llarini topishni o'rganadi. Dialektik tafakkur jamiyat hodisalarini uning barcha aloqa va vositalarida ko'rish qobiliyati bilan uzviy bog'liq.

Umumiy o'rta ta'lim kelajakda bolalarga xohlagan fanni egallash imkonini beruvchi bilimlar asosini yaratadi. O'quv predmeti fanlarning mustahkam asosiga ega, zamonaviy ilmiy ma'lumotlarni tushunishga yetaklaydi, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga olib keladi.

Bundan tashqari, har bir umumta'lim predmet o'quvchilarga xalq xo'jaligi ehtiyojlarini hisobga oluvchi o'quv materialining politexnik tabiatini yoritib berishga yo'naltirilgan. Barcha o'quv predmetlarining politexnik mazmuni, hayot bilan bog'liqligi o'quvchilarni ishlab chiqarishda qatnashishiga, eng oddiy ish qurollari bilan ishlashga yo'naltiradi.

Bu bilan umumiy rivojlanishning chuqur asoslari, kasb tanlash asoslari o'rgatiladi.

Fan qarama-qarshiliklarda rivojlanadi. Ular bilan muloqot qilganda o'quvchilar badiiy ma'lumotlar oqimini mustaqil hal qilish va ularga to'g'ri baho berishga o'rganadilar.

Umumiy o'rta ta'lim uchun davrni yaxshi yoritib beruvchi ma'naviy-tarixiy ahamiyatga ega asarlarni tanlash kerak. Bunday asarlar bolani davrning ma'naviy hayotiga olib kiradi. Turli nuqtayi nazarlarda va turli tasvirlar orqali ular turik hayotiy voqea va hodisalarni ko'rsatadi, o'tgan zamonlarda bo'lib o'tgan janrlarning to'liq tasvirini ko'rsatadi. Shuning

uchun umumiy oʻrta taʼlimda oʻzaro aloqalar va oʻzaro toʻldirishlar katta ahamiyatga ega. Bolalarning yosh xususiyatlari murakkab tasvirli xulosalar chiqarishga toʻsqinlik qilmaydi.

Mehnat taʼlimi mazmuni va mundarijasini ajratish ham oʻz xususiyatiga ega.

Mehnatni fan bilan maktabda oʻrganiladigan oʻquv predmetlari bilan uzviy bogʻlash mumkin hamda mehnatning oʻquv-ijodiy xususiyati ilmiy bilimlardan foydalanish jarayoni orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy foydali mehnat jarayonida oʻquvchilar oldiga olingan bilimlarni amalda qoʻllash vazifasi yuklanadi.

Nihoyat, bolalar mehnatining mazmunini va tashkil etishni aniq mahalliy ishlab chiqarish, xalq xoʻjaligi ehtiyojlariga tayangan holda, zamonaviy kasblar talablari asosida tuzish kerak. Bunday mehnat oʻquvchilarni umumiy mehnat va aniq kasbiy koʻnikmalar bilan tanishtiradi, mehnatni fan asosida tashkil qilishni, bir mutaxassislikdan ikkinchisiga oʻtishni taʼminlaydi. Mexanizator, chilangar, dehqon, chorvadorlik kasblari oʻquvchilarni zamonaviy kasblarga yoʻnaltiradi, bolalarning umumiy rivojlanishiga, ishchi psixologiyasini shakllantirishga yordam beradi. Umumiy oʻrta taʼlim mazmunining umumiy va oʻziga xos prinsiplari shulardan iborat. Integratsiya – oʻquvchilarni oʻqitish va tarbiyalashga yangicha yondashuvni belgilab beradi.

Oʻquv jarayonida integratsiyalangan taʼlimdan foydalanishga katta ahamiyat berilyapti. Integratsiyalangan darslarning tuzilishi oʻrganishning barcha bosqichlarida oʻrganilayotgan mavzularning aniqligini va izchilligini, puxta oʻrganilganligini va oʻzaro mantiqiy aloqalarini talab qiladi. Bunga dasturdagi oʻquv materialining ixcham va yigʻiq ekanligi, undan tashqari, oʻquv materialini oʻrganishni tashkil etishning baʼzi zamonaviy usullarini kiritish orqali erishish mumkin. Masalan: 1-va 2-sinf dagi «Atrof-olam bilan tanishish» kursining barcha mavzulari bir-biri bilan chambarchas bogʻliq. 3- va 4-sinf dagi «Tabiatshunoslik» darslari «Atrof-olam bilan tanishish» kursini davom ettiradi. Uning dasturiga tabiat va insonlar mehnatidagi mavsumiy oʻzgarishlarni kuzatish kiritilgan. Oʻquvchilar tomonidan atrof-olamni oʻrganish oʻqish, nutq oʻstirish, matematika, mehnat taʼlimi darslarida davom etadi. Shunday ekan, «Atrof-olam bilan tanishish» kursi predmetlararo aloqalar oʻqituvchiga barcha oʻqitilayotgan darslarda atrof-olam haqidagi tushunchalarni shakllantirish boʻyicha ish olib borishga imkon beradi. Boshlangʻich maktabdagi har bir predmet bu integratsiyalangan kurs, mazmun jihatdan ular tabiiy-matematik sikl fanlari bilan uzviy bogʻliq, bu kichik maktab oʻquvchilari uchun tushunarli boʻlgan atrof-muhit haqidagi bilimlarni oʻzlashtirishni taʼminlaydi. Bu yoshdagi bolalarda tabiatni

o'rganish faqat emotsional joziba emas, bilim olish motivlari bilan bog'liq. O'quvchilarning bu xususiyatini hisobga olib, qiziqishlarini quvvatlash uchun bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini yangi mazmun bilan to'ldirib turish kerak.

Bu o'quvchilarga hayotdagi o'zaro aloqalarni ochib berishga hamda tabiatdagi turli-tumanliksiz inson yashay olmasligini tushunib yetishga yordam beradi.

Predmetlararo aloqalarni amalga oshirish integratsiya turlaridan biridir. Tabiat bilan tanishtiruvchi darslarda bu maqsadning tanlanishini quyidagicha tushuntirish mumkin. Bu holatda nutq o'stirish erkin sharoitda, hozir o'qilayotgan obyektlarga bo'lgan jonli qiziqish asosida o'tadi.

Tabiatshunoslik, o'qish, husnixat va matematika nutq o'stirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

I.G.Pestalotssi ta'kidlaganidek, «... aql notinch sezgili idrok qilishdan aniq tushunchalarga ko'tariladigan manbadir». Bu tushunchalarni anglash esa nutq san'ati bilan birga yuradi. Erkin tabiat tasvirlari bolada mantiq bilan birga ta'sirchanlikni ham rivojlantiradi.

Har bir darsda nutq o'stirish masalalari hal qilinadi, bunda o'rganilayotgan materialning o'ziga xosligi va nutq o'stirish masalasini tanlashning maqsadga muvofiqligi hisobga olinadi. O'quvchilar bunday darslarni juda yaxshi ko'radilar. Ular ko'p yangi, kerakli tushunchalar beradi, tasavvurlarini tartibga soladi, o'quvchilar boshqa darslarda olgan bilimlaridan foydalanishlari zarur bo'lgan holatlarni yaratadi. Bunday holatda bolalar o'rganilayotgan materialni yaxshiroq o'zlashtiradilar, bilimlar tizim holiga keladi va o'quvchilar uchun juda zarur bo'lib qoladi.

Shu bilan bog'liq integratsiyalangan dars ishlanmasi taklif qilinadi, u o'quvchilar uchun tushunarli va olingan bilimlarni yangi o'quv sharoitida ishlata bilish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

INTEGRATSIYALASHGAN DARS ISHLANMALARIDAN NAMUNALAR

Hozirgi kunda axborot oqimi jadallashgan texnika taraqqiyotining yuqori darajada rivojlanganligi inson aqlini shoshirib qo'ymay iloji yo'q. Bu olamda o'z o'mini topish muhim va shu bilan birga juda qiyin masaladir. O'quvchida o'qish faoliyati davrida juda ko'p ma'lumotlar olishi, atrofdan kelayotgan axborotlarning bosimi yuqorililigi uning ongiga, ta'lim-tarbiyasiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Bu ma'lumotlar va axborotlarning qay biri birlamchi, qay biri ikkilamchi ekanligini ba'zida o'quvchi anglamaydi ham. Shu sababdan o'quvchi mukammal bilim, ko'nikma va malakalarga ega

bo'lishi mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Bunday sharoitda integratsion darslarning ahamiyatli ekanligini ta'kidlamoqchiman. Aynan integratsion darslarda olam haqida uzuq-yuluq, parchalangan bilimlardan farqli o'laroq bilimlar bir butun, yaxlit tizimda beriladi.

O'qituvchining oldida muhim vazifa turibdiki, uning o'quvchisi shiddatli zamonda olam haqida to'la tasavvurga ega bo'lishi uchun, o'z yo'lini topishi uchun nimalarga tayanishi, nimalarni bilishi, qanday ko'nikma va malakalarni egallashi lozim, degan savolga javob qidirishi tabiiydir.

Dunyoni bir butun ko'rish, yaxlit anglash muhim o'rin tutmoqda va bu yerda o'qituvchi bilimlarni bir-biriga bog'lab, tizim asosida bermog'ini taqozo etmoqda. Bu vazifani integratsion darslarda amalga oshirish mumkin.

Integratsion darslar qanday tuziladi? Buning uchun avval an'anaviy dars tuzilmasini eslab o'tish joiz:

- tashkiliy qism;
- uy vazifasini tekshirish;
- yangi mavzuni tushuntirish;
- mustahkamlash;
- dars yakuni.

An'anaviy darslarda o'qituvchi faqat maxsus fan chegarasidan chiqmagan holda bilimlar beradi. Bu esa bilimlarning biryoqlamaligiga va parchalanishiga olib keladi.

Integratsion darslarda tushuncha haqida biryoqlama emas, atroflicha fikr yuritiladi. Masalan, an'anaviy ona tili darsida biz «Ot» mavzusini tushuntirmoqchimiz: ot nimani bildirishi, qaysi so'roqlarga javob berishini misollarda ko'rsatib o'tamiz.

Endi shu darsni rasm bilan integratsiyalasak. O'quvchilar yuqoridagi savollarga javob berib, so'ng otlarni rasm daftariga chizishadi. Rasmdagi otlar bilan gaplar, ulardan esa kichik hikoya tuzish va uni qayta tahlil etish mumkin.

Ta'limda integratsiyaning xilma-xil turlari mavjud:

- ko'p predmetlilik (bunda fundamental fanlarni qiyoslash) asosida;
- chegara fanlar asosida;
- asosiy fanlar asosida.

Bunday darslarda «olam–tabiat–inson» tizimida bilimlar berilib, turli faoliyatlar asosida ko'nikma va malakalar uzviy shakllanib boradi.

Ko'rinib turibdiki, integratsion dars yuqori samara beradi. Bunda o'quvehida olam bir butunlikda namoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida mantiqiy, izchil, atrof-olam haqida to'laligicha fikrlashga o'rgatadi.

Rasm va ona tili darslarining integratsiyasi.

Mavzu. Ot.

Maqsad:

- 1) Ot haqida tushuncha berish, ular haqida tasavvurlarni kengaytirish;
- 2) nafasatni tarbiyalash;
- 3) sinchkovlik, chaqqonlik, mustaqil va teran fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Tashkiliy qism.

Dars maqsadi aytilib, tayyorgarlik ko'riladi.

Uy vazifasi tekshirilmaydi. Uning natijasi «Aqliy hujum» o'yinidan foydalanish orqali aniqlanadi.

Yangi mavzu.

1. «Aqliy hujum» o'yini.

– Atrofingizga qarang. Nimalar bor? Bolalar sanab o'tadilar, o'quvchi xattaxtaga yozib boradi.

– Yozilgan so'zlar nimalarni bildirmoqda?

– Narsalarni.

O'qituvchi narsani ko'rsatadi.

– Bu nima?

– Kitob.

2. «Juftlikda ishlash».

Biz narsaning nomini aytdik. Yozgan so'zlarimizni rasm daftariga chizing (5–6 ta). Chizilgan rasmlardan ko'rgazma tashkil etiladi. Ko'rgazmali rasmlar asosida otlar guruhlariga ajratiladi, bolalar juftlikda ishlab biri «Kim?», ikkinchisi «Nima?» so'rog'iga javob beruvchi otlarni misollar bilan keltiradi. O'qituvchi yordamida otga ta'rif beriladi, xulosa qilinadi.

3. Rasmlaringizga qarab har bir ot ishtirokida gap tuzing. Aytilgan gaplar asosida hikoya tuzing, masalan:

– Men kitob sotib oldim. Kitobda qiziqarli ertaklar juda ko'p ekan. Men ularni ukamga o'qib berdim.

O'qituvchi savol tashlaydi:

– Qanday ertaklarni bilasiz? Siz ham uka-singillaringizga ertaklar so'zlab berasizmi? Uka-singillaringiz xursand bo'lishadimi? Bolalar sanab o'tadi. So'ng biror bir ertakning qisqacha mazmunini so'zlab berish taklif etiladi.

4. Bu bosqichda dars ikki yo'nalishda ketishi mumkin:

1) ertakning qisqacha mazmuni daftarga yoziladi, muhokama qilinadi;

2) ertak rasm albomida tasvirlanadi, muhokama qilinadi, tasvirlangan rasmlar asosida galereya hosil qilinadi. «Galereya» so'ziga izoh beriladi, buyuk musavvirlarning nomlari keltiriladi.

Galereya – buyuk rassomlarning ijodini namoyon etadigan maxsus bino, joy. Kamoliddin Behzod, O'rol Tansiqboyev, Chingiz Axmarov kabi buyuk rassomlarimiz bor.

Mustahkamlash.

Ertak mazmunida (tasvirida) otlarni aniqlang. Avval «Nima?», so'ng «Kim?» so'rog'iga javob bo'luvchi otlarni ayting.

Bu bosqichda darslik bilan ish olib boriladi, mashqlar bajariladi.

Dars yakuni.

Darsda nimalar qildingiz? Nimalarni oldingiz? O'z fikrlaringizni ayting. Uygaz vazifa beriladi.

Albatta, bunday darslarni o'tish o'qituvchidan yuksak mahoratni, boshqaruvchanlikni talab etadi. Integratsion darslarda o'quvchi jimgina, tomoshabin bo'lib o'tirmaydi. U dars jarayonida faol va izchil qatnashadi. Shu jarayonlarning unumdor va samarali kechishida o'qituvchi shaxsi ahamiyati beqiyosdir.

1-sinf uchun integratsiyalangan usuldagi dars ishlanmasi (o'qish, matematika, rasm)

Darsning mavzusi. Bizning sodiq do'stlarimiz--svetofor signallari.

Darsning maqsadi. Bolalarni yo'l harakati qoidalarini haqidagi tushunchalarini kengaytirish, svetofor chiroqlari bo'yicha ko'chani kesib o'tish.

Topshiriqlar:

1. Svetofor va piyodalar. Svetofor chiroqlari piyodalar uchun nimani anglatadi.

2. Nazorat qilish. Harakatni nazorat qilayotganda ko'chadan o'tish qoidasi.

3. O'qib chiqilgan asardan olingan taassurot bo'yicha rasm chizish.

Darsning jihozlanishi. Svetofor maketi, yo'l qoidalarini harakati haqida suratlar: biri to'g'ri: biri noto'g'ri, noto'g'risini tanlash.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism. Bolalarni darsga tayyorgarligini tekshirish va ularni darsga hozirlash.

2. Uy vazifani tekshirish. Yangi mavzuga hozirlik ko'rish.

3. O'tilgan mavzuni takrorlash.

– Bugun biz siz bilan sodiq do'stlarimiz, ya'ni svetofor bilan uchrashamiz. Siz svetoforning chiroqlar rangiga qarab ko'chani kesib o'tish qonun-qoidalarini eslab qoldingizmi? Hozir sizni sinab ko'ramiz.

– Kimlarni piyoda deb ataymiz?

– Piyodalar qanday yo'l harakati qoidalarini bilishlari shart?

– Ko'chani qaysi qismidan kesib o'tish mumkin?

– Bolalar – bu she'rni eshitib va mazmunini aytib bering:

Yur yo'lchiroq bor joydan.
Kesib o'tma har joydan.
Yo'l berk bo'lsa biroz kut,
Shu o'gitga quloq tut.

4. Svetofor maketi bilan ishlash:

- Svetoforning nechta tomoni bor?
- Har bir tomonida nima tasvirlanadi?
- Nechta ranglari bor va ular qanday?

5. Kitob bilan ishlash.

6. O'quvchilarni svetofor qo'yilgan chorrahaga olib chiqish.

– Hozir piyodalar uchun svetoforning bir tomonida transport uchun qizil chiroq yonadi. Piyodalar ko'chani kesib o'tadilar. Mashinalar to'xtaydi. Endi svetoforning hamma tarafidan sariq rang yonadi. Sariq rang hozir signal almashinishidan dalolat beradi. Endi esa aksincha, yashil chiroq mashinalar uchun, qizil chiroq piyodalar uchun yonadi. Endi piyodalar to'xtaydi. Svetofor aniq ishlaydi. Hamma svetoforga bo'ysunadi, shuning uchun ko'chada intizom bo'ladi.

Bolalar, bu she'rni eshiting:

Ko'zi yonib yo'lchiroq
Chiroqlari porlaydi.
Uning yashil ko'zlari
Bizni yo'lga chorlaydi.

Yashil-yashil, yam-yashil –
Yo'ldan o'tmoqqa shoshil.
Yashil-yashil, yam-yashil –
Tezroq o'tmoqqa shoshil.

Qizil chiroq yonganda
To'xta, – deydi, bolajon,
Yurish uchun hozirlan
Qizil ko'zim o'chgan on.

Qizil, qizil, qizil rang
Bizni to'xtatdi. qarang.
Qizil, qizil, qizilrang,
Birdan to'xtaydi, qarang.

Porlagach sariq chiroq,
Sariq ko'zga aylanib

Turgin, – deydi, – bolakay,
Yurish uchun shaylanib.

Sariq, sariq, sariq ko‘z,
«Tayyor turgin», degan so‘z.
Sariq, sap-sariq chiroq
Tayyor tur, – deydi, – o‘rtoq.

7. Yo‘l nazoratchisi bilan tanishish.

Ba‘zan yo‘l harakatini DAN xodimi – militsioner boshqaradi. Uni yo‘l nazoratchisi deb atashadi. O‘zining tayyoqchasi (jezl) bilan yo‘l harakatini boshqaradi. Nazoratchining harakati piyodalar va haydovchilarga yaxshi ko‘rinishi uchun kechqurun qo‘lidagi tayyoqchasi yonadi. Nazoratchi sizga yuzi yoki orqasi bilan tursa svetoforming qizil chirog‘i yonganday bo‘ladi. Bunday ko‘chani kesib o‘tish mumkin emas. Agar nazoratchi sizga yonboshi bilan tursa, yashil chiroq yonadi, qo‘rqmasdan o‘tavering. Agar nazoratchi yoni bilan tursa, tayyoqchasini to‘g‘riga qilsa mashinaning yo‘li ochiq. Nazoratchi tayyoqchasini tushirmaguncha yo‘ldan o‘tish man etiladi.

8. Didaktik o‘yin. O‘quvchilar qo‘lida doira shaklida svetoforming uch chiroqlari, o‘qituvchi she‘rini o‘qiydi va unga tomon rangni ko‘rsatadilar.

Ko‘zi yonib yo‘lchiroq
Chiroqlari porlaydi.
Uning qaysi ko‘zlari
Bizni yo‘lga chorlaydi. (*yashil*)

Qaysi chiroq yonganda
– To‘xta, – deydi, – bolajon. (*qizil*)
Birdan to‘xtaydi, qarang,
Porlagach qaysi chiroq.
– Turgin, – deydi, – bolakay,
Yurish uchun shaylanib. (*sariq*)

K. Turdiyeva she‘ri

9. Mustahkamlash. O‘qituvchi yana bir bor yo‘ldan o‘tayotganda e‘tiborli bo‘lishni, e‘tiborsiz yo‘ldan o‘tish yomon oqibatlariga olib kelishi haqida uqtirib o‘tadi.

10. «Kesib o‘tma har joydan,

Yur yo‘lchiroq bor joydan» matnini o‘qib berish.

– Endi, bolalar, esingizda nima qolgan bo‘lsa chizib bering.

11. Tekshirish ishlari.

12. Darsni yakunlash. Demak, yo‘ldan o‘tayotganda svetofor chiroqlariga ahamiyat bergan holda o‘tish, yashil chiroqni kutish, chap va o‘ng tomonga qarash, keyingina o‘tish kerak. – Qani, kim aytadi? Yo‘lning qatnov qismida nima qilish mumkin emas?

13. Baholash va muhokama qilish.

14. Uyga vazifa. Kundalik kuzatish. Daftarga belgilab kelish.

3-sinfda integratsiyalashgan dars (matematika, tabiatshunoslik)

Darsning mavzusi. Harakatga doir masala.

O‘qituvchi: – Keling, ko‘pxadli sonlarni eslaylik. Daftaringizga quyidagi sonlarni yozing: 40204506, 326925, 150000000, 32482. Sonlarni ortib borish tartibida o‘qing. Eng katta sonni ayting. Bunday katta son nimani bildirishi mumkin (bolalar o‘z taxminlarini aytadilar).

O‘qituvchi: – Bu son yerdan quyoshgacha bo‘lgan masofani bildiradi. Bu juda katta kilometrlar soni, uni tasavvur qilish qiyin. Agar biz quyoshga aravada boradigan bo‘lsak, bizga 500 yil kerak bo‘lar edi. Bu necha asrga teng?

Bolalar: – 5 asrga.

O‘qituvchi: – Odamlar avtomobilni ixtiro qildilar. Endi bu yo‘lni bosib o‘tish uchun 5 marta kam vaqt kerak bo‘ladi. Bu qancha?

Bolalar: – 100 yil.

O‘qituvchi: – Samolyotda esa 10 yil uchish kerak. Bu necha oy?

Bolalar: – 120 oy.

O‘qituvchi: – Raketa esa bu yo‘lni 1 yilda bosib o‘tadi. Agar yilni kun hisobida o‘lchasak, bu necha kun?

Bolalar: – 366 kun.

O‘qituvchi: – Quyosh nuri bu masofani 8 minutda bosib o‘tadi. Agar birinchi quyosh qizchani ertalab soat 7⁰⁰da uyg‘otib yuborgan bo‘lsa, quyosh soat nechada chiqqanligini hisoblang.

Bolalar: – Soat 6 yu 52 minutda.

O‘qituvchi: – Quyoshgacha uchib borish mumkinmi?

Bolalar: – Yo‘q, chunki bu juda ham uzoq, amalda mumkin ham emas. Negaki, quyoshning harorati juda yuqori.

O‘qituvchi: – Quyosh – planetami?

Bolalar: – Yo‘q. Bu sayyora.

O‘qituvchi: – Yerga hammadan qaysi sayyora yaqin? Sayyoralaridagi hayot sharoitlarini taqqoslasak, qaysi sayyoradagi hayot sharoiti Yerdagi hayot sharoitlariga yaqinroq bo‘ladi.

O‘qituvchi: – Yerga eng yaqin bo‘lgan – Mars va Venera.

Ogʻzaki ish. Yer yaqinidagi orbitaga chiqish uchun bizning kemamiz kosmik tezlikda harakat qilishi kerak. U 8km/s ga teng. Hisoblab koʻring-chi, bu bir daqiqadan keyin bizning kemamiz Yerdan qanday masofada uzoqda boʻladi?

Bolalar: – $60 \cdot 8=480$ km.

Oʻqituvchi: – Biz hayot sharoitlari boʻyicha Mars yerdagi hayot sharoitlariga yaqinligi haqida gapirgan edik. Kemamiz Marsga yetishi uchun kema ikkinchi tezlikda harakat qilishi lozim. Ikkinchi kosmik tezlik birinчисiga qaraganda 3 km/s ga koʻp. Raketa 3 minut ichida qanday masofani bosib oʻtadi?

Bolalar: – 3min. 180 sek., demak, masofa 1980 km.ga teng.

Oʻqituvchi: – Biz Yerdan Marsgacha boʻlgan masofaning qanchaligini, kema qanday tezlik bilan harakat qilishini bilamiz. Marsga yetib borish uchun qancha vaqt talab etilishini uyda mustaqil ravishda hisoblab chiqishga urinib koʻring.

Savol va topshiriqlar

1. Umumiy pedagogika tizimining umumiy innovatsiya, oʻquv-tarbiya jarayonini muvofiqlashtirishdagi imkoniyatlarini ochib bering.
2. Muvofiqlashtirish oʻquv-tarbiya jarayonining qonuniyatlari, tabiiy uslublari tizimini ochib bering.
3. Umumtaʼlim maktablarida integratsiyaning mavjudligini yoriting.
4. Integratsiya – taʼlim jarayonini qulaylashtirishning muhim prinsiplari nimalardan iborat.
5. Integratsiyaning turlari va maqsadini ochib bering.
6. Pedagogika, umumiy pedagogika, bolalar psixologiyasi, pedagogika va ijtimoiy psixologiyaning oʻzaro aloqalarini izohlang.
7. Umumiy psixologiya va bolalar psixologiyasining farqli jihatlarini yoriting.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.A.Karimov. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., O‘zbekiston.1999-y.
2. Л. Н.Алексеева. Инновационные технологии как ресурс эксперимента/ Л. Н. Алексеева// Учитель. – 2004. – № 3. – с. 28.
3. С.М.Вохмянина. По системе Марии Монтессори/ С. Н. Вохмянина// Педагогический вестник. – 2002. – № 8 (299). – с.7.
4. Т.Х.Дебердеева. Новые ценности образования в условиях информационного общества/ Т. Х. Дебердеева// Инновации в образовании. – 2005. – № 3. – с. 5.
5. В.И.Загвязинский. Инновационные процессы в образовании и педагогическая наука/ В.И.Загвязинский// Инновационные процессы в образовании: Сборник научных трудов. – Тюмен, 1990. – с. 8.
6. К.К.Кротова. Эксперимент в школе: за и против/ К. К. Кротова// Народное образование. – 2004. – № 2. – с. 136.
7. С.М.Курганский. Положение о научно-экспериментальной деятельности педагогических работников школы/ С. М.Курганский// Завуч.-2006.- № 4.- с. 87.
8. В.С.Лазарев. Понятие педагогической и инновационной системы школы/ В.С.Лазарев// Сельская школа. – 2003. – № 1. – с.4.
9. Т.И.Лаздина. Технологии мотивационного управления инновационной деятельностью учителей/ Т. И. Лаздина// Начальная школа плюс До и После. – 2006. – № 2. – с.19.
10. М.И.Лукиянова. Нетрадиционные методы, обеспечивающие создание на уроке лично-ориентированной ситуации/ М.И.Лукиянова// Завуч. – 2006. -№ 2. – с. 35.
11. С.С.Назимов. Педагогические инновации в национально-региональном компоненте содержания образования/ С.С.Назимов// Учитель.-2005.-№ 6.-с. 74.
12. А.М.Новиков. Организация опытно-экспериментальной работы на базе образовательного учреждения/ А.М.Новиков// Дополнительное образование. – 2002. – № 4. – с.53.
13. Под ред. М.М.Поташника. Развитие школы как инновационный процесс: Методическое пособие для руководителей образовательных учреждений/ Под ред. М.М.Поташника. – М.: Новая школа. – 1994. – с. 64.
14. Н.Б.Пугачёва. Источники инноваций общеобразовательного учреждения/ Н.Б.Пугачёва// Завуч. – 2005. – № 3. – с.29.
15. R.A.Mavlonova, N.X.Raxmankulova. «Boshlang‘ich ta‘limda innovatsiya». T., TDPU 2007-y.
16. В.А.Слаценин. Педагогика / В.А.Слаценин. –М.: Школа-Пресс, 2000.

17. Ю.С.Тюнников. Анализ инновационной деятельности общеобразовательного учреждения: сценарий, подход/ Ю.С.Тюнников// Стандарты и мониторинг в образовании. – 2004. – № 5. – с.8.

18. К.Я.Хабибуллин. Методы эффективного управления/ К.Я.Хабибуллин// Образование в современной школе. – 2005. – № 7. – с.3.

19. А.В.Хуторской. Личностная ориентация образования как педагогическая инновация/ А.В.Хуторской// Школьные технологии. – 2006. – № 1. – с. 3.

20. О.Г.Хомерики. Инновация в практики обучения. Педагогика. – 1993. №2.

21. О.Г.Хомерики, М.М.Поташкин, С.Л.Лоренсов. Развитие школы как инновационной процесс. –М., 1994.

22. Х.Х.Тилашев. Общие педагогические и дидактические идеи ученых-энциклопедистов Ближнее и Среднего Востока эпохи средневековья.

23. Антология педагогической мысли узбекской педагогики. М., с.143. 1959 г.

24. Б.А.Ахмедов. Среднеазиатские последователи Беруни (конец XVI-первая половина XVII века). //Беруни к 1000 лети.//. 1986 г.

MUNDARIJA

KIRISH	3
---------------------	---

I QISM

I BOB. UMUMIY PEDAGOGIKA	5
Pedagogika fanining predmeti va bahsi.....	5
Tarbiyaning ijtimoiy hodisa ekanligi.....	5
Pedagogika – tarbiya haqidagi fan.....	6
Asosiy pedagogik tushunchalar.....	7
Pedagogika fanining tuzilishi va uning boshqa fanlar bilan bogʻliqligi.....	8
Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodi.....	9
Ilgʻ ortajribalarni oʻrganish metodi.....	10
Pedagogik kategoriyalar.....	11

II BOB. OʻQITUVCHI VA UNING JAMIYATDA TUTGAN OʻRNI	12
Zamonaviy maktab oʻqituvchisining vazifalari.....	12
Oʻqituvchi shaxsiga qoʻyiladigan kasbiy talablar.....	14

III BOB. DIDAKTIKA	19
Didaktikaning predmeti va uning vazifalari.....	19
Didaktikaning asosiy kategoriyalari.....	23
Oʻqitish jarayoni. Oʻqitish jarayonining mohiyati.....	28
Hozirgi oʻqitish jarayoniga qoʻyiladigan talablar.....	32
Oʻqitish jarayoniga noanʻanaviy yondashish.....	36
Oʻquvchi bilimni tekshirish va baholash.....	39

IV BOB. TAʼLIM PRINSIPLARI	43
Prinsiplarni tanlashga umumiy yondashish.....	44
Oʻqitishning yetakchi prinsiplari.....	45
Ilmiylik, tizimlilik va izchillik prinsipi.....	45
Taʼlimning amaliy hayot bilan bogʻlanish prinsipi.....	47
Taʼlimda ongillik va faollik prinsipi.....	49
Koʻrsatmalilik prinsipi.....	51
Tushunarlilik prinsipi.....	54
Mustahkamlik prinsipi.....	58
Taʼlimni turmush bilan bogʻlash prinsipi.....	61
Oʻqitishda individual yondashish prinsipi.....	61

V BOB. OʻQUV JARAYONINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI	63
Taʼlimda sinf-dars tizimining vujudga kelishi.....	64
Maktabda oʻquv ishlarini tashkil qilishning asosiy shakli.....	66

Darsga qo'yiladigan talablar.....	67
O'quv ishlarini tashkil etishning umumiy shakli.....	68
Ta'limni tashkil etishning guruhiiy shakli.....	69
Dars tizimi strukturasi elementlari va tiplari.....	70
Darslarning tiplari.....	73
O'qituvchining o'z darsini tahlil qilishi.....	78
Darsning umumiy bahosi (baholash).....	79

VI BOB. O'QITISH METODLARI.....	80
O'qitish metodlarining tasnifi.....	84
O'qitishning og'zaki metodlari.....	87
Yangi material ustida ishlash.....	87
O'tilgan material ustida ishlash va yangi materialni o'rganishga tayyorlanish.....	89
O'qitishning induktiv va deduktiv metodlari.....	92
Reproduktiv ta'limdan amaliy ta'limga o'tish.....	93
O'qitishning amaliy metodlari.....	95

II QISM

INNOVATSIYA

VII BOB. INNOVATSION PEDAGOGIKA.....	97
Ta'lim jarayonida innovatsion dunyoqarashni rivojlantirish.....	101
Innovatsion ta'limda mualliflik maktablarning rivojlanishi.....	104
Innovatsion pedagogika tushunchasi.....	113
Yangiliklar kiritish mazmuni va yo'nalishlari.....	115
Refleksiv-innovatsion texnologiyalar.....	119
An'anaviy va innovatsion ta'limning qiyosiy tahlili.....	124

VIII BOB. TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK TIZIM.....	128
Tarbiya tizimida innovatsiyalar.....	132
Tarbiya tizimida ijtimoiylashtirish.....	141
O'qituvchi pedagogik faoliyatidagi psixologik to'xislar.....	148

IX BOB. KREATIVLIK.....	156
Kreativlik muammosiga zamonaviy yondashish.....	156
Kreativlik va uning tashxislanishi.....	162
Kreativ dars tuzilishining texnologiyalari.....	167
Kreativ dars yo'nalishlarining mazmuni va psixologik asosi.....	170
O'qituvchining innovatsion faoliyatida ijodiy imkoniyatni rivojlantirish muammolari.....	176
Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.....	182
Talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish.....	186
Bilimlarning shakllanishida fikrlashning roli.....	187
Ijod ta'rifi va uning bilish jarayonidagi roli.....	189
Ijodiy fikrlashning psixologik-pedagogik jabhalari.....	191
Tafakkur olamida ijodiy fikrlashning o'rni.....	195
Ijodiy fikrlashni rivojlantirish prinsiplari.....	197
Boshlang'ich sinflarda ijodiy tasavvurni rivojlantirish imkoniyatlari.....	198

III QISM

INTEGRATSIYA

X BOB. PEDAGOGIKADA AN'ANAVIY INTEGRATSIYANING TALQIN QILINISHIK.....	203
Integrativ-pedagogik faoliyatning elementlari.....	205
Integrativ faoliyatning pedagogik tuzilmasi.....	206
Ta'lim jarayonini integratsiyalashning nazariy asoslari.....	208
Integratsiyaning hozirgi zamon muammolari.....	212
Boshlang'ich maktabni integratsiya qilish.....	217
Integratsiya – fanni o'qitishda ta'lim falsafasi.....	222
Integratsiyalangan darslarning samaradorligini oshirish omillari.....	225
XI BOB. PEDAGOGIKA TIZIMINI MUVOFIQLASHTIRISH.....	230
Umumta'lim maktablarida integratsiyaning mavjudligi.....	236
Psixologiya va ta'lim samarasi.....	238
Integratsiya – ta'lim jarayonini qulaylashtirishning muhim prinsipi.....	241
Bo'lajak o'qituvchilarning psixologik-pedagogik bilimlarini integratsiyalash jarayoni.....	246
«Pedagogika» va «umumiy psixologiya» fanlarini integrallash.....	250
Boshlang'ich sinfda integratsiyalashgan ta'limdan foydalanish.....	255
Integratsiyalashgan dars ishlanmalaridan namunalar.....	258
Adabiyotlar ro'yxati.....	266

Rahima Mavlonova
Nargiz Raxmankulova

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PEDAGOGIKA,
INNOVATSIYA, INTEGRATSIYA**

O'quv qo'llanma

Muharrirlar: *K. Matnazarova, M. Yo'ldosheva*
Badiiy muharrir *Sh. Mirfayozov*
Texnik muharrir *T. Smirnova*
Sahifalovchi *A. Sulaymonov*

Nashriyot litsenziya raqami AI № 154. 14.08.2009.
2013-yil 4-martda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x90 1/16.
Times garniturası. Ofset bosma. 17,0 shartli bosma taboq.
18,10 nashr tabog'i. Adadi 300 nusxa. 116 raqamli buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
bosmaxonasida chop etildi.
100128. Toshkent. Shayxontohur ko'chasi, 86.

Telefonlar: (371) 241-25-24, 241-48-62, 241-83-29
Faks: (371) 241-82-69

www.gglit.uz
e-mail: iptdgulom@sarkor.uz, info@gglit.uz